Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak” nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar,ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: “Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: “Markaz - viloyat - tuman” tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi”,- degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo'lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o'rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qonunlarni yaratishlari shart va zarur.

Bekorga “Markaz-viloyat-tuman” tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday siyosatda bo'ladigan o'zgarish va qo'shimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlargacha yetib borishi xalq xabardor bo'lishi va o'z fikr -mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yartish kerakligini aytib o'tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo'naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan

aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda: jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish uchun qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, deya ta'kidlab o'tilgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulnora Inomjonova. “Nikoh shartnomasi-oila mustahkamligining huquqiy kafolati “ ilmiy-amaliy qo'llanma, -T.: Intellekt Ekspert, 2015, 10-b
2. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi“ Ozbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b
3. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematika mashg'ulotlarini tashkil etish usullari

Akramova Dilshoda Nurmuhammedovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

3- sonli DMTT uslubchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473415>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha talimda matematika mashg'ulotlarini tashkil etish usullari haqida soz yuritilgan. Bolalarda matematik tushunchalardan oldin mavjud bo'lgan g'oyalar tushintirilishi, mashg'ulotlardan tashqari vaktlarda o'yinlar tashkil qilib, bolalarning matematik tasavvurlari mustaxkamlanishi, chuqurlashtirilishi, va kengaytirilishi aytiladi. Matematik tasavvurlarni rivojlantirishda anketa, savol-javob, suhbat, umumlashtirish, kuzatish metodlar sanab o'tiladi.

Kalit sozlar: maktabgacha talim, elementar matematika, bolalar ozlashtirishi, bogcha, bilim, tasavvur.

Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalari kabi yo'nalishlarda xususiylashadi. Ta'limda uzviylik va integratsiyalashuv bilan birgalikda o'qitish metodlari va vositalarini ham yangilash va qayta ko'rib chiqish lozim. Jamiyatimizda ro'y berayotgan turli xil o'zgarishlar o'qituvchilar oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda. Bu vazifalar har tomonlama

rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, aqlli va nozik didli yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo'lib, hozirgi zamon o'qituvchisidan tinmay ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishga yangicha munosabatni, fidoiyligni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inidir. Avvallari bu tizim xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilayotgan otaonalarining ijtimoiy faoliyati uchun shartsharoit yaratishgagina xizmat qilgan bo'lsa, endilikda bolalar bog'chalari ish mazmuniga qo'yilgan talablar xam o'zgartirildi. Asosiy vazifalardan biri kichkintoylarni maktab bosqichida o'qishga tayyorlashdir. Bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda maktablar o'quv dasturlariga yaqinlashtirilgan 12 yo'nalishli yangi dasturlar ishlab chiqilgani, sinovdan o'tkazilib, joriy etishga kirishildi. Bog'chalarda bu dasturlarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Jumladan, maktab oldiga yangi maqsadlarning qo'yilishi bilan bog'chada matematika ta'lim berish mazmunining tubdan o'zgarishga olib keldi. Bog'cha bolalariga matematikadan samarali ta'lim berish bulajak tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematika tasavvurlarni shakllantirish» kursini o'qish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i zarur. Yosh avlodii o'z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoiyligi ruhida kelajak taqdiri uchun mas'ullikni his eta oladigan, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab avaylash ruhida tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo'lmas vazifa ekan, bunda barcha ta'lim tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi xodimlardan katta katta ishlarni bajarishni talab etadi. Maktabgacha tarbiya mutaxassislarini tayyorlash tizimida «Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi»

kursi muhim o‘rin tutadi. So‘ngi yillarda mamlakatimizda bolalar bog‘chasida matematika o‘qitish butun tizimida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgartirishlar amalga oshirishdi. Maktab oldiga yangi maqsadlarning qo‘yilishi bilan bog‘chada matematik ta’lim berish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Bog‘cha bolalariga matematikadan samarali ta’lim berish bo‘lajak tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish» kursini o‘qish metodikasini egallab, chuqur o‘zlashtirib olmog‘i lozim.

Bolalar bog‘chasida matematik ta’lim berish metodikaning predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o‘qitishda ko‘zda tutilgan maqsadlarni asoslash. Nima uchun matematika o‘qitiladi, o‘rgatiladi?). Bog‘chada matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish. (nimani o‘rgatish?). Bolalarga bilimlar qanday berilganda, bu bilimlar fan, texnika va madaniyatning hozirgi zamon rivojlanishi talablariga mos keladigan bo‘ladi.
2. Matematika fani oldida turgan maqsadlar: umumiy ta’lim, amaliy va tarbiyaviy maqsadlaridan iboratdir.

Umumiy ta’lim maqsadlari: Bolalarga real olamdagi yuz beradigan eng sodda xodisalardagi miqdoriy nisbatlarni tushunishga va olamdagi fazoviy shakllarni (joylashishlarini); natural son, geometrik shakl, miqdor va boshqa tushunchalar abstrakt ammo ular real borliqdagi predmetlarga xos bo‘lgan bog‘lanish va munosabatlarni aks ettiradigan hajmda bilimlar berish. Bu bilimlar fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishga mantiqiy fikrlay bilishga yordam berishi kerak.

Matematikani o'rgatish bolalarda o'z ona tilida xatosiz so'zlashga, o'z fikrini aniq va ravon qilib bayon eta bilishga o'rgatishda yordam berishi kerak. Matematikani bayon etishda sergaplikka yo'l qo'yish mumkin emas, bunda har bir so'zni o'z o'rnida ishlata bilish ayniqsa muhimdir. Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba'zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, "teng", "katta", "kichik", "butun va bo'lak" kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, o'lchov kattaliklari bilan son o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko'z bilan hamda ichida sanashga o'rgatib boriladi. Ularning ko'z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobilyati rivojlanadi. Bu yoshda aqliy qobilyatni, mustaqil fikr yuritishni, analiz, sintez, taqqoslash kabi jihatlarini, muhokama qilish, xulosa chiqarish qobilyatini, fazoviy tasavvurni rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tayyorlov guruhining elementar matematik tasavvurini rivojlantirish bo'yicha dasturi bolalarning oldingi guruhlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, bir tizimga keltirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Maktabga tayyorlov guruhida matematika bo'yicha haftasiga 2 ta mashg'ulot, yil davomida 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotlarning davom etish muddati: birinchisi – 30 daqiqa, ikkinchisi – 20-25 daqiqa. Har bir mashg'ulot tuzilishi uning mazmuni bilan aniqlanadi. U yangi materialni o'rganish, o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash, bolalarning egallagan bilimlarini tekshirishga xizmat qiladi. Yangi mavzu bo'yicha birinchi mashg'ulot butunlay yangi matn ustida ishlashga doir bo'lishi kerak. Yangi matn bilan tanish bolalarning ishlash qobilyati yaxshiroq

vaqtda, ya'ni mashg'ulot boshlanishining 3-5 daqiqasidan boshlab 15-18 daqiqasida yakunlanadi. O'tilgan materialni takrorlash uchun mashg'ulot boshlanishidan 3-4 daqiqa va mashg'ulot oxirida 4-8 daqiqa ajratiladi. Yangi murakkab matematik tushunchalarni o'zlashtirish bolalarni toliqtiradi. Shuning uchun iloji bo'lganda yangi materialni o'tish davomida o'tilganlarni takrorlash foydalidir. Chunki yangi bilimlarni ilgari o'zlashtirilgan bilimlar bilan bir tizimga kiritish juda muhim. Ikkinchi va uchinchi mashg'ulotlarda o'rganilayotgan mavzuga taxminan 50% vaqt ajratiladi. Mashg'ulotning ikkinchi qismida esa bevosita oldin o'tilgan material takrorlanadi. Uchinchi qismida bolalar o'rganib qolgan material takrorlanadi. Tayyorlov guruhida o'tkaziladigan matematik mashg'ulotda didaktik ko'rsatma materiallaridan keng foydalanilishi xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko'rgazma tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar ham namuna sifatida qaralishi mumkin. Pedagog – tarbiyachi ularga o'zida bo'lgan ko'rsatma-qo'llanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin.

Ko'pchilik hollarda tavsiya etilayotgan og'zaki mashqlar materialini pedagog-tarbiyachi turli usullarda berishi, ba'zan esa guruhning tayyorgarligiga qarab almashtirishi mumkin. Pedagog-tarbiyachi tavsiya etilayotgan didaktik o'yinlarga ham ijodiy yaqinlashishi kerak, bunda o'yinlarni o'tkazishda foydalaniladigan qo'llamalarni imkoni boricha hisobga olib, o'zi topgan o'yinlarni sinash maqsadida mashg'ulotlarda o'yinlar tashkil qilishi mumkin. Mashg'ulotlarda didaktik o'yinlar va ko'rgazmali materiallardan keng foydalaniladi. Bolalar mashg'ulotlarga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim:

Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtirib olish.

Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlash.

Bolalar faoliyatini o'zgarib turishga , qiziqishga e'tibor qilish.

Mashg'ulot o'rtasida harakatli o'yinlar o'tkazishni rejalashtirish.

Mashg'ulot davomida bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlariga erishish.

Bolalarning xilma-xil javoblarini rag'batlantirish.

Dastur materialini mashg'ulotlarga taqsimlashda bolalarning bilim va ko'nikmalariga, ularning tayyorgarligiga e'tibor berish lozim. Maxsus atamalarni to'g'ri qo'llay bilish katta ahamiyatga ega. Masalan, son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak. (Qaysi son katta, qaysinisi kichik deb so'raladi, qaysi raqam katta deyish mumkin emas). Mashg'ulotda hamma bolalarning faol ishtirok etishlariga erishish maqsadida har bir bolaning oldida tarqatma materiallar bo'lishi tavsiya etiladi. Agar o'rtog'ining javobi to'g'ri bo'lsa qizil kartochka, o'rtog'ining javobi uni qoniqtirmasa, ko'k kartochka ko'tarilishi lozim. Bunda hamma bolalar o'rtoqlarining javoblarini diqqat bilan eshitishga harakat qiladilar, intizom buzilmaydi, shu bilan birga, bolalarning test sinovlariga tayyorgarliklari ham hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. Bikbayeva N. U. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". Toshkent, "O'qituvchi", 1996 yil 6. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G'.
3. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent, 2005 yil 7.

Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. "Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi" Toshkent, "TDPU" 2005 yil 8.

Jumayev M.E.

4. Bolalarda matematik tushunchlarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (KHK uchun) Toshkent, "Ilmg' Ziyos" 2005 yil 9. Jumayev M.E.

**ANALYSIS OF THE STATE OF RESEARCH IN THE FIELD OF
RECOGNITION OF X-RAY AND CT IMAGES USING DEEP MACHINE
LEARNING METHODS**

Egamberdiyev Dilshodjon Davronjon ugli

Kholmirezayev Javokhirbek

Aytbekov Jamilbek

Tashkent University of Information Technologies

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6478254>

Abstract: The article describes the terminology of the problem of recognition of X-ray and CT images using deep machine learning methods, the relevance of the problem is investigated, and the analysis of the current state of the problem in the field of recognition of X-ray and CT images is carried out. Aspects of the problem being solved, identified during the analysis, are noted in the form of problems to be solved, approaches, models and methods, information technologies used, tools and software solutions to the problem.

Keywords: machine learning; neural networks; pattern recognition; processing of medical images; artificial intelligence.

Introduction

Today, respiratory diseases are one of the main causes of death in the population [1] and the early diagnosis of lung diseases has been and remains very significant. In this regard, there is a need for regular monitoring of the state of the lungs to prevent or detect a disease before it causes significant harm to human health.

Radiography, being the most common and accessible means of examination, is of great clinical importance in making a diagnosis. But despite all the advantages of

this method, the identification of signs of the disease from images is a rather difficult task that requires the participation of highly qualified specialists, as well as significant time costs. The complexity is caused by the incompleteness and inaccuracy of the initial information, namely the presence of various types of distortions in the images: an overexposed image, the presence of foreign objects, etc.

The use of neural networks for the classification of radiographic images of patients with pneumonia and COVID -19, as well as a description of the classifier developed on the basis of the simplest neural network, without using ready-made models from other developers and without preliminary training on third-party data, based on only a small set of images, is presented in the paper. [1]. Also, artificial intelligence based on neural networks of various types is used to analyze digital diagnostic images in the field of radiology and radiology. [1].

In order to classify pathological formations in intelligent systems for automated processing of chest x-rays, Tomakova R.A. et al. [2] used the method of multiwindow spectral transformation.

An analysis of research in the field of recognition of X-ray and CT images using deep machine learning methods made it possible to identify the main aspects of the current state of the problems that arise when recognizing medical images using machine learning methods, in particular:

- classes of tasks to be solved: recognition of visual signs of respiratory diseases in medical images; processing and analysis of CT images and chest radiography;

automatic classification of radiograph images; image preprocessing to improve the quality of object recognition in medical images, etc.;

- models and methods used to solve: an algorithm for detecting a decrease in lung transparency; lung extraction algorithm based on convolutional neural networks, node/foci detection algorithm based on 3D convolutional networks; cross-validation and lattice search method; method of analysis of Fourier amplitude spectra in a sliding window, approximation of brightness histograms in the analysis window; lung extraction algorithm based on convolutional neural networks, node/foci detection algorithm based on 3D convolutional networks; watershed algorithm; method for obtaining a vector of input features of an artificial neural network; false positive reduction method based on wavelet transforms; boundary gradient method; binarization methods, namely Niblack, Bernsen, Otsu. Zach; Sobel method).

Conclusion

In the course of the analysis of the current state of research in the field of recognition of X-ray and CT images using deep machine learning methods, it was revealed that the recognition of pathological processes is currently one of the most important tasks in the processing and analysis of medical images. Accurate diagnosis of pathologies in the early stages of their occurrence is complicated by the problem of a shortage of qualified specialists, as well as a high probability of medical error. Traditional methods of studying pathologies, together with medical

decision support systems that use machine learning methods, can solve a number of these problems.

Reference

Goppini G. et al. Neural networks for computer-aided diagnosis: detection of lung nodules in chest radiograms //IEEE Transactions on Information Technology in Biomedicine. – 2003. – T. 7. – №. 4. – P. 344-357 URL: <https://ieeexplore.ieee.org/document/1263906>

Keserci B., Yoshida H. Computerized detection of pulmonary nodules in chest radiographs based on morphological features and wavelet snake model

APPLICATION OF INDUCTION HEATING IN PROCESSES OF GOLD DESORPTION FROM ACTIVE COAL

Vokhidov Bakhriddin Rakhmidinovich, PhD, associate professor,

Murtozayeva Mohinabonu, student

Utkirova Shakhzoda, student

Navoiy state mining institute, department of "Metallurgy".

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6468213>

Annotation: currently, autoclave desorption of gold from active carbons is widely used. This technology makes it possible to speed up the process of extracting gold from the sorbent (coal) by more than 10 times compared to the existing technology. In this case, it is possible to achieve energy costs. The technology has been tested and successfully applied at many enterprises in the gold mining industry.

Keywords: coal, autoclave, desorption, ore, elution, collector, electrodes, coolant.

In the sorption technology of extracting gold and silver, a method is known for desorption of cyanide complexes of noble metals from activated carbons by autoclave treatment with cyanide-alkaline solutions at a temperature of 120-140°C. The disadvantage of the known desorption method is the low rate of silver extraction from activated carbons. The closest in technical essence is the method of desorption of the silver cyanide complex from activated carbons, including autoclave treatment with an alkaline solution at a temperature above 1500°C.

The use of autoclave desorption together with heap leaching made it possible to significantly increase the extraction of gold, since it became possible to extract gold from ore, which, under the "factory" technology, was considered off-balance and was taken to the dump. Currently, the most advanced mixed ore processing

technology is used - rich ore is processed at the factory, and gold is extracted from poor ores by heap leaching.

Autoclave desorption of gold, silver and impurities from activated carbon with NaOH solution. Desorption is carried out in an autoclave designed by the Irkutsk Polytechnic Institute at a temperature of 170-175°C and a pressure of 0.6-0.8 MPa. The concentration of the elution solution NaOH 5g/l. The amount of eluent solution is 10 volumes per 1 volume of coal, of which 3 volumes per 1 volume of rich eluate sent for electrolytic deposition of gold and silver, and 7 volumes per 1 volume of poor eluate supplied for sorption with saturated carbon. The amount of solution when cleaning coal from impurities by relieving pressure in the autoclave - 10 volumes per 1 volume of coal.

Desorption of gold and silver is carried out on a semi-industrial autoclave plant manufactured by Irgiredmet. The installation includes an autoclave, a refrigerator, a pump for supplying eluent to the autoclave, and an instrumentation panel.

The basis of the principle of operation and design of the semi-industrial sample of the autoclave is the design and principle of operation of the well-proven laboratory autoclave. The only structural difference was that the semi-industrial sample had not one, but three columns connected in series, located radially relative to the upper cover of the autoclave body 1. Replaceable containers 2 with saturated carbon were placed in columns 3, which were steel cylinders (96 mm in diameter and 330 mm high) bounded at the top and bottom by drainage grids (mesh size 0.5 mm) for the flow of the eluent solution. The ratio of the total height of the containers to the diameter was 10:1. The amount of coal loaded into three containers is 6.4 liters. Autoclave capacity (nominal) for solution 80 l.

The design of the autoclave makes it possible to turn on any of the columns autonomously, which made it possible to work not only at different capacities, but also to evaluate the effect of the height of the coal layer on the desorption indices when testing various process modes.




Figure 1. Drawing of a desorption autoclave.

Autoclave for desorption of precious metals from coals:

1 - body, 2 - container for coal (3 pcs.), 3 - column (3 pcs.), 4 - column cover, 5-8 - valves, 9 - body cover, 10 - heaters, 11 - pressure gauge, 12 - thermometer, 13 - heat-insulating casing, 14 - drain pipe.

To quickly replace containers with regenerated coal with saturated one, the columns were equipped with quick-release covers 4. Loading and unloading of coal from the autoclave was carried out without removing the working pressure in the apparatus body and disturbing the temperature regime of the process.

For this, the valve 5 for supplying the eluent to the columns with coal was closed. The eluent flow valves 6 were closed and the pressure relief valves 8 in the columns were opened. The solution from the columns was discharged into a bypass collector and then sent into circulation. By adjusting valves 8 the rate of pressure release in the columns with coal, the coal pores were cleaned from sludge and formed gels.

The main disadvantages of autoclave heating associated with operation are: high requirements for the quality of the coolant, short service life of the electrodes, significant costs for replacing the electrodes and shutting down the boiler for maintenance and repair, the difficulty of transferring significant heat power by means of electrode heating (in battery boilers of small volumes of 1-3 cubic meters), the presence of significant heat losses due to the bulkiness of the device, low efficiency.

One of the most well-known alternative methods of electric heating is induction. The principle of operation of the device with an induction heater is closest to the transformer. In induction heaters that operate at industrial frequency currents, it is not the coolant itself that is directly heated, but the metal body, and the medium is already heated from it, thus, the need to impose strict requirements on the heated substance is exhausted.

In such a system there are no elements subject to wear, and the service life of the installation is determined practically only by the service life of the electromagnetic coil. All this, according to manufacturers, makes such installations extremely reliable and durable. Also in such boilers the appearance of scale is practically excluded.

A number of manufacturers have already mastered the production of induction boilers of various capacities, widely used in heat supply systems for residential and industrial buildings, as well as technological heating (indirect) with an intermediate liquid heat carrier (from 100 to 115°C). These are Edison and Neptune type boilers with declared power from 4.7 to 500 kW.

In relation to the desorption of gold, the autoclave is replaced by 3 induction heaters connected in series. Several options for maintaining the temperature are possible: all heaters work simultaneously, evenly distributing the load, and when two or one heater is turned on at a constant power, while the other two provide smooth temperature maintenance.

CONCLUSION

The application of induction heating to gold desorption processes leads to a decrease in the requirements for the quality of the heated medium, and a decrease in operating costs. Also, induction heaters have a higher specific power compared to electrode boilers, and gives a certain power reserve, which helps to maintain the temperature at a constant required level, which, in turn, leads to an increase in gold recovery.

The induction heating method of desorting gold is an efficient and more acceptable method of obtaining from activated carbons, which requires a more economic production of pure gold without unnecessary emissions to tailings.

REFERENCES:

1. Yusupxodjayev A.A., Hojiyev Sh.T., Ochildiyev Q.T. Gidrometallurgiya jarayonlari nazariyasi. Amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent: ToshDTU, 2020.
2. <http://ilmiy.bmti.uz> › filesPDF..Metallurgiya nazariyasi asoslari.pdf
3. "Gold Ore Processing" Project Development and Operations. Mike D. Adams. Fugue Pte Ltd, Singapore.

Ta’limda nostandart darslarni samarasi

Axatova Dilnoza Allayor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6467764>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars jarayonini tashkil etishda nostandart darslar va ularning xususiyatlari, shuningdek, nostandart darslarning afzalliklari hamda, nostandart darslarga bo‘lgan zaruriyat, dars jarayonida ularning ahamiyati kabilar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: nostandart darslar, an’anaviy dars, dars maqsadi, kompetensiya, interaktiv o‘yinlar, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN - turdagi o‘yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, paradokslar, auksionlar, dialog, debat-munozara darsi, ijodiy dars, xayoliy dars, retrospektiv, videodars,

Dars - muayyan bir maqsadni ko‘zda tutib, ma’lum bir belgilangan vaqtda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi ya’ni (o‘qituvchi va o‘quvchi) o‘rtasida olib boriluvchi mashg‘ulotdir. Darsning maqsadi - o‘quvchi yoshlarni ilmi, salohiyatli etib tarbiyalash, egalangan bilim, ko‘nikma malakalarini tekshirish, muayyan

mavzu orqali unga yangi bilimlar berish va ularni shakllantirishdan iborat. Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yangi bilimlarni samarali yetkazib berish, hamda ularda olingan bilimlar yuzasidan kompetensiyani hosil qilishda, dars jarayoni va uni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Darslar an'anaviy va noan'anaviy (nostandart) shaklda olib borilishi mumkin. Albatta, an'anaviy dars shakli samarali va keng tarqalgan shakldir. Nostandart darslar ham o'z o'rnida qiziqarli, noan'anaviy shaklga asoslangani va o'quvchida qiziqish uyg'otib darsning samaradorligini oshirishi bilan ahamiyatlidir. Qolaversa, hozirgi kun zamonaviy maktab o'quvchilari, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari avvalgilardan butunlay farq qiladi. Ular qiziquvchan, zamonaviy texnika va texnologiya bilan yaxshi tanish, shuningdek, faol va harakatchan. Ularga ta'lim berishda bu kabi o'rinlarni inobatga olish o'ta muhim hisoblanadi. O'quvchilar ruhiyati qandaydir yangilikni, o'zgaruvchan faoliyatni talab etmoqda, buning sababi axborot asrida yashayotganimiz, ma'lumot oqimi kuchayganiligi hamda, texnika-texnologiyaning jadal rivojidir. O'qituvchi 45 daqiqa davomida o'quvchini zerkib qolmasligi uchun turli qiziqarli dars jarayonini tashkil qilishga ehtiyoj kuchaymoqda. Bunda o'qituvchilarga nostandart darslar katta yordam beradi. Nostandart darslar - doimiy an'anaviy shakldan biroz chekinib, uning o'rniga turli ijodiy tuzilmalardan, interaktiv o'yinlardan, qiziqarli ma'lumotlardan foydalanishni taklif etadi. Nostandart darslar turlarini o'qituvchi o'zi ijodiy yondashib yoki o'quvchilarining bilimlari va qiziqishlariga ko'ra ham o'zi yaratishi mumkin, samaradorlikni ta'minlashga e'tibor qaratgan holda, albatta.

Nostandart darslar - xorijiy mamlakatlarda XX asrning 70 - yillaridan maktablarda dars jarayoniga kiritila boshlangan. Shu yildan boshlab ko'pgina g'arb

mamlakatlarning milliy maktablarida, o'quvchilar uchun nostandart darslarni tashkil etish va yaratishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Natijada, g'arb pedagogikasida zamonaviy nostandart darslarning bir necha turlari yaratildi va amalga joriy etildi. Nostandart darslar turi ta'lim berilayotgan fanga va undagi mavzularga qarab turlicha ko'rinishlarga ega bo'la boshladi. Jumladan, "berilish" darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyasilari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN - turdagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, "sudlar" haqiqatni izlash o'yinlari, paradokslar, auksionlar, dialog va boshqalar. Shuningdek, nostandart darslarda, o'quvchiga yangi bilimlarni berish va ularni o'zlashtirishi uchun dars davomida, mavzuga oid ekskursiyalar, sayohat, video, multimedia vositalaridan ham o'rinli foydalanish yaxshi samara beradi. Dars jarayonida, integratsiyani oshirib, bu borada ham nostandart usullar, metodlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Integratsiya va noan'anaviy dars usullari birgalikda yangi mavzuni o'rganish uchun yaxshi samara beradi.

Sharq mamlakatlarida, nostandart darslarning ham o'ziga xos turlarini uchratish mumkin. Jumladan: konfkonferensiya darsi, seminar darsi, musobaqa darsi, debat-munozara darsi, o'yin darsi, muhokama, bahs darsi, ijod darsi, ekskursiya-sayohat darsi, suhbat darsi, ssenariy darsi, ma'ruza darsi, sinov darsi va boshqalar. Yuqorida qayd etilganidek, nostandart darslar cheksiz ularni har bir o'qituvchi o'z tasavvurlaridan kelib chiqqan holda samarali tashkil etishi mumkin. Fan va mavzu yuzasidan eng yaxshi va qiziqarli, shuningdek, foydali maq'bul bo'lgan nostandart dars turini tanlay olishda mas'uliyat va to'g'ri tanlov o'quvchiga yukalandi.

Nostandart darslar tashkil etishda o'yin texnologiyasi ham katta ahamiyatga ega, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'yinli mashqlar texnologiyalar darsni o'zlashtirishga qiziqishni oshirib beradi. Darslarning o'yin shakllarini ham bir necha turlarga bo'lish mumkin: retrospektiv (o'tmishga qaytish - rolli va rolsiz), ishbilarmonlik (o'quvchilar amalda u yoki bu haqiqat hodisasini o'rganadilar, ko'pincha ijtimoiy yoki iqtisodiy), musobaqalar (raqobatbardosh asosga ega bo'ladi). Bular, asosan, katta yoshli maktab o'quvchisi uchun samarali bo'ladi. Ijodiy darslar ham o'quvchi qobiliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha yaxshi usuldir. Xuddi shunday xayoliy darslar ham nostandart dars shakli bo'lib, unda ham o'quvchi ijodiy faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday darslar ertak shaklida bo'lishi yoki teatrlashtirilgan ko'rinishda olib borilishi mumkin. Maktabdagi bunday dars shakllari bolalarga nafaqat o'z tasavvurlarini ko'rsatishlariga, balki bolalar jamoasini juda yaqinlashtirishga imkon beradi, chunki bolalar topshiriqlar ustida birgalikda ishlashadi: butun sinf bilan yoki guruhlarda o'quvchilar o'rtasida ijtimoiylashuvni ham kuchayishiga yaxshi yordam beradi. Nostandart darslar turlaridan yana biri loyiha usuli bo'lib u asosan olingan bilimlarni amalda qo'llashga qaratilgandir. Bolalar nafaqat ma'lum bir loyihani tuzishlari kerak, balki uni o'qituvchi va qolgan sinfdoshlar, hattoki maktab o'quvchilari oldida himoya qilishlari kerak bo'ladi. Bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash va uni yetkazib berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nostandart darslarning an'anaviy shaklga qaraganda, qator afzal tomonlari bor, jumladan nostandart darslarda o'qitish mazmuni yaxshilanadi, o'quvchilar o'rtasida aloqa ta'minlanadi, egalangan bilimni amaliyotda qo'llash imkoni shakllanadi, turli o'qitish usullari yuzaga chiqadi, o'quvchilar o'zlari uchun kerakli

motivatsiyalarni olishadi, olingan bilimlarni esda saqlash kuchayadi, o'quvchilar o'rtasida ijtimoiylashuv yaxshilanishi, hamda muloqotga kirishish qobiliyati o'sishi, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchilarda dars jarayoniga bo'lgan qiziqishga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi, ijodiy bo'lishga undaydi, tasavvurni, ijodkorlikni, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, an'anaviy darslardan farq qiladigan darslar ko'plab texnik vositalar va ko'rgazmali materiallardan foydalanishga imkon beradi. Nostandart darslar afzalliklar bilan birga kamchilik tomonlardan ham xoli emas. Nostandart darslarni quyidagi kamchiliklari mavjud bular: dars jarayonida ko'p vaqt talab etilishi, sinfdagi hamma o'quvchilarni nazorat qilish barqarorligining pasayishi, qabul qilishi yuqori va qabul qilishi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarni baholashda qiyinchilik tug'ishi mumkinligi, nostandart darslar ko'p o'tkazilishi o'quvchilarning bu kabi darslarga ham qiziqishini susayishiga olib kelishi ehtimoli mavjudligi, qolaversa, nostandart darslarni hamma fan mavzularida ham qo'llab bo'lmasligidir. Nostandart darslardan muntazam foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki dars jarayonida yuqorida keltirilgan nostandart dars turlaridan, ularning elementlaridan me'yorida, o'z o'rnida foydalanish ko'zlangan natijani beradi. O'quvchilar uchun ham foydali va qiziqarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

X.Ibragimov, SH.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi(darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008.

Dars turlari va shakllari. Tarix, tasviriy san'at, o'qish, atrofdagi dunyo darslarining shakllari(maqola).

“An’anaviy va noan’anaviy dars shakllari dars taqdimoti” K.Mavlonova .

Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi Qoramag'iz Davlat universiteti, pedagogika fakulteti, Timdippning boshqarmasi. Pedagog E.A.Guldasta. Nostandart dars shakllari. 2009.

Standart dars. Darslarning standart va noan'anaviy shakllari — rvbany.ru (maqola).

Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).

Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).

Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.

Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.

Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).

Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).

Do'Stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XVI-XVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. Scientific progress, 1(6).

Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODISHOLIGINING O'RNI. Scientific progress, 1(6).

Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6).

Ro'Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA SOSONIYLAR DAVLATINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).

Tulaboyev, D., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA MESOPATAMIYANING TARIXI VA DINI: O'RNI HAMDA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).

Ҳайдаров, С.А., (2022). Заҳриддин Муҳаммад Бобур: бир қўлда мўйқалам-у, бир қўлда тож. Scientific progress, 3(3).

ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR

info@bestarticle.uz

<https://sites.google.com/view/imxu/>

BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022

Raqamli huquqlarni tartibga solish zarurati va Xorijiy tajribani tahlil qilish

Axmatjanov Oybek Dilmurod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6524520>

Annotatsiya. Raqamlashtirish insonning asosiy huquqlari va ularni huquqiy tartibga solishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bu maqolaning maqsadi raqamli huquqni tartibga solishning zarurati va xorijiy mamlakatlarda raqamli huquqlarni huquqiy tartibga solishni o'rganishdir. Tadqiqot metodologiyasi - berilgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni, shuningdek amaliy xorijiy tajribani tahlil qilish va bu orqali xorijiy mamlakatlarning raqamli huquqlarni tartibga solish sohasidagi qonunchiligidagi kamchiliklarni o'rganishdir.

Аннотация. Цифровизация оказывает существенное влияние на основные права человека и их правовое регулирование. Поэтому целью данной статьи является исследование необходимости цифрового правового регулирования и правового регулирования цифровых прав в зарубежных странах. Методология исследования представляет собой анализ научной литературы по проблеме, а также практического зарубежного опыта, а значит, изучение недостатков законодательства зарубежных стран в сфере цифровых прав.

Abstract. Digitization has a significant impact on fundamental human rights and their legal regulation. Therefore, the purpose of this article is to study the need for digital law regulation and the legal regulation of digital rights in foreign countries. The research methodology is an analysis of the scientific literature on the issue, as

well as practical foreign experience, and thus the study of shortcomings in the legislation of foreign countries in the field of digital rights.

Kalit so‘z: raqamli huquq, raqmlashtirish, huquqiy tizim, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi (AKT), internet, kibermakon.

Bugun biz axborot asrida yashayotgan ekanmiz, har bir inson orqali katta hajmdagi ma’lumotlar o‘tmoqda. Turli ma’lumotlar bazalari hajmining aql bovar qilmaydigan darajada o‘sishi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarning tobora ko‘payib borayotgani ushbu sohani rivojlantirish yo‘nalishini belgilab beradi, shuningdek, yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Bularning barchasi mutlaqo yangi raqamli voqelikni tashkil etadi. Bu yangi voqelikning barchasida huquqning rolini alohida ta’kidlash kerak. Endi bu nafaqat boshqa sohalarni raqamlashtirishni amalga oshiradigan o‘ziga xos vosita, balki yangi voqelikda u mustaqil ta’sir ob’ekti hisoblanadi.

Jamiyatning barcha sohalarini raqamlashtirishga asosiy turtki AKT deb ataladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo‘lishi va jadal rivojlanishi hisoblanadi. Albatta, huquqiy soha ham bundan mustasno emas. Bu, jumladan, qonunchilik va huquq tizimining yangi tarkibiy elementlarining paydo bo‘lishini taqozo etadi. Huquq tizimi – bu huquqning botiniy tuzilishi, uning ichki arxitekturasi, tarkibi bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligi va qismlari o‘rtasidagi munosabat, aloqadorlik hamda nisbatni ifodalaydi. Huquq tizimi obyektiv tabiatga ega. Buning ma’nosi shuki, mavjud ijtimoiy munosabatlar

va ularning real manzarasi huquq tizimini belgilovchi omil hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, yangilanishi huquq tizimida o'zining aynan aksini, ifodasini topadi. Shu jihatdan har bir davlatning huquq tizimi mazkur jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning in'ikosi, ifodasi hisoblanadi. huquq tizimi quyidagi xususiyatga ega ijtimoiy munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib obyektiv ravishda shakllanadi.

Ta'kidlash kerakki, uchinchi sanoat inqilobi 20-asrning oxirida sodir bo'ldi va ko'pincha raqamli inqilob deb ataladi. Bu mexanik qurilmalardan raqamli texnologiyalarga o'tish bilan bog'liq. To'rtinchi sanoat inqilobiga kelsak, bu raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan foydalanishning shiddatli o'sib borishi bilan bog'liq bo'lib, endi biz moddiy dunyo va kibermakonning birlashishiga guvoh bo'lamiz tabiiy jarayonga aylanmoqda.

Hozirgi O'zbekiston huquqiy tizimi XX asrning 90-yillarida paydo bo'la boshladi. Ko'rishimiz mumkinki, qonunchilik tizimimiz va mexanizmlarimiz raqamli texnologiyalar ijtimoiy munosabatlarni o'zgartira boshlaguncha ham shakllangan edi. O'sha davrda ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish uchun tizimdan tezkor javob berish va yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish uchun tezkor jarayon talab qilinmasdi. Ammo bugungi kundagi muhim muammo shundaki, hozirgi vaqtda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari juda ko'p sonli hodisalar bilan haddan tashqari yuklangan va ko'pincha ular bir-birini takrorlaydi, yani texnologiyalarning rivojlanishi tartibga solinishi zarur bo'lgan yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ammo bunday munosabatlar kibermakon bilan chambarchas bog'liq bo'gani uchun insonlarning

raqamli huquq va majburiyatlarini ta’minlash va tartibga solish yuqorida nomi zikr etilgan hokimayatlardan ikki hissa ko‘proq yuklama talab etadi.

Bir qator kuzatuvlarga shuni ko‘rsatmoqdaki, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar soni yildan-yilga ortib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, hozirda qonun hujjatlarining aksariyati “noldan” yaratilgan emas, balki eski normalarni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, ular dastlab o‘z mohiyatiga ko‘ra har doim ham zamonaviy talab va tendensiyalarga javob bera olmaydi.

Bir qator huquqshunos olimlar, jumladan iqtisodchilar huquqiy tartibga solishning beqarorligini ortib borayotgan xavf va xarajatlar manbai deb atashadi. Beqarorlikning sabablaridan biri yuqorida aytib otilgan axborot texnologiyalarining rivojlanishi, bundan tashqari, beqarorlik qonunlarning sifati bilan ham bog‘liq, chunki ular juda tez qabul qilinadi. "Sifatsiz" qonunlarni to‘g‘ri qo‘llash mumkin emas va ko‘proq qonunchilik aralashuvi va ko‘proq tuzatishlarni talab qiladi va bu beqarorlikni yanada oshiradi.

Huquqlarni raqamlashtirish masalasi mantiqiy holga keladi. Ammo iqtisodiy va tashkiliy munosabatlarni raqamlashtirish haqiqati oddiy odamga ham ayon bo‘lsa. Huquqiy voqelikka kelsak, bu holda bu mavzu yanada murakkab va murakkab, ammo uning yechimi hozirda eng muhim va ustuvor hisoblanadi.

Demak yuqoridagi fikrlardan xulosa qilishimiz mumkunki texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi va buning ortidan ijtimoiy munosabatlarni kibermakonga ko‘chishi raqamli huquqlar va majburiyatlarni vujudga keltiradi va uni tartibga solishni taqazo etadi.

Endi xalqaro amaliyotga to'xtalib, avvalo shuni ta'kidlashni istardimki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida raqamli huquqlarni ta'minlashga bag'ishlangan bir qator rezolyutsiyalar mavjud. Masalan, 2016-yil 27-iyundagi "Internet huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qarori. Shuningdek "Raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi to'g'risida"gi rezolyutsiya. Ta'kidlash joizki, milliy miqyosda raqamli huquqlarni har tomonlama tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bo'yicha ham ishlar juda faol olib borilmoqda.

Misol uchun, Italiyada parlament 2015 yilda Internetdagi huquqlar deklaratsiyasini qabul qildi. Xuddi shu 2015 yilda Yangi Zelandiyada "zararli raqamli aloqa to'g'risida" deb nomlangan yana bir akt qabul qilindi. 2014 yildan beri Braziliyada "Internetdan foydalanish tartibi to'g'risidagi" qonun, shuningdek, Marco Civil da Internet nomi bilan ham tanilgan. Ayni paytda mazkur normativ-huquqiy hujjat jahon amaliyotida eng ilg'or hisoblanadi. Ushbu aktning bir nechta qoidalariga to'xtalib o'tsak. Masalan, 7-modda quyidagi huquqlarni kafolatlaydi:

internetga ulanishning to'xtatilmasligi, undan bevosita foydalanish natijasida yuzaga kelgan qarzlar bundan mustasno;

himoya va shaxsiy hayotning daxlsizligi, ularning buzilishi natijasida etkazilgan moddiy yoki ma'naviy zararining qoplanishi;

va boshqalar.

Ammo mantiqiy savol tug'iladi, raqamli huquqlarni alohida tartibga solishga ehtiyoj bormi? Gap shundaki, BMT Bosh Assambleyasida tasdiqlash tamoyili

mavjud. Unga ko‘ra, deklaratsiya va davlat qonunlari bilan kafolatlangan barcha huquqlar onlayn tarzda ekstrapolyatsiya qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, milliy konstitutsiyalarda e‘lon qilingan huquqlar avtomatik ravishda axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga, shu jumladan internetga ham tegishli bo‘lishi kerak.

Amalda, bu jihat ko‘ringadigan darajada oddiy emas. Masalan, BMTning “Raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi mavjud bo‘lib, u dunyoning barcha mamlakatlarini raqamli muhitda shaxsiy daxlsizlikka bo‘lgan inson huquqlarini himoya qilishga va amalga oshirishga chaqiradi. Bundan tashqari, ko‘plab milliy konstitutsiyasiyalarda shaxsiy hayot dahlsizligi huquqi mustahkamlangan. Biroq, haqiqat shundaki, internet tarmog‘ida shaxsiy hayotning chegaralarini chizish juda qiyin.

Raqamli huquqlarni tartibga solish bo‘yicha xorijiy tajribani ko‘rib chiqayotganda, raqamli huquqlarni huquqiy tartibga solishni o‘z ichiga olgan “raqamli iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonunning ishlashiga e‘tibor qaratish lozim. Yuqoridagi qonun Britaniya parlamenti tomonidan qabul qilingan 2010 yil (2017 yildagi qo‘shimcha kiritilgan). Qonun iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli shaklda davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ma‘lumotlarni uzatishning xavfsiz kanallaridan foydalangan holda raqamli huquqlarni himoya qilish, elektron to‘lovlarni tasdiqlash tizimi va boshqalarga taalluqli huquqiy normalarni o‘z ichiga oladi. Qonun nomoddiy boyliklarga nisbatan raqamli huquqlarni himoya qilishni va ularni ruxsatsiz nusxalash va tarqatishni nazarda tutadi. 2017-yilda qonunga kiritilgan qo‘shimchalar qatorida raqamli shaklda xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq qoidalar, shuningdek, elektron aloqalarni qurish doirasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy normalari nazarda tutilgan. Buyuk Britaniyadagi

raqamli huquqlar instituti internet foydalanuvchilarini shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlashdan himoya qilishni, noqonuniy nusxa ko'chirish va internet orqali tarqatilishi mumkin bo'lgan asarlarga nisbatan mualliflik huquqini himoya qilishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari yuqoridagi qonun ma'lumotlar almashinuvi bilan bog'liq huquqiy himoya mexanizmlarini, shuningdek, filtrlardan foydalangan holda davlat va jamoat manfaatlarini himoya qilish, ayrim resurslarni blokirovka qilish va internet orqali ayrim tovarlarni sotishni taqiqlashni tartibga soladi.

Raqamli huquqlar haqidagi shunga o'xshash qonun Frantsiyada ham amal qiladi. 2016-yil 7-oktabrdagi 2016-1321-sonli "Raqamli respublika to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotni barpo etish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish davriga to'g'ri keldi. Raqamli iqtisodiyot to'g'risidagi qonun qabul qilingandan so'ng avval qabul qilingan, u yoki bu ma'noda raqamli huquq bilan bog'liq bo'lgan qonunlarga o'zgartirishlar kiritish zarur edi. Xususan, qonunning qabul qilinishi bilan mualliflik huquqini himoya qilish mexanizmlari asarlar qonunga xilof ravishda ko'chirilgan va internet tarmog'i orqali tarqatilgan holatlarga nisbatan kengaytirildi. Qonunda elektron tijoratni huquqiy tartibga solish normalari joriy etildi, davlat organlariga elektron xizmatlar ko'rsatishga qo'yiladigan talablar o'zgartirildi va hokazo.

Biroq, yuqoridagi qonunlarning qabul qilinishi bilan raqamli huquqlarni huquqiy tartibga solish tizimi mukammal bo'lmadi. Xususan, Fransiyaning intellektual mulk huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonuni, garchi u buzilgan huquqlarni sud orqali himoya qilish imkoniyatini nazarda tutsa-da, kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni samarali tekshirish imkonini bermaydi. Jinoyatchining shaxsini

aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Internet orqali noqonuniy ko'chirilgan kontentning tarqatish zanjirlarini kuzatish deyarli mumkin emas. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan raqamli huquqlarni himoya qilish qonun bilan kafolatlangan bo'lsa-da, bu amalda amalga oshirilmaydi.

Xuddi shu narsa internet-tijorat sohasiga tegishli, bunda taqiqlangan tovarlar savdosi chet elda ro'yxatdan o'tgan saytlar orqali amalga oshiriladi, ya'ni foydalanuvchi ma'lumotlarini yashirish uchun maxsus dasturlardan foydalaniladi. Frantsiya rasmiylari bunday saytlarga nisbatan qila oladigan yagona narsa bu ularni mamlakat hududida to'sib qo'yishdir. Biroq, bu holatda, qonunni buzuvchilar o'zlarining qarshi kurashish usullariga ega. Bu bir saytdan boshqasiga yo'naltirish tizimidan foydalanishdir. Shu sababli, bunday resurslardan foydalanganda, Frantsiya hukumati fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilishni kafolatlay olmaydi, shuningdek, voyaga etmaganlarning bunday saytlarda joylashtirilgan taqiqlangan kontentga kirishiga to'sqinlik qila olmaydi.

Muammo shundaki, shaxs ma'lum bir internet-resurs bilan o'zaro aloqada bo'lganida, uning egalari shaxsiy bo'lmagan shaklda bo'lsa ham, foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish huquqiga ega. Ushbu ma'lumotlar foydalanuvchining joylashuvi, jinsi, yoshi, xizmatlar va tovarlarni istemol qilishdagi afzalliklarini va hokazolarni kuzatish imkonini beradi. Ko'pgina internet-resurslar foydalanuvchilarni bunday ma'lumotlar to'planganligi haqida xabardor qilishni ham zarur deb hisoblamaydi, chunki bularning barchasi tijorat maqsadlarida amalga oshiriladi. Frantsiya qonunchiligining qisqacha tahlili raqamli huquqlarni himoya qilish, xususan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ushbu sohada muhim yutuq Qo'shma Shtatlar tomonidan "Raqamli Mingyillik mualliflik huquqi to'g'risida"gi qonun, shuningdek, raqamli huquqlarni huquqiy tartibga solish sohasidagi bir qator qonunlarning qabul qilinishi bilan erishildi. Asosiy qonunchilik bazasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, onlayn-do'konlar oddiy do'konlari kabi iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish qonunlariga bo'ysunadilar.

Onlayn xarid qilingan mahsulotlar sifatsizligi, tavsifi nomuvofiqligi va hokazolar tufayli qaytarilishi, almashtirilishi, qaytarilishi mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun to'lov ma'lumotlarini uzatish uchun shifrlangan kanallar qo'llaniladi va foydalanuvchilar to'lovni tasdiqlash uchun ikki faktorli avtorizatsiyadan o'tishlari mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari ham mavjud. Agar ma'lumotlar Internet-resursda to'plangan va saqlangan bo'lsa, uning egasi bu haqda yangi foydalanuvchini xabardor qilishi, istalgan vaqtda saqlangan ma'lumotlarni va ular bilan bajarilgan harakatlarni so'rash imkoniyatini ta'minlashi va ularni talabiga binoan o'chirib tashlashi shart. foydalanuvchi. Elektron hukumat to'g'risidagi qonun davlat xizmatlarini elektron shaklda olish imkoniyatini nazarda tutadi. Buning uchun AQSh fuqarosining shaxsiy guvohnomasi va internetga kirishi kifoya.

Germaniyada 2017 yilda raqamli huquqlarni himoya qilish uchun fond tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi raqamli huquqlarni himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan iborat. Jamg'armaning vazifasi fuqaroning raqamli huquqlari haqida gap ketganda, sud orqali himoyalani huquqidan yaxshiroq foydalanishdir. Jamg'arma endilikda ma'lumot

almashish va boshqalarning raqamli huquqlarini buzuvchi kompaniyalar va shaxslarga qarshi da'volarni qo'llab-quvvatlash uchun birgalikda ishlaydigan mustaqil tashkilot sifatida ishlaydi.

Tahlil qilinayotgan mamlakatlar uchun umumiy jihat shundaki, raqamli huquqlarni himoya qilish sud orqali amalga oshiriladi. Germaniya bilan taqqoslaganda, boshqa xorijiy mamlakatlarda raqamli huquqlarni samarali himoya qilish uchun kurashadigan jamoat fondlari hali mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar

Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b

Экономика. право. общество. том 6, № 3 (27), 2021.

www.digitallibrary.un.org

www.legislation.govt.nz

www.cgi.br

www.legislation.gov.uk

www.republique-numerique.fr

**DIAGNOSIS AND PREDICTION OF THE COURSE OF DISEASES OF
THE CARDIOVASCULAR SYSTEM BASED ON NEURAL NETWORKS**

Aytbekov Jamilbek

Khomirzayev Javohirbek

Tashkent University of Information Technologies

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479113>

Abstract. A neuro-expert system has been developed for diagnosing and predicting the course of the most common cardiovascular diseases. As a result of computer experiments performed using the proposed system, facts were found showing that the current practice in modern medicine is to give the same recommendations to all cardiological patients without exception, such as: follow a hypocholesterol diet, give up "bad habits", limit the use of coffee, alcoholic beverages, lose weight, limit mental and physical stress, is not always correct. Our research has shown that some of these recommendations for a number of patients not only do not bring benefits, but can also cause harm. The diagnostic and prognostic system proposed in this paper makes it possible to identify such atypical patients and develop personal recommendations for them. Introduction. Currently, the scientific literature contains many reviews and reports on the successful experience of developing medical diagnostic systems based on the apparatus of artificial neural networks [1]. However, the analysis of works shows that neural network medical systems, as a rule, are limited only to making diagnoses of diseases. The possibilities of neural network technologies are much wider [1,2]. The purpose of this work is to try to use the mathematical apparatus of neural network technologies not only for diagnosis, but also to predict the course of diseases for various periods of time, as well as to try to use neural network models to identify previously unknown medical knowledge.

Neural network model and its testing

The study was conducted on the basis of the departments of emergency cardiology and the cardiology department of the City Clinical Hospital No. 4 in Perm. 569 patients were examined. Of these, coronary heart disease in its various manifestations (myocardial infarction, stable and unstable angina pectoris, as well as its complication in the form of acute left ventricular failure and chronic heart failure) was diagnosed in 557 patients. 12 patients were diagnosed with hypertension. The diagnoses were made on the basis of a characteristic clinical picture, laboratory and instrumental methods of investigation, including coronary angiography.

Doctors-experts, based on the data of the survey, examination of patients, analysis of laboratory and instrumental methods of research, which were carried out in accordance with the regulations of the National Recommendations, put in points (on a 100-point scale) the degree of their confidence in a particular diagnosis. A total of 569 questionnaires were completed and processed, each of which was an example characterizing the subject area. To this set of examples, another 100 questionnaires were added with data from people in whom the diagnosis of cardiovascular disease was excluded. The latter is done so that the neural network, after training, can not only make diagnoses of diseases, but also state their absence.

The whole set of examples was divided into training L, testing T and confirming P in the ratio: 70% : 20% : 10%. The neural network was trained using the error backpropagation method, the elastic backpropagation method, the Levenberg-Marquardt method, etc. [1]. Optimization of the structure of the neural network -

the choice of the optimal number of hidden neurons and activation functions, was carried out manually, as well as using genetic algorithms [1].

Results of computer experiments and their discussion Figure 2 shows examples of the results of diagnosing and predicting the degree of progression of coronary heart disease in two patients, designated P1 and P2, for the next 5, 10, and 15 years, performed by varying their regimen, lifestyle, and taking certain medications. The simulation results shown in fig.

2a is performed for patient P1, who is a 47-year-old woman with a height of 172 cm, weight 64 kg, following a hypocholesterol diet, not drinking alcohol, non-smoking, regularly taking medications that reduce blood pressure, not doing sports and exercise therapy. Patient P1 was diagnosed by doctors with a degree of certainty (progression) of 20 points, as evidenced by the group of histogram columns in Fig. 2 labeled "Current Diagnosis". To the right of the same figure, three groups of columns are constructed, depicting the predicted values of the degree of progression of coronary artery disease for 5, 10, and 15 years. Moreover, in each such group, the leftmost column corresponds to the predicted degree of IHD progression, provided that the patient does not change his regimen, diet and lifestyle during the predicted period. In what follows, such a forecast will be referred to as an S-forecast.

If the patient begins to drink alcohol regularly, or ceases to follow a hypocholesterol diet, or increases weight by 10 kg, or begins to regularly engage in physical therapy, then after five years this will not cause a significant change in the degree of progression of coronary artery disease compared with the S-prognosis. However, after 10 years, regular alcohol consumption will lead to the

progression of coronary artery disease up to 92 points, non-compliance with a hypocholesterol diet - up to 82 points, weight gain by 10 kg - up to 70 points, exercise therapy - up to 67 points. After 15 years, regular alcohol consumption, according to our forecasts, will cause the progression of coronary heart disease up to 237 points, non-compliance with a hypocholesterol diet - up to 200 points, weight gain by 10 kg or regular exercise therapy will lead to the development of coronary artery disease up to 135 points.

References

Heckerling P.S., Canaris G., Flach S.D., Tape T.G., Wigton R.S. and Gerber B.S. Predictors of urinary tract infection based on artificial neural networks and genetic algorithms // International Journal of Medical Informatics. 2007. Vol.76. № 4. Pp. 289-296.

Qeethara Al-Shayea. Artificial Neural Networks in Medical Diagnosis // International Journal of Computer Science Issues. 2011. Vol. 8, Issue 2. March. Pp. 150-154.

Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv

Azizova Gulbahor Mavlonovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

3- sonli DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473480>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda rivojlanib borayotgan maktabgacha ta'lim tizimidagi yangiliklar, olib borilayotgan ulkan islohotlar, yangi barpo bo'layotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy nodavlat va xususiy bog'chalarning rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tizimida bola qamrovini yanada oshirish bo'yicha chora -tadbirlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, rivojlanish, taraqqiyot, yangilik, qamrov, muassasa, pedagog.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o'rin tutadigan maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bu tizim jamiyatning birlamchi va eng muhim bo'g'inidir. Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar qilinmoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi

qayta ko‘rib chiqildi, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta‘sirida maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash borasida rivojlanish o‘rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatkichlari o‘sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta‘lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o‘rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma‘lumotli emasligi, ta‘lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo‘ldi. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”, - deb ta‘kidlagan edi. Darhaqiqat, o‘tgan qisqa vaqt mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi,

«O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» asosida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi, 2018 yilda esa maktabgacha ta’lim muassasalarini saqlash harajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o‘shishi kutilmoqda. Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berildi. Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo‘shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, 2018 yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yettita yo‘nalishdagi strategik vazifalar belgilab

berildi. Ular doirasida 2018 yil davlat budjetidan 427 bog‘chada qurilish-ta’mirlesh ishlarini bajarish uchun 771 milliard so‘m mablag‘ ajratish, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital ta’mirlesh rejalashtirilayotganligi, davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, 2018 yil 1 yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog‘chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun sarflanadigan mablag‘ning yarmi davlat budjeti hisobidan qoplanishi, bog‘chalarda bolalarni sog‘lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta’minlash maqsadida 2018 yildan boshlab har bir maktabgacha ta’lim muassasasiga 10-15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun birlashtirilishi, bolalar bog‘chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, “Ketring” xizmatini yo‘lga qo‘yish mexanizmining ishlab chiqilishi, maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyatining takomillashtirilishi, maktabgacha ta’lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta’lim pedagoglariga qo‘yiladigan talablarning qayta ko‘rib chiqilishi tom ma’noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz. Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, ilg‘or xorijiy tajriba asosida “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqishdan iborat o‘ta dolzarb vazifa yuklatildi. E’tirof etish kerakki, mazkur qonun loyihasining ishlab chiqilishi o‘z navbatida ta’lim sohasiga oid milliy qonunchiligimizning yanada takomillashuviga, sohaga oid barcha

munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, tizim oldiga qo'yilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash biz Qonunchilik palatasi deputatlardan ham faollikni va mas'uliyatni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining 12 ming nafar xodimini o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi belgilandi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tizimi kengaytirilib quyidagi vazirliklar tashkil qilindi: Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

- Vazirlikning markaziy apparati;
- hududiy bo'linmalar;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti;
- "Ilk Qadam" jurnali tahririyati;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi;
- Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi;
- Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish instituti;
- Infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha injiniring kompaniyasi;
- Maktabgacha ta'lim vazirligining pedagogika kollejlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezidentning 26.05.2021 yildagi «Hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5125-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5144-son qarori.
3. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 20.05.2021 yildagi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonun (16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son) qabul qilinishi munosabati bilan hukumatning ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 320-son qarori.
4. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova " Maktabgacha pedagogika".T.: -2019

“Boshlangich sinf oquvchilarining ingliz tilidagi nutqini rivojlantirish”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508322>

Barnoyeva Navbahor Farmonovna

Buxoro viloyati Romitan tumani

23-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish va sodda yo'llar bilan ularga tushuncha bera olish hamda korgazmalardan unumli foydalanish. O'quvchilar nutqida uchraydigan an'anaviy nuqsonlarni oldini olish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, nutqiy faollik, lug'at, muloqot, grammatik jihat, bilim va tarbiya.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim - tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga ona tilini o'rgatish bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'rgatish, shu nuqtaiy nazardan ingliz tilini o'rgatishdir. O'quvchini ingliz tiliga qiziqтира olish, ingliz tilida nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir. o'stirishning asosiy maqsadi: o'quvchilarning ingliz tilidagi og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutq o'stirish vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus vazifalarni oladi:

1. O'quvchilarni sinf xonasi va tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

Lug'at ustida ishlash ko'rgazmali qurollardan taqari sinf xonasidagi ko'rgazmalardan hamda tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali ham amalga oshiriladi. O'quvchilarni tevarak - tarofdagi buyumlar, hodisalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokozolar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, hususiyatlarini inglizcha so'zlar bilan aytamiz.

Masalan: Buyumlarning nomini anglatadigan: (things) mirror (ko'zgu) camp (taroq), soup (sovun), carteen (gilam), cupboard, (shikaf) bad (kirovat), tableclothe (dasturhon). Vegetables: (sabzavotlar nomini anglatadigan carrot (savzi), cabbage(karam), turnip (shalg'om), cucumber (bodring). Fruits: (mevalar) apple (olma), pear (nok), cherry (olcha), peach (shaftoli), banana (banan), grape (uzum)

domestic animals (uy hayvonlari) rooster (xo'roz), hen (tovuq), horse (ot), cow (sigir), dog (it), cat (mushuk), goat (echki). Verbs (harakatni ifodalovchi) washing (yuvimmoq), cleaning (tozalamoq), doing iron (dazmollamoq), cooking (pishirmoq) va boshqalar. Adjectives: (sifatlari) big (katta), small (kichkina), red (qizil), green (yashil), hot (issiq), cold (soviq) va hokazo so'zlar sozlar o'quvchilarning sinf xonasi va tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida o'quvchlar lug'atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug'ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi. Ingliz tili darslarida lug'at bilan ishlash juda muhim bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga o'rtoqlari bilan ingliz tilida nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan tanlab hamda dialogik nutq yordamida ular nutqiga kiritib boradilar. O'quvchilarni so'zlarning tarjimasini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni nutqlarni faol ishlatishga ham odatlanib boradilar. Lug'at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning bog'lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi. O'quvchi ingliz tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan ham, nutqiy jihatdan ham sunchalik tez rivojlanadi. Agar o'quvchida nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechkadi. O'qituvchi har bir mashg'ulot va o'yin turlarida bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatishi kerak. O'z vaqtida tuzatilmagan grammatik xato bola nutqida mustahkamlanib, uni tinglayotgan boshqa bolalar nutqida ham grammatik xatolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq maxsus tashkil etiladigan o'yinlarda bola nutqidagi yoki bu salbiy jihatlarni ogohlantirish bo'yicha ish olib, bola nutqida paydo bo'lgan grammatik hatolarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim.

Mahsus tashkil etiladigan o'yin va mashg'ulotlarda bolaning diqqati faqat kerakli Grammatik shakllarga jalb qilinadi. So'z, uning shakl jihatdan o'zgarishi, so'z birikmasi yoki gaplar ular aqliy faoliyatining mazmuni bo'lib qoladi. Bunday mashg'ulotlarni izchillik va ketma-ketlik bilan olib barish natijasida bolalar qanday gapirish kerakligini anglaydilar, savodli chiroyli gapirishga harakat qiladilar. Qulay ishchanlik ruhida tashkil etiladigan mashg'ulotlar bola diqqatini chalg'ib ketishining oldini oladi, ular o'qituvchining tushuntirishlarini, ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglaydilar, o'rtoqlarini nutqini kuzatadilar. Mashg'ulotda nutq namunasini oladilar va o'z nutqlarida undan foydalanadilar. Ko'pgina o'quvchilar o'z o'rtoqlarining xatolarini tuzatishda o'qituvchining eng yaqin yordamchisiga aylanib qoladilar. Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni ogohlantirish, tuzatish maqsadida tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlar olib borishda quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish kerak: Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar ko'rgazmali materiallar yoki ko'rgazmasiz o'tkaziladigan talimiy o'yin xarakteriga ega. Har bir boshlang'ich sinf uchun dastur mazmuniga mos talimiy o'yinlar, mashqlar tanlanadi. Masalan: Birinchi sinflar uchun "English alphabet", "Numbers", "Domestic animals", "Family" va boshqalar. Ikkinchi sinf va undan yuqori sinflar uchun "Verbs", "Jobs", "Body", "Seasons", "Months and weeks" va hokazolar. Bola nutqidagi xatolarni do'stona, xushmuomilalaik bilan tuzatish kerak. Hech vaqt bola nutqidagi xatoni takrorlash yaramaydi, yaxshisi grammatik shaklli to'g'ri bo'lgan so'zlarni, talimiy o'yinlarni takrorlash joizdir, o'qituvchi dars davomida yoki turli hil o'yinlar davomida bola nutqini kuzatib borishi va grammatik xatolarni tuzatishi shart. Bola nutqida grammatik xatolarni dars jarayonida etarli ovoz tonida, boshqa o'quvchilarga ham eshitarli qilib to'g'rilash kerak. O'quvchilarni grammatik to'g'ri gapirishga o'rgatish bilan bir

qatorda nutqning tovush madaniyati ham o'rgatish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ingliz tili lotin alifbosiga o'hshab ketganligi bois ayrim tovushlarni almashtirib yuboradilar. Masalan: "school" [sku:l] so'zini "schol", "book" [bu:k] so'zni bok, "bag"[ba:g] bag. O'quvchilarga bilim va tarbiya berishada so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish - bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar beris). Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. Maktab sanf xonalarining ham ko'rinishi alohida o'rin egallaydi. Yani yorug'lik yetarli darajada bo'lishi, stollar, jihozlar o'quvchilar bo'yiga mos bo'lishi kerak. O'quvchilarning va o'qituvchining doimiy o'tiradigan joyi bo'lishi, o'quvchilar stolga o'tirishganda o'qituvchining aniq ko'rib turishlari, o'quvchilar o'qituvchiga, o'qituvchi esa o'quvchilarga qarab o'tirishlari kerak. Sinf xonasining havosi doimo yangilanib turishi lozim. Bola boshlang'ich sinfda bilimlarni qanchalik puxta egallasa, yuqori sinflarda o'qish oson kechadi. Zero, bo'lg'usi o'quvchilarning maktab saboqlariga moslashishi, bilim ko'nikmalarining dastlabki qirralaridan xabardor bo'lishlari uchun ham bog'cha hamda boshlang'ich maktab vazifasini bajaruvchi bog'cha - maktablarning ahamiyati beqiyos. O'qituvchi darsda nutqi yaxshi rivojlanmagan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Ayniqsa indamas, muloqat qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan, ezma o'quvchilarga yakkama - yakka yondashishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim terisida"gi qonuni 1997 yil.29- vgust. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.- T., 2001
2. Pedagogika "Nashr" Toshkent 2011y J. Xasanboyev
3. English kids. Toshkent 2011
4. <http://mthod.novgorod.rcde.ru/getblob.asp?id=5000...>
5. <http://rspu.edu.ru/university/chair/eng.html>.

Boshlangich sinflarda tabiatshunoslik darslarida ogzaki oqitish metodlari

Mamadaliyev Adhamjon

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani

73-sonli umumta'lim maktabining

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6465865>

Annotatsiya: Tabiatshunoslik maktab o'quvchilariga butun borliq to'g'risida umumiy tushunchalarni beruvchi fan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fanni o'qitishda turli qiziqarli o'yinlar asosida va samarali o'qitish metodlaridan foydalanib dars berish muhim sanaladi. Ushbu maqolada boshlag'ich ta'lim tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy, granit, akvarium, terrarium.

Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qitishning qulay sharoitlaridan foydalanib, fanlararo bog'lanishni to'la darajada amalga oshirish zarur. Atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda shakllantiriladigan aniq tasavvurlar boshqa predmetlar bo'yicha vazifalarni hal qilishga yordam beradi va aksincha. Fanlararo aloqa nutqni rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilishda amalga oshiriladi. "Atrof olam bilan tanishtirish" kursi o'quv materialining o'zi, foydalaniladigan ish uslublari va metodlari bola nutqini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu mashg'ulotlarda bolalar bir - birlari bilan bevosita muloqotda bo'ladilar, taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar, o'zlarining sevgan ishqibozliklari haqida hikoya qiladilar va hokazo. Syujetlirolli o'yinlarda bolalar tasavvurlar qilib, o'z qahramonlari uchun matn yaratadilar. Mehnat ta'limi, o'qish, atrof olam bilan tanishish kabi fanlar bilan bog'lanish tabiatga va ishlab chiqarishga kompleks ekskursiyalar o'tkazishda amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini organuvchi fan bolib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi. Bilim odamlar miyasida oz-ozidan paydo bolmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bolib, bu oz navbatida, odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol oynaydi.

Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yol qoymaydi.
2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.
3. Amaliyot bilish jarayoninig haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Metodlar bilan metodik uslublarni farqlash muhimdir. Metodik uslub-bu metodning unsurlaridan biri, uning tarkibiy qismidir (ko'rgazma vositalarni, kinofilm fragmentlarini, diafilm, diapozitiv ko'rsatish, doskada sxema rasmlardan foydalanish, tajribalarni namoyish qilish, maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlar vaqtida turli xil faoliyat ko'rsatish va hokazo). Metod va metodik uslublarni o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga o'tishi mumkin. Masalan, o'quvchilarning turli xil tajribalari metod hisoblanadi, lekin o'qituvchi hikoya qilayotgan paytda tajribani namoyish qilinishi metodik uslubdir. Hikoya davomida o'qituvchining diafilm namoyish qilishi metodik uslubdir. Metod va uslublarni kompleks holda qo'llaniladi, ular bir-birini to'ldiradi, tabiatshoslik tushunchalarini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. Metodlarni qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga asosan so'zlar vositasida, zarurat bo'lsa mavzu mazmuniga mos ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish bilan bilim beradi.

Bu paytda o'quvchilarning yangi bilim olishlari uchun asosiy manba so'zlar (og'zaki nutq) hisoblanadi. Og'zaki metodning asosiy turlaridan biri - hikoyadir. Hikoya o'qituvchining jonli so'zidir. U kitob o'qish, jism va hodisalarni namoyish

qilish, texnika vositalardan foydalanish, badiiy adabiyotlar o'qish va boshqalar bilan uyg'unlashadi.

Hikoyada izchilikka qat'iy hikoya qilinadi. Tabiatshunoslik mashg'ulotlarida hikoyaning aytib berish yoki ta'riflash, xarakterlash, tushuntirish, muhokama qilish kabi turlari qo'llaniladi.

Aytib berish - unda konkret fakt, voqea, jarayon harakatlar haqida gapirib beriladi. Hikoya shohid (sayyoh, yosh tabiatshunos, sayyohatchi, kashfiyotlar ishtirokchisi) nomidan olib boriladi.

Ta'riflash - borliq jismlar va hodisalarning (foydali qazilmalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, biror tabiiy zona iqlimi xususiyatlarini) izchil bayon qilishda qo'llaniladi.

Xarakterlash - ta'riflashning bir turidir, u jism yoki hodisaning belgi va xususiyatlarini sanab o'tishdan iborat (tog', daryo va tabiiy zonalar harakteristikasi).

Tushuntirish - unda yangi tushunchalar, atamalar, ma'nosi ochib beriladi, sabab, oqibat bog'lanishi, u yoki bu narsaning mantiqiy tabiati (nima uchun tundrada o'zun tun va qisqa kun bo'ladi, nima uchun kun va tun, yil fasllari almashib turadi) ochib beriladi. Undan barcha darslarda foydalaniladi, u muhokama qilish bilan uyg'unlashadi.

Muhokama qilish - bayon qilish asosida bo'lib, unda o'quvchilarni xulosaga olib keluvchi qoida va isbotlarning izchil rivojlanishi bilan bog'liq.

Hikoyaning bu turida o'rganilayotgan hodisani (masalan, tirik mavjudodning o'zgarishiga iqlimning ta'siri, suv, metallning xususiyatlari) tahlil qilish zarurati tug'ilganda foydalaniladi.

Hikoyaga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi: tanlangan o'quv materialini ilmiyligiga, mantiqiy izchillik va isbotlanishiga; o'quvchilar uchun aniq, ravon va tushunarli bo'lishiga: o'qituvchi nutqining tasviriy bo'lishiga javob berishi kerak.

1-2 sinflarda hikoya 5-8 minut, 3-4 sinflarda esa 10-12 daqiqa davom etishi kerak.

Hikoya jarayonida quyidagi didaktik usulblardan foydalanish muhim:

I. Dars mavzusini e'lon qilish yangi mavzuni bayon qilish oldidan muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. Yangi materialni o'rganish yoki tajriba o'tkazish, shuningdek, tabiatda o'tkazilgan kuzatishlarni tahlil qilish bilan boshlanadi.

II. Bayon rejasini bildirish. Bu uslub faqat o'zlashtirish jarayonini faollashtiribgina qolmasdan, balki o'quvchilarni butun bayon tizimini ko'rishga o'rgatadi, bu bilan tafakkurning mantiqiy izchilligini rivojlantirishga, o'rganilayotgan atrof hayot faktlari yoki hodisalarning o'rtasidagi muayyan bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradi; masalan, «Cho'l tabiati» mavzusini bayon qila turib, o'qituvchi doskaga ushbu rejani yozishi mumkin: 1) tabiiy zonalar xaritasida cho'llarning geografik o'rni; 2) cho'l iqlimining xususiyatlari; 3) yuzasi; 4) vohalari; 5) cho'lda yil fasllari.

III. O'quvchilar e'tiborini faollashtiruvchi savollarni bayon davomida berib borish.

IV. O'quvchilarning idrok qilish faoliyatlarini faollashtiruvchi taqqoslash (masalan, dala, cho'l, dasht, o'rmonlarning o'simlik va hayvonot dunyosini taqqoslash va hokazolar).

V. Yangi materialni bayon qilish davomida ilgari o'rganilgan mavzular turmush bilan, amaliyot bilan (masalan, «Skelet», mavzusini «Mushaklar» mavzusi bilan, jonajon o'lka tabiatini har xil zonalar tabiati mavzusi) bilan aloqasini turmushda, amaliyotda o'rganish.

VI. Hikoyaga maqol, qiziqarli material yoki kitob o'qish epizodini kiritish. O'qituvchi hikoyasini tegishli maqolani o'qigandan keyin yoki undan oldin boshlashi mumkin. Qo'shimcha materialdan foydalanish hikoyani boyitadi va konkretlashtiradi. Hikoya davomida foydalanilgan maqol, matal va topishmoqlar darsni boyitib, bayon qilayotgan materialni o'quvchilar tomonidan qabul qilib olinishini osonlashtiradi.

VII. Ko'rgazmalilik (surat, jadval, texnika vositalari)ni qo'llash. Hikoya davomida ko'rgazmalilikning har xil vositalaridan foydalanish o'quvchilarda aniq tasavvurlar hosil bo'lishiga, o'rganilayotgan materialga diqqat va qiziqishni quvvatlashga, uni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi. Sxemalar, jadvallar, tajribalar, doska va daftardagi (atama) va xulosalar o'quv materialini o'zlashtirilishini yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.

2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-Yil A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011y.
5. G.M.Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Oquv qollanma Buxoro-2020.
6. G.M. Sayfullaev. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan. Buxara-2020

Ko’ngil nidosini eshitaolgan ijodkor

Botirova Ziyodaxon Azamjon qizi

Fargona viloyati Quva tumani 13-umumiy orta talim maktabining ona tili va adabiyoti fani oqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479217>

Anotatsiya. Ko’ngil nidosini eshitaolgan ijodkor - Erkin Vohidov. Adabiy darg’alarda o’chmas iz qoldirgan serqiyva ijodkorning ijod mahsullariga nazar tashlaymiz.

Kalit so’zlar. Ushbu maqolada ijod, sher xazinasini, Navoiy, Geote, Yesenincha sheva, drama, komediya kabi so’zlar ishtirok etgan.

Zamonaviy ozbek milliy adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri erkin Vohidov ijodida gazal, qasida muxammas kabi janrlar shakllanib boradi. U mumtoz adabiyotning bu sohadagi tajribalarini boyitish, mukammallashtirishga intiladi. Erkin Vohidov badiiy mahorati osib, kamol topgan, chuqur falsafiy umumlashmalar darajasiga kotarilgan ijodkordir. U Ozbekiston xalq shoiri, Ozbekiston Qahramonidir. Zamonaviy ozbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidovdir. Ul zotning 16 yoshlarda “Manzara” nomli sheri bosmadan

chiqadi. Unda tabiat gozalligi samimiy tasvir etilgan bolsa, kop otmay, u dostlariga qarata:

Istaymanki, xurramlik bolsin,

Shox qahqaha boglasin qanot.

Kuy shalola yanglig quyilsin,

Qoshiq bolib tuyilsin hayot.

Deb, ijodining katta karvoniga ozining yaxshi niyati, katta umidi, pokiza qalbi bilan kirib keldi.

Bagring tole nuriga tolsin,

Ona yurtim – munis makonim.

To tirikman, seniki bolsin

Sherim, umrim, yuragim, jonim.

Ota yoqimli, oqimishli bolgan bu sher ,albatta, Erkin Vohidov ijodining namunasi. Bu sherda shunday mazmunlar jo bolganki, ona yurtiga ozidagi barcha aziz narsalarini hattoki, jonini ham bagishlab yuboryapti. Tortinchi misraga qaredigan bolsa, birinchi ona yurtiga bagishlaydigan aziz narsasi hatto joniga teng narsasi uning sheri ekanligini bilishimiz mumkin.

Erkin Vohidov birgina sheriyatdagina emas barcha janrlarda qalam tebratga. “Erkin Vohidov zamondoshimiz.u ozi bilan birga she’r xaznalarini olib keldi. Uning bilan birga Navoiy yurgandek, Fuzuliy yurgandek, Geote yurgandek, Gafur

Gulom, Hamid Olimjon, Cholponlar yugandek...Ularning sherlarini oz sherlaridek oqidi. Ularni sozlatadi,tilga kiritadi – yetgan yeriga sher xazinalarini yetkazadi. Sheriyatning marifati va madaniyati shu bolsa kerak.”

Erkin Vohidov asarlari zamirida yotgan tiniq samimiyat, insoniylik, mehr-muhabbatni eng yuksak darajasini tushunish va shunday talqin etish, sheriyatdagina emas, hayotda ozinging pozitsiyasiga egaligi, vatanga huddi otaga suyanganday suyanishi, xalqqa huddi onaga talpinganda talpinishi yurt kamolini oylashi – Erkin Vohidovning inson sifatida, shaxs sifatda, katta sanatkor shoir sifatida oz davri, oz avlodining juda yorqin vakili ekanligini korsatib turadi.

Erkin Vohidov xalqning bag'ri kengligi va saxovatpeshaligini avvaldan o'ziga dasturiamal qilib oldi. Shoir ilhomning tub manbalari xalqning shunday o'ktam fazilatlaridandir. Aytishadiku, xalqdan olib, sayqallab xalqqa beramiz deb. Shoirimizning ham yozgichlarni xalqqa birdek maqul bolishining sababi ham shu. Xalq orasida oddiy inson bo'lib ko'rib yurib, birgalikda boshdan o'tkazgan hayot sinovlarini oq qog'ozga sayqallab, badiy ruh berib tushuradi. Bu ijod mahsuli orqali xalqqa oz bo'lsada taskin berib,ularni og'irliklarini yengillatishga harakat qiladi. Birgina darsliklarda berilgan “Nido” dostonini o'qigan 5-sinf o'quvchisi ham o:sha zamondagi vaziyatni tushunib yetadi.

Ul zotning ijodida mana bu janri birinchi, mana bu janr ikkinchi orinda turadi deb aytish qiyin. Adabiyotning barcha janrlarida shunday qalam tebratganki, bu janrda yozgan asarlari alohida ajralib turadi desak. Shoirning ommaga suyuklilikda birgina “Kelinlar qozgoloni” bellasha olishi mumkin bolgan”Oltin devor'komediyasi ham oz muhlislariga ega. “Istambul fojiasi” daramasi

sahnalashtirilmasdan oldin, uning jurnallardagi matni shunday talash bolganki, tuyada ahtarib ham topaolmaydigan asar bolibdi degan gaplar yurgan xalq orasida.

Ozini tarjimashunoslikda sinab kormagan adib kamdan-kam topilsa kerak. Erkin Vohidovning tarjimashunoslikda gi faoliyatini alohida bir akitab deyish mumkin. Ul zotningtarjimachilikdagi istedodini sergey Yesenin sherlarini ozbekchaga agdarishda alohida yarqirab korinadi. Yesenini sherlar shunday maromiga yetib tarjima qilinganida, Yesenin ozbekning oz shoiriga aylandi. Xalq orasida yesenincha shevali shoir paydo boldi. Bunga misol qilib, hammaga mashhur bo'lgan "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan" she'rini atishimiz mumkin.

O'zbekistonda Erkin Vohidovning ohangdor, ma'nodor satrlaridan bahra olmagan biror kimsa topillmasa kerak. Kimdan so'rasangiz ikki misra ijodidan aytib berishsa kerak.Ul zotning muhabbati, sadoqati, samimiyati xalq qalbida azaliy mo'jizadek qolaveradi

Fargona viloyati Quva tumani 13-umumiy orta talim maktabining ona tili va adabiyoti fani oqituvchisi Botirova Ziyodaxon Azamjon qizi.

Ko'ngil nidosini eshitaolgan ijodkor.

Anotatsiya. Ko'ngil nidosini eshitaolgan ijodkor - Erkin Vohidov. Adabiy darg'alarda o'chmas iz qoldirgan serqiyya ijodkorning ijod mahsullariga nazar tashlaymiz.

Kalit so'zlar. Ushbu maqolada ijod, sher xazinasini, Navoiy, Geote, Yesenincha sheva, drama, komediya kabi so'zlar ishtirok etgan.

Zamonaviy ozbek milliy adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri erkin Vohidov ijodida gazal, qasida muxammas kabi janrlar shakllanib boradi. U mumtoz adabiyotning bu sohadagi tajribalarini boyitish, mukammallashtirishga intiladi. Erkin Vohidov badiiy mahorati osib, kamol topgan, chuqur falsafiy umumlashmalar darajasiga kotarilgan ijodkordir. U Ozbekiston xalq shoiri, Ozbekiston Qahramonidir. Zamonaviy ozbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidovdir. Ul zotning 16 yoshlarda “Manzara” nomli sheri bosmadan chiqadi. Unda tabiat gozalligi samimiy tasvir etilgan bolsa, kop otmay, u dostlariga qarata:

Istaymanki, xurramlik bolsin,

Shox qahqaha boglasin qanot.

Kuy shalola yanglig quyilsin,

Qoshiq bolib tuyilsin hayot.

Deb, ijodining katta karvoniga ozining yaxshi niyati, katta umidi, pokiza qalbi bilan kirib keldi.

Bagring tole nuriga tolsin,

Ona yurtim – munis makonim.

To tirikman, seniki bolsin

Sherim, umrim, yuragim, jonim.

Ota yoqimli, oqimishli bolgan bu sher ,albatta, Erkin Vohidov ijodining namunasi. Bu sherda shunday mazmunlar jo bolganki, ona yurtiga ozidagi barcha

aziz narsalarini hattoki, jonini ham bagishlab yuboryapti. Tortinchi misraga qaredigan bolsa, birinchi ona yurtiga bagishlaydigan aziz narsasi hatto joniga teng narsasi uning sheri ekanligini bilishimiz mumkin.

Erkin Vohidov birgina sheriyatdagina emas barcha janrlarda qalam tebratga. “Erkin Vohidov zamondoshimiz. u ozi bilan birga she’r xaznalarini olib keldi. Uning bilan birga Navoiy yurgandek, Fuzuliy yurgandek, Geote yurgandek, Gafur Gulom, Hamid Olimjon, Cholponlar yugandek...Ularning sherlarini oz sherlaridek oqidi. Ularni sozlatadi,tilga kiritadi – yetgan yeriga sher xazinalarini yetkazadi. Sheriyatning marifati va madaniyati shu bolsa kerak.”

Erkin Vohidov asarlari zamirida yotgan tiniq samimiyat, insoniylik, mehr-muhabbatni eng yuksak darajasini tushunish va shunday talqin etish, sheriyatdagina emas, hayotda ozining pozitsiyasiga egaligi, vatanga huddi otaga suyanganday suyanishi, xalqqa huddi onaga talpinganda talpinishi yurt kamolini oylashi – Erkin Vohidovning inson sifatida, shaxs sifatda, katta sanatkor shoir sifatida oz davri, oz avlodining juda yorqin vakili ekanligini korsatib turadi.

Erkin Vohidov xalqning bag’ri kengligi va saxovatpeshaligini avvaldan o’ziga dasturiamal qilib oldi. Shoir ilhomning tub manbalari xalqning shunday o’ktam fazilatlaridandir. Aytishadiku, xalqdan olib, sayqallab xalqqa beramiz deb. Shoirimizning ham yozgichlarni xalqqa birdek maqul bolishining sababi ham shu. Xalq orasida oddiy inson bo’lib ko’rib yurib, birgalikda boshdan o’tkazgan hayot sinovlarini oq qog’ozga sayqallab, badiy ruh berib tushuradi. Bu ijod mahsuli orqali xalqqa oz bo’lsada taskin berib,ularni og’irliklarini yengillatishga harakat qiladi. Birgina darsliklarda berilgan “Nido” dostonini o’qigan 5-sinf o’quvchisi ham o:sha zamondagi vaziyatni tushunib yetadi.

Ul zotning ijodida mana bu janri birinchi, mana bu janr ikkinchi orinda turadi deb aytish qiyin. Adabiyotning barcha janrlarida shunday qalam tebratganki, bu janrda yozgan asarlari alohida ajralib turadi desak. Shoirning ommaga suyuqlikda birgina “Kelinlar qozgoloni” bellasha olishi mumkin bolgan”Oltin devor’komediyasi ham oz muhlislariga ega. “Istambul fojiasi” dramasi sahnalashtirilmasdan oldin, uning jurnallardagi matni shunday talash bolganki, tuyada ahtarib ham topaolmaydigan asar bolibdi degan gaplar yurgan xalq orasida.

Ozini tarjimashunoslikda sinab kormagan adib kamdan-kam topilsa kerak. Erkin Vohidovning tarjimashunoslikda gi faoliyatini alohida bir aqtab deyish mumkin. Ul zotningtarjimachilikdagi istedodini sergey Yesenin sherlarini ozbekchaga agdarishda alohida yarqirab korinadi. Yesenini sherlar shunday maromiga yetib tarjima qilinganida, Yesenin ozbekning oz shoiriga aylandi. Xalq orasida yesenincha shevali shoir paydo boldi. Bunga misol qilib, hammaga mashhur bo’lgan “Dog’lar ketmish majruh ko’ngildan” she’rini atishimiz mumkin.

O’zbekistonda Erkin Vohidovning ohangdor, ma’nodor satrlaridan bahra olmagan biror kimsa topillmasa kerak. Kimdan so’rasangiz ikki misra ijodidan aytib berishsa kerak.Ul zotning muhabbati, sadoqati, samimiyati xalq qalbida azaliy mo’jizadek qolaveradi

CAR PARKING AND PARKING IN METROPOLITAN AREAS

Egamberdiyev Dilshodjon Davronjon ugli

Khasanov Akmal Adhamjon ugli

Tashkent University of Information Technologies

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479123>

Abstract. Currently, one of the most urgent problems of megacities is congestion with cars, the number of which is increasing every year. The shortage of parking space puts forward the challenge of a comprehensive parking management solution. This leads to the search for new solutions that have investment attractiveness and are aimed at increasing the efficiency of car parking. The article provides a brief overview of the availability of parking spaces in cities, presents the main problems of their application and solutions.

Introduction. Every year in large cities and metropolitan areas there are more and more cars. Due to the outpacing of the growth rate of motorization of the population over the provision of cars with parking lots, the problem of a lack of parking spaces for car parking not only in the city center, but also in residential areas is becoming more and more urgent. In the cities of Russia, the provision of places for storing cars at the place of residence of the population is on average 35-40%, and the provision of places for parking cars near gravity objects on average does not exceed 25% of the required number. Uncontrolled parking of vehicles complicates the situation, and therefore the carriageway of most streets in the central part of cities is used for traffic only by 30-50% [1]. This problem leads to the search for new effective solutions with investment attractiveness. One of the ways to solve this problem is the arrangement of parking lots, which can

significantly reduce the building area, while at the same time providing a large number of parking spaces.

Types, definitions and purpose of parking lots Parking is an integral part of residential, office, administrative complexes, as well as shopping and entertainment centers. Today, for almost every construction site, one way or another, the issue of placing the cars of its visitors is solved. Underground parking in business centers or residential areas;

underground-overground parking lots in the same building zones;

round-the-clock parking (fenced-guarded);

parking areas in residential areas [1].

Multi-level parking lots are quite comfortable (heating, security equipment, security and fire alarms, ventilation, support services), and long-term land allocation guarantees a high demand for them - up to 40% of the total number of car owners. However, at present, parking of this type has the highest cost of services, according to investors specializing in multi-level garage construction, of all those who are willing and able to buy a place in a multi-storey garage, only 35% have realized their dream. At the same time, multi-level car parks have a number of significant advantages: □ cars left in these car parks are protected from the adverse effects of the environment (rain, snow, mud, etc.); in multi-storey construction, the area occupied by the building is relatively small. Underground parking has recently become widespread in new development areas, when they are located next to or directly under buildings. The undoubted advantage of this type of parking is the best accessibility of residents to their cars, in addition, cars are in

optimal conditions for storage, regardless of the state of the natural environment. But taking into account the peculiarities of the planning of residential areas, the requirements of regulatory documents for the organization of this type of structures and other factors, underground parking under residential buildings is designed, for the most part, on one floor, which significantly reduces their capacity, providing 40-60% of the needs for parking spaces.

Car storage areas in residential areas are the simplest and most popular type of parking. They are part of the improvement of adjacent territories and have the necessary coverage. However, the car is left without any supervision and is exposed to environmental factors.

Ma'qola mazmuni: Gipotalamo-gipofiz tizimi-gipofiz va gipotalamus tuzilmalarini birlashtirib, asab tizimi va endokrin funksiyalarini bajaradi. Gipotalamo-gipofiz tizimi gipotalamusning ventromedial mintaqasida boshlangan gipofiz oyoqlaridan va gipofiz bezining uchta bo'lakdan iborat: adenogipofiz (oldingi bo'lak), neyrogipofiz (orqa bo'lak) va gipofiz bezining ichki qismi. Barcha uch bo'lakning ishini gipotalamus tomonidan maxsus neyrosekretor hujayralar yordamida boshqariladi. Oksitotsin va vazopressin — bu hujayralar maxsus gormonlarni

bo'lib bu garmonlar gipotalamusdan ishlab chiqariladi. Gipotalamo-gipofiz etishmovchiligi gipotalamus gormonlari darajasining pasayishi bilan tavsiflanadi, bu gipomenstrüel va gipermenstrüel (kamroq) sindromga olib keladi. Gipotalamo-gipofiz etishmovchiligi bo'lgan bemorlarda bachadon kattaligi kamayadi, bachadon bo'yni konusning shakliga ega, quvurlar uzaytiriladi, ingichka, buruq, atonik, vagina tor. Bunday patologik holat jinsiy infantilizm (kam rivojlangan) deb ataladi. Jinsiy organlarning bunday anatomik xususiyatlari bepushtlikning kelib chiqishida muhim rol o'ynaydi, lekin follikullarni stimulyatsiya qiluvchi gormon darajasining pasayishi va natijada qon estrogenining past ko'rsatkichi tufayli ovulyatsiya etishmasligi ustuvor ahamiyatga ega. Endokrin bepushtlikni davolash ta'sirlangan organning tabiati va joylashuviga qarab amalga oshiriladi. Gipotalamo-gipofiz disfunktsiyasi bilan jinsiy infantilizm bilan birgalikda gormon terapiyasining o'z vaqtida tayinlanishi ijobiy reproduktiv prognozlarga olib keladi. Gormonal terapiya ginekolog-endokrinolog nazorati ostida amalga oshirilishi kerak, bu esa qon estradiol darajasini majburiy baholash bilan amalga oshirilishi kerak.

Gipotalamo-gipofiz disfunktsiyasi: Gipotalamo-gipofiz tizimining disfunktsiyasining sabablari jismoniy yoki psixo-emotsional stress, yuqumli kasalliklar (meningit, ensefalit), nazofarenks kasalliklari (tonzillit, sinusit), kranioserebral shikastlanishlar, uyqu buzilishi, ochlik bo'lishi mumkin. Natijada jinsiy gormonlar sintezi miqdori va siklikligi buziladi.

Menstrüel sikl bozukluklari bo'lgan hipotalamik-gipofiz disfunktsiyasining klinik ko'rinishlari: luteal faza etishmovchiligi, anovulyatsiya davrlari (ovulyasyon yo'q) yoki amenoreya (hayz etishmasligi). Qonda estrogen sekretsiyasi va prolaktin va gonadotropinning yuqori darajasi (gipotalamusda sintez qilingan gormonlar)

mavjud. FSG ning kam miqdori follikullar, anovulyatsiya va natijada anovulyatsion bepushtlik o'sishining yo'qligiga olib keladi. Anovulyativ bepushtlik bilan endometriumning o'sishi va yetilishi har doim azoblanadi, ya'ni bepushtlikning bachadon omili qo'shiladi. Xuddi shu guruhga androgen tuxumdonlari (erkak jinsiy belgilaridan mas'ul gormonlar) ishlab chiqarish darajasi yuqori bo'lgan ayollarni kiritish mumkin. Androgenlarning doimiy yuqori darajasi ovulyatsiyaning surunkali bostirilishiga olib keladi va hirsutizmga (ayollar uchun atipik joylarda yuqori yog'li sochlar), bepushtlik, 6 oydan ko'proq vaqt davomida hayz ko'rishiga olib kelishi mumkin. Gipotalamo-gipofiz disfunktsiyasi bo'lgan ayollarda davolanish qondagi gormonlar darajasiga bog'liq. Gormonal tekshiruv gipotalamo-gipofiz disfunktsiyasini muvaffaqiyatli davolash uchun ustuvor va zarur shartdir. Qonda prolaktinning yuqori darajasi mavjud bo'lsa, anovulyatsiya bilan birgalikda gormonal terapiyani tayinlashdan oldin prolaktin ishlab chiqarishni kamaytirishga qaratilgan davolash kursi amalga oshiriladi. Agar prolaktin darajasini kamaytirgandan so'ng, mustaqil ovulyatsiyani tiklash sodir bo'lmasa, tuxumdonlar funksiyasini stimulyatsiyadan foydalanish masalasi hal etiladi. Gormonal terapiya fonida giperprolaktinemiya ham muayyan dorilar bilan ovulyatsiyani rag'batlantiradi, bu ko'pincha ayolni homilador qilish imkonini beradi.

Gipotalamo-gipofiz disfunktsiyasining diagnostikasi: Gipotalamo-gipofiz-ovaryan tizimi kasalliklar tashxis uchun klinik va laboratoriya, biokimyoviy va qon gormonal tadqiqotlar, Bosh suyagini rentgenogramma qilish (prolaktinoma oldini olish maqsadida gipofiz bezi joylashgan turk egari maydoni ko'rish) butun spektri kerak. Grafika qurilishi bilan bazal haroratni o'lchash informativdir. Ovulyatsiya

davrida rektal haroratning o'rtacha 1°s ga oshishi kuzatiladi. Iyutein fazasi etishmovchiligi bilan siklning ikkinchi bosqichi qisqaradi, siklning har ikki bosqichida harorat farqi 0.6°s dan kam. Menstral siklning muayyan kunlarida follikullarning o'sishi va endometriumning qalinligi bo'yicha ultratovush tekshiruvi o'tkaziladi. Endometrial biopsiya hayz boshlanishidan 2-3 kun oldin amalga oshiriladi, bu endometriumning morfologik kamolotini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiotlar:

- 1.B.X Shagzatova „ Endokrinologiya”
- 2.S.I Ismailov „ Endokrinologiya”
3. Mark S. Nyu-York: Thieme Medical Publishers. 7 2010. Greenberg. „Neyroxirurgiya bo'yicha qo'llanma.”
- 4.Internet tarmoqlari.

Hidi tili mazasi

Buxoro viloyati Romitan tumani

41-IDU maktabi Boshlangich sinf oqituvchisi

Hasanova Nilufar ning Z.M.Bobur tavalludi

munosabati bilan Tami, tili, mazasi

mavzusida STEAM asosida otkazgan ochiq dars

ishlanmasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6464816>

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk shoh va shoir Bobur ijodi haqida uning manaviy merosi haqida soz boradi.

Kalit sozlar: Talim tarbiya ,ped texnalogiya , tarix, shajara ,STEM

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Hamkorlik STEAM darsi (bahs munozara, savol - javob)

Dars shakli: Jamoa bolib ishlash

Darsning jihozi: Darslik, shoir portreti, korgazma qurollar, badiiy adabiyotlar,
Bobur

taxti.

Texnik vositalar: Kompyuter, monitor

Tashkiliy qism: Psixologik iqlim yaratish, salomlashish.

Baholash mezonlari haqida tushuncha berish (Ofarin, Barakallo, Harakat qil sozlari
yozilgan shakllar)

Oqituvchi:

Aziz oquvchilar darsimiz oqish va uqish darsidir. Bugun darsimizga bir necha fan
oqituvchilarni va aziz mehmonlarni taklif etganmiz . bu bejizga emas. Albatta,
bunga sabab bor. Sizlarga uy ishi qilib Hidi, tilimi va mazasidan rivoyatini oqish
va sahna korinishi tayyorlash topshirilgan edi. Marhamat sahna korinishi bilan
darsimizni boshlaymiz.

Sahna korinishi:

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u
yerning sultoni bolibdi. Hindiston bog - rogi kop, meva chevaga boy yurt ekan.
Bobur mendan yodgorlik qolsin deb Hindistonning korkam joyiga bir bog barpo
ettiribdi. Dunyodagi eng katta bu bogga turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribdi.
Xalq dunyoga dongi ketgan bu bogga Bogi Boburiy deb nom qoyibdi.

Bogdagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribdiki, ularni hech yerga sigdirib bolmabdi. Bogi Boburiyning bir chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitibdi. Ammo qovun bilan handalak bolmabdi.

Shoh bir yil qovun ektiribdi, bitmabdi, ikkinchi yil ektiribdi, bitmabdi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Qovun bitishiga bitibdi yu, birinchi yili gulidayoq hosilini tashlab yuboribdi, ikkinchi yili palagi olib qolibdi, uchinchi yil pishib yetmay turib solib qolibdi. Boburshoh bolsa qovun topishni talab qilaveribdi.

Bu yil qovun ekib pishirmasanglar, hammangizni jazolayman, - deya gazablanibdi.

Bogbonlar nima qilishni bilmay rosayam boshlari qotibdi. Oxiri Boburshohga bildirmay, uzoq Fargonadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha oyga ovga ketib, qaytib kelgach, bogbondan qovun yoqlatibdi.

Bogbonlar Fargonadan keltirilgan qovunni olib borishibdi. Boburshoh qovunni hidlab korib:

Qayerda bitgan? deb sorabdi.

Bogi Boburiyda bitgan, - deb javob beribdi bogbon.

Yoq, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerda bitmaydi, faqat bir olkada yetishadi, xolos. Sen meni aldayapsan, - debdi Boburshoh.

Aldagan bolsam, bilganizni qiling shohim. Bu qovun Bogi Boburiyda bitgan, debdi bogbon sozidan qaytmay. Boburshoh qovunni hidlay hidlay boyiga mast

bolib, uni tilimlamoqchi bolibdi. Qovun pichoq tegar tegmasdan tarsillab yorilib ketibdi.

Boburshoh bogbonga qarab:

Yolgon gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan. Pichoq tegar tegmay yorilib ketedigan qovun men bilgan olkadagina bitadi. Sen mening savolinga to'g'ri javob bermading, qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi, - debdi.

Boburshohni aldab bolmasligini bilgan bogbon rostini aytishga majbur

bolibdi.

Fargona viloyatidan keltirdik, - debdi koziga jiqqa yosh olib.

Bogbonning gapidan Boburshohning kongli buzilib, yiglab yuborishiga
ozgina qolibdi.

(Bobur qovunni uzoq hidlab yuz koziga surtadi va ota gamgin holda

gapiradi)

Raxmat, sizga. Vatanimning xushboylarini olib kelgan bu qovunda Andijon shamoliyu, musaffo havosini, tabarruk tuprog'ning isini, beqiyos ekinzorlarining gozalligini, bolaligim otgan gozal vodiylar manzarasi, dilkash xalqimning nafasini, ota onam mehrini tuydim. Kindik qonim tokilgan vatan mening beshigim, soginchim va tunganmas armonimdir.

Bobur qolida qovun bilan

Davron meni otkardi saru samodin,

Ayerdi meni bir yola xonumondin.

Gah boshima toj, gah baloyi tana,

Nelarki boshimga kelmadi davrondin.

Bobur Hindistonda shoh bolsada, bir umr vatanini, uning tuprogini, bagri keng odamlarini soginib yashadi.

U ozga yurt toju taxtidan Vatanning bir siqim tuprogini afzal deb bildi. Shoir gazallarida, ruboiylarida armonga aylangan Vatan soginchini his etamiz.

Oqituvchi: Rahmat aziz oquvchilarim. Endi esa savollarga javob bering.

Boburshoh ozidan yodgorlik qoldirish uchun Hindistonda nima ishlar qildi?

Javob: Bobur ozidan keyingi avlodga yodgorlik bolsin deb ajoyib bog yaratdi. Bu bogga barcha mamlakatlardan nihollar keltirib ornatdi. Xalq bu bogni Bogi Boburiy deb atadi. Hindistonni gullab-yashnashi va ravnaqi uchun kop xayrli ishlarni amalga oshirdi.

Bogbonning gaplaridan nima uchun Boburshohning kongli buzildi?

Javob: Bobur ozga yurtda shoh bolsa-da, bir umr Vatan soginchi bilan yashadi. Qovun unga tugilib osgan yurtini, tabarruk tuprogining isini, beqiyos ekinzorlarining gozalligini, bolaligi otgan vodiyni, dilkash xalqini eslatgan edi.

Oquvchilar savollarga javob beradilar.

Oqituvchi: - Vatan nima?

Oquvchi: - Vatan bu tugilib osgan joyimiz.

Vatan bu oqigan maktabimiz.

Vatan bu oynagan mahallamiz.

Jismimiz qonim topgan maskan,

Kindik qonimiz tokilgan tuproq.

Tole yoqi jonimga balolig boldi,

Har ishniki ayladim, xatolig boldi.

Oz yerni qoyib, Hind sori yuzlandim

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig boldi.

Oqituvchi: Nega Bobur oz yurti qolib Hindiston sari yol oldi?

Bobur toj taxt uchun bolgan urushlar tufayli Andijondan chiqib ketib, Hindistonda buyuk boburiylar sulolasiga asos soldi.

Hindistonda qudratli saltanat ornatgan davlatning gullab yashnashida katta hissa qoshdi.

Oqituvchi: Aziz oquvchilar bugungi oqigan Hidi, tilimi, mazasidan deb nomlangan hikoyamiz orqali shoh va shoir, davlat arbobi hamda buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti bilan tanishdik. Darhaqiqat, bugun 14 fevral Boburning

tavallud topgan kuni. Keling yaxshisi xonanda Mamurjon Toxtasinov ijrosida Yaxshiliq qoshigini tinglasak.

Oqituvchi: - Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tavallud topdi. U saroyda shahzodalarga xos munosib talim tarbiya olgan. Bobur otasi vafotidan song, 12 yoshda taxtga otirgan.

Oqituvchi: Rivoyatdagi izohtalab sozlar ustida ishlash uchun ona tili fan oqituvchisini darsimizga taklif etganmiz.yozdiradi va izohlab beradi.

(ona tili oqituvchisi oquvchilar uchun qiyin bolgan sozlarni sorab, yozuv taxtasiga yozdiradi va slayd orqali oquvchilar sozlarni daftarlariga qayd etadilar)

2-slayd. (Oquvchilarning etibori monitorga qaratiladi)

Hozir oquvchilarimiz tomonidan yod olingan Bobur ruboiylaridan tinglaymiz.

Jonimdan ozga yoru vafodor topmadim,

Konglimdan ozga mahramu asror topmadim.

Jonimdek ozga jonni dilofgar kormadim.

Konglim kabi kongulni giriftor topmadim.

Ko`ngli tilagan murodiga yetsa kishi,

Yo barcha tilaklarni tark etsa kishi.

Bu ikki ish muyassar olmasa olamda

Boshni olib bir sariga ketsa kishi

Har ishda shitob qilmaysan,
Bu demak murodga yetmaysan.
Yod etmas emush kishi mehnatda kishi,
Shod etmas emish kishini gurbatta kishi.
Konglim bu gurbatta shod otmadi hech,
Gurbattda sevinmas emush albatta kishi.
Kopdin berikim, yoru diyorim yoqtur,
Bir lahza-yu, bir nafas qarorim yuqtur.
Keldim bu sori oz ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yuqtur.
Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa jafo topqusidir.
Yaxshi kishi kormagay yomonliq hargiz
Har kimki yomon bolsa jazo topqusidir.
Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,
Tiyra boldi rozgorim ul qaro qoshdin yana.
Men xud ul tifli parivashga kongil berdim, va le
Xonumonim nogohon buzulmagay boshdin yana

Yuz yomonlig kurib ondin telba bolding ey kongil

Yaxshiligini koz tutarsen ul parivashdin yana.

Tosh urar atfol meni, uyida forig ul pari

Telbalardek qichqirurmen har zamon toshdin yana.

Oyogim yetguncha Biburdek ketar erdim netay,

Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana.

Farzandlaridan Humoyun, Kamron va Gulbadanbegim shoir va adib bolib yetishdilar.

Oqituvchi: Oquvchilar Bobur haqida mustaqil topilgan ma'lumotlar bilan tanishamiz. Ular o'zbek, rus, ingliz va nemis tillarida Bobur haqida bilgan ma'lumotlarini aytishadi.

Bobur jahonga mashhur Boburnoma asarini yaratdi. Unda Movarounnaxr, Xuroson, Hindiston xalqlari tarixi, urf odat va ananalarini, tarixiy shaxslarni, mamlakat tabiiy lavhalarini aks ettirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotshunos, tarixshunos olim va shoir sifatida xalqimiz manaviy madaniyati tarixida munosib orin egalladi.

Bobur 1530 yilning 26 dekabrda Hindistonning Agra shahrida ozi bunyod etgan gozal maskan Zarafshon chorbogida vafot etdi.

Bobur Afgoniston va Hindistonda davlatni boshqarib turgan holda, umrining oxirida kindik qoni tokilgan yurtini unutmadi. U oz ona diyorini haddan ziyot sevardi, Vatanidan judoligidan gam alam chekardi.

Boburning bolaligi asosan Andijon va uning atrofida otdi. Bobur saroy muhitida oqidi va tarbiya topdi. Yoshligidan ilm fanga, shariyatga qiziqqa boshladi.

Oqituvchi: Rahmat, aziz oquvchilarim. Bobur haqida yaxshi malumotlar toplabsiz.

Vatan soginchi dilidagi bitmas jarohatga aylangan Zahiriddin Muhammad Bobur gazallari har bir xonadonda qoshiq bolib jaranglar ekan, demak, uning nomi avlodlari qalbida hech qachon ochmaydi.

Oqituvchi darsni xulosalaydi.

Dars yakuni

Faol oquvchilar baholanadi.

Vazifa beriladi.

Bobur hayoti va ijodini organish, gazallaridan namuna yodlash.

Foydalanilgan adabiyotlar: oqish kitobi ,tarix darsliklari,internet manbalari

Maktabgacha talimda bolalarga ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari

Hasanova Dilnoza Sadirovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

Maktabgacha talim bolimi

talim-tarbiya sifatini taminlash

va metodik yordam korsatish sho`ba metodisti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473437>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar toppish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: ekologiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, madaniyat, tushuncha, taʼlim, tarbiya, maktabgacha taʼlim tizimi, ekologik tarbiya.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, oʻzgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit oʻrtasida boʻlib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yoʻllarini oʻzlashtirishdan iboratdir. Inson tabiatga, oʻzini oʻrab olgan muhitga nisbatan oʻz munosabatini oʻzgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, oʻrganishi va ular asosida oʻz hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yoʻllarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi boʻladi va shu ofatlardan halok boʻladi. Ekologik taʼlim va tarbiyaning tub maʼnosi - tabiat va jamiyat oʻrtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bugʻluvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni oʻrganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir. Ekologik taʼlim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qoʻygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq odob yuzasidan halqimizning tabiatga hurmat va eʼtibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni koʻpaytirish, bogʻu-rogʻlar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uygʻotishdan iboratdir. Insonni oʻrab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, goʻzalligiga qoʻshadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni etishtirish - bu ekologik tarbiya maqsadi. Oʻrta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Byeruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta

hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e' zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Tabiatshunoslikka oid "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia'zo al hayvon" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zo larining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomik fiziologik tushunchalar byerilgan. Ularining ruhiy holatlaridagi hususiyatlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Kasalliklarining oldini olish, sog'lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo'llash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ekologiya – «oikos» so'zidan olingan, «tom» yoki «uy» ma'nosini anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan ilk bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zoologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Otabobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratish savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi deb bejiz aytishmagan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: «Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'ying». Atrof-muhitning tozaligi, sofligini ta'minlash o'zimizga bog'liq. Ekologik tarbiyani oiladan, bog'cha yoshi davridan yosh avlodga singdirish kerak.

MTTning ta'lim-tarbiya dasturida bolalarga ona-tabiatga muhabbatni, o'simliklar, hayvonlar haqida g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini tarbiyalash, tabiat qo'ynida o'zini odobli tutish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish, muhofaza qilishga qiziqish uyg'otish, daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qiynamaslik ko'nikmalarini tarbiyalash kichik guruhdan boshlab amalga oshirilishi ko'zda

tutiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ekologik tarbiya berish quyidagi usullarda olib boriladi:

1. Ko'rgazmali (kuzatish, rasmlar ko'rish, diafilmlar namoyish etish).
2. Amaliy (o'yin tarzida).
3. Og'zaki (hikoya, tushuntirib berish, badiiy asarlarni o'qib berish). Ko'rgazmali metod. Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik, hayvonlar, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish asosida tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg'ulotda, sayrda, ekskursiyada, tabiat burchaklarida olib boriladi. Uni bolalar amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borsalar yaxshi natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasida foydalaniladigan diafilmlar MTT ta'lim-tarbiya dasturi asosida ishlab chiqilgan. Diafilm tarbiyachiga dastur mazmunini ma'lum sistema asosida bolalarga qiziqarli qilib yetkazishga yordam beradi. Oynayi jahon orqali beriladigan «U kim, bu nima?» ko'rsatuvi, radio orqali beriladigan «Ertaklar olamiga sayohat» o'yin-eshittirishi orqali bolalar u yoki bu o'lkaning tabiati, hayvonot olami, xalqlarning urf-odati bilan tanishadilar. Axloqiy sifatleri tarbiyalanadi. Ularda namoyish etilgan teleko'rsatuvlar orqali tabiatda yuz berayotgan jarayonlar, o'simlik, hayvonlar olami to'g'risida to'laqonli tasavvur hosil bo'ladi. Amaliy metod. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun meva-sabzavotlar, daraxt novdalari, xona gullaridan foydalanish mumkin. Bolalarni o'simliklar bilan tanishtirishda quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin: «O'simliklarni nomiga qarab top», «Bargiga qarab top», «Ta'riflangan o'simlik yoki mevani top» va. h.k. Og'zaki metod. Bolalarga ekologik tarbiya

berishda tarbiyachining tushuntirishi, hikoya qilib berishi, xalq maqollaridan, masallaridan foydalanishi, suhbat kabi ogʻzaki metodlarning roʻli kattadir.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar, marosimlar, nodir qoʻlyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos boʻlib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sogʻlom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga oʻrgatiladi. Shu sababli ekologik tarbiya yoʻnalishlari ham turli xil boʻldi. Quyida ularning baʼzilari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltiramiz:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga oʻrgatish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻz oʻquv muassasalarini va uning tevarak-atroflarini koʻkalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga oʻrgatish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash koʻnikmalarini shakllantirish.

Havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat inʼomidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang oʻpkada gaz almashuviga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu insonning sogʻligʻini bora-bora izdan chiqarib, turli tuman xastaliklarni vujudga keltiradi. Tabiat shunday odil moʻjizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni oʻsimliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak oʻsimliklar Dunyosi, nazariy maʼnoda

aytganda, havoni chang va karbonat angidridan tozalab byeruvchi bebaho vositadir. Bunda inson o'z atrofini o'rab turgan iabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'ldan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi.

Shuning uchun ota bobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shulga T.I. Rol stanovleniya volevoy regulyatsii v razvitii mladshego shkolnogo vozrasta: mejvuzov, sborn. trudov Psixologo-pedagogicheskiye osobennosti razvitiya lichnosti mladshego shkolnika. -Penza, 1993.
2. Wofford J.C. Experimental analysis of a cognitive model of motivation. // J.Psychol. London, - 1990. - Vol. 124, № 1. - P.87-101.
3. Vigotskiy L.S. Razvitiye visshix psixicheskix funktsiy, Sobr. sochineniy M. 1982g. t.3
4. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.

**HAYDOVCHILARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6464971>

Dildora Abdurazakova

*Toshkent Davlat transport universiteti “Transport intellektual tizimlari
muhandisligi” kafedrasida katta o’qituvchisi*

Polvonbek Allaberganov

Toshkent Davlat transport universiteti talabasi

Annotation: The article discusses the role of innovative technologies in the organization of the educational process of driver training, the introduction of modern information technology in education, important and positive aspects of the use of modern pedagogical and information and communication technologies, opportunities for modern education in professional driver training.

Keywords: Road safety, traffic accident, driver, pedagogical technology, education, communication, information, remote, electronic, Internet

Anotatsiya: Maqolada haydovchilar tayyorlash o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning muhim va ijobiy jixatlari, professional haydovchilarni tayyorlashda zamonaviy ta'limning imkoniyatlari xaqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yo'l harakati xavfsizligi, yo'l transport hodisasi, haydovchi, pedagogik texnologiya, ta'lim, kommunikatsiya, axborot, masofaviy, elektron, Internet

Rivojlangan davlatlarda avtomobilsozlik sanoati rivojlangan sari avtomobilar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ammo, afsuski, yo'l-transport hodisalaridan jabrlanganlar soni ham ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra dunyo bo'ylab har yili 1.3 million odam yo'l transport hodisasi qurboni bo'lishadi. 20-50 million odam jarohatlanadi va ulardan ko'pchiligi nogiron bo'lib qolishadi. Misol uchun Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi Respublika yollarida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarini haqida bergan statistik ma'lumotga ko'ra, o'tgan yilning 10 oyi mobaynida jami 7681ta YTH ro'y bergan. Ularda 1964 kishi hayotdan ko'z yumgan, 6886 kishi turli darajada tan jarohati olgan. Eng achinarlisi 1268ta hodisa bolalar ishtirokida sodir bo'lgan va 263 ta bola yo'l-transport hodisalarida halok bo'lgan. Yo'l-transport hodisalarini odamlarga, ularning oilalariga va umuman davlatlarga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Yo'l transport

xodisalarining sabablarini aniqlaydigan omillarni tahlil qilish orqali, inson omili muhim ahamiyatga ega ekanligini xulosa qilishimiz mumkin bo’ladi. Bu yerda AYXM tizimining samaradorligi xaydovchining ishonchliligiga bog’liq bo’ladi, bu haydovchining belgilangan vaqt davomida har qanday yo’l sharoitida vazifasini bexato bajarish xususiyati bilan tavsiflanadi.

Haydovchi ishonchliligini belgilovchi ko’rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Haydovchining kasbga yaroqliligi. Xar bir inson uchun tibbiy ko’rsatmalar asosida alohida belgilanadi: sog’liq holati, psixologik va shaxsiy xususiyatlari.
2. Kasbiy tayyorgarlik. O’quv jarayonida va keyingi kasbiy faoliyatda olingan kasbiy bilim va ko’nikmalar darajasi bilan baholanadi.
3. Xaydovchining yuqori ishonchlilik qobilyati. Insonni ma’lum vaqt oraliqida yuqori mahsuldorlik va yuqori sifat ko’rsatkichlari bilan ishni tashkil etishidir.

Demak haydovchi ishonchliligini ta’minlashni eng asosiy ko’rsatkichlaridan biri bu haydovchilarni tayyorlash tizimini sifatli tashkil etishga borib taqalar ekan. Bu masala yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash bo’yicha davlat siyosati darajasidagi eng muhim masalalardandir. Shu o’rinda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning 2022 yil 26 yanvar kuni bo’lib o’tgan videoselektor yig’ilishida yo’l harakati qoidalari buzilishi va avariya holatlari keskin oshayotganiga e’tibor qaratildi. Muammoni bartaraf qilish uchun avvalo o’qitish tizimini tubdan takomillashtirish, tizimdagi korrupsiya uchun jazoni kuchaytirish bo’yicha qonunchilikka qo’shimcha kiritish yuzasidan taklif kiritish bo’yicha mutasaddilarga topshiriq berildi.

«Ichki ishlar vaziri, Transport vaziri viloyat hokimlari bilan birga, yo'llarda xavfsiz harakatlanishga sharoit yaratish, avariya va o'lim holatlarini keskin qisqartirish, buning uchun, harakatlarni boshqarishni to'liq raqamlashtirishi zarur. Koronavirusdan emas, avariyalardan ko'proq odam o'lyapti. Endi har 15 kunda bu borada xulosa qilib, hisobot kiritasiz!»

Prezident haydovchilik guvohnomasi olishda poraxo'rlik odatiy holga aylanganini tanqid qildi.

«Shu o'rinda, bir muhim masalaga barchaning e'tiborini qaratmoqchiman. Umuman, haydovchilik guvohnomasini o'qimasdan olish oddiy holga aylanib qoldi. Mana biz o'qiganmiz, uch yil o'qitardi. Hozir 3 oy o'qiyapti, yana bormasdan guvohnoma olyapti. Nima, O'zbekistonda qonun yo'qmi? Shuning uchun, avariya soni soat sayin oshib bormoqda. Agar biz o'zimiz tan olmasak, chora ko'rmasak, davom etaveradi. Bu muammoni bartaraf qilish uchun, Davletov, Bobojonov, Yo'ldoshev, avvalo o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish, ikkinchidan, o'qitmasdan va o'rgatmasdan guvohnoma berish «jinoyati»ga qarshi jazoni kuchaytirish bo'yicha, bir oy muddatda qonunchilikka qo'shimcha kiritish yuzasidan taklif kiritsin», deya qat'iy talab qo'ydi davlat rahbari.

Darxaqiqat statistik ma'lumotlarga ko'ra, yo'l transport xodisalarining 70% haydovchilarning xatoliklari tufayli sodir bo'ladi. Xatoliklar asosan qo'yilgan maqsadni ta'minlab berilmasligi tufayli sodir bo'ladi. Haydovchilarning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'lgan yo'l-transport hodisalarining ko'p qismi quyidagi omillar orqali sodir bo'ladi:

- Yo'l sharoitlarini baholashdagi xatolliklar;

- transport vositalarini boshqarishda haydovchilarning qoniqarsiz intizomi va madaniyati;
- avtotransport vositalarini boshqarishda haydovchilarning e'tiborsizligi va beparvoligi;
- xavfni to'g'ri baxolay olmaslik;
- avtomobil tezligi va shoshqaloqlik;
- avtotransport vositalarini boshqarishda haydovchilarning yo'l xarakati qoidalarini yaxshi o'zlashtirmaganligi, yoshi, tajribasi va x.k

Haydovchi xatoliklari sonini kamaytirishga qaratilgan yo'nalishlardan biri haydovchilarni kasbiy tayyorgarlik jarayoniga jiddiy e'tibor berish, mavjud haydovchilarni tayyorlash modelini takomillashtirish, kamchiliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish mexanizmlari, usullarini ishlab chiqish va bu jarayonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maksimal darajada e'tiborga olish muhim xisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar avtomaktablarda o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining haydovchilarni tayyorlash ta'lim sohasiga qo'llanilishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish g'oyasi tushuntirishdan tushunishga, ijtimoiy nazoratdan rivojlanishga va o'zini o'zi nazorat qilishga, boshqaruvdan o'zini o'zi boshqarishga o'tish zaruriyatida yotadi.

Ta'limning pedagogik texnologiyalarini turli yo'nalishlari mavjud. Ular quyidagilar: shaxsga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar; faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar; o'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar; o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va boshqalar.

Ta'lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham talaba-o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Avtotransport vositalari xaydovchilarini tayyorlashda darslarni qiziq, foydali, faol, izlanuvchanlik xususiyatlariga boy darslarga aylantirish kerak. Albatta buning uchun darslarda zamonaviy pedagogik interaktiv texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Nazariy darslarni muntazam amaliy darslar bilan almashtirib o'tish o'quvchini zeriktirib qo'ymaydi.

Nazariy va amaliy darslarni o'tganda turli xil pedagogik turdagi mashg'ulot shakllarini tanlashlik darslarni bir xil shaklda bo'lmasligiga olib keladi. Nazariy ta'lim uchun aralash va integrallashgan ta'limni qo'llash foydali. Ular quyidagilar: mashg'ulot sayoxat, ekskursiya, o'yin mashg'uloti, viktorina mashg'uloti va x.k. Amaliy mashg'ulotlarda esa mashg'ulot konkurs, loyixalash, testlashtirish shakllaridan foydalanish kerak. Shakl shunday tanlanishi kerakki o'quvchi

muntazam sergaklikda bo’lsin. Bu fanlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Masalan shaxsga yo’naltirilgan ta’lim (differentsiyalashgan, individual) ta’lim oluvchilarni tabiiy faoliyat muxitiga olib kiruvchi muxitni yaratadi. Bu ta’lim xar bir o’quvchini yashiringan qobiliyatlari ochilishiga, qiziqish ortishiga, birgalikdagi ijodiy muxitni yaratilishiga yordam beradi.

Xamkorlik texnologiyasi (guruxlar texnologiyasi) asosidagi ta’lim. Bu texnologiyada turli vaziyatlar yechimini topishga qaratilgan.

Jamoaviy ijodiy ish texnologiyasi jamoaning faol ijodiy shaxsi sifatida o’zini ko’rsatish va gurux bilan birgalikda yechim topishga qaratilgan. Bunga amaliy vazifalar, yo’ldagi vaziyatlarni modellashtirish, tadqiqot o’tkazish kabilar kiradi. Aqliy xujum, everestik suxbat kbi yo’llardan foydalaniladi.

Tadqiqot (muammoli) texnologiya quyidagi elementlardan iborat: muammo qo’yilishi, reja bilan tanishtirish, yechim qidirish, yechim algoritmini tanlash, taxlil, xulosa.

Loyixalash texnologiyasi, Maqsad muammoni ko’ra bilish bilimi va ko’nikmasiga o’rgatish, maqsadga tayanishni bilish, rejalashtirish, gipotezalarni xarakatga keltirish, tizimlashtirish va tuzilishini yaratish. Loyixa moduli “g’oyadan oxirgi natijagacha” sxemasini tuzishni ko’zda tutadi. Muammo-loyixalash-axborot izlash-maxsulot-takdimot-o’zini taxlil etish.

Haydovchilarni tayyorlash ta’lim jarayonida o’qituvchilar o’qitish maqsadidan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda

o'qituvchi talaba-o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh karakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va ta'lim oluvchilarga bog'liq. Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, O'TV ni, eng asosiysi, ta'lim oluvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Bundan tashqari tarbiya texnologiyalarini qo'llash xaydovchi faoliyati samaradorligini belgilovchi madaniyat xususiyatlarini shakllantirish uchun muhim xisoblanadi. Tarbiya texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlari: pedagogik muloqot, pedagogik talab, pedagogik baholash va muvaffaqiyatni yaratish, pedagogik ziddiyatlarni hal qilish, individual va guruh faoliyatini tashkil etishdir.

Bugungi kunda haydovchi axloqi muammolari dolzarb masaladir. Hech bir jamiyat umume'tirof etilgan axloqiy me'yor va tamoyillarsiz normal yashay olmaydi. Haqiqiy axloq umuminsoniy xususiyatga ega. Xavfsizlikning muhim omillaridan biri bo'lgan haydovchining madaniyati uning odob–axloqi, jamoat joylarida o'zini tuta bilishi, yaxshi xulqi, boshqa harakat qatnashchilariga hurmat bilan qarashi, ular biron–bir noto'g'ri xatti–harakat qilganlarida bosiqlik qilishi, ichki ishlar va boshqa taftish–tekshirish xodimlari, yo'lovchi va buyurtmachilar bilan o'zaro munosabatlarida xushfe'l va xushahloq bo'lishida tushuniladi.

Pedagogik jarayonning tarbiyaviy funksiyasi organishning doimiy ravishda bolishida namoyon bo`ladi. O`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchida eng yaxshi fazilatlarni shakllantirish uchun pedagogik jarayonning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to`liq foydalanishdan iborat. Pedagogik jarayonda ta`lim, eng avvalo, o`qituvchi shaxsining o`quvchiga ta`siri bilan va o`qituvchining pedagogik texnologiyalardan qanchalik uddabronlik bilan foydalanishlari asosida ta`minlanadi.

Jamiyatning axborot sohasida faoliyat ko`rsatayotgani hozirda hammaga ma`lum. "Axborot" atamasi fan, texnika, kundalik hayotda eng ko`p qo`llaniladi. Buning sababi shundaki, axborotchanlik, ogohlik shaxsning, ham umuman barcha insonlarning hayotida juda muhim rol o`ynaydi.

Talleyranning: "Axborotga egalik qiluvchi – dunyoga egalik qiladi" degan fikri, hozirgi kunda nafaqat siyosiy, balki ko`p darajada iqtisodiy va ijtimoiy soxa mazmuniga ham to`g`ri keladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari o`quv jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta`limni raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari, ta`lim berish vazifalarini shakllantiruvchi o`qituvchi va uni bajaruvchi ta`lim oluvchilar uchun juda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Shunga qaramay, o`qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi ta`lim oluvchini butun dunyo ma`lumot bazasi xisoblangan internet oqimiga to`g`ri yo`naltirish, talabning mustaqil ravishda bajarishi kerak bo`lgan vazifani to`g`ri shakllantirishdir. Kompyuter vositalaridan foydalanish nafaqat o`qituvchidan, balki haydovchilik maktablari o`quvchilariga o`zlashtirishga yordam beradigan interfaol

o'quv dasturlari yordamida asosiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Xususan ular:

- yo'l harakati qoidalari (YHQ);
- avtomobil konstruksiyasi;
- yo'l harakati xavfsizligi asoslari.

Kompyuter-nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning turli shakllarini doimiy ravishda amalga oshirishga imkon beradi, bu esa kognitiv faoliyat motivatsiyasini va ta'lim olishning ijodiy xarakterini oshiradi. Internet тармогидан фойдаланиш орқали куп ма'lumot bilan onlayn ishlash yoki uni tarmoqdan yuklab olib oflayn tartibda ishlash mumkin.

Internet saytlarida yo'l harakati qoidalari, statistika, har qanday avtomobil qurilmasi haqidagi ma'lumotlar, yangiliklar, maqolalar, jamoat loyihalari, forumlar, kitoblar va jurnallar va boshqa foydali ma'lumotlar topish mumkin. Transport sohasida kognitiv faollikni oshirishga yordam beradigan hozirgi yangiliklardan biri o'quv jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Haydovchilar tayyorlash tizimida Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. Elektron yoki masofaviy ta'limning yangi bosqichida nafaqat axborot texnologiyalarini qo'llash, balki elektron shakldagi ta'lim manbalari bilan ta'minlash ham ko'zda tutiladi.

Elektron va masofaviy texnologiyalar -ta'limning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo'llangan variantlaridir.

Elektron ta'lim (E-Learning)- avval "Elektron ta'lim" atamasi kompyuter yordamida o'qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pgina ta'lim texnologiyalarini qamrab olmoqda, ularni shartli ravishda, 2 xil turga, ya'ni sinxron va asinxron turlarga bo'lish mumkin. Sinxron elektron ta'lim masofaviy ta'lim hisoblanadi, lekin bu real vaqtda amalga oshiriladigan ta'limdir. U oddiy kunduzgi ta'limga o'xshaydi, farqi shundaki, ishtirokchilar bir-biridan uzoq masofada bo'ladi. Ta'limda individual yondashuv , o'zgaruvchan grafik, ish va o'qishni birga qo'shib olib borish, shuningdek, o'zlashtirilayotgan materialni ma'lumotni individual o'zlashtirish tezligiga moslash masofaviy ta'limni barcha uchun qulay qilib qo'yimoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, insoniyatning hayotini yengilashtirishga, vaqtini tejashga, bo'sh vaqtlaridan unumli va samarali foydalanishga yordam berish uchun qaratilgan bu kabi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ularni hayotga tat'biq etish, yanada rivojlantirish juda muhim vazifadir.

Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kelajakdagi haydovchilarning kasbiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Professional haydovchi - yo'llarda xavfsizlik kafolati. Bunday haydovchi nafaqat avtotransportni benuqson boshqaradi, balki boshqa yo'l harakati qatnashchilariga yo'llarda o'zini tutish qoidalariga ham o'rnak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan, 2009.145 b.

Abdurazakova D.A. MASOFAVIY TA'LIM - DAVR TALABI// “O'zbekistonning umidli yoshlari” mavzusidagi 1-son Respublika ilmiy talabalar va magistrlar onlayn konferentsiyasi materiallar to'plami, -Toshkent: Tadqiqot, 2020

Абдуразакова Д.А. Повышение качества профессиональной подготовки студентов в вузе //Проблемы педагогики. 2018. № 2 (34).

Абдуразакова Д.А. Проблема интенсификации обучения в профессиональных колледжах // Наука и образование сегодня. 2017. № 11 (22).

Sharifbaeva H.Ya., Abdurazzakova D.A. Technology of blended learning as a condition of formation self-education skills for students// LXIX International correspondence scientific and practical conference “International scientific review of the problems and prospects of modern science and education” Boston. USA. April 22-23. 2020. v.73-76.

IIV Akademiyasi 3-bosqich

308 - guruh kursanti **Ikromov Sardor**

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING PROFILAKTIK HISOBGA
OLINGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6498108>

“Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtaliukni qaror toptirish, inson huqu va erkinliklariga so’zsiz rioya etilishini ta’minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo’yicha amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlardan ko’zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilatyotgan keng ko’lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo’llab quvvatlanmoqda. Bu o’zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o’zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o’sib bormoqda. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g’oya faoliyatimiz me’zoniga aylanmoqda”.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarorida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo’naltirilmaganligi va ularga kompleks yondoshilmaganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli

ravishda doir sabab vas hart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu hujjatda qonuniylik ahvolini va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini atroflicha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish masalalari belgilab berildi.

So'nggi yillarda jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashning mutlaqo yangi tizimi joriy etilib, uning asosida profilaktika inspektorlari faoliyatida "Mahallabay" va "Fuqarobay" ishlash hamda ushbu faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish keng joriy etildi.

Endilikda qununchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi Qonunining 35-moddasida belgilangan profilaktik hisob toifalari kamaytirilmoqda Profilaktika inspektorlari faoliyatining mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etilib, unga ko'ra belgilangan toifadagi shaxslarni profilaktik hisobga olishning elektron tizimi amaliyotga joriy etilmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlar natijasi sifatida insonparvarlik, adolatlilik, qonuniylik prinsiplari ta'minlanishiga erishiladi. Qolaversa, jamiyatda insonlarning davlat idoralaridan roziligi amaga oshiriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning ma'suliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga

**ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR**

info@bestarticle.uz

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022**

qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish bugungi kunning dolzarb mavzusidir.

**INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR THE EXTRACTION OF RARE
METALS FROM OFF-BALANCE ORES**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6467990>

Vokhidov Bakhriddin Rakhmidinovich, PhD, associate professor,

Murtozayeva Mohinabonu, student

Utkirova Shakhzoda, student

Navoiy state mining institute.

Annotation: The metallurgical industry is of great importance output type. Metallurgical production in the republic the production of gold and silver from rare metals is high in the enterprises being carried out in pictures. The science of metallurgy of rare metals the structure of metallurgical enterprises in the republic, in them technology and manufacturing educator is an integral system of production. For this reason, the production of rare metals It is important to study the theory and practice of these processes has. This article deals with metallurgical processing of raw materials preparation processes, selective smelting of gold-bearing raw materials and information on the process of extracting metal from the solution containing .

Keywords: technogenic waste, selective melting in the heap, granulometric composition, gidroisolation, recultivation, reservoir, airlift, utilisation.

The increase in global demand for gold in recent years has led to the creation of large gold reserves. The world economy has seen a steady increase in the use of secondary resources in the extraction of precious metals. It is well known that the industry of natural resources development is an important direction of economic development of the state. In the case of Uzbekistan, the main role is played by the production of gold and uranium products. Processing of primary ore products and extraction of gold from it is a cost-effective direction. However, today the production of off-balance and man-made waste recycling products is a key requirement of the modern world, and it is important to develop and put into practice gold extraction technology with a high separation rate from off-balance sheet ores important. At present, for large-scale poor deposits, the amount of gold obtained by selective smelting of ores is 0.65-0.82 g/t, for large production volumes (several million tons) - 0.35-0,65g/t. Processing of ores by selective smelting of the ore involves the following technological processes: ore preparation, the process depends on the following parameters - the amount of gold, filtration properties, granulometric and mineralogical composition of raw materials, fine ores may include zooming, etc.; selection and preparation of a site for selective melting (removal of the fertile layer and proper planning of the section); preparation of waterproofing base (clay filling, gluing it, laying polyethylene film, drainage layer preparation, laying of collectors for solution collection); heaping ore; irrigation of the ore body with cyanide solutions; selective smelting of gold; drainage of solutions through the heap; collection and settling of gold preservatives; extraction of gold from alloys; melting of sediments (sink, cathode); decontamination of waste ore deposits (waste washing); reclamation of landfills and landfills.

The selective leaching process is carried out at optimal values of alkalinity (pH), sodium cyanide and dissolved oxygen concentration, which ensures the maximum melting rate of rare metals. The composition of selective smelting, washing and extractable gold alloys is controlled throughout the process. In sumps and reservoirs, process solutions are fortified with sodium cyanide, the concentration of which decreases as drainage through the ore bed. Optimum alkalinity of cyanide solutions (pH = 10.3-10.5), the pile is added to the ore pile by adding lime and cement, and sodium hydroxide (NaOH) is selectively dissolved in cyanide solutions. The first step is to extract gold by sorption of the coarse gold solution into coal.

The process of sorption of gold from quenched solutions is carried out in pressurized sorption columns (PSC). The operation of the PSC is as follows: in each PSC, the sorbent is discharged into the upper compartment by air-lift aerolift air, and in the coal sorption, the sorbent-activated coal is loaded. The working capacity of the loaded coal depends on the working capacity of the sorption columns. The gold-saturated solution is fed to the PSC through a pressure line pipe to the bottom of the column cone via flow meters and control valves. The coal in the columns absorbs the gold spontaneously as the gold alloys pass through it. After passing through the coal, the gold-free solution exits through the stainless net of the drain nets to the upper receiver of the column, and then through the coal holder to the pocket part at the top of the discharge pipe of the gold-free solution. Re-enters the gold-free solution basin, where the process solutions are fortified with sodium cyanide, an alkaline medium (pH), and saturated oxygen to provide the multilayer ore body with washing solutions.

The maximum allowable capacity of PSC is determined from the maximum allowable permeability of the drainage cassette PSC-2000-17m³/h for one cassette, PSC-3000-15m³/h for one cassette and: 85m³/h for 5 cassettes PSC-2000, for 18 cassette PSC-3000, 270 m³/h. Maximum annual production capacity is 281 000 m³.

Tadqiqotning ikkinchi – shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida o‘qituvchilarning o‘qish fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha tashkil etiladigan darslarning mazmuni, shakl, metodlari ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida dars ishlanma, blits-so‘rov, domino, klaster, yosh jurnalist, grafik organayzerlar, boshqotirma, sahnalashtirish, insho, bayon, matematik statistika kabi metod va ish turlaridan foydalanildi. Insho va bayon yozish ko‘nikmalari shakllantirildi

Tadqiqotning uchinchi – yakuniy bosqichida o‘rganilgan muammolarni bartaraf etish uchun bajarilgan ishlardan keyin o‘quvchilarning o‘zlashtirishini, nutqining rivojlanganligini tekshirdik. Tajriba guruhlarida “Navro‘z – bahor bayrami” mavzusida bayon oldik, natijalar esa quyidagicha:

Sinflar	O‘quvchisoni	“5”	“4”	“3”

Tajribasinf (4-“a”)	58	10 17%	28 48%	20 35%
Nazoratsinf (4-“b”)	51	12 24%	21 41%	18 35%

O‘quvchilarning bayon yozish ko‘nikmalari ham oshgan, ya’ni tajriba guruhida o‘zlashtirish 87 %, nazorat guruhida 77 %. Bayon va insho bo‘yicha natijalarga qaraganda bayon yozish o‘quvchilar uchun inshodan osonroq ekan.

Shuni xulosa qilamizki, o‘quvchilar darslarda nutq o‘stiruvchi mashq va topshiriqlar orqali og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishi, ko‘proq ijodkorligini rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishi kerak deb o‘ylayman. Bu metodlarni qo‘llaganda o‘quvchilar nutqidagi xato va kamchiliklarni to‘g‘irlab borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-sonli Farmoni. QHMMB: 0619/5712/3034-son, 29.04.2019-y.

2. Babayeva D.R. “Nutq o‘stirish metodikasi”. – T.: TDPU 2016-yil. O‘quv qo‘llanma
3. G‘afforova T. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Tafakkur”, 2012.
4. Qosimova Karima, Matchonov Safo, G‘ulomova Xolida, Yo‘ldosheva Sharofat, Sariyev Sharofjon. “Ona tili o‘qitish metodikasi” T.: Nosir-2019.
5. Matchonov S, Shojalilov A, G‘ulomova X, Sariyev Sh, Dolimov Z. 4-sinf “O‘qish” darsligi. T.: “Yangi yo‘l”. 2020
6. www.tdpu.uz

“Boshlangich sinflarda matematika fanini oqitish metodlari”

Mirzoyeva Munavvar Boturovna

Buxoro viloyati Romitan tumani

23-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508358>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda matematika fani, uning o'rgatilishi, ilk bosqichlarda o'qitish metodikasi shuningdek darslarni to'g'ri tashkil qilish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matematika, to'garak, metodika, matematik ro'znoma, ekskursiya, boshlang'ich ta'lim.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari

uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak. «Metodika» grekcha so'z bo'lib, «metod» degani yo'l demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiq qiladi. Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o'qitiladi).
2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya'ni matematikadan qaysi material boshlang'ich sinflarda o'rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang'ich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o'rganilishi, mavzular qanday tartibda o'rganilsa, eng ratsional bo'lishi ko'rsatiladi).
3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish. (qanday o'qitish kerak, ya'ni o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni va aqliy qobiliyatlarini egallab oladigan bolishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? Masalan, 10 ichida sonlarni qo'shish va ayirishni qanday o'rganish

kerak, jumladan, bu mavzuda qo'shishning o'rin almashtirish xossasini qanday ochib berish kerak?).

4. O'qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o'qitish?). kerak!

5. Ta'limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari formalarini qanday o'tkazish?. O quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak?. Oquv prosessida ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).

Shunday qilib, o'qitishning maqsadlari, mazmuni metodlari, vositalari va shakllari metodik tizimning asosiy komponentalaridir. Matematika o'qitishning maqsadi. Boshqa har qanday o'quv predmeti kabi matematika boshlang'ich kursi matematika O'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak.

Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilarni o‘qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) O‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo‘ladi. Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘rishakllantirish, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

d) O‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o‘rgatish. Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

O‘qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli usullari ishlab chiqilgan, bu—o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat va mustaqil ishlar; uyva zifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash. Didaktikada darsturiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va boshqalarga bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu usulidan foydalanish masalalari va shuningdek, nazoratni amalga oshirish uslubiyoti yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.

Boshlang‘ich maktab matematika o‘qitish uslubiyotida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi bir didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ayrim

didaktik materiallarda (ayniqsa, o'z jamlangan maktab uchun mo'ljallanganlarida) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir.

Boshlang'ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy holat topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallarni tuzuvchilarning g'oyasiga ko'ra, o'quvchining ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror variantini bajarishi o'quvchining mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning variantlaridan biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytish, bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida nechog'lik chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular bari bir barcha metodik vazifalarni juda tez hal etishga qodir emas. Shunday qilib, didaktik materiallarni o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga ushbu usul mazkur sinf va o'qituvchi uchun eng yaxshi usul bo'lmasligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o'qituvchini o'quvchilarning bilim va uquvlarini o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun ishlar matnini tuzishdan xalos eta olmaydi.

O'quv qo'llanma bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan bilim berishda yuzaga keladigan turli ijtimoiy-iqtisodiy, bozor iqtisodiyotiga oid, o'quvchilarni ijodiy faollikka yetaklaydigan, metodik vazifalarini mustaqil hal etish uchun tayyorgarlik saviyalarini oshirishni nazarda tutadi. Qo'llanma talabalarning matematikadan boshlang'ich ta'lim

metodikasi bo'yicha asosiy ishlarining tavsifi va namunalarini o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulotning mavzu ,unga tayyorlanish jarayonida o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, uslubiy ko'rsatmalar va eng muhim nazariy manbalar keltirilgan. Qo'llanma o'quvchilarning mashg'ulotlarga tayyorlanishida foydalanishlari va ularning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada o'quvchilar uchun ko'p o'yinlar va ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ,yangi pedagogic texnologiya yutuqlaridan foydalanilgan holda milliylashtirilgan materiallarni amaliyotga tatbi etish masalalari keng yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim —Ta'lim taraqqiyoti jurnali, Toshkent —Sharq, 1999, 7 - soni
2. Levenberg L.Sh. va boshqalar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchi
3. Bikbaeva N.U. va boshqalar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchi 1996 yil.
4. Skatkina A.A. —Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole. Moskva —Prosvesheni.

5. “Inequalities. Theorems, Techniques and Selected problems” (Zdravko Cvetkovski).

MUALLIFNING KONSEPSIYASIDA PEYZAJNING ORNI

THE ROLE OF LANDSCAPE IN THE AUATHORS CONCEPT

РОЛЬ ПЕЙЗАЖА И АВТОРСКОЙ КОНЦЕПЦИИ

Nabiyeva Iymona

FarDU 1-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6467827>

Annotatsiya

Maqolada peyzaj va uning asardagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Asarda peyzaj tasviri joy va makonni tasvirlash orqali oquvchida muhim badiiy-estetik zavqning paydo bolishi tasniflangan. Yana bir etiborli tomoni personajni qay tarzda tasvirlash muallif konsepsiyasiga bogliqligi togrisida xulosalar berilgan.

Annotation

The article discusses the landscape and its importance in the work. The play classifies the emergence of an important artistic aesthetic pleasure in the reader by depicting a landscape image of place and space. Another noteworthy aspect of the article is that the description of the character depends on the authors concept.

Аннотаци

В статье рассматривается пейзаж и его значение в творчестве. Другим заслуживающим внимания аспектом является вывод о том, что то, как изображается персонаж, зависит от авторской концепции.

Kalit sozlar: peyzaj tasviri, dinamik peyzaj, ramziy mano, roviy, qahramon ruhiyati, badiiy-estetik zavq, poligarmoniya, politasvir.

Key words: landscape image, dynamic landscape, symbolic meaning, narrator, artistic- aesthetic pleasure, polyharmonic, polydescription.

Ключевые слова: пейзажное изображение, динамичный пейзаж, символическое значение, рассказчик психика героя, поли гармония, полиизображение.

Muallif konsepsiyasida va asar konsepsiyasida peyzaj muhim poetik vazifa bajaradi. Yani yozuvchi oz goyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari bilan emas, balki ularni orab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali oquvchiga tasir etishni, undagi gozallik tuygularini ham tarbiyalashni ko'zda tutadi. Shu jihatdan olganda Isajon Sultonning ijodi alohida etiborga molikdir.

Adibning Tilsim lashkari hikoyasida peyzaj tasviri voqealar sodir bolayotgan, joy, vaqt haqida malumot berish barobarida muhim badiiy-estetik vazifa bajargan. Asar davomida peyzaj tasvirlarining bolib-bolib berib borilishi dinamik peyzaj yaratish usulidir. Bundan tashqari peyzaj asardagi qahramonlar ruhiyatini ochib berishga

xizmat qilgan. Joy tasviri (undagi ranglar) personaj ruhiyati bilan uygunlik kasb etishi ham, unga kontrast tasvirlanishi ham mumkin. Bu funksiyalarning qay birini asosiy oringa otishi esa muallifning konsepsiyasiga bogliq.

Yozuvchi hikoyalaridagi qahramonlar tabiat bilan dost tutinadi, quyoshning taftiga peshvoz chiqadi, nish urgan maysaga mehr beradi, uning qahramonlari peyzaj tasviri ham tabiat tasviri, ham voqea-hodisa roy berayotgan joy tasviri vazifasini o'taydi. Masalan, yozuvchining Orgimchak hikoyasidagi peyzaj tasvirini olsak tabiatning barcha-barcha hodisalarini oz kozi bilan korib, oziga xos mushohada qiladi. Unda Dunyoda bir orgimchak bor edi. Tong bilinar-bilinmas otib, qizgimtir quyoshning iliq-iliq nurlari olamga yoyilib, shudring ostidagi turli-tuman otlarning hidlari sezilar-sezilmas tarala boshlagani ondan u yangi tor toqishga tushar edi.

Murodbaxsh tongning ilk daqiqalarini qarshi olishga muyassar bolgan yashash uchun va ozidan zurriyot qoldirish uchun erta tongda mehnatga kirishayotgan mittigina orgimchakning hayoti peyzaj tasviri bilan uygunlashgan holda tasvirlangan. Tasvirdagi orgimchak tori ham asli ramziy manosi ifodalaydi. Uning Orgimchak hikoyasidagi Anchadan keyin shabada qattiqroq esdi-da, tosatddan torning bandlarini yaproqlardan uzib olib, tor egasi bilan qoshib havoda aylantira-aylantira havoda uchirib ketdi. Bu uchish orgimchakka juda yoqadi.

Bunday holat hech kimning xayoliga ham kelmaydi, ushbu jumlaning oqigan kitobxonda hikoyadan katta badiiy-estetik tasirlanish his etadi. Chunki bu haqiqatdan ham go`zal bir tabiiy hodisa hisoblanadi.

Kichkina pushtirang maxluqcha hikoyasining songida Yomgir shivirlar , shabadasi daraxtlarni chayqatar edi. Hozirgina yana bir epkin esib otdi. Ajabo, birgina daraxt chayqalar, qolganlari tek edi. Qizil tosh terilgan sahiga tomchilar chak-chak tomar, har yer,har yerida oqish kolmakchalar hosil bolibdi. Kolmaklardan suv chachratib, bu mashum joydan tezroq ketish uchun bog tashqarisi tomon yugurdim.

Ushbu peyzaj tasvirining hikoya songida qollanilishini oziga xos jihatlaridan biri, bunda oziga xos bir ramziy mano ifodalangan. Ajabo, birgina daraxt chayqalar, qolganlari tek edi . Ushbu jumla orqali yozuvchi ikki narsani nazarda tutmoqda, birinchisi katoblepas va ikkinchisi hikoyaning bosh qahramoni roviy hikoyadagi bu ikki qahramon shabadada chayqalib turgan daraxt. Katoblepas va roviy oqimga qarshi suzgan qahramonlar yozuvchi shuning uchun ham ularni chayqalib turgan daraxtga qiyoslaydi.

Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon Sulton ramziy mano yuk laydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qoshimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bolgan hikmatni aks ettirishga harakat qiladi. Togrirogi, yozuvchi tabiat hodisalarini manoli va tasirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni oqib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmoana his qilamiz.

Isajon Sultoning hikoyalarida poligarmoniya, politasvir diqqatni tortadi. Yozuvchi hech qachon, bitta holat bitta masala yopishib olmaydi. Uning Shamolli kecha, Soginch, Avliyo, Oydinbuloq hikoyalarida shamol esishi, oyini, qahri, muloyimligi oziga xos timsol. Yozuvchining Boqiy darbadar romanida boron

dahshatli kuch va ilohiy aralashuv kuch sifatida korsatilgan edi. Uning Ozod romanida sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi Ozodning Uchyongoqdan Iskandar togigacha borishiga shamol yetakchilik qiladi. Shamolli kecha hikoyasida shamol real voqelik hamda taqdir shamoli sifatida namoyon boladi. Hayot shamolining turli tuman xavflari aro onasi Nozik, xolalari Latofat, ammalari Gozal deb ataydigan kozlari kulib-kulib turadigan yoqimtoygina qizaloq, yani gozallik, latofat, nazokat timsoli va eng asosiysi, akaning or-nomusi osha qorquvlar bois osha xavf-hatar ichida qolib ketadi. Vaholanki, yolgiz himoyachisi akasi edi.... Bu zalvorli hikoyaning boshqa bir jihati naslni davom ettira oladigan yagona ayol ham qizaloq edi. Chunki ota boshqa ayolga uylangan, boshqa farzand korgan, aka-singil undan yotsirar edilar.

Asarda shamolning yuraklarga qorquv soluvchi ovozi A.Qahorning Dahshat hikoyasidagi shamolli kecha tasvirini yodga soladi. Har ikkala hikoyaning tabiat tasviri bir xil faqatgina sujeti bilan farq qiladi. Ikkala hikoyada ham kuchli shamol kechasida bolib otgan voqealar tasvirlangan. Dahshat hikoyasida bosh qahramon Unsinning taqdiri nima bilan yakunlangani ochib berilgan, lekin Shamolli kechada esa Nozik ismli qizaloqning topilishi yoki topilmasligi noaniqligicha qolgan. Abdulla Qahorning ushbu hikoyasini oqiganimizda Unsinning vafot etganiga achinib uning ota-onasi va Dodxohni ayblaymiz, I.Sultonning hikoyasida esa kitobxonning bir toxtamga kelishi qiyin, chunki qizaloq topilishi ham mumkin, topilmasligi ham.

Asarda voqealar shamol bolgan tunda sodir boladi. Masalan, Dangaraning dashtida, shamolli kechada aka-singil buvilarinikiga ketib borishmoqda edi. Qorongu tusha boshlagan bolsa-da hali tevarakni enlab ulgirmagan edi. qarama-

qarshidan esayotgan shamol shiddati ostida och kulrang tusli notanish butalar yovvoyi is taratib yulqinar, kotarilgan changu tozon isi ham tevarakni yutib ketgan edi.

Ushbu jumladagi peyzaj tasviri oziga xos bir nechta vazifani bajarmoqda. Birinchidan, hikoyadagi voqea-hodisaning qayerda roy berganligi. Ikkinchidan, voqealar shamolli tunda roy berganligi va uchinchidan, taqdir shamoli va uning aka-singil hayotiga tasiri.

Aka-singilning taqdir yollarida ayro tutishi shamolli kecha tarifi bilan beriladi. Hikoya yozuvchining ananaviy uslubiga xos tabiat tasviri asosiga qurilgan. Lekin unda barcha narsa ramziy. Shamol ham, shamolli tun ham. Taqdir shamolida chirpirak bolib uchib borayotgan ikki norasida bola. Aka oz qorquvi, taqdirga qarshi isyonini hivichni ayovsiz serpab namoyon etadi. Singil esa akasini chaqirachaqira taqdir yollarida adashib qoladi. Birgina shamolli kecha hayotning kop yillarini qamrab olgan holda hayot saboqlarini aks ettiradi.

Toplamdagi “Sofiya” hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi tofonning qisqa muddat ichida qutirishi, asov toyday kokka intilishi , toshqin daryodan yutoqib- yutoqib portana urishi, adadsiz kuch bilan ogochlarni qars-qurs sindirishi, chaqmoq chaqib, garamlar, daraxtlarni lov-lov yondirishi tasvirlanadi.

Hikoyadagi sofiya tofoni inson ichki olamining tasviridir. Yozuvchi kuchli tofoni ayollarning gozal ismi bilan aytaydi. Asarda tofon mayda detallarigacha tasvirlanadi. Yeru osmonning tofondagi holati juda tasirli bayon etiladi. Bu tasivrlar ham asli ramziy bolib, inson ruhiy olamidagi evrilishlarning ifodasidir.

Isajon Sulton hikoyalarida peyjaz tasviri asar kompozitsiyasidan muhim orin egallab, asarning bayon uslubiga yorug tasvirlar, romantik ruhiyat olib kirish barobarida, ramziy mano ifodalashga ham xizmat qiladi. Yozuvchining boshqa ijodkorlardan peyzaj yaratish mahorati shundaki, u butun bir asarni tolagicha peyzaj asosiga qurishi mumkin. Bunda har bir detal, tasvir ramziylik asosida bolib, chuqur hayot falsafasi, umr haqida xulosa aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

Isajon Sulton. Tanlangan hikoyalari. T.:Sharq2012.

R.Rahma. Munajatdan Boqiy darbadargacha // (Songgi soz) Sultonov.I. Boqiy darbadar.T.,Ozbekiston 2011.

Isajon Sulton. Ozod.-T.:Sharq2012-yil.

Ensiklopedik lugat.-T.:Ozbekiston sovet ensiklopediyasi,1990.

Qodirov.P Oylar.-T.:Adabiyot va sanat,1971.

Dilmurod Quronov.Adabiyotshunoslikka kirish.-T.:Sharq,2019.

Izzat Sulton Adabiyotshunoslik nazariyas.T., O`zbekiston.2006

w.w.w.ziyo.uz.

Maktabgacha yoshdagi bola hayotida yo‘l harakati qoidalarining ahamiyati

Nasimova Nargiza Toyirovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

6-sonli DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473515>

Annotatsiya: Bolalarni yo'lda harakatlanish va vaziyatni baholashga vizual ravishda o'rgatishingiz mumkin bo'lgan yo'lda bo'lgan bolalarning e'tiborini qoidalarga yo'naltirish juda foydalidir. Ota-onalar bolaga yo'lda, bolalar bog'chasida yoki maktabda o'zini qanday tutish kerakligini o'rgatadi deb umid qilmasliklari kerak. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar hayoti davomida yol harakati qoidalarining orni haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit sozlar: yol harakati qoidalari, talim-tarbiya, transport oqimi, yol piyodalari.

Bolalarni o'rgatish maktab yoshi qoidalar yo'l harakati - yosh ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari tomonidan alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan ularni tarbiyalashning ajralmas qismi. Eng ko'pidan dastlabki yillar kichkina bola ushbu qoidalarga rioya qilish muhimligini tushunishi kerak, chunki uning hayoti va sog'lig'ining xavfsizligi bunga bog'liq. Shunga qaramay, bolaga sayr qilish va yo'lda harakatlanish paytida nima tavsiya etilmasligini va uni ko'chada kutish uchun qanday xavf tug'dirishi mumkinligini tushuntirish juda qiyin bo'lishi mumkin. Bolaga yo'l harakati qoidalarini qanday tushuntirish mumkin? Kichkina bolaga yo'lning asosiy qoidalarini unga tushunarli shaklda etkazish uchun siz quyidagi tushuntirishlardan foydalanishingiz mumkin: Har qanday harakat

faqat o'ng tomonda amalga oshirilishi kerak. Bu nafaqat avtomobillarga va boshqa barcha transport turlariga, balki piyodalar yo'lagi bo'ylab harakatlanadigan piyodalarga ham tegishli. Yo'l piyodalari bo'lmagan joylarda siz yo'lning chekkasida, transport oqimiga qarab juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishingiz kerak. Avtoulavlarning harakatlanish hududidan faqat "zopak" bilan belgilangan piyodalar o'tish joyida yoki svetofor bo'lgan joylarda yashil chiroq orqali o'tish mumkin. Shu bilan birga, agar yo'lda tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyi bo'lsa, dastlab siz yaqinlashib kelayotgan manevringiz xavfsizligiga va harakatlanuvchi avtoulavlar va boshqa transport vositalarining yo'qligiga aniq ishonch hosil qilishingiz kerak, garchi bunday vaziyatda bo'lgan haydovchilar odamlarni o'tqazishga majburdirlar. Barcha holatlarda shuni tushunish kerakki, rulda o'tirgan odam shunchaki bolani yoki kattalarni yo'lni kesib o'tayotganini sezmasligi mumkin va mashinada to'xtash uchun vaqt kerak. Piyodalar uchun ham, har qanday transport vositalari uchun ham qizil va sariq chiroqlarda harakatlanish taqiqlanadi. Trolleybus, avtobus yoki tramvaydan chiqishda siz darhol transport vositasini chetlab o'tib, yo'lni kesib o'tmasligingiz kerak. Katta hajmdagi transport to'xtash joyidan chiqguncha kutib turing va xavfsizligiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng, xotirjamlik bilan manevringizni yakunlang. Voyaga etgan odam bilan yo'lni kesib o'tayotganda siz uning qo'lidan mahkam ushlashingiz va yo'lning kesib o'tishi tugaguniga qadar doimo qo'yib yubormasligingiz kerak. Hech qanday holatda harakatlanayotgan transport vositasi oldida yo'lga sakrab chiqmang. Avtoulavda harakatlanayotganda, maxsus mo'ljallangan o'rindiqqa o'tirganingizga ishonch hosil qiling va haydash paytida hech qachon xavfsizlik kamarlaringizni echmang. Paten, skeytbord yoki.

Biz 7 milliarddan ziyod odam yashaydigan dunyoda yashayapmiz va har yettinchi kishidan biri mashina boshqaradi. Bunday transport vositalarining ko'pligi bilan, hatto maktabgacha yoshdagi bolalar ham yo'l harakati qoidalarini bilishlari kerak. Ota-ona har doim ham 100% vaziyatga qo'shilmaydi va harakatlanayotgan mashina bilan to'qnashuv uchun bir soniya etarli. 3-4 yoshdan boshlab yo'lni qanday qilib xavfsiz tarzda kesib o'tishni aytib berish kerak. Maktabda bola piyodalarning o'zini tutish qoidalarini yoddan bilishi kerak.

Ammo bunday bilim hali mavjud bo'lmasa yoki etarli bo'lmasa nima bo'ladi? Yo'l harakati qoidalarini qachon va qanday o'rganish kerak Beshikdan boshlab ham bolalar kattalarni nusxalashga moyil. Yo'lda onam va otamning xatti-harakatlari "subkorteksda qoldirilgan" asosiy misoldir. Agar ota-onalar qoidalarni buzsa (shoshqaloqlik, beparvolik tufayli), bola ongsiz ravishda yo'l harakati qoidalarini bilishi yoki bilmasligidan qat'iy nazar xuddi shu tarzda harakat qiladi. Shuning uchun, birinchi va asosiy darskattalar bolalarga o'rgata oladigan narsalar - ularning ongli piyodalar ekanliklarini amalda ko'rsatish. Qachondan o'rganishni boshlash kerak bolalarning yo'l harakati qoidalari? Siz 1 yoshdan boshlab har xil qofiyalarni o'qishingiz, qo'shiqlar tinglashingiz, yo'lda o'zini tutishingiz haqida multfilmlarni tomosha qilishingiz mumkin. 3-4 yoshdan boshlab tushuntirish suhbatlari o'tkazilishi kerak. Masalan, bola bilan mashinaning to'liq to'xtashi uchun vaqt kerakligi, u bir zumda tormoz berishni bilmasligi haqida suhbatlashish. Hatto tashrif paytida bolalar bog'chasi bola yo'l, piyodalar o'tish joyi, piyodalar o'tish joyi, svetofor nima ekanligini va ulardan qanday foydalanishni o'rganishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaga yo'l harakati qoidalarini o'rganishda qanday yordam berish kerak? 3-7 yoshli bolalar bilan darslar o'tkaziladi o'yin shakli va tasviriy misollar bilan -

shuning uchun material tezroq va to'liqroq so'riladi. Bundan tashqari, ushbu yoshga xos bo'lgan dunyoni idrok etishni, aqliy qobiliyatlar darajasini hisobga olish muhimdir. Taxminan 8 yoshga qadar "tunnel" ko'rish ustunlik qiladi - bola o'zining oldidagi narsalarni sezadi, lekin yon tomondan emas. Shuning uchun bolalarni yo'lga chiqishdan oldin atrofga diqqat bilan qarashga o'rgatish muhimdir. 6 yoshgacha bo'lgan bola shovqin manbasini tezda aniqlay olmaydi, yaqinlashayotgan mashinani eshita olmaydi. 5-6 yilgacha diqqatning kontsentratsiyasi tanlangan. Bola bir vaqtning o'zida faqat bitta ob'ektni baholashi mumkin - uning fikriga ko'ra, eng ahamiyatlisi (masalan, bola yuk mashinasi yaqinlashayotganini sezadi, lekin yo'lovchi avtouloviga e'tibor bermaydi). Kam bo'yli ko'rish burchagini cheklaydi, bolalar yo'lda sodir bo'layotgan hamma narsani ko'ra olmaydi. Xuddi shu sababga ko'ra, katta avtomashinalar haydovchilari uchun bolani sezish qiyin bo'lishi mumkin. Xavfli vaziyatda bolaning xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. O'nta boladan to'qqiztasi, ustiga yugurayotgan mashinani ko'rib, ahmoqona holatga tushib, yuzlarini qo'llari bilan yopadi. O'ninchi tiqilib qoladi, aksariyat hollarda avtomobil g'ildiraklari ostida. Shuning uchun, bola qanchalik aqlli bo'lmasin, kattalar uni qo'lidan mahkam ushlab, yo'l bo'ylab o'tqazishi kerak.

Qoidalar ro'yxati. Maktabgacha yoshdagi bola uchun svetofor va zopak signallarini bilish etarli emas, bundan yo'lning tasviri to'liq bo'lmaydi. Siz bolaga transportning qaysi turlari, qanday harakatlanishini tushuntirishingiz kerak, u bilan piyodalar yo'llari, er osti yo'llari, yo'llar haqida gaplashing. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 5 ta yo'l harakati qoidalari: Siz qatnov qismidan svetoforning yashil chirog'ida yoki o'tish joyidan o'tishingiz mumkin va bu yagona yo'l. Yo'lga

chiqishdan oldin chap tomonga qarash kerak, so'ngra bo'linish chizig'iga etib borib, o'ng tomonga qarash kerak. Yo'l bo'ylab, o'ng tomonda joylashgan piyodalar yo'lagi bo'ylab harakatlaning. Agar siz shahar tashqarisida bo'lsangiz - yo'l chetidagi mashinalar tomon boring. Siz yo'l yaqinida o'ynay olmaysiz. Siz u yoqdan yugurib o'tolmaysiz, qizil yoki sariq chiroqqa o'ting, hatto yaqin atrofda avtoulavlar bo'lmasa ham. Siz ba'zi yo'l belgilarini bilishingiz kerak. Ular quyidagi rasmda batafsil tavsiflangan. Yo'lda xavfli vaziyatlar Bir kechada yo'lda bir necha o'ndan yuzgacha odamlar bor. Hatto ulardan biri xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, baxtsiz hodisa yuz berishi mumkin. Bu inson omilidir va bola bu haqda bilishi kerak.

Yo'lda duch keladigan eng xavfli kutilmagan hodisalar: Yo'l chetidagi mashina ortidan to'satdan mashina paydo bo'ladi. Shuning uchun, yo'lni kesib o'tishdan oldin, siz butun harakatlanuvchi qatorni ko'rishingiz kerak. Qizil chiroq yondi va bola yo'lning o'rtasida edi. Ikkala tomondan transport vositalarining harakati juda qo'rqinchli bo'lishi mumkin, ammo siz vahima qo'zg'ay olmaysiz, oldinga yoki orqaga yugurishingiz mumkin. Mashina asta-sekin harakatlanmoqda va siz u yoqdan bu yoqqa yugurishga ulgurishingiz mumkin. Yo`q mumkin emas. Uning ortidan mashina katta tezlikda o'tishi mumkin. Haydovchidan to'satdan mashina chiqib ketdi. Baxtsiz hodisalar nafaqat gavjum yo'lda sodir bo'ladi - turar-joy hududlarida ko'plab burilishlar mavjud, shuning uchun har qanday vaqtda mashina paydo bo'lishi mumkin. Haydovchi piyodalarning yashil signaliga o'tdi. Ha, bunday holatlar kam emas. Qonunbuzarlar bor, bor edi va shunday bo'ladi. Hatto qoidalar bo'yicha yo'lni kesib o'tishda ham bola diqqatli bo'lishi kerak, o'yinlarga chalg'imasligi, minigarniturani echib, atrofqa qarashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ3261-sonli qarori. 2017 yil.
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" T.: 2018

New directions in the treatment of odontogenic phlegmon in children

Bimbetov Yernazar Saleivich

Mustafoqulov Jaloliddin Alisher og'li

Bainiyazov Ataniyaz Baxitjanovich

Tashkent state dental institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479195>

Annotation. Despite the active clinical practice of new groups of antiseptics, the problem of prevention and treatment of purulent complications in maxillofacial surgery is still relevant. For the treatment of purulent wounds, it is necessary to provide for factors of local and general effects on the body.

These factors differ in different phases of purulent wound healing. An adequate choice of antiseptic for the treatment of a purulent wound has a huge impact on the course of the purulent-inflammatory process. When choosing antiseptics for the treatment of purulent wounds, preference is given to drugs with a wide spectrum of action, active against mixed microflora. Currently, a wide range of antiseptics for the treatment of purulent wounds is presented. The choice of the optimal antiseptic is a rather difficult task, which was the goal of our study.

Keywords:Decasan, antiseptic,maxillofacial, phlegmon,surgery,body,

Relevance of the topic: For many years, the most common form of purulent inflammation in the facial and maxillofacial area is odontogenic phlegmons. always incorrectly applied and often leads to the development of side effects. In children, the search for new quality drugs is very important in optimizing the treatment of odontogenic phlegmons of the face and jaw area with modern antiseptics. Optimization approaches ensure high efficiency and safety of the

treatment process. In recent years, great interest in medicine has been focused on antiseptics. Decasan is a broad-spectrum antiseptic.

The effectiveness of Decasan in the treatment of odontogenic phlegmons in children has not yet been studied, so the complex treatment of odontogenic phlegmons in the facial and jaw area in children is relevant and modern.

Purpose of the study: To substantiate the use of the antiseptic Decasan in the treatment of odontogenic phlegmons in the facial and jaw area in children.

Objectives of the study: To assess the state of the wound microflora in odontogenic phlegmons as a result of the use of Decasan antiseptic after the detection of odontogenic phlegmons in the facial and maxillofacial area of children.

Research materials and methods: Children aged 6 to 12 years were examined at the Department of Pediatric Oral and Maxillofacial Surgery of TDSI Clinic after the discovery of phlegmons.

Therapeutic measures were carried out with sung Decasan antiseptic after the discovery of phlegmons.

Research methods: Clinical and microbiological (by culture of isolated microorganisms, with the study of the generally accepted bacteriological method of biological properties).

In the treatment of odontogenic phlegmons in the facial and maxillofacial area in children, the microflora of the wound after surgery was studied in the early stages after the opening of the phlegmons.

The effectiveness of the antiseptic Decasan was first studied in children aged 6 to 12 years

Dekasan antiseptic was used in children of this age, taking into account clinical, radiological and microbiological indications.

The addition of the antiseptic Decasan in the complex treatment of odontogenic phlegmons of the facial and jaw area in children had a bactericidal, anti-inflammatory effect on gram-positive and gram-negative microorganisms, and a fungicidal effect on pathogenic fungi and increased the effectiveness of treatment. As a result, the number of days of inpatient treatment at the children's clinic was reduced.

Results: The drug Decasan has a reliable wound-healing activity. Comparison of the results by the time of wound healing showed that in patients receiving the drug, wound healing is observed 4-6 days earlier than with traditional treatment.

Conclusions: The drug Deacasan has a pronounced local anti-inflammatory effect. Compared with conventional treatment, significantly better reduces the contamination of the wound, provides a higher healing rate, significantly better reduces the intensity of suppuration from the wound, swelling of the wound and hyperemia.

Literature

1. Abaev Yu.K. Dressing materials and means in surgery // Vestn. surgery. - 2009.
2. Abaev Yu.K. Surgical dressing. - Minsk: Belarus, 2007.

3. August V.K., Khusainov I.I. Prevention of purulent septic complications in the surgical department/ Method. stipend. - Ulyanovsk, 2009.
4. Adamyan A.A., Annaev A.G., Glossev S.P. Treatment of purulent wounds with a biologically active composition based on alginic acid // Topical issues of surgical infection. - Semipalatinsk. - 1991.
5. Adamyan A.A., Dobysh S.V., Kilimchuk L.E. Biologically active dressings in the complex treatment of purulent-necrotic wounds: methodological recommendations. - M., 2000

“Boshlangich sinf oqish darslarida nutqni o`stirish usullari”

Norova Munisa Murodovna

Buxoro viloyati Romitan tumani

23-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508340>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida O'qish darslari orqali og'zaki nutqni rivojlantirishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek nutqni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tavsfiyalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: metod, talaffuz, intonatsiya, matn, maqol, tafakkur, fikr.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l – yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va

boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Sinfda o’qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O’qish malakasini takomillashtirish. O’quvchilarda yaxshi, to’g’ri o’qish sifatlari: to’g’ri tez, ifodali o’qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg’otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o’rgatish, ya’ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonalarini yetishtirish.
3. O’quvchilarni tevarak – atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O’quvchilarni axloqiy, estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.
5. O’quvchilarning nutqini va tafakkurini o’stirish.
6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo’li, yaxshi o’qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo’llaridir. Yaxshi o’qish malakalarining sifatlariga to’g’ri, tez, ongli va ifodali o’qish kiradi va ular o’qish darslarida o’zaro bog’liq holda takomillashtiriladi, bu to’rt o’qish sifati bir – biri bilan uzviy bog’liq. Ongli o’qish yaxshi o’qish malakalarining asosiysi hisoblanadi, chunki o’quvchi tez qisqa – o’qiganini anglamasa, bunday o’qish talabga javob bermaydi, o’qiganini tushunmaslikka olib keladi. To’g’ri o’qish ongli o’qishga xizmat qiladi. Tez, to’g’ri, ongli o’qish ifodali o’qishning asosi hisoblanadi. Yaxshi o’qish sifatlarini egallash maktabda barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o’zlashtirishning sharti hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari to’g’ri talaffuz bilan matn

ma'nosini puxta sintez qilishda qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta talaffuz qilishga harakat qiladi. va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.
2. So'zlar ko'p bo'ginli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni sozning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.
3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq.

To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o'qishdan oldin undagi o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.
2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.
3. Matnning yaxsh, orta, yomono'qiydigan o'quchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi. 4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.

O'qituvchi o'qish davonida o'quvchilar xato qilishi mumkin bo'lgan o'rinni belgilab olishi lozim. Xato o'qishni bartaraf etish uchun:

1. Tuzilishi murakkab so'zlarni xat taxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozish, oldino'quvchilarga ularni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qishni mashq qildirishi.
2. So'z ma'nolarining sinonimi, antonimini keltirib, yoki gap ichida qo'llab tushuntirishi.
3. Xat cho'pdan foydalanish. Xat cho'p diqqati tarqoq bolaga, ko'ruv sezgisi past o'quvchida juda foydali.
4. Xato o'qishi mumkin bo'lgan o'rindan o'quvchini ham ogohlantirish.
5. Kesma harf va kesma bo'g'inlardan foydalanish.
6. To'g'ri o'qish uchun sharoit yaratish.
7. Shivirlab va ichda o'qishdan foydalanish.

O'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolar 2 xil:

1. So'z ma'nosini noto'g'ri anglashga olib keluvchi xatolar. (urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish tuifayli)
2. So'zlarni o'qib olishga halal beradigan xatolar.

Ongli o'qish asar mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, timsollarini, badiiy vositalarni ro'lini tushunib o'qish ongli o'qish deyiladi. Bola asarda tasvirlangan voqea hodisalarga munosabat bildira olsa, ongli o'zlashtirgan bo'ladi. Ongli o'qish quyidagi metodik shartlarga bo'g'liq:

1. O'quvchuning hayotiy tajribasiga.

2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini tushunishiga.

3. Gapda so'zlarning tushunishiga.

Ongli o'qish 2 xil ma'noda qo'llaniladi: O'qish texnikasi, O'qish sifati. Asar qurilishini tushunish ongli o'qishdir. O'quvchining ongli o'zlashtirib o'qigani, uning ifodali o'qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlaniladi. Ongli o'qish bilan ifodali o'qish biri – ikkinchisini taqazo etadi. Ifodali o'qish. Asrani uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon, aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi, ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emotsionallaigini o'quvchialarga ko'rgazmali ravishda yetkazadi. Intonatsiya – urg'u, temp, ritm, to'xtam, ovozning baland – pastligining yig'indisi. Bular og'zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarning turli kayfiyatlari, ichki kechinmalri ifoda etiladi. Ifodali o'qishni egallashning asosiy shartlari: 1. Nafasni to'g'ri olish va to'g'ri sarflash.

2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish.

3. Adabiy talaffuz normalarini egallash. Bular ifodali nutqqa ham taaluqli. Ifodali o'qish shartlaridan yana biri ovozning baland – pastligi, yoqimlilik, tinish o'rnini asar mazmuniga mos holda o'zgartira olishlik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: 1983- yil

2. Rahmonova Ye.R., Razzoqov D.N. “Pedagogik texnologiyalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. –T.: 2007.
3. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2002.
4. Dehqonova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta’lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta’lim texnologiyalari, 2006-yil 2-soni

Maktabgacha talimda nutqni rivojlantirishning innovatsion korinishlari

Nusratova Nargiza Karomattullayevna

Navoiy viloyati Nurota tumani

6-sonli DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473546>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Tarbiyachi-pedagoglarning nutq madaniyati va ijtimoiy psixologik xususiyatlari ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tovush xususiyati, nutqning ifodalanishi, tovush, nutqiy nafas olish, nutq me'yori, tarbiyachining nutq madaniyati.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat Korsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'stirish fanining o'rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi. Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'stirish

usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirish vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilmoqda. Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak» – degan edi.

Ta'limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e'tibor berilar ekan, psixologiya sohasining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, ya'ni shaxsiy fazilat, xislatlarini bilgan tarzda ta'lim-tarbiya faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzviy bog'liqdir.

Bola jumalarning mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqot shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 ta muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D. B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V. Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000–3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40–60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400–600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500–3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi. Nutq madaniyati - bu, avvalo, tarbiyachida bo'lishi shart va majburiy sifatlardan hisoblanadi. Bu tarbiyachidagi nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma tarbiyachi faoliyatida takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufaylar

tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun esa tarbiyachi adabiy qoidalarini bilish, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o‘qib borishi, she’rlar yod olishi va bolalar bilan suhbatlar o‘tkazish muhimdir. Situatsion - ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog‘liq. Bu holat shunda ko‘rinadiki, bolaning nutqida ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘p bo‘ladi. Sifat turkumidagi so‘zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarining faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o‘lchami (barcha sifatlarning 96,4 %) ni ifodalaydi. 98 % fe‘llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi. Bolalarning nosituativ - bilishga yo‘naltirilgan (vaziyatga - situasiyaga bog‘liq bo‘lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog‘liqlikdan ozod bo‘ladi. Asta sekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so‘zlar zahirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so‘zlar (11,25 %) va emosional xususiyatlarni ko‘rsatuvchi so‘zlar (5 %) paydo bo‘ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe‘l turkumidagi so‘zlar (6,24 %) vujudga keladi. Nosituativ - shaxsiy muloqotda, bola odamlar o‘rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o‘zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilgan ekan, uning nutqida umumiy grammatik murakkablashish ro‘y beradi. Sifat turkumidagi so‘zlar quyidagi nisbatda bo‘ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) - 69,80%, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 14,65 %, ahloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 9,3 %. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe‘llar ancha ko‘payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe‘llarning 9,76 % ni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bunda esa albatta tarbiyachining o'рни beqiyos va muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.: «O'zbekiston» – 2000.
2. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent, 2018. - 334 b.
3. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. - T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. - B. 68.
4. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. - T.: "Tafakkur", 2019. - B. 107.
5. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe, (8–2 (8)).
6. Зокирова С. М. Контрастный анализ синтаксических слойных установок. Вестник Наманганского государственного университета: Vol, 1 (8), 48.

**QISHLOQ XO'JALIGIDA TUPROQ ICHIDAN SUG'ORISH USULIDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

Ochilova Dilorom Norqobilovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6516710>

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti (“TIQXMMI” MTU) magistratura.

2-bosqich magistranti.

Annotatsiya

Annotatsiy: Maqolada tuproq ichidan sug'orish texnikasi qo'llanilgan tajribalar keltirilgan. Ekin turidan, tuproq myxanik tarkibidan kelib chiqan holda tuproq ichidan sug'orish texnikasi elementlarini aniqlash va bu sug'orish usulini qo'llagan holda qanday samaraga erishilganligi haqida ma'lumotlari berilgan.

Kalit so'zlar: Tuproq ichidan sug'orish sixemasi, suv etkazib beruvchi nasos, quvur, tarqatuvchi shlanglar.

Annotation: The article describes experiments using in-soil irrigation techniques. Depending on the type of crop, the mechanical composition of the soil, the elements of irrigation techniques are identified from the soil and information is given on the effectiveness of this irrigation method.

Keywords: Underground irrigation system, water supply pump, pipe, distribution hoses.

Kirish: Hozirda mamlakatimiz hududida 4,3 million gektar erda ekin ekilib dehqonchilik qilinadi. Ushbu ekin maydonlarini sug'orish, bugungi kunga kelib suv resurslaridan samarali foydalanish butun dunyoda, shu jumladan yurtimizda ham muhim masalalardan biriga aylangan bir sharoitda, asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining ilmiy asoslangan sug'orish tartiblarini ishlab chiqish hamda Suv tanqis bo'lib turgan bunday vaziyatlarda suv tejankor sug'orish texnologiyalarini ekin maydonlarida ham qo'llash va joriy qilishga doir muammolarni hal qilish

maqsadida bir qancha qaror va farmonlar ishlab chiqilgan va amaliyotda o'z echimini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida ustuvor yo'nalish sifatida oshib borayotgan suv tanqisligi sharoitida irrigatsiyani rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, ekinlarning ilmiy asoslangan sug'orish tartiblarini va ularni amalga oshiruvchi zamonaviy sug'orish texnologiyalarini qullash vazifalari belgilab berilgan [1].

Yurtboshimiz so'ng yillarda qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada, 77 470 gektar maydonda tomchilatib, 1 123 gektar maydonda yomg'irlatib, 2 000 gektar maydonda esa diskret usulda sug'orish texnologiyalari joriy qilindi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi sababli 2020-yilning o'zida qo'shimcha 133 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar amaliyotga tadbiiq etildi. Biroq, tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi hamda suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj o'sib borayotgani qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirishni talab etmoqda [2].

Sug'orish usuli – bu sug'orish suvini sug'oriladigan maydonlarga taqsimlash va suvni oqim shaklidan tuproq va atmosfera namligiga o'tkazish uchun qo'llaniladigan usullar va tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Sug'orish usullarining asosiy mohiyati suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida maqbul sug'orish usuli qo'llash natijasida o'simlik uchun maqbul bo'lgan tuproq namligini yaratish, hamda yuqori va barqaror hosil olishdir.

Global iqlim o'zgarib, suv tanqis bo'lib turgan bunday vaziyatlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishda suv tejamkor sug'orish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq. Men ilmiy ishimda qo'llagan sug'orishning bu usuli suv tejamkor sug'orish usullaridan biri tuproq ichidan sug'orish texnologiyasidir.

Tuproq ichidan sug'orish suvni tuproq ichida joylashtiriladigan quvur va shlanglar tizimi yordamida ekinning ildiz qatlamiga etkazib berishga mo'ljallangan sug'orish tizimi hisoblanadi. Tuproq ichidan sug'orish suvning tuproq ichida yuqoriga qarab kapillyar ko'tarilishiga asoslangan bo'lib, bunda tuproqning shimib olish kuchi muhim rol o'ynaydi.

Tuproq ichidan sug'orish yer ostiga ma'lum (0,2- 0,4 m) chuqurlikda yotqizilgan maxsus teshikchalari bo'lgan kichik diametrli quvurlar (qattiq shlanglar) yordamida amalga oshiriladi. Maxsus ishlab chiqarilgan bu quvurga tomizgichga o'xshash suv chiqargichlar o'rnatilgan bo'ladi. Ular biri-biridan ma'lum masofada (odatda, 0,5- 1,0 m) joylashgan bo'ladi. Tuproq ichidan sug'orish tizimining sug'orish quvurlari zamonaviy polietilen quvurli (Avstraliyada qo'llaniladi) ustiga plyonka kiydirilgan quvurli (avvallari qo'llanilgan).

Tuproq ichidan sug'orish tizimlari suvni etkazib berish tamoyiliga ko'ra quyidagi:

1) kapillyar namlovchi vakuum yoki adsorbsion (suv tuproqning so'rish kuchi asosida harakatlanadi);

2) kapillyar – gravitatsion namlovchi past bosimli (suv o'z oqimi bo'yicha harakatlandi);

3) kapillyar- gravitatsion namlovchi yuqori bosimli (suv sun'iy hosil qilingan bosim tufayli harakatlanadi) turlarga bo'linadi [5].


Yer osti sug'orish tizimida minglab tomchilatib yuboriladigan liniyalar minglab tiqinlar bilan tugamaydi, ularning har biri yuvish uchun ochilishi va yopilishi kerak: ularning barchasi drenaj kollektoriga ulanadi. Operator bir necha soniya davomida bir kranni ochib, butun tizimni saytdagi yuvadi (va eng yaxshi holatda, u odatda avtomatik ravishda amalga oshiriladi). Bunday tizim suvning sifatiga qarab har 5-10 sug'orishda bir marta yuviladi. Shu sababli, yer osti tomchilari ko'p yillar davomida toza bo'lib qoladi, ya'ni ulardan bir xil suv oqimi ham saqlanib qoladi. Quvurlarning er osti ishlarining davomiyligi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, AQShda yer osti sug'orish tizimlari 10-15 va hatto 20 yil davomida tuproqda bo'lib, nosozliklar va zararlarsiz ishlayotgan fermer xo'jaliklari mavjud. Sabzavotlar uchun quvurlarni yotqizish chuqurligi odatda 15-25 sm, donli ekinlar uchun - 50 sm gacha, mevali ekinlarni yer osti sug'orish uchun -70 sm gacha. Chuqur yotqizish quvurni ishlov berish paytida tasodifiy shikastlanishdan va kemiruvchilardan himoya qiladi.

Tuproqni sug'orish o'simliklarning ildizlariga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ularni tuproqli tomchilatib sug'orish bilan solishtirganda namlikni izlashda kattaroq chuqurlikka o'sishga majbur qiladi. Shunday qilib, shirin makkajo'xori ichida ildiz tizimining katta rivojlanishi va zichligi 30 sm chuqurlikda (trubka 45 sm chuqurlikda joylashganda) va undan pastroqda kuzatiladi. Sayoz ildiz tizimiga ega bo'lgan bolgar qalampirida 20 sm chuqurlikda trubka qo'yish orqali er osti sug'orishdan foydalanish 10 sm va undan past chuqurlikda ildizlarning yaxshi rivojlanishiga olib keladi. Ildiz tizimining bunday rivojlanishi sug'orish bilan

bog'liq holatlarida o'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligini oshirishga yordam beradi[3].

Yerga ko'milgan namlagichlar sifatida diametri 20 dan 40 millimetrgacha bo'lgan polietilen quvurlar ishlatiladi. Ularda har 40 santimetrda teshiklar yaratilishi kerak. Dumaloqlar diametri 2 dan 3 millimetrgacha, tirqishlilari esa uzunligi 5 dan 10 millimetrgacha va kengligi 1 dan 2 millimetrgacha. Agar katta hajmdagi sug'orish rejalashtirilgan bo'lsa, namlagichlar bir-biriga iloji boricha yaqinroq joylashishga harakat qilishadi. Masalan qulupnay plantatsiyasini Tuproq ichidan sug'orishda namlagichlar bir-biridan 60 santimetrgacha bo'lgan masofada yotqiziladi [3].

Toshkent viloyati, O'rtachirchiq tumani "TIQXMMI" MTU o'quv-tajriba dalasidagi tuproq ichidan sug'orish maydonini sixemasi 1-rasm.



1- rasm. Tuproq ichidan sug'orish maydonini sixemasi.

Tuproq ichidan sug'orish tizimi o'z tarkibiga suv havzasi, nasos qurilmasi, suv etkazib beruvchi quvur, quvurlarni bir-biriga ulovchi gidrant, suv tarqatuvchi quvir va namlatgichlar kiradi. Suv tarqatuvchi quvurlarni orasidagi masofa 50 sm namlatgich teshikchalari orasidagi masofa 50 sm.

Nasos qurilmasi belgilangan miqdordagi suvni tuproq ichidan sug'orish tizimiga zarur bosim ostida etkazib berishga mo'ljallangan. U suvni suv manbaidan olib suv etkazib beruvchi quvurga (bosh quvurga) etkazib beradi.

Suv etkazib beruvchi quvur (bosh quvur) suvni nasos tizimining bosimli quvuridan olib tarqatuvchi quvurlargacha etkazib beradi.

Tarqatuvchi quvurlar suvni bosh quvurdan olib tuproq ichidan sug'orish shlanglarigacha etkazib berishga xizmat qiladi.



2-rasm. Bosh va tarqatuvchi quvurlarni o‘zaro ulovchi qismi (gidran).

Tuproq ichidan sug‘orish tizimi suv tarqatuvchi quvurlarining oxiri tiqi bilan mahkamlab qo‘yiladi.

Tuproq ichidan sug‘orish tizimini ishga tushirish nasos qurilmasini ishga tushirishdan boshlanadi. Nasos yordamida tizimga etkazib berilayotgan suv tizimning barcha suv tarqatuvchi shlanglariga o‘rnatiladi.

Tuproq ichidan sug‘orish vaqtida dalaning tuprog‘ida etishtirilayotgan ekinni normal rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan namlikni hosil qilish sug‘orishni o‘tkazishning asosiy mezon sifatida qabul qilinishi joyz.

Xulosa

Tuproq ichidan sug‘orish usulida olib borilgan tajribalardan shuni xulosa qilish mumkin. Bu usulda namlanish sifatiga tuproqning so‘rish kuchi ta‘sir qilganligi sababli, tuproqning mexanik tarkibiga etibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrda "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan Texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4919-sonli qarori

3. Century. neo-agriservis.ru <Qishloq xo'jaligi texnologiyasining yangi davri>

5. <Tomchi> mobil ilovasi

O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASINI RIVOJLANISHIDA QADIMGI O'RTA OSIYO ALLOMALARINING O'RNI

Isakova Arofat

Qoqon davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Tojimamatov Abdulaziz Ro'zimamat o'g'li

Qoqon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6516742>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’qituvchi psixologiyasini rivojlanishida qadimgi O’rta Osiyo allomalarining psixologiya sohasiga qo’shgan buyuk xissalari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: Al-Farobiy, pedagogik faoliyat, A. Jomiy, Ta'lim va tarbiya, Pedagogning kreativligi, Ibn Sino, Alisher Navoiy.

Аннотация: В данной статье рассматривается вклад древних Среднеазиатских ученых в области психологии в развитие педагогической психологии.

Ключевые слова: Аль-Фараби, А.С. Макаренко, Ибн Сино, Алишер Навои.

Annotation: This article discusses the great contributions of ancient Central Asian scholars to the field of psychology in the development of teacher psychology.

Key words: Al-Farobiy, Ibn Sino, pedagogik faoliyat, Alisher Navoiy, ta’lim, strategiya, Pedagog.

Prezidentimiz tomonidan maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha zarur fikrlar bildirildi. “Maktab ta’limini rivojlantirish masalasi meni qiynayotgan eng muhim

masala, agar shunga siyosatimizni, butun imkoniyatimizni, resurslarimizni safarbar qilmasak biz ancha orqada qolamiz va qabul qilgan qarorlarimizni mana shu 5 yillik strategiyamizni natijasiga yetisholmaymiz. Ta’lim tarbiya bizning kelajagimiz, hayot mamot masalasi ekanligini, najot ta’limda, najot tarbiyada, najot bilimdaligini aytib o’tdi. Maktab ta’limini rivojlantirsak oliy ta’lim ham, ilmimiz ham kelajakda rivojlanadi. Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilik vazifasi bo’lishi shart va zarur shundagina kutilgan natijaga erishamiz, taqdirimiz muallimlarimiz qo’lida deydi. Shuningdek sifatli ta’lim tizimi barcha shart sharoitlarga ega maktablar, ularda malakali pedagog kadrlar, boshqaruvchilik va liderlik qobiliyatiga ega maktab direktorlari vatanparvarlik ruhi baland taraqqiyot strategiyamizni bajarishga maktab direktori maktab muallimi birinchi o’ringa chiqadi. Shu davrgacha foydalanib kelayotgan ta’lim standartlari o’quv dasturlari o’quvchilariga faqat nazariy bilim berishga yo’naltirilgan bo’lib, ularni mantiqiy fikrlashga, amaliy ko’nikmalarni shakllantirish, bir so’z bilan aytganda ularni hayotga tayyorlashga o’rgatishimiz kerak” — dedi yurtboshimiz.

Hammamizga ma'lumki o'qituvchilik kasbi kasblar ichida eng ulug'i va sharaflisidir.

Pedagogik faoliyat inson mehnatining murakkab sohalaridan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak atrofdagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini esdan chiqmasligi lozim.

Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni beqiyos. Chunki pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini bilishi va har bir o'quvchiga umumpsixologik qonuniyatlarga amal qilgan holda darsni tashkil etishi kerak.

Jamiyatimizda ko'zga yaqqol tashlanib turgan muammolardan biri o'qituvchining o'z ustida ishlamasligidir. Buning natijasi o'laroq u taraqqiyotdan orqada qoladi va o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga jiddiy zarar yetkazadi. Bu muammoni hal qilishning asosiy yechimi malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirishdir. O'quvchilarni hozirgi zamon talablariga mos keladigan, erkin fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega komil inson qilib tarbiyalash uchun pedagogning o'zida bu xislatlar yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.

Al-Farobiy o'qituvchi haqida quyidagilarni aytib o'tgan: "Pedagog - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur".

U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini chiroyli ifodalab berishni bilmog'i, shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", - deb ta'kidlaydi.

Ibn Sino esa - "O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i kerak. O'qituvchi

o'quvchining butun tashqi va ichki dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim".

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: Agar shogird podshohlikka erishsa ham, unga qulluq qilsa arziydi",

" Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,

Aylamak oson emas oning haqqin yuz ganch ila", - kabi satrlarni bitgan.

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim faoliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi".

Har bir pedagog psixologik bilimlarga ega bo'lishi zarur. Chunki u o'z bilim va ko'nikmalarini bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yoshiga mos tarzda, fikrini aniq va chiroyli tarzda yetkazib berishni o'z oldiga maqsad qilib olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalansa, bolaning aqliy qobiliyatini rivojlanishiga va dunyoqarashining kengayishiga yordam bo'ladi. Pedagog har jabhada oldinda bo'lishi darkor, ya'ni dunyoviy va diniy bilimlarni mukammal bilishi kerak. Chunki bola dars jarayonida ta'lim olish bilan birga tarbiya ham oladi.

Jamiyatimizda shunday pedagoglar borki, o'zining mutaxassislik fanidan bexabarligidan tashqari, boshqa bilimlarni ham bilmaydi. Ular mamlakatimizni inqirozga yuz tutishiga olib keladi. Bundaylarga nisbatan xalq ta'limi tizimi va maktab direktorlari ham befarq bo'lmasligi lozim. Xalq ta'limi vazirligi pedagoglar

malakasini birinchi o'ringa qo'ysa, maktab rahbarlari esa buni uchinchi o'ringa qo'yadi. Oldingi o'rinlarda esa davomat, forma masalasi turadi. Maktab ma'muriyati ham o'qituvchining bilim darajasini birinchi o'ringa qo'ysa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.: «O'qituvchi», 1998.
2. G'oziev E. Psixologiya. T.: O'qituvchi, 1999.
3. Anikeeva N.P. Jamoada ruhiy muhit. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Ibragimov X. I. Pedagogik Psixologiya -T 21 b.
5. Nishonova Z. T. Rivojlanish psixologiyasi - T. O'qituvchi, 2018.

**POLIVINILKLORID KOMPOZITSIYALARINING ISHLATILISHI VA
XALQ XO’JALIGIDAGI AHAMIYATI**

Pirmamatova Dilnoza Erkin qizi

Jo’rayev Ilhom Ikromovich

Navoiy Davlat konchilik institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517482>

Annotation: The volume of polymer consumption in the world exceeded 350 million tons. The largest share of consumption falls on polyethylene 100.0 million tons, in second place the leader in increasing production volumes is polyethylene terephthalate 92.0 million tons. Polypropylene 72.0 million tons is in third place and in fourth place is polyvinyl chloride (PVC 46 million tons) [1-2].

Annotatsiya. Dunyoda polimerlarni iste'mol qilish hajmi 350 million tonnadan oshdi. Iste'molning eng katta qismi polietilen 100,0 million tonnaga to'g'ri keladi, ikkinchi o'rinda polietilen tereftalat 92,0 million tonnani tashkil etadi. Uchinchi o'rinda-polipropilen 72,0 mln. tonna, tortinchi orinda esa polivinilxlorid (PVX) 46 mln tonnani tashkil etadi Ishlab chiqarilgan sintetik polimerlarning 40% dan ko'prog'i asosan qadoqlash materiallari sifatida ishlatiladi. Ular qisqa vaqt ichida chiqindilarga aylanadi va hozirda 140 million tonnadan oshgan. [1-2] Shuning uchun polimer materiallarning chiqindilarini ishlab chiqish, qayta ishlash va ulardan olingan mahsulotlarni olish dolzarb ishdir.

key words: polyvinyl chloride, thermostabilizer, bis carbamate, composite, dynamic thermographic analysis.

kalit soʻzlar: Polivinilxlorid, termostabilizator, bis karbamat hosilalari, kompozitsiya, dinamik termogravimetrik tahlil.

Polivinilxlorid - xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlatiladigan ko'p tonnali sintetik polimerlardan biri. Uning asosida qattiq materiallar (viniplast) qurilish,

elektrotexnika, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan qattiq materiallar (vinil plastmassa) va yumshoq elastik materiallar sun'iy teri, linolyum, bezatish ishlarida izolyatsiya, bog'lovchi materiallar va boshqalar olinadi. Polivinilxlorid materiallarining xilma-xilligiga polimerning o'zi parametrlari bilan emas, balki uning suspensyon, mikrosuspensyon, emulsion va massada olinish usullariga ham bog'liq bo'lmasdan, balki polimer tabiati va past molekulyarligiga ham bog'liq bo'ldi. Kompozitsiyalar tarkibidagi komponentlar soni bo'yicha polivinilxloridni faqat rezina bilan taqqoslash mumkin. Ammo termoplastlar orasida bu ko'rsatkich bo'yicha unga teng keladigan narsa yo'q. Ko'pincha o'ndan ortiq komponentlar PVX asosidagi aralashmalarga kiritilgan. Polivinilxlorid kompozitsiyalarining bu o'ziga xos xususiyati nafaqat turli xil ishlatilish xususiyatlariga ega materiallarga bo'lgan ehtiyojga, balki polivinilxloridning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq. Avvalo, bu individual PVX parchalanish haroratining pastligi va uning parchalanishini o'ziga xos maxsus mexanizmida sodir bo'ladi. Birinchi xususiyat suyuqlanish haroratini pasaytiradigan va materialni elastikligini oshiradigan plastifikatorlardan foydalanish zarurligini, ikkinchisi esa PVX ni parchalanish haroratini oshiradigan ko'p komponentli termostabilizatorlarning sinergik aralashmalaridan va antioksidantlarga ehtiyojni aniqlaydi.

Ular bilan birga boshqa funksional qo'shimchalar ham keng qo'llaniladi moylash materiallari, to'ldiruvchi moddalar, pigmentlar, yong'inga qarshi moddalar (antipirenlar) , dispersantlar, texnologik qo'shimchalar va boshqalar PVX ishlatilish ko'lamini kengaytiradi va uni eng oson termoplastik polimerga aylanadi deb hisoblash imkonini beradi [3]. Bunday holda, qo'shimchalarning ko'p komponentli va ko'p funktsionalligi tufayli PVX kompozitsiyalarining rivojlanishi

sezilarli darajada murakkablashishi mumkin, chunki bu qo'shimchalarning ta'sir qilish mexanizmlarini, ularning o'zaro ta'sirini va kompozitsion materiallarni shakllantirishning boshqa jihatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Polivinilxlorid kompozitsiyalarining tarkibiy qismlari

Qo'shimchalarni qo'llashni uchta yo'nalishga ajratish mumkin:

-qayta ishlash va ishlatilish jarayonida sifatni barqarorlashtirish (mahsulot ishlab chiqarishda plastmassalarning eskirishini sekinlashtiradigan yoki ularning ishchi xususiyatlarini oshiradigan antioksidantlar, termo va yorug'lik stabilizatorlari);

-qayta ishlashni tartibga solish yoki boshqarish (ishlab chiqarish jarayonidagi kutilmagan qo'shimcha ta'sirlarni cheklovchi moylash materiallari, taqsimlash vositalari yoki antiadgeziv moddalar);

-yangi xususiyatlar bilan ta'minlash (so'ngi mahsulotlarni turli xossalarini modifikatsiyalovchi antipirenlar, pigmentlar, bo'yoqlar, antistatik moddalar yoki optik oqartirgichlar).

Polivinilxloridning ishlatilish sohalari ko'pligi va keng ko'lamda qo'llanilishi tufayli uning xususiyatlarini yaxshilash va issiqqa chidamliligini oshirish, shuningdek boshqa xususiyatlarini o'zgartirish uchun kompozitsiyalar qo'llanilishida yaxshi natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga yangi turdagi kompozitsiyalar ustida tajribalar olib borilmoqda. Har bir kompozitsiyalarning xususiyatlarini o'rganish jarayonida olingan natijalar asosida ishlab chiqarishda qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Волкова А. В. Рынок крупнотоннажных полимеров/ Национальный исследовательский университет Высшая школа экономики / Центр развития. 2020 год

<https://www.statista.com/statistics/720231/global-polyethylene-terephthalate-production-capacity-distribution-by-region/#:~:text=The%20global%20PET%20resin%20production,largest%20consumer%20of%20PET%20bottles.>

Уилки Ч., Саммерс Дж., Даниэлс Ч. Поливинилхлорид. Пер. с англ. (2005 г., PVC Handbook) под ред. Г.Е. Заикова. ЦОП Профессия 2007. 4.15 стр.

С.И. Пахомов, И.П. Трифонова, В.А. Бурмистров. Поливинилхлоридные композиции; Иван. гос. хим.-технол. ун-т. – Иваново, 2010.-104с.

PSIXOLOGIYA FANINING VUJUDGA KELISH TARIXI

Isakova Arofat

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

pedagogika kafedrası oqituvchisi

Salohiddinov Shamsiddin

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

pedagogika va psixalogiya fakulteti 201 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6516755>

Annotatsiya: maqolada psixologiya fanining paydo bo‘lishi haqidagi ayrim ilmiy materiallar, ma'lumotlar yuzasidan mulohaza yuritilgan

Kalit sozlar: psixologiya, tarix, fan, taraqqiyot, qadimgi odamlar, tabiiy-ijtimoiy ehtiyojlar

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые научные материалы о зарождении науки психологии.

Ключевые слова: психология, история, наука, развитие, древние люди, естественные и социальные потребности

Annotation: The article deals with some scientific materials on the origin of the science of psychology.

Key words: psychology, history, science, development, ancient people, natural and social needs

Psixologiya fanining vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi to'g'risida batafsil ma'lumot berish ushbu kurs uchun hart emas, chunki uning psixologiya tarixi sohasi mavjuddir. Shunga qaramasdan, psixologiya fanining paydo bo'lishi haqidagi ayrim ilmiy materiallar, ma'lumotlar yuzasidan qisqacha mulohaza yuritish maqsadga muvofiq. Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida qadimgi odamlar tabiiy hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ibtidoiy jamoa a'zolarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ulardan shaxslararo munosabatlarda oqilona foydalanish, o'zining xatti-harakati, shaxsiy faoliyati va muomalaga kirishishida ularni hisobga olishga intilib yashab kelganlar. Ko'p ming yillik ijtimoiy hayot

tajribalariga asoslangan ravishda odamlar shaxsning individual (lotincha “individuum” alohida, yakka hol odam) xususiyatlarini jon bilan bog'lashga va uning ta'siri bilan izohlashga harakat qilishgan. Qadimgi odamlarning tasavvurlariga qaraganda, inson tanasida jon joylashgan bo'lib, u shaxsga oid xususiyatlar, xislatlarni vujudga keltirish imkoniyatiga ega emish. Qadimgi ajdodlarimizning "jon" to'g'risidagi tasavvurlari shunga bog'liq, mutanosib tushunchasini keltirib chiqardi va buning natijasida animizm (lotincha anima "jon" degan) ta'limoti insoniyat tomonidan kashf qilinadi. Ibtidoiy xalqlarning tasavvurlarida ruh insonning tanasi bilan uzviy bog'liq holda hukm suradi, go'yoki yashaydi. Shuning uchun ijtimoiy hodisalar, hatto ong, shuningdek, real voqeliklar (o'lim, uyqu, bexush bo'lish, betoblik) kabilarni sodda tarzda moddiylik (mavjudlik) nuqtai nazaridan talqin qilishga uringanlar. Sodda tafakkur shakllari bilan qurollangan qadimgi odamlar atrof-muhit to'g'risidagi rang-barang holatlar, hodisalar mohiyatini ilmiy jihatdan dalillash imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sababli idrok qilingan narsani uning haqiqiy mohiyati tarzida aks ettirishgan. Ularning tasavvurlarida quyidagicha talqinlar keng o'rin egallagan:

O'lim - uyquning bir turi, lekin ruh ba'zi bir sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi;

Tush ko'rish - yqudagi tanani tark etib yurgan harakatdagi ruhning taassurotidir;

Ruh - insonning aynan o'zidir;

Ruhning eshtiyojlari, turmush haroitlari tirik odamnikidan tafovutlanmaydi;

Marhumlarning ruhlari muayyan mashg'ulotlar tizimiga, ijtimoiy qonun-qoidalarga rioya qiluvchi hamjamiyatni yaratar emish; Tirik insonlar bilan marhumlarning ruhi bir-biriga bog'liq bo'lib, moddiy jihatdan o'zaro aloqadordirlar. Qadimgi insonlar tabiatning qudrati (kuch-quvvati) oldidagi zaifligi tufayli yakka shaxs ham, jamoa ham ruhga itoatkor tarzida tasavvur etilishi natijasida din, ibodat tushunchalari paydo bo'ladi.

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida mehnatni rejalashtirish, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari va ularning tabaqalashuvi, odamlar tafakkurining rivojlanishi tufayli jonning (ruhning) moddiylikdan tashqari xususiyati, ko'rinishi yuzasidan g'oyalar vujudga keladi. Buning natijasida animistik tasavvurlar o'rnini ruhni borliqning naturalistik (lotincha "natura" -tabiat ma'nosini anglatuvchi) falsafiy manzarasi tarzida izoshlash namoyon bo'la boshladi: Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'ri-sidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, ta-fakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kate-goriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda Psixologiya bir tomondan, biol. fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantik hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi. Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib

kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ash-yoviy bo'lagi sifatida (Demokshyaning moddiyunchiligi asosida) talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qaramaqarshi qo'yilgan. Aristotel „Jon to'g'risida“gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi. O'rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko'rinishdagi g'ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba'zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg'a qadam qo'yildi. Inson xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qad. qo'lyozmalar, yodgorliklarda o'z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) Psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan.

Yevropa Uyg'onish davrida Leonardo da Vinchi, X. Vives kabilar Psixologiya rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. 18-asrgakelib M. V. Lomonosov, A.N. Radishchev, G. S. Skovoroda, T. Gobbs, B. Spinoza, G. Leybnits. J. Lokk, K. A. Gelvetsii, Psixologiya A. Golbax, D. Didro Psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma'lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya 19-asrning 2yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chikdi. Nemis olimi V. Vundt Leypsigda 1879 yil dastlabki eksperi-mental lab.ni jihozlashga erishdi.

Psixologiya taraqqiyotida umuman 19-asrdagi ek-sperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o'rganish uchun metodlar majmuasi qo'llana boshlandi: kuzatish, lab. eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so'rovnoma, tarjimai hol va h.k. 19-asr oxiri —

20-asr boshlarida qator psixologik ilmiy maktablar, yoʻnalishlar vujudga keldi: bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, personalizm, freydizm va h.k. Psixologiyaning rivojiga I. M. Sechenov (psixikaning reflektor tabiati), I. Pavlov (oliy nerv faoliyati) taʼlimotlari muhim hissa boʻlib qoʻshildi. Rossiyada V. M. Bexterev eksperimental lab. (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N. N. Langening Odessadagi lab., G. Chelpanovning Kiyevdagi, S. Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V. M. Bexterev, A. Lazurskiy, A. Nechayevlarning Peterburgdagi, V. Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari Psixologiya taraqqiyotiga alohida taʼsir oʻtkazdi. 1912 yil Moskva universitetida Psixologiya instituti ochildi. Shu yilda I. A.

Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta Bolalar psi-xologiyasi instituti tashkil qilindi. 20-asr ning 1yarmida Rossiyada K. N. Kornilov, Psixologiya Psixologiya Blonskiy va boshqa dialekti-kaga asoslangan ilmiy Psixologiyani yaratishga kirishdilar. Hozirgi zamon Psixologiyasi koʻp tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, oʻzining tadqiqot predmetiga ega boʻlgan koʻplab sohalardan tashkil topgan: umumiy Psixologiya, aviatsiya Psixologiyasi, harbiy Psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq Psixologiyasi, tibbiyot Psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat Psixologiyasi, sport Psixologiyasi, maxsus Psixologiya, ijodiyot Psixologiyasi, menejment Psixologiyasi, marketing Psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy Psixologiya, din Psixologiyasi, oila Psixologiyasi, Psixologiya tarixi, genetik Psixologiya, amaliy Psixologiya, eksperimental Psixologiya, kasb Psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy Psixologiya va boshqa

Psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saklash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir o'tkazmoqda. Zamonavyy Psixologiyada elektron-hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o'rganish kabilar qo'llanilmoqda. Psixologiyada o'zini o'zi kuzatish (introspeksiya) metodi atrofida keskin bahslar davom etmoqda. Ba'zi yo'nalishdagi psixologlar uni tadqiqot o'tkazishning asosiy metodi deb ta'kidlasalar, boshqalari esa uning cheklanganligini e'tirof qiladilar, buning o'rniga ob'yektiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Ob'yektiv metodlar tufayli psixikaning moddiy negizi aniklangan, inson ichki munosabatlari bilan sub'yektiv holatlar sababiy bog'liqligi yakka shaxsda, jamoada namoyon bo'lishi dalillangan. Jahon hamjamiyatida AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Shveysariya mamlakatlarida ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida, universitetlarda psixologik izlanishlar keng ko'lamda olib borilmoqda. O'zbekistonda Psixologiya 1928 yildan e'tiboran hozirgi Milliy universitetda fan sifatida o'qitila boshlandi. 1929 yil Xalq maorifi komissarligi qoshida Psixologiya labo-ratoriyasi ochildi. Keyinchalik pedagogika institutlarida Psixologiyaning bir necha sohaları bo'yicha talabalarga bilim berila boshlandi. 20-asrning 2-yarmida M. Vohidov, M. Davletshin singari mahalliy kadrlar yetishib chikdi. Hozirgi davrda Psixologiya fanlari doktorlari V. Tokareva, E. G'oziyev, B. Qodirov, G'. Shoumarov, R. Gaynutdinov, V. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, R. Sunnatovalar

Psixologiyaning umumiy Psixologiya, pedagogik va yosh Psixologiyasi, ijtimoiy Psixologiya sohalari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E G'oziyev Psixalogiya . 1994
2. S.X Jalilova N.A. G'ayibova Umumiy Psixodiagnostika . 2018.
3. D Nurkeldiyeva Pedagogik Psixologik Diagnostika .2019

Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari

A'zamov Ilhomjon Olimjon o'g'li



Qo'qon Davlat Pedagogika instituti Milliy hunarmandchilik va amaliy san'at fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2 kurs 02/20-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508526>

Annatosiya: Maqolada chiziqli va fazoviy perspektiza to'g'risida tushuncha berish. Buyumlarni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilish, nur, soya, yarimsoya, tushuvchi soya, shaxsiy soya, buyumlarning qajmi va ularni to'g'ri tuslash, kompozitsiya asoslari kabi asosiy tushunchalar yoriyilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, rasm chizish, qalamtasvir, qomat, pedagogik rasm.

Аннотация: Ввести в статью линейную и пространственную перспективу. В описании предметов описываются основные понятия, такие как линейное построение, свет, тень, полутень, падающая тень, индивидуальная тень, размер и правильность предметов, основы композиции.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, рисунок, карандаш, рисунок, педагогический рисунок.

Annotation: Introduce linear and spatial perspective into the article. The description of objects describes the basic concepts, such as linear construction, light, shadow, penumbra, falling shadow, individual shadow, size and correctness of objects, the basics of composition.

Key words: Fine arts, drawing, pencil, drawing, pedagogical drawing.

Tasviriy san'atning barcha turlarida va janrlarida kompozitsiya masalasini hal etish etakchi o'rinlarda turadi, desak yanglishmaymiz. Buniig uchun esa har bir san'at tursh a muvofiq tarzda kompozitsiya asoslarini qo'llay bilish ksrak. Shu o'rinda kompozitsiya umumqoidalari puxta o'rganilishi zarur. Ular akademik qalamgasvirlar yaratish, o'rganish, mashq qilish jarayonining ham ajralmas qismidir.

Ma'lumki, inson qomatini chizish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda albatta akademik rasm ishlash amallari qo'llaniladi. U esa oddiydan murakkabga o'tib boish orqali yuzaga chiqariladi. Odam tasviri talabalar, uni endi chizishni o'rganayotganlar uchun ancha murakkab ishdir. Bu sohaniig nazariy

qismini o'qib. o'rganish mashqlar uchun chiziladigan vazifalar sifatini oshirishni omilidir. Chunki nafaqat yillar, balki asrlar davomida akademik rasm chizish sirlari ochilib, tadqiq etib, takomillashtirilib kelinmoqda. Shundan ma'lumki o'ziga xos, inkor etib bo'lmaydigan tamoyillar, qonun-qoidalar vujudga kelgan. Ularga amal qilinishi ayniqsa o'rganuvchilarga yordam beradigan zo'r omildir.

Odam qomatini to'liq tasvirlash, uning bosh qismini chizish amallari to'liq o'zlashtirilib olingach boshlangani ma'qul. Shunda dastlabki mashqlardanoq etarli samaraga erishish mumkin bo'ladi. Asosiy e'tibor tanani tadqiq etish va tasvirlash ishiga qaragiladi. Ma'lumki inson qaddi-qomatining o'z o'lchamlari, mutanosiblik tamoyillari mavjud. Masalan yosh bola boshining o'lchami tanaga nisbatan jihatdan ancha mutanosiblikda bo'ladi va tanaga, uning balandlik o'lchamiga olti, etti, ba'zan etti yarim karra joylashadi. Albatta bu me'zonlar nisbatan bo'lib turli odamlarda har xillik kasb etadi.

Odam qomatini chizishda uning tuzilishini (konstruktsiyasini) bilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun chizuvchi tananing qanday harakat holatida, qay vaziyatda turganligini qoralama chizgilar qilish orqali tahlil qilish, ko'plab shunday mashqlar bajargan, asosiy ishni boshlashi kerak. Chizganda ham qiyofani, uning barcha bo'laklarini alohida-alohida emas, balki yaxlit aks ettirishga urinish, hamda erishish lozim bo'ladi. Ammo har bir bo'lak uning tasvirida tutgan roli ham unutilmasligi kerak. Turgan odam qiyofasini chizishning asosiy amallari nimalardan iborat, degan savolni oldimizga qo'yib, unga javob beraylik:

Ilgarigi vazifalardagidek buning ham dastlabki maqsad ob'ektini qog'oz satHiga chiroyli qilib joylashtirishdan iboratdir. So'ngra tana turish vaziyati, holati topiladi,

keyin qomatning qismlari, o'lchamlari o'zaro mutanosibligi topiladi. Ular odamning keksa yoshligiga, semiz yoki ozg'inligiga, bo'iining past yoki balandligiga bog'liq bo'ladi. Bunda albatta odamning qaysi bir oyog'iga, yoki ikkala oyog'iga gayanib turganligi e'tiborga olinishi muhimdir. Chunki shunga karab tananing holati o'zgarib turadi. Yelka, bosh, bel. gos. qo'l va oyoqlar turishi har xil ko'rinishga ega bo'ladi. Ma'lumki, odam umurtqa nog'onpsiping |uzilishi ham uning ko'rinishiga ta'sir etadi. Ba'zi tanalariing turishi tik bo'lsa, ba'zilari bukchayibroq kuripishi shundan.

Tananing har bir a'zosi gorizontal va psrtikal chiziqlarga nisbagg.n qamday vaziyatda ekanligi muntazam ravishda tekshirib turiladi. Butun tapaning tayanch nuqtasi mavjud bo'lib, u og'irlik qaysi oyoqqa tushaetganiga, yoki ular oralig'iga tushaotganini aniqlashda qo'l keladi. U to'g'ri, joyida topilmagan bulsa, odam qiyofasi og'ib, yiqilayotganga o'xshab chiqib qolishi mumkin. Shu sababdan tekshirish uchun ba'zan osma shovundan foydalanish mumkin. U barcha perpendikulyarlarni topishda zo'r vositadir.

Odam qiyofasini chizishni o'rganishda uni skelet bilpn solishtirib tekshirish, tananing asosiy mushaklari tizimini Gudon «ekorshesi»dan ko'rib o'rganish maqsadga muvofiq. Ana shunda chizuvchi tpaning qaysi bo'lagiga urg'u berishi va batafsil ishlashi kerakligini gushunishi oson bo'ladi. Chunki suyaklar tizimini belgilovchi skelet va mushaklar tana qismlarining shakli-shamoyilini yaqqol qilib aks ettirishda yordam beradi. Umuman yuqoridagilarni sifatli bajarilishi uchun har bir talaba plastik anatomiyadan yahshi xabardor bo'lishi zarur. Shuni ham takidlash o'rinliki, ishni bajarishda soya-yorug' munosabatlarini go'g'ri topib tasvirlash ham ahamiyat kasb etadi. Chizish mobaynida kztta soyalar va yorug',

yarimsoyalarni birvarakay belgilab tuslab borilishi tasvirning hajmli ko'rinishini taminlaydi. Umum tanani aks slgirnshta unipg mayda qismlarini ham yo'l-yo'lakay apiqlashgirib boriladi, ammo bunda yaxliglikka pugur egkazilmaoligi kerak. Tasvirlash jarayoni izchillikda bosqichma-bosqich olib borilsa, oxirida barcha yumondan ish tekshirib umumlashtirilsa vazifa yaxom chiqishi tamiilanadi, ham aytib o'tish kerakki, vazifani tugal holga keltirish tajribaga, yani ko'p, erinmay, sabot bilai ish olib borilishiga bog-liqdir. Nazariil bilimlarni o'gmish us!a rassomlari merosini kitoblardan o'qib o'rganish yordamida oshirib borilishi kerak.

Pedagogik rasm ishlashning maqsad va vazifalari.

Pedagogik rasm chizishning o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, u bolalprga chizish yo'llarini odtsiy, sodda ttrzda tushuntirib berish imkonini beradi. Bunda albatta bosqichma-bosqich ishlash tamoyili ustun turadi. Rasm chizishni mashq qilish darslar hajmsiz, yassi narsalarni tasiirini ishlashdan boshlanadi. Va asta-sekin murakkabroq shaklga ega bo'lgan hajmdor narsalar tasviriga o'tiladi. O'zi yaxshi tasvir ishlashni bilgan o'qituvchi bolalarga o'rgatish yo'llarini ham puxta o'zlashtirib olishi, nazariy jihatdan tushuntira olishi talab etiladi. Bu ish albatta sinf taxtasida bo'r bilan tasvirlar ishlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim masaladir.

Malumki, ,mutaxassis rassom bo'la turib o'z bilimlarini, tajribasini boshqalarga o'rgatish ishipi udtsalay olmaydpganlar ham bo'ladi. Chunki pedagogik ishnin! o'z qiyinchiliklari ya murakkab tomonlarp mavjud. Ular asosai bolalariing qobiliyatiga mos revishda mashg'uloglarni tashkil qilishda ko'proq ayon bo'ladi. Shu sababdan rasm chizish metodlarini bolalarbop qilib tushuntirib borish unchalik oson ish emas. Buni har bir tarbiyachi-musavvir yaxshi bilishi kerak.

Sinf taxtasida chizib bolalarga ko'rsatish va o'rgatish qulay bo'lgan narsalar asosan uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat bo'ladi. Bu tibbiy holat ularni chizib o'rganayotganlar uchun qulaydir. Chunki bolalar har doim atrofida ko'rib, kuzatish imkoniyatiga ega bo'lgan narsa va buyumlarni tasvirlash ancha oson bo'ladi. O'qituvchi barcha sodda predmetlarni, o'rtacha qiyinchilikdagi, hamda murakkablarini ham bo'r bilan sinf taxtasida aks etira olishi shart. Shunda ko'rgazmallik tamoyiliga amal qilingan bo'ladi. Aks holda o'rganayotgan bolalar mavzuni, ular oldiga qo'yilgan vazifa talablarni to'liq tushunib etish qiyin kechadi. Ammo sinf taxtasida chizib ko'rsatilayotgan narsaning asli albatta bolalar ko'z o'ngiga namuna qilib qo'yib qo'yilishi zarur. Ular predmetni har tomondan kuzatish, xatto ushlab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. To'liq tasavvurga ega bo'lsinlar. Shu jihatdan olgaida bolta, tasha. Randa, arra va shuiga o'xshash narsalarni chizishdan boshlangan ma'qul.

Pedagogik rasm chizishda uning xususiyatlariga amal qilinishi ish samaradorligini ta'minlaydi. Ular tasvirlarni oddiy, sodda, tushunarli qilib aks ettirishdan iboratdir. Shunisi ham ma'lumki sinf taxtasida tasvirlanadigan narsalarning soya erug' qismlarini ko'rsatish nisbiy ko'rinishiga egaligi bilan ajralib turadi. Buni bolalar to'g'ri qabul qilishlari uchun to'g'ri tushunchalar berilishi kerak. Bo'ning chizma izlari qog'ozdagi qalam izlarini bildirishi uqtirilishi zarur. Aks holda chizishni mashq qilayotgan bolalar uning mazmui mohiyatini anglamasliklari extimoli bor. Sinf taxtasida rasm chizib ko'rsatganda albatta qog'oz satxidagidek barcha batafsilliklar aks ettirilmaydi, balki ancha soddalashtirib ko'rsatiladi. Mayda detallarni bo'rda tasvir etish tavsiya etilmaydi.

Sinf taxtasida ayniqsa odam tasvir etilganda uni sxemali. Konstruktiv jihatlarini ko'rsatish kifoya. Chunki bolalar tasvir tuzilishidagi muhim amallarni sodda tasvirlar orqali tez va soz anglab oladilar. Batafsilliklarni esa chizilayotgan ob'ektniig turgam zslidan qarab davom ettiradilar. Odam chizmagasvirini uning turli holatlari (o'tirgan, tik turgzn, kitob o'qiyotgan) orqali tasvir etib ko'rsatilishi, ularning chizmalı-konstruktiv qilib aks ettirilishi maqsadga muvofiq bo'lib, bolalarning har bir tasvirini tushunib ishlashlarini ta'minlovchi omildir.

Adabiyotlar:

1. V.S.Kuzin. Nabroski i zarisoki. Moskva «Prosveshenie» 1981.
2. L.E.Terentev. Risunok v pedagogocheskom praktike uchitelya izobrazitel'nogo iskusstva. Moskva <.Prosvesh,enie» 1981.
3. N.P.Kosterin. Uchebnoe risovanie. Moskva. «Prosveidenye»
4. B.Boymetov. qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar Toshkent 1995.

O'ZBEKISTON

**QALQON SIMON BEZ FA'OLYATINING O'ZGARISHI TUFAYLI
KELIB CHIQUADIGAN DIFFUZ TOKSIK BUQOQ**

Chorshanbiyev Bobonazar Mamataliyevich

Yusubov Shohzod Otabek o'g'li,

Xamdullayev O'tkir Alijon o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabalari

Ilmiy raxbar: **Tog'ayeva Gulnora Siddiqovna.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6461142>

Annotatsiya: Diffuz toksik buqoq kasalligi (tireotoksikoz, tireotoksik buqoq) endokrin kasallik hisoblanib, tireoid gormonlar sekretsiasining haddan ziyod ortishi natijasida paydo bo'ladi, u turli a'zolar hamda sistemalarda og'ir buzilishlar bilan kechadi. Bu kasallik xalq orasida kam e'tibor beriladigan, ammo og'ir asoratlar bilan kechadigan kasallik bo'lib, unga alohida to'xtalish muhim ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: buqoq, tireotoksikoz, tireotoksik buqoq, endokrin,

Ma'qola mazmuni: Diffuz toksik buqoq kasalligining kelib chiqishi haqida ko'p sonli qarashlar mavjud. Davlatimizning ko'pchilik olimlari neyrogen nazariyani qo'llab-quvvatlashadi va bu kasallikning paydo bo'lishida ruhiy shikastlanish (stress) ning katta ahamiyati borligini ta'kidlaydilar. Bu nazariyaning asoschisi S.P. Botkin (1884): "Ruhiy holatlar – Bazed kasalligining kechishigagina emas, balki rivojiga ham ta'siri borligi shak-shubxasizdir. Kulfat, turli xil yo'qotishlar, qo'rquv, g'azab, vahima Bazed kasalligiga xos simptomlarning tez, bir necha soat ichida rivojlanishiga ko'p marta sabab bo'lgan", – deb yozgan edi. S.A. Ma'sumov, M.S. Astrov buqoq ekspeditsiyalari va kuzatuvlardan olingan materiallarni analiz qilib, diffuz toksik buqoq etiologiyasida ruhiy shikast (stress) ning katta ahamiyati borligini (40-60% gacha) ta'kidlab o'tganlar.

Ayollar jinsiy kasalliklari va gormonal faoliyatining buzilishlarining nisbatan ko'p uchrashi jihatidan (33,6%), ikkinchi omil hisoblanadi (xomiladorlik hayz ko'rishning buzilishi, farzand ko'rish orzusi bo'lgan holda bo'yida bo'lmaslik, yolg'izlik va b.). Diffuz toksik buqoq etiologiyasida infektsiyaning ahamiyati katta emas, biroq bemorlarning kamida 5-6% o'z xastaligini asosan og'ir gripp yoki angina bilan bog'laydilar. Diffuz toksik buqoqqa moyil qiladigan konstitutsional va genetik omillar – endokrin sistema a'zolari faoliyati buzilishlari mavjud bo'lgan holda organizmga ekzogen omillar ta'siri sabab bo'lishi ham isbotlab berilgan. Diffuz toksik buqoqli bemorlarda qonda uzoq muddat ta'sir qiladigan stimulyator – LATS aniqlangan bo'lib, bu qalqonsimon bezga nisbatan spetsifik antitelo vazifasini o'tab, qalqonsimon bezning tireotropin ta'siridagi kabi qo'zg'alishini yuzaga keltirishi ma'lum bo'lgan. Organizmda T3 va T4 to'planishining oshishi, to'qimalarda oksidli fosforillanish jarayonlarini buzadi, bu hol modda

almashinuvining barcha turlarini buzilishida, markaziy nerv sistemasi, yurak, jigar va boshqa a'zolar faoliyatini izdan chiqishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Diffuz toksik buqoq bilan, ko'pincha hollarda 20 dan 50 yoshgacha bo'lgan ayollar kasallanadilar. Bemor ayollar sonining erkaklarga nisbati $\approx 10:1$. Kasallikning ayollarda ko'p uchrashiga ularda jinsiy bezlar va gipotalamo-gipofizar sistema faoliyatidagi o'zaro normal munosabatlarning birmuncha ko'p buzilishi sabab bo'ladi va bu qalqonsimon bez gormonlari jadal sintez qilinishi bilan o'tadi.

Ilmiy adabiyotlarining guvohlik berishicha kasb-kor nuqtai nazaridan diffuz toksik buqoq bilan ko'proq aqliy mehnat xodimlari kasallanadilar. Qishloq joylarda yashovchi aholi tireotoksikoz bilan 3- 5 marta kamroq kasallanadi. Aftidan, bunda birmuncha tinch va qulay bo'lgan atrof muhitning (tabiiy omillar, ochiq havoda ishlash) ahamiyati katta bo'lsa kerak.

Diffuz toksik buqoqda, qalqonsimon bezni O.V. Nikolaev taklif etgan usul bo'yicha – subtotal subfastsial strumektomiya amaliyotini bajarish – eng radikal usullardan biri hisoblanadi. Bunda bez to'qimasining traxeya oldidagi har bir bo'lagidan $\approx 4-8$ grammgacha kattalikdagi qismi qoldiriladi. Qolgan ko'pchilik usullar (Drachinskaya, Breydo usullari va b.), ushbu operatsiyaning takomillashtirilgan turlaridan bo'lib, bez to'qimasidan qaerda va qancha qoldirilishi bilangina farqlanadi. Jarrohlik amaliyoti jarayonida qon ketish xavfi bo'lganda, avvalo qalqonsimon bez arteriyalari Koxer usuli bo'yicha bog'lanishi, so'ngra mo'ljallangan operatsiya bajarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buqoqning tugunli va aralash turlarida ilgari "enukleatsiya" (tugunni to'qimadan sidirib olish) operatsiyasi bajarilib kelinar edi. Operatsiyadan keyingi davrda, bu toifa bemorlarning ba'zilarida tugun yonidagi bez to'qimasida joylashgan, ko'zga ko'rinmaydigan (mayda) tugunchalarning keyinchalik rivojlanib, kasallik retsdivini (qaytalanishi) yuzaga keltirishi mumkinligi aniqlandi. Buni hisobga olgan holda, keyingi yillarda qalqonsimon bez tugunini yon to'qimalari bilan Mikulich usuli bo'yicha rezektsiya qilish operatsiyasini qo'llash, yaxshi natijalar bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.X Shagazatova ,, Endokrinologiya''
- 2.S.I Ismailov ,, Endokrinologiya''
- 3.Maia AL, Goemann IM, Meyer EL, Wajner SM (iyun 2011). "Deiodinazalar: qalqonsimon bez gormoni muvozanati: odam fiziologiyasi va kasalligida 1-tur yodotironin deiodinazasi".
4. SY, Leonard JL, Davis PJ (aprel 2010). "Qalqonsimon bez gormoni harakatlarining molekulyar jihatlari". Endokrin Sharhlar. 31 (2): 139–70.
5. A, Abalovich M, Aleksandr E, Azizi F, Mestman J, Negro R, Nixon a, Pirs EN, Soldin OP, Sullivan S, Wiersinga W (2011 yil oktyabr). "Homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davrda tiroid kasalligini tashxislash va boshqarish uchun Amerika tiroid uyushmasi ko'rsatmalari".
6. M, MacIsaac RJ, Grossmann M (avgust 2012). "Gipotireoz" (PDF). Avstraliya Oila Shifokor.

**ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR**

info@bestarticle.uz

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022**

O'ZBEKISTON

QANDSIZ DIABET

Yuldashev Ozodbek Faxriddin o'g'li

Sherqulov Shukrullo Urol o'g'li

Yuldoshov Elchinbek Kosim o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabalari

Ilmiy raxbar : **Davronova Aziza Davronovna.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6461197>

Annotatsiya: Vazopressin — gipotalamusda sintez qilinadigan (ishlab chiqariladigan) gormon bo'lib, keyin u gipofizga tushadi va u yerdan qonga o'tadi. Vazopressinning sintezi asosan natriy bilan nazorat qilinadi: qonda natriy kontsentratsiyasining ortishi bilan gormon ishlab chiqarilishi oshadi, kamayganda esa kamayadi. Bundan tashqari, stressli vaziyatlarda, organizmda suyuqlikning kamayishida va nikotin kirishida gormonning sintezi kuchayadi. Shuningdek, vazopressin ishlab chiqarilishi arterial bosimning ortishida, renin-angiotenzin tizimining zaiflashuvida, tana haroratining pasayishida, spirtli ichimliklar va ba'zi dorilar (masalan, klopelin, galoperidol, glyukokortikoidlar) qabul qilishda kamayadi.

Ta'sir mexanizmi: Qon oqimi bilan gormon buyrak naychalariga yetib boradi, so'ng maxsus retseptorlarga birikib, ularning suv molekulasi uchun o'tkazuvchanligini oshiradi. Buning natijasida suv qayta so'riladi va siydik konsentratsiyalangan bo'ladi. Siydik rezorbsiyasi bilan bir qatorda, vazopressin organizmda sodir bo'ladigan bir nechta jarayonlarni tartibga soladi. Uning funksiyalari:

1. Qon aylanish tizimining kapillyarlari, shu jumladan buyrak koptokchalari kapillyarlarini torayishiga yordam beradi.
2. Qon bosimini ushlab turadi.
3. Buyrak usti bezi po'sti gormonlari ishlab chiqarilishini tartibga soluvchi adrenokortikotrop gormon (gipofiz bezida sintez qilinadi) sekretsiyasiga ta'sir qiladi.
4. Qalqonsimon bezning tiroksin ishlab chiqarishini rag'batlantiradigan tireotrop gormon (gipofiz bezida sintez qilinadi) ajralishini kuchaytiradi.
5. Trombotsitlarni agregatsiyasini (yopishib qolishini) chaqirishi va qon ivishining ba'zi omillarini ajratishi sababli qon ivishini yaxshilaydi.
6. Hujayra ichidagi va tomir ichidagi suyuqlik hajmini kamaytiradi.
7. Organizm suyuqliklari osmolyarligini (1 l suyuqlikda erigan zarralar konsentratsiyasi) tartibga soladi: qon, siydikda.
8. Renin-angiotenzin tizimini rag'batlantiradi.

Vazopressin yetishmovchiligi bilan noyob kasallik — qandsiz diabet rivojlanadi.

QANDSIZ DIABET TURLARI

Qandsiz diabet rivojlanish mexanizmlarini hisobga olgan holda uni ikki asosiy turga bo'lish mumkin:

1. Markaziy qandsiz diabet. Gipotalamusta vazopressin ishlab chiqarilishi yetishmovchiligi yoki uning gipofiz bezidan qonga o'tishi buzilishi natijasida shakllanadi.
2. Buyrakli (nefrogan) qandsiz diabet. Ushbu shaklda vazopressin darajasi me'yorda bo'ladi, ammo buyrak to'qimasi unga reaksiya bermaydi.

Bundan tashqari, ba'zida stressga javoban psixogen polidipsiya (kuchli chanqash) rivojlanadi. Shu bilan birga, qandsiz diabet homiladorlik paytida shakllanishi mumkin. Buning sababi — yo'ldosh (platsenta) fermentlari bilan vazopressinning parchalanishidir. Odatda, kasallikning belgilari homiladorlikning uchinchi trimestrida namoyon bo'ladi, lekin tug'ruqdan keyin ular o'z-o'zidan yo'qolib ketadi.

RIVOJLANISH SABABLARI Qanday shakldagi qandsiz diabet rivojlanishga olib kelishiga qarab, sabablar ikkiga bo'linadi.

MARKAZIY QANDSIZ DIABET SABABLARI

Miya shikastlanishlari:

1. Gipofiz yoki gipotalamus o'smalari;
2. Bosh miyadagi operatsiyalardan keyingi asoratlar;
3. Sifilis;

4. Ba'zan o'tkazilgan infeksiyalardan so'ng rivojlanadi: O'RVI , gripp va
5. boshqalar;
6. Ensefalit (bosh miyaning yallig'lanishi);
7. Bosh suyagi va bosh miya jarohati;
8. Gipotalamus yoki gipofizda qon aylanishning yomonlashuvi;
9. Gipofiz yoki gipotalamusning faoliyatiga ta'sir ko'rastishi bilan kechadigan yomon sifatli o'smalarning miyaga metastazi;
10. Kasallik tug'ma bo'lishi mumkin.

NEFROGEN QANDSIZ DIABET SABABLARI

1. Kasallik tug'ma bo'lishi mumkin (eng keng tarqalgan sababi);
2. Kasallik ba'zan buyrakning miya moddasi yoki nefronning siydik naychalari shikastlanishi bilan kechadigan ma'lum sharoitlar yoki kasalliklar bilan bog'liq bo'ladi;
3. Noyob anemiya (o'roqsimon hujayrali);
4. Buyrak polikistozi (ko'p kistalar) yoki amiloidoz (amiloid to'qimasida cho'kma);
5. Surunkali buyrak yetishmovchiligi;
6. Qonda kaliyning ortishi yoki kalsiyning pasayishi;

7. Buyrak to'qimasiga toksik ta'sir qiluvchi dorilarni qabul qilish (masalan, Litiy, Amfoteritsin B, Demeklotsilin);
8. Ba'zida zaiflashgan bemorlarda yoki qarilik davrida paydo bo'ladi.
9. Biroq, barcha holatlarning 30% da qandsiz diabet kasalligining sababi aniqlanmaganligicha qoladi. Chunki o'tkaziladigan barcha tadqiqotlar ushbu kasallikning rivojlanishiga olib keladigan har qanday kasallik yoki omil mavjudligini ko'rsatmaydi.

QANDSIZ DIABET ALOMATLARI

Qandsiz diabet rivojlanishiga olib keladigan sabablar turli bo'lishiga qaramasdan, kasallikning belgilari va alomatlari barcha turlarida deyarli bir xil. Biroq, kasallik alomatlarining namoyon bo'lish kuchliligi darajasi ikki narsaga bog'liq. Nefron kanalchalarining retseptorlari vazopressinga qanchalik sezgir emasligi. Antidiuretik gormonning yetishmaslik darajasi yoki uning yo'qligi. Odatda, kasallik to'satdan boshlanadi, ammo u asta-sekin rivojlanishi ham mumkin.

Kasallikning dastlabki belgilari — juda kuchli azob beruvchi chanqoqlik (polidipsiya) va bemorni hatto kechasi ham bezovta qiladigan tez-tez, ko'p miqdorda siyish (poliuriya) sanaladi. Bir sutkada 3 litrdan 15 litrgacha siydik ajralishi mumkin, ba'zan uning miqdori kuniga 20 litrgacha yetadi. Shuning uchun bemorni kuchli chanqoq bezovta qiladi. Keyinchalik, kasallik rivojlanib borishi bilan quyidagi alomatlar qo'shiladi:

1. Suvsizlanish belgilari (organizmda suv yetishmasligi) paydo bo'ladi: teri va shilliq qavat quruqligi (og'iz qurishi), tana vazni pasayishi.

2. Ko'p miqdorda suyuqlik qabul qilish sababli oshqozon kengayadi, ba'zan hatto pastga siljiydi.
3. Organizmdagi suv yetishmovchiligi tufayli oshqozon va ichakdagi ovqat hazm qilish fermentlari ishlab chiqarilishi buziladi. Shuning uchun bemorda ishtaha pasayadi, gastrit yoki kolit rivojlanadi, ich qotishiga moyillik bo'ladi.
4. Katta miqdordagi siydik chiqarilishi sababli qovuq cho'ziladi.
5. Organizmga suv yetishmasligi sababli terlash kamayadi.
6. Ko'pincha qon bosimi pasayadi va yurak urish tezligi ortadi.
7. Ba'zida tushunarsiz ko'ngil aynishi va qayt qilish kuzatiladi.
8. Bemor tezda charchaydi.
9. Tana harorati ko'tarilishi mumkin.
10. Ba'zida kechasi siydik tuta olmaslik (enurez) rivojlanadi.
11. Tashnalik va tez-tez siyish tunlari ham davom etar ekan, bemorda ruhiy va hissiy buzilishlar rivojlanadi:
12. Uyqusizlik va bosh og'rig'i;
13. Emotsional labillik (ba'zan hatto psixozlar rivojlanadi) va qo'zg'aluvchanlik;
14. Aqliy faollikning pasayishi.

Bu qandsiz diabetning odatiy holatlardagi belgilaridir. Biroq, kasallikning namoyon bo'lishi erkaklar va ayollar, shuningdek, bolalarda birmuncha farq qilishi mumkin.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda kasallik belgilari quyidagicha bo'ladi:

1. Chaqaloq ona sutidan ko'ra suvni afzal ko'radi, lekin ba'zan chanqoqlik bo'lmaydi;
2. Chaqaloq tez-tez va ko'p miqdorda siyadi;
3. Tashvishlanishi mavjud bo'ladi;
4. Tana vazni tezda yo'qotiladi (bola tom ma'noda «ko'z oldida» ozib ketadi);
5. To'qimalarning turgori pasayadi (agar teri bir qavatga to'planib, qo'yib yuborilsa, u normal holatga asta-sekin qaytadi);
6. Ko'z yosh oz bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi;
7. Tez-tez takrorlanadigan qayt qilish kuzatiladi;
8. Yurak ritmi tezlashadi;
9. Tana harorati tezda ko'tarilishi va pasayishi mumkin.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar suv ichish istagini ifoda eta olmaydi, shuning uchun ko'pincha ularning holati yomonlashadi: hushini yo'qotadi va tutqanonqlar rivojlanishi mumkin. Afsuski, hatto ba'zan o'lim ham yuz beradi.

TASHXISLASH

Birinchiidan, shifokor bir nechta narsalarga aniqlik kiritadi:

1. Bemor qancha suyuqlik ichishi va qancha miqdorda siydik chiqarishi. Agar uning hajmi 3 litrdan ko'p bo'lsa, bu qandsiz diabet foydasiga dalil bo'ladi.
2. Tunda siydikni ushlab tura olmaslik va tez-tez ko'p miqdorda siyish (nikturiya) mavjudmi, shuningdek, bemorlar kechalari suvni ichadimi. Agar shunday bo'lsa, u holda ichiladigan suyuqlik va chiqariladigan siydik miqdori aniqlanishi kerak.
3. Yuqori chanqoqlik psixologik sabablar bilan bog'liq emasmi. Agar alomatlar bemor sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanganida, sayr qilishida yoki mehmonda bo'lganida kuzatilmasa, ehtimol, u psixogen polidipsiyaga ega.
4. Qandsiz diabet rivojlanishiga turtki beradigan kasalliklar (o'smalar, endokrin kasalliklar va boshqalar) mavjudmi.

Agar barcha alomatlar va shikoyatlar bemorda, ehtimol, qandsiz diabet mavjudligidan darak bersa, ambulatoriya sharoitida quyidagi taqiqotlar amalga oshiriladi :

1. Siydikning osmolyarligi va nisbiy zichligi (buyraklarning filtrlash funksiyasini xarakterlaydi), shuningdek qon zardobining osmolyarligi aniqlanadi;
2. Bosh miya kompyuterli tomografiyasi yoki magnit-yadroviy tomografiyasi;
3. Turk egati va bosh suyagi rentgenogrammasi;
4. Exoensefalografiya (EEG);
5. Ekskretorli uroografiya;

6. Buyrak UT tekshiruvi;
7. Qon zardobida natriy, kaltsiy, kaliy, azot, mochevina, glyukoza (qand) darajasi aniqlanadi;
8. Zimnitskiy testi.
9. Bundan tashqari, bemorni nevropatolog, okulist va neyroxarohlar ham tekshiradi.

Laboratoriya ma’lumotlariga asoslanib, qandsiz diabet tashxislanishi mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Qonda natriyning ko’payishi (155 mEkv / l dan ortiq)
2. Qon plazmasi osmolyarligining ortishi (290 mosm/kg dan ortiq)
3. Siydik osmolyarligining pasayishi (100-200 mosm / kg dan kam)
4. Siydik nisbiy zichliging pastligi (1010 dan kam)

Siydik va qonning osmolyarligi me’yoriy chegaralar oralig’ida bo’lsa-da, bemorning shikoyati va alomatlari qandsiz diabet mavjudligini ko’rsatsa, suyuqlikni cheklash bilan test o’tkaziladi. Sinovning mazmuni shundaki, organizmga suyuqlikni kam miqdorda tushishi muayyan vaqtdan (odatda 6-9 soatdan) keyin vazopressin ishlab chiqarilishni rag’batlantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu test nafaqat tashxis qo’yish, balki patologiyaning turini aniqlash imkonini ham beradi.

SUYUQLIKNI CHEKLASH BILAN SINOV O’TKAZISH USULI

Kechasi uxlab uyg'ongandan so'ng, bemorning och qoringa vazni, arterial bosimi va pulsi o'lchanadi. Bundan tashqari, qonda natriyning miqdori va qon plazmasining osmolyarligi, siydikning osmolyarligi va nisbiy zichligi aniqlanadi. Shundan so'ng bemor chiday olgunicha eng uzoq vaqt davomida suyuqliklar (suv, sharbat, choy) ichishni to'xtatadi. Keyin muntazam ravishda (har bir yoki ikki soatda), bemor og'irligi o'lchanadi va barcha laboratoriya testlari takrorlanadi.

Bemorda sinov o'tkazish to'xtatiladi, agar:

1. Tana vaznini yo'qotish 3-5% dan oshib ketsa;
2. Chidab bo'lmas chanqoqlik kuzatilsa;
3. Umumiy holat keskin yomonlashsa (ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rig'i, yurak urishi tezlashishi);
4. Qonning natriy va osmolyarlik darajasi me'yoriy raqamlardan oshib ketsa.

Sinov natijalari nimani anglatadi?

Qonning natriy va osmolyarlik darajasining oshishi, shuningdek, tana vaznining 3-5% ga kamayishi markaziy qandsiz diabet mavjudligini ko'rsatadi. Ajraladigan siydik miqdori kamayishi va vazn yo'qotmaslik, shuningdek natriy ko'rsatkichlarining normal qiymatlarda bo'lishi, buyrakli qandsiz diabet mavjudligini anglatadi. Ushbu test natijasida qandsiz diabet mavjudligi tasdiqlansa, keyingi tashxislash uchun minirinli test o'tkaziladi.

MINIRINLI TEST O'TKAZISH TARTIBI

Bemorga tabletkalarda Minirin tayinlanadi va qabul qilishdan oldin va qabul qilish fonida Zimnitskiy bo'yicha siydikni namunasi olinadi.

Sinov natijalari nimani anglatadi?

Markaziy qandsiz diabetda chiqariladigan siydikning miqdori kamayadi, uning nisbiy zichligi esa ko'tariladi. Nefrogen qandsiz diabetda esa bu ko'rsatkichlar deyarli o'zgarmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, kasallikni tashxislash uchun qondagi vazopressin darajasi aniqlanmaydi, chunki bu usul juda qimmat va bajarilishi qiyin.

DIFFERENTIAL TASHXIS

Ko'p hollarda qandsiz diabetni qandli diabet va psixogen polidipsiyadan ajratish kerak.

Alomat Qandsiz diabet Qandli diabet Psixogen polidipsiya

Chanqoqlik Kuchli sezilari Sezilarli Kuchli sezilari

Bir sutkada chiqariladigan siydik miqdori 3 dan 15 litrgacha 2-3 litrgacha 3 dan 15 litrgacha

Kasallikning boshlanishi Odatda o'tkir Bosqichma-bosqich Odatda o'tkir

Tunda siydik tuta olmaslik Ba'zan mavjud Bo'lmaydi Ba'zan mavjud

Qonda glyukozaning ortishi Yo'q Xa Yo'q

Siydikda glyukoza mavjudligi Yo'q Xa Yo'q

Siydikning nisbiy zichligi Pasayadi Oshadi Pasayadi

Suyuqlikni cheklash sinovi o'tkazilganda umumiy ahvol Yomonlashadi
O'zgarmaydi O'zgarmaydi

Suyuqlikni cheklash sinovi o'tkazilganda chiqariladigan siydik miqdori
O'zgarmaydi yoki oz miqdorda kamayadi O'zgarmaydi Me'yoriy
ko'rsatkichlargacha pasayadi, uning zichligi ortadi

Qonda siydik kisloatsi darajasi 5 mmol/l dan yuqori Kasallik og'ir kechishida
ortadi 5 mmol/l dan past

QANDSIZ DIABETNI DAVOLASH

Avvalo, iloji bo'lsa, kasallikka sabab bo'lgan xastalik bartaraf qilinadi. Shundan
so'ng qandsiz diabet shakliga qarab dori-darmonlar belgilanadi.

MARKAZIY QANDSIZ DIABETNI DAVOLASH

Bemor siydik bilan qancha miqdorda suyuqlik yo'qotishini hisobga olgan holda
olib boriladi:

1. Agar siydik miqdori sutkada to'rt litrdan past bo'lsa, dori preparatlari
buyurilmaydi. Faqatgina yo'qotilgan suyuqlikni o'rnini to'ldirish va parhez tutish
tavsiya etiladi.
2. Siydikning miqdori kuniga to'rt litrdan ko'p bo'lsa, vazopressin o'rnini
bosuvchi yoki uning ishlab chiqarilishini rag'batlantiruvchi moddalar belgilanadi.

Dori vositalari bilan davolash: 30 yildan ortiq vaqtdan buyon o'rnini bosuvchi
terapiya sifatida Desmopressin (Adiuretin) intranazal (dorini burun yo'llariga
kiritish) kiritish qo'llanilar edi. Biroq, hozirgi kunda uning ishlab chiqarilishi

to'xtatilgan. Shuning uchun, hozirgi vaqtda vazopressin o'rnini bosuvchi vosita sifatida belgilanadigan yagona preparat Minirindir (Desmopressinning tabletkadagi shakli). Kasallik alomatlarini bostiradigan Minirin dozasi bemorning yoshiga yoki vazniga bog'liq bo'lmaydi. Chunki hammasi antidiuretik gormonning yetishmasligi darajasiga yoki uning to'liq yo'qligiga bog'liq. Shuning uchun Minirin dozasi qabul qilinish boshlanishining dastlabki uch-to'rt kuni ichida har doim individual ravishda tanlanadi. Davolash minimal dozalardan boshlanadi va zarur bo'lganda ko'paytiriladi. Preparat kuniga uch marta qabul qilinadi. Vazopressin ishlab chiqarishini rag'batlantiruvchi preparatlarga Xlorpropamid (qandli va qandsiz diabet birgalikda kuzatilganida ayniqsa samarali), Karbamazepin va Miskleron kiradi.

BUYRAKLI SHAKLINI DAVOLASH: Birinchi navbatda organizmga yetarli miqdorda suyuqlik tushishi ta'minlanadi, keyinchalik zarur bo'lsa, dori-darmonlar buyuriladi.

Dori vositalari bilan davolash: Amalda qanchalik paradoksal bo'lmasin, siydik miqdorini kamaytiruvchi preparatar — tiazidli diuretiklar (siydik haydovchilar) buyuriladi: Gidroxlorotiazid, Indapamid, Triampur. Ularning ishlatilishi nefronning siydik naychalarida xlorni qayta so'rilishiga to'siq bo'lishiga asoslanadi. Natijada, qondagi natriy miqdori biroz pasayadi, suvning qayta so'rilishi esa oshadi. Davolashga yordamchi sifatida, ba'zan yallig'lanishga qarshi dorilar buyuriladi (Ibuprofen, Indometasin va Aspirin). Ulardan foydalanish nefronning siydik naychalariga ma'lum moddalar oqimini kamaytirishga olib keladi, natijada siydik hajmi kamayadi va osmolyarlik darajasi oshadi. Shu bilan

birga, qandsiz diabetni muvaffaqiyatli davolashga muayyan parhez qoidalariga rioya qilmasdan erishib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.X Shagzatova „ Endokrinologiya”
- 2.S.I Ismailov „ Endokrinologiya”
3. Mark S. Nyu-York: Thieme Medical Publishers. 7 2010. Greenberg. „Neyroxirurgiya bo'yicha qo'llanma.”
- 4.Internet tarmoqlari.
- 5.„Odam anatomiyasi”F.Bahodirov
- 6.„Junkeyra”
- 7.„Gistologiya” K.A.Zufarov
- 8.„Avitsenna.uz va mymedic.uz” Internet tarmoqlari.
- 9.„Topografik anatomiya” N.H.Shomirzayev,S.X.Nazarov,R.J.Usmonov

“Boshlangich talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv”

Rahmatova Muxlisa Askarovna

Buxoro viloyati Romitan tumani

23-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508374>

Annotatsiya: O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim va ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil etish lozimligini taqozo etadi. O'zbekistonda qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlash bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashishning usullariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Pedagog, faraz, interfaol metod, pedagogik nazariya, "Aqliy hujum" metodi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga bo'lgan yuksak e'tibor ilm-fan sohasi xodimlarining malakasini oshirib, ular tayyorlaydigan mutaxassislarining har tomonlama bilimli va qobiliyatli bo'lishini ta'minlab kelmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishning asosiy maqsadi esa yaqin kelajakda ilm-fan sohasida yuqori natijalarga erishish uchun dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Dasturning yaratilganini alohida e'tirof etdi. Avval ta'kidlaganimizdek, ta'lim sohasi uchun prezidentimiz boshchiligida o'tkazilgan videoselektrda davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidlagandi. Darhaqiqat,

so'z isboti bilan bu borada ta'lim vazirligi tizimida namunali islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'limning qadr -qimmat, obro va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmog'i zarur. Ta'limdagi muvaffaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini

ta’minlash barcha ta’lim muassasalarining oldiga qo’yilayotgan maqsadga nechog’lik erishilayotganini ko’zda tutish kerak. Yoxud o’qitish metodlari bevosita ta’lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir. Boshlang’ich sinflarda “O’qish” darslarida matnlar berilgan bo’lib, shulardan biri “Alisher Navoiy” matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o’xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni “Aqliy hujum” metodi yordamida o’rganish ko’zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

1-bosqich. O’quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O’tgan mashg’ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma’lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o’ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o’quvchilarda nutq uslublariga oid ma’lumotlar yetarli bo’lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so’ng har ikki matn o’quvchilar tomonidan mustaqil o’qib chiqiladi. O’quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

2-bosqich. Berilgan matnlarning o’xshash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o’qituvchi o’quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan bir-biriga o’xshaydi? O’quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar:

- har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida:
- matnning mazmuni bir xil:
- har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan:
- har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan:

- Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan:
- Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan
- Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan.

O'qituvchi o'quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o'z munosabatini bildiradi.

3-bosqich. Har ikki matn asosida badiiy va ilmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlash. Bu bosqichda har bir uslubning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Birinchi matnda badiiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: tasviriy ifoda (zanjirband she'r) ko'chma ma'noli so'zlar (she'riyat osmoni, yulduzlarga hira tortdi, shuhratiga soya soldi). Ikkinchi matnda ilmiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: raqamlar (1441 yil tug'ilgan, XV asr 60-yillar), aniq dalillar Yevropa va Osiyo davlatlarini, Nizomiy Ganjaviy, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi tarixiy shaxs nomlari, A.Jomiyning Navoiy haqidagi fikri keltirilgan. "Alisher Navoiy" matni shu metod yordamida o'rganilsa, o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslarda faol ishtirokchi bo'lishiga o'rgatadi. Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashish dasturi amal bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. Toshkent: 1993-y/

“Maktabgacha talim tashkilotlaridada bolalarning kreativligi”

Raximova Dilnoza Aslamovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

6-sonli DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479156>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari haqida soʻz yuritiladi. Shuningdek bolalarni mustaqil va kreativ fikrlashga oʻrgatishning psixologik mexanizmlari muhokama qilingan.

Kalit sozlar: Kreativlik, fenomen, o'yin, o'yinterapiya, ijodkorlik, yaratuvchanlik, progressive oʻzgarishlar.

Hozirgi vaqtda inson doimiy oʻzgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitda yashamoqda. Bunday tezkor oʻzgaruvchan olamda yashashi uchun, u uzluksiz rivojlanishi hamda moslashuvi uchun yangi sharoitlarga moslashishga yordam beradigan shaxsiy kompetensiyaga ega boʻlishi kerak. Hozirgi kunda shunday muhim kompetensiyalardan biri - kreativ tafakkur, yuqori ijodiy faollik va kreativ xulq-atvordir. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikka qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik soʻzi inglizcha «create» - yaratuvchanlik, ijodkorliksoʻzidan olingan boʻlib, inson shaxsining ijodkorlikka boʻlgan qobiliyati, ijodkorlik isteʼdod darajasi, individning anʼanaviy yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq boʻlgan, prinsipial yangi gʻoyalarni yaratishga tayyorligini xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni oʻzgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan qobiliyatdir. Tarbiya mazmunining eng muhim xususiyatlaridan biri – bu insonning hayotiy jihatdan oz-ozini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati ozi yashab turgan muhitning subekti sifatida etirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan oz-ozini anglash muhim ahamiyatga ega. Oqituvchi oquvchilarni, oz-ozini tarbiyalashga, yani oz ustida ongli, batartib ishlashga orgatsagina tarbiya jarayoni samarali natijalar beradi.

Oquvchilarni oz-ozini tarbiyalash metodlariga konikma hosil qildirish oqituvchining mahoratiga, tarbiyaviy faoliyatni togri tashkil etishiga bogliq. Oquvchilar odatda yaqin kishilarining, bazan oqituvchilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Shuning uchun oqituvchi oz pedagogik mahoratiga tayanib, oquvchi qalbida oziga nisbatan ishonch, mehr tuygularini uygota olishi lozim. Oquvchilar oqituvchining darsda va hayotda ozini qanday tutishini, kiyinishi, muomalasini, kishilar bilan ozaro munosabatini kuzatib boradilar. Bu ham oquvchilarning oz-ozini tarbiyalashda tasirchan vosita hisoblanadi va ijtimoiy mavqeini oshirishning muhim usulidir. Oquvchilar oqituvchining bevosita nazoratida talim va tarbiya jarayonida, dam olishda, jamoat ishlarida, oz-ozini tarbiyalash usullariga konikma hosil qiladilar, bu usullar oquvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga undaydi.

“Kreativlik” tushunchasi ozida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. Garb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noanaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuygusi va erkinlik mavjud bolishiga etiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; SHternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tugilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi garblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bolsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). Koppina pedagog tarbiyachilar ozlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday manoni

anglatishini etarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan behabarlar.

Bolalarni kreativ fikrlashga orgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo tarbiyachining ozi kreativ, ijodkor shaxs bolishi zarur. Bordi-yu, uning ozi kreativlik sifatlariga ega bolmasa, u holda qanday qilib, talaba (oquvchi) bolalarni kreativ fikrlashga ragbatlantira oladi. Tarbiyachining ijodkor va kreativ bolishi yoki bolmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi goyalarni talim jarayonida sinab korishga intilishi zarur. Darslarda tarbiyachi “kreativlik yol xaritasi” ga kora quyidagi 4 ta yonalish boyicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

Ijodiy fikrlash konikmalarini namoyon etish;

Talaba (oquvchi) bolalarni oquv fanlarini qiziqish bilan ozlashtirishga ragbatlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;

Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;

Pedagogning kreativlik potensiali kop darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish muammosi juda ko'p tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda. P.F.Legaft (1837-1909)ning fikricha, inson hayotining ayni shu bosqichida uning kelgusida qanday xarakter-xislatlar sohibi bo'lishi

belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarning ijodiy rivojlanishiga bo'lgan e'tiborini kuchayganlik tendentsiyasi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda metodistlar va psixologlarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradigan bola bilan shaxsga yo'naltirilgan - o'zaro ta'sir o'tkazish usullarini takomillashtirish kerak degan xulosa qilishimiz mumkin. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: Elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create"dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni

takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Inson miyasi o'z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi. Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko'rinishlari bor. Masalan, qutbli tafakkur - hamma narsani ikki shaklda - yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda ko'rishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning o'zi mavjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi.

Har bir holat va jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari bor. Bir tomonlama yondashuv, asoslanmagan xulosalar ham stereotiplar asosida fikrlashning ko'rinishlaridir.

- Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko'ngilochar sohada o'z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi - xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya'ni, xayolparast rolida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning “Tokkata, fuga re minar” musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg'unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi - barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko'rib chiqadi. Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi.

Kreativlikka ega bo'lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilgab oladilar va tez o'zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar.

Maktabgacha yoshdan kreativ fikrlay oladigan, ijodiy tafakkuri rivojlangan bolalar, kejakda buyuk ixtirolar va kashvivotlar qiladilar, albatta o'z vatanlari ravnaqiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.:(4-5)
3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi (2010).
4. M. Atayev (2017). Islomda bolalar huquqlari.
5. Гармонично поколение-условие стабильного развития Республики Узбекистан. Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н Кари-Ниязи. (2019). Сборник научно-методических статей. Ташкент. 3 том. С (325-327)
6. R.G.Qodirov(2005).Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: (6-7).

“Boshlang`ich sinflarda nutqni rivojlantirish”

Raximova Dilrabo To'rayevna

Buxoro viloyati Romitan tumani

23-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508348>

Annotatsiya: Maqolada nutq tushunchasi, nutq o‘stirish metodikasi, uning ahamiyati, o‘quvchilar nutqini rivojlantirish yo‘llari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o‘stirish yo‘nalishlari, o‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan talablar, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq o‘stirishga

erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko'nikmalar, inson kamoloti, buyuk allomalar, ma'naviy meros, sharqona ta'lim va tarbiya,

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub

islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy nazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv va metodik qo'llanmalarda izoh berib, atroflicha yoritilgan. Forobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchisi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz". O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi.

Nutq o'zlashtirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'zlashtirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'zlashtirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik

qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini oshirish bilan ta'minlanadi. Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o'ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, «o'ylangan» (fikrlangan) nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi. Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar.

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin.
3. Nutq aniq bo'lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin.
5. Nutq tushunarli bo'lsin.

6. Nutq ifodali bo'lsin.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin.

8. Nutq madaniyatli bo'lsin.

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi». Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nutqdan o'quvchiniig fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Uchinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик хдмкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар.
2. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб булажак технология фани уқитувчиларининг касбий махрратини ошириш йуллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.

3. Dilova N.G. (2021). O'quvchilarning shaxsiy sifatleri - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 558-566 betlar.
4. Расулова З.Д. (2021). Талабаларнинг креативлигини ривожлантиришда масофавий таълимнинг урни. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 439-448 бетлар.

Maktabgacha talim tashkilotlarida jurnal va ish yuritish

Ro'ziyeva Munisa Abdumajidovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

6-sonli DMTT direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473528>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha talimda hujjatlar bilan ishlash boshqaruv samaradorligi va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan boshqaruv jarayoni va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning tarkibiy qismlaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining har bir bosqichi boshqaruv hujjatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Kalit sozlar: maktabgacha talim, boshqaruv hujjatlari, faoliyat, standart tizim.

Hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida menejmentni hujjat bilan ta'minlash ko'plab turlarni yaratishni talab qiladi boshqaruv hujjatlari, bu holda muassasa faoliyatini rejalashtirish, moliyalashtirish, tezkor boshqarish, kadrlar bilan ta'minlash muammolarini hal qilish mumkin emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ish yuritishning asosiy vazifalari axborot oqimlarini maqbul minimal darajaga tushirish va ushbu jarayonlarni avtomatlashtirishning so'nggi texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumot to'plash, qayta ishlash va uzatish xarajatlarini soddalashtirish va kamaytirishdir. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish sifati to'g'ridan-to'g'ri ish yuritishni tashkil etish darajasiga bog'liq. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ulardagi xodimlar sonining o'sishi bilan samaradorlik masalasi hujjatlarni qo'llab-quvvatlash boshqaruv yanada dolzarb bo'lib kelmoqda. Hozirgi vaqtda mahalliy hujjat aylanishi maqolalar to'plamlarida, o'quv va uslubiy qo'llanmalarda aks ettirilgan juda ko'p bilimlarga ega bo'ldi. Davlat boshqaruvini hujjatlashtirish tizimi hujjatlashtirish va hujjatlar bilan ishlashni tashkil qilish bo'yicha yagona talablarni belgilaydi, shuningdek hujjatlarni rasmiylashtirish va hujjatlar bilan ishlash bo'yicha davlat standartlarini, shu jumladan GOST R 51141-98, bu ish yuritish, arxiv ishi uchun atamalar va ta'riflarning zamonaviy talqinini o'z ichiga oladi.; GOST R 6.30-2003, bu varaqdagi tafsilotlarning tarkibi va joylashishini belgilaydi, ish yuritish, matn va hujjatlar shakllariga talablar; GOST R ISO 15489-1-2007. Axborot, kutubxonachilik va noshirlik uchun standartlar tizimi mavjud. Ammo,

afsuski, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mahalliy hujjatlarni rasmiylashtirish uchun hali ham aniq standartlar mavjud emas. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotda hujjatlarni boshqarishning umumiy tamoyillarini belgilaydigan talablarni ishlab chiqish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish yuritishida ishlatiladigan eng muhim me'yoriy hujjatlar quyidagilardir: Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligining "Rossiya Federatsiyasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi yangi nizomni amalga oshiruvchi hujjatlar namunalari to'plamini yuborish to'g'risida", Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizom va boshqalar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs bo'lib, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarga ega, operativ boshqaruvida shahar hokimiyatida bo'lgan mulk va mulk huquqi asosida alohida mulk, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga sotib olingan, dumaloq muhri, muhri, firma nomlari ko'rsatilgan. va boshqa tafsilotlar. Bu huquqlarga ega yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab o'quv jarayonini ta'minlashga qaratilgan qonuniy moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish nuqtai nazaridan. Ta'lim faoliyatini amalga oshirishga muassasaga ta'lim faoliyati uchun litsenziya berilgan paytdan boshlab ruxsat beriladi.

Tashkilot quyidagilarga javob beradi:

kommunal mulkni boshqarish va tasarruf etish qo'mitasi - kommunal mulkdan maqsadli foydalanish va xavfsizligi masalalari bo'yicha; munitsipalitetga - muassasa faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha;

Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ularning vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha boshqa organlar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va tegishli hujjatlarning rasmiylashtirilishi uchun to'liq javobgardir. Menejment texnologiyalari paydo bo'lishi bilan maktabgacha ta'lim tashkilotida kotibning o'rni bir necha bor ortadi. Xodimning faoliyatini to'liqroq ochib beramiz. Xodim lavozim tavsifiga muvofiq harakat qiladi, bu ushbu lavozimni egallagan xodimga taqdim etilgan ishlab chiqarish vakolatlarini tartibga soluvchi hujjat.

Shunday qilib, mulozim Tashkilotda ish yuritish ishlarini tashkil etish uchun javobgardir. Xodim o'z faoliyati davomida zarur hujjatlarni tayyorlash va topshirish, maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining ko'rsatmalari, buyruqlari va ko'rsatmalarining bajarilishini tekshirish bo'yicha pedagogik, ma'muriy va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

balance sheet gold ore typically contains 0.5 to 1.5 g/t of gold. The mineralized mass has a significantly lower content than off-balance ore and is not processed in factories or mills and stored in warehouses. The Muruntau deposit has the largest tailings of the mineralized mass and off-balance ore deposits. Today, the field contains about 2.5 billion tons of mineralized mass and more than 150 million tons of off-balance ore.

Vostochny (Kokpatas) sulfide gold ore deposit covers an area of more than 40 km² and contains more than 40 open deposits. More than 180 million tons in the field mineralized mass and 12 mln there are more than unbalanced ores. In addition, more than 12 million tonnes of off-balance sheet ore have been identified in other sulfide gold ore deposits in Daugyztau.

Wastes from processing plants and concentrators are stored in special artificial wastes. The main products formed during the processing of minerals are solid waste. In the center of the Kyzylkum desert is one of the largest landfills not only in Uzbekistan, but also in the world for the storage of tailings of the Navoi MMC Hydrometallurgical Plant N^o2. The volume of solid household waste is more than 1.1 billion tons. Tailings from the processing of oxidized and sulfide gold-bearing ores from the Kokpatas and Dogiztau deposits are stored at the HMP N^o3 tailings pond. The volume of waste is more than 112 million tons.

In the new economic conditions, Uzbekistan is in dire need of a revision of its strategy for the use of mineral resources, the problem of attracting man-made raw materials to processing is important for the Republic, including the saving of non-renewable mineral resources. December 3, 2020 an extended video conference chaired by the President of the Republic of Uzbekistan was held on the priorities of

higher education institutions, scientific organizations, industries and regions in the development of science and innovation.

Item 16 of the minutes of the meeting N°95 to the interested agencies and organizations to develop and start practical work on the technology of extraction of gold, silver, non-ferrous and rare metals from man-made wastes of Navoi and Almalyk Mining and Metallurgical Combinessubmitted.

A working group consisting of participants from Uzbek research institutes and universities to develop technology for the separation of gold, silver, non-ferrous and rare metals from the wastes of hydrometallurgical plantsit was stressed that the amount should be determined. The results of experimental analysis and spectral quantitative analysis conducted for the same purpose show that the amount of gold in the waste of HMP N°1 was 0.4-0.6 g/t, and the amount of silver was 1-1.4 g/t. the following table provides an analysis of the amount of precious metals in the man-made emissions of all types of HMPs.

Table 1. Results of sample analysis

№	Objects	Amount, g/t	
		Au	Ag
1	1 HMP waste	0,6	<5,0
2	2HMP waste	0,2	<5,0
3	3 HMP waste	0,3	<5,0
4	4 HMP waste	0,2	<5,0
5	MOBF waste	0,6	<5,0

The results of the spectral quantitative and semi-quantitative spectral analysis of NMMC CSAL were also close to the results of the sample analysis. The interest in the amount of precious and rare metals in man-made wastes for recycling can serve as a basis for considering them as raw materials for the production of precious metals. A group of experts on the development of man-made waste recycling technologies at NMMC is actively conducting research.

CONCLUSION

The main areas of research are the complex separation of precious metals from man-made waste with the help of cheap technology. In this direction, the study of the transfer of metals to the enrichment phase, mainly through the processes of intensive gravity enrichment of waste, the development of alternative factors for the selective leaching of man-made waste in the presence of new solvents research is being done. As well as the study of the levels of enrichment of vanadium, tungsten and rhenium metals, which are a number of rare metals in man-made wastes, their formation by the formation of special annealing concentrates and their selective leaching in the presence of selective solutions exploring the possibilities is one of the main tasks.

REFERENCES:

1. <https://lex.uz> › docs 170-coH 30.03.2021. “Navoiyuran” davlat korxonasi, “Navoiy kon ...

2. <https://daryo.uz> › 2021/08/27 › sha...Shavkat Mirziyoyev Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ...
3. <https://www.ngmk.uz> › home › blog Innovatsion texnologiyalar - Добро пожаловать на официальный сайт

**"Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ahloqiy tarbiyalashda
tarbiyachining o'rni"**

Tillayeva Nodira Xidirovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

9-sonli DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479131>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha talimda bolalarni tarbiyalashda tarbiyachilarning muhim roli va ularning ish faoliyati haqida bayon qilingan.

Kalit sozlar: ta`lim tarbiya, pedagog, kasbiy ahamiyat, tadqiqot obyekti, psixologik iqlim.

Maktabgacha tarbiyachining mahorati. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy muhim fazilatlari “Tarbiyachi shunchaki ruhiy holat” Tarbiyachi kim deb ataladi? Buni aytish juda qiyin. Bola uchun tarbiyachi, Ikkinchi ona kabi. Bolani kim yaxshiroq tushunadi? Onaga kim maslahat beradi? Bu sizni tinchlantiradi va dunyoga qanday yurish kerakligini aytadi. Pedagog bu shunchaki ruhiy holat, Busiz bola olamiga kirib bo'lmaydi. Pedagog shunchaki kasb emas, bu ruhiy holat, kasb. Men sharqona maqolga juda yaqinman: “Ustoz mehnatini bog‘bonning turli o‘simliklar yetishtirgan mehnatiga qiyoslash mumkin. Bir o'simlik quyosh nurini yaxshi ko'radi, boshqasi salqin soyani yaxshi ko'radi; biri ariq qirg‘og‘ini, ikkinchisi quruq tog‘ cho‘qqisini yaxshi ko‘radi; biri qumloq tuproqda, ikkinchisi yog‘li, gil tuproqda o'sadi. Har bir inson unga alohida, faqat munosib g'amxo'rlik kerak, aks holda u o'z rivojlanishida mukammallikka erisha olmaydi ". Xuddi shunday, bizning ishimizda har bir bolaga sevgi, uning individualligini tushunish kerak. Zero, muhabbatdagina har bir bolaning o‘ziga xosligi ochiladi, uning qiyofasi ochiladi. Pedagogning fazilatlari - mehnatsevarlik, tezkorlik, intizomlilik, mas'uliyat, o'z oldiga maqsad qo'yish, unga erishish yo'llarini tanlash, tashkilotchilik, qat'iyatlilik, o'z kasbiy saviyasini muntazam va tizimli ravishda oshirish, o'z mahoratini doimiy ravishda oshirishga intilishdir. O'qituvchining kasbiy ahamiyatli fazilatlari - sabr-toqat, mas'uliyat, sadoqat, xolislik, odamlarga hurmat, nekbinlik, hissiy muvozanat, muloqotga bo'lgan ehtiyoj, o'quvchilar hayotiga qiziqish, xayrixohlik, vazminlik, sezgirlik va boshqalar. Zamonaviy bolalar faolroq, o'zlarini ifoda etishda harakatchan, ko'proq

ma'lumotga ega, endi bir-biriga o'xshamaydilar, ular oilada turli xil turmush sharoitlariga va tarbiyasiga ega. Bularning barchasi o'qituvchi shaxsiga ma'lum talablarni qo'yadi. Zamonaviy talablarga javob berish uchun tarbiyachi: -faol bo'lishi kerak (bolalarni faollik ko'rinishlarida qo'llab-quvvatlash, ularga mos kelish). - o'zgarishga qodir - tez o'zgaruvchan dunyo va o'zgargan bolalar va ularning ota-onalari bilan hamqadam bo'lish; - diqqatli - o'ziga, o'z xatti-harakati, og'zaki o'zini namoyon qilish, o'z xatti-harakati, nutqi boshqalarga, shu jumladan bolalarga qanday ta'sir qilishiga. - barkamol - o'z-o'zini ta'limni yaxshilashga intilish, kasb bo'yicha malakali. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Guruhdagi psixologik iqlim, har bir bolaning bog'chaga munosabati o'qituvchiga bog'liq. Birinchidan, tarbiyachi bolalar bilan til topisha olishi kerak. U har bir bolaning muammolarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini tushunishi kerak. Ikkinchidan, tarbiyachi bolaga g'amxo'rlik qilishga qodir va tayyor bo'lishi kerak. Uchinchidan, pedagog mutaxassis bo'lishi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning turli usullarini egallashi kerak. U bolani imkon qadar maktabga tayyorlashi kerak. To'rtinchidan, tarbiyachi ota-onalar bilan muloqot qila olishi, nizolarni hal qilishi, turli fikr va istaklarni tinglashi kerak. Hech bir savol javobsiz qolmasligi kerak. O'qituvchi har bir chaqaloqni tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar berishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy mahorati haqida. O'qituvchining faoliyati o'z vazifalari va mazmuniga ko'ra ko'p qirrali. Bu turli xil kasbiy ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar shartli ravishda gnostik, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy va maxsus bo'linadi.

Gnostik qobiliyatlar- o'qituvchi bolani o'rganadigan ko'nikmalar (individual xususiyatlar, yoshi, shaxsiy fazilatlar, tengdoshlari, kattalar bilan munosabatlari,

hissiy farovonlik darajasi). Tadqiqot ob'ekti - oila. Gnostik malakalar boshqa pedagoglarning pedagogik tajribasini o'rganishda qo'llaniladi. O'qituvchi uchun bolaning ichki dunyosini tushunish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Konstruktiv qobiliyatlar- tarbiyaviy ish istiqbollari hisobga olgan holda pedagogik jarayonni, bolalarni tarbiyalashni loyihalash uchun. O'qituvchi o'quv jarayonining moddiy jihozlarini loyihalashtiradi (o'yinlar, darslar uchun jihozlar yasash, bolalar va ularning ota-onalari badiiy ijodiyoti ko'rgazmalarini tashkil etish va boshqalar). Konstruktiv qobiliyatlar ishni rejalashtirishda, ta'lim va tarbiya ishlarining konspektlarini, stsenariylarni, bayramlar va dam olish kunlarini tuzishda mujassamlanadi. Aloqa maxorati- alohida bolalar va butun guruh, o'quvchilarning ota-onalari, ishdagi hamkasblari, maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatishda namoyon bo'ladi. Tashkiliy qobiliyatlar- o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar faoliyatiga murojaat qilish. Muhim qaror - u o'zi nima qiladi va bolalarga nima ishonib topshirilishi mumkin, ota-onalarni nimaga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Maxsus ko'nikmalar - qo'shiq aytish, raqsga tushish, she'r o'qish (basta qilish), to'qish, o'yinchoqlar yasash, qo'g'irchoq teatrini ko'rsatish (sahna qilish) va boshqalar. O'qituvchining muhim fazilatlari - mehnatsevarlik, tezkorlik, intizomlilik, mas'uliyat, o'z oldiga maqsad qo'yish, unga erishish yo'llarini tanlash, tashkilotchilik, qat'iyatlilik, o'z kasbiy saviyasini muntazam va tizimli ravishda oshirish, o'z mahoratini doimiy ravishda oshirishga intilishdir. Bir qator shaxsiy xususiyatlarda tarbiya va ta'lim jarayonida qulay munosabatlarni yaratish uchun kasbiy jihatdan muhim shartlarga aylangan fazilatlarni nomlash kerak. Bu fazilatlar orasida sabr-toqat, mas'uliyat, sadoqat, ob'ektivlik, odamlarga hurmat, nekbinlik, hissiy muvozanat, muloqotga bo'lgan ehtiyoj, o'quvchilar

hayotiga qiziqish, xayrixohlik, vazminlik, sezgirlik va boshqalar kiradi. Barcha zamonaviy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bolalarga bo'lgan muhabbat pedagogning eng muhim shaxsiy va kasbiy xususiyati deb hisoblanishi kerak, bu holda samarali pedagogik faoliyat mumkin emas. Zamonaviy bolalar faolroq, o'zlarini ifoda etishda harakatchan, ko'proq ma'lumotga ega, endi bir-biriga o'xshamaydilar, ular oilada turli xil turmush sharoitlariga va tarbiyasiga ega. Bularning barchasi o'qituvchi shaxsiga ma'lum talablarni qo'yadi. Zamonaviy talablarga javob berish uchun pedagog quyidagilar bo'lishi kerak: - faol (bolalar faoliyatining namoyon bo'lishini qo'llab-quvvatlash, ularga mos kelish). Ko'pincha stulda o'tiradigan va bolalar faoliyatini undan boshqaradigan o'qituvchini bolalarning har tomonlama rivojlanishiga intilayotgan faol deb atash qiyin; - o'zgarishga qodir - tez o'zgaruvchan dunyo va o'zgargan bolalar va ularning otanalari bilan hamqadam bo'lish; - diqqatli - o'ziga, o'z xatti-harakati, og'zaki o'zini namoyon qilish, o'z xatti-harakati, nutqi boshqalarga, shu jumladan bolalarga qanday ta'sir qilishiga. Tarbiyachi (qichqiradi) - "turdi", "ketdik", "keling, o'tiring", "jim". Yana baqirib, bolalarga o'girilib: - Xo'sh, nima deb baqiryapsiz? Va xatti-harakatlarning yana bir varianti: "Endi biz qaror qilamiz, endi gaplashamiz." barkamol - o'z-o'zini ta'limni yaxshilashga intilish, kasb bo'yicha malakali. Hozirgi vaqtda ta'lim psixologiyasida o'qituvchining pedagogik faoliyati samaradorligini (mahsuldorligini) belgilovchi subyektiv xususiyatlarini tahlil qilishga katta e'tibor berilmoqda. Keling, o'qituvchining kasbiy faoliyatida qiyinchiliklarga olib keladigan shaxsiy fazilatlariga e'tibor qarataylik: 1) maxsus pedagogik va ichki yo'nalishning yo'qligi 2) qobiliyatlar darajasining pedagogik jarayon talablariga mos kelmasligi 3) maxsus pedagogik, uslubiy, ijtimoiy-psixologik, kompetentsiyaning yo'qligi.

Shunday qilib, o'qituvchi o'z faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan fazilatlarga ham, aksincha, bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy voqelikda bolalar bog'chasi o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? Bu kasb o'zining ahamiyati va mohiyatiga ko'ra alohidadir.

Kasbning xususiyatlari. Mehnatning o'ziga xosligi shundaki, asosiy ob'ekt - tabiatning noyob ijodi bo'lgan bola. O'qituvchi chaqaloqning ruhiy, aqliy, jismoniy rivojlanishi bilan shug'ullanishi kerak. Aynan shuning uchun ham bolalar bog'chasi tarbiyachisining ishi zamonaviy dunyoda eng mas'uliyatli va muhim ishlardan biridir. Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi Pedagogning barcha ishi maktabgacha yoshdagi bolaning barkamol shaxsini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy faoliyat turlarini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchi oldiga qo'yilgan barcha vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u haqiqiy kasbiy mahoratga ega bo'lishi kerak. Pedagogik ta'lim muassasasi diplomiga ega bo'lganlarning hammasi ham maktabgacha ta'lim muassasasining yaxshi xodimi bo'la olmaydi. Bolalar bog'chasi o'qituvchisi sifatida ishlash o'quvchilar bilan musiqiy, o'yin, mehnat, tadqiqot, loyiha faoliyatini amalga oshirishni nazarda tutadi. O'qituvchi ish dasturi Tayyorgarlik darajasiga, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasi o'qituvchisining bevosita faoliyatiga ma'lum talablar qo'yiladi. O'rta kasb-hunar yoki oliy maxsus ta'limdan tashqari, pedagog uchun maxsus ish dasturi bo'lishi kerak. U o'quvchilar bilan ishlashning asosiy maqsadlarini belgilaydi: o'quv, rivojlantiruvchi, ta'lim. Bu yerda pedagog tomonidan ma'lum bir davr uchun qo'yilgan vazifalar, ularga erishish yo'llari ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'limning yangi standartlariga muvofiq, o'qituvchi o'z o'quvchilari o'qishni

tugatgandan so'ng egallashlari kerak bo'lgan barcha asosiy universal ko'nikma va qobiliyatlarni belgilaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan qaysi profil tanlanganiga qarab, o'qituvchilar dasturlari tor doirada yo'naltirilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida eng keng tarqalgan yo'nalishlar orasida etakchi vatanparvarlik, ekologik va jismoniy tarbiya yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Abdullayeva N. Maktabgacha ta'limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. nom... diss. -T.: 2020. - 164 b.
3. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. -М.: «Арена», 1994.
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi", O'quv-metodik qo'llanma, -T.: 2004.

"Kimyoviy elementlarning dastlabki toifalanishi"

Qoraqalpogiston Respublikasi Nukus shaxri

29-sonli umumiy o'rta talim maktabi

kimyo fani o'qituvchisi

Turganbaeva Zulfiya Temirbaevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6524487>

Annotatsiya: Moddalarning xossalarini organish va bu sohada qilingan kashfiyotlar, moddalardan insoniyat ehtiyoji uchun foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moddalarni va ularni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar-elementlarni toifalash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada kimyoviy elementlarning dastlabki toifalanishi haqida fikrlar mulohazalar yuritiladi.

Kalit sozlar: reaksiya, kimyoviy unsur, modda, element, metal, kislorod.

Kimyo tabiat xaqidagi fan bo'lib, u boshqa tabiiyot fanlari (fizika, biologiya, mineralogiya) kabi moddiy jismlar tugrisida bizga atroflicha ma'lumot beradi, u jonli va jonsiz tabiatni tashkil etgan moddalarni, ularning xossalarni, tuzilishini, bir-biriga aylanishini, shular natijasida ruy beradigan uzgarishlarni va bu uzgarishlar orasidagi bog'lanishlarni tekshiradi. Qisqa qilib aytganda, kimyo-moddalar va ularda bo'ladigan uzgarishlar xaqidagi fandır. Kimyoviy uzgarishlarda (reaksiyalarda) dastlabki moddalardan, ya'ni xom-ashyodan boshqa tarkibga va boshqa xossalarga ega bo'lgan maxsulotlar olinadi. Kimyoviy proseslarni borishi reaksiyada ishtirok etadigan moddalarning tarkibiga, ularni tashkil etuvchi zarrachalarning tuzilishiga bog'liq. Shuning uchun moddalarning tuzilishi bilan ularning reaksiyaga kirisha olish qobilyati orasidagi bog'lanishni urganish katta ahamiyatga ega. Biz kimyoviy proseslarni ma'lum maqsad bilan amalga oshiramiz va ularni uzimiz uchun kerakli tomonga yo'naltirib, istalgan fizikaviy, kimyoviy, biologik va xokazo xosalarga ega bo'lgan moddalar xosil qilishimiz mumkin. Kimyo alohida fan sifatida XVIII – XIX asrlarda shakllangan bo'lsada bu fanning asoslari eramizdan avval qadimgi Yunonistonda yashab ijod etgan Levkipp, Demakrit, Epikur kabi tabiatshunos olimlar hamda VII – XI asrlarda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz : Ahmad Al – Farg'oniy, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Ar – Roziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari ensiklapedist olimlar tomonidan qo'yilgan. Bu borada ularning yozib qoldirgan ilmiy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir. Bu asarlarda dunyoning moddiy tuzilishi haqidagi fikrlar bilan birgalikda kimyo fani asoslarini tashkil etuvchi moddiy dunyo unsurlarini toifalash hamda amaliy kimyo uslublari

haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilinganligi e'tiborga loyiqdir. Ar – Roziy moddiy unsurlarning eng kichik birligi – atomlar haqida, ularni yanada kichikroq zarralarga bo'linishi to'g'risida fikrlar bergan bo'lsa, Farobiy va Beruniy asarlarida moddiy dunyo tarkibiy qismlari, ma'dan va qimmatbaho toshlarni sinflash haqida ma'lumotlar keltirgan. Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha dorivor moddalarni xossalari asosida toifalarga bo'lib chiqqan. Dorivor moddalarni tarkibi va xossalariga ko'ra turli sinflarga toifalashsingari dastlabki ilmiy bilimlar keyinchalik kimyoviy elementlarning xossalari asosida sinflashga asos bo'lib xizmat qilganligi tabiiy. XVII – XVIII asrlarga kelib kimyo fani g'arb mamlakatlarida keng miqyosda rivojlana boshladi, fan va texnika taraqqiyoti yangi moddalar yaratish, kimyoviy elementlarni alohida ajratib olish imkoniyatlarini yaratdi. Kimyogarlar uchun ma'lum bir tartibga keltirilmagan katta hajmdagi yangi ma'lumotlar bilan ishlashda yangi olingan turli – tuman modalarning toifalarga bo'linmaganligi, sinflanmaganligi o'ziga xos qiyinchiliklarni kelirib chiqara boshladi. XVIII asrning oxirlariga kelib 30 taga yaqin, XIX asrning 60- yillariga kelib 63 ta kimyoviy element ma'lum bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda esa 109 ta kimyoviy element kashf etilgan. Mavjud barhca moddalar shu kimyoviy elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning xossalari turlichadir.

Moddalarning xossalarini o'rganish va bu sohada qilingan kashfiyotlar, moddalardan insoniyat ehtiyoji uchun foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moddalarni va ularni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar – elementlarni toifalash zarurtini keltirib chiqardi. Kimyogar olimlar sharq mutafakkirlari asarlarida keltirgan ma'lumotlar asosida kimyoviy unsurlar, moddalarni sinflash muommolarini hal etishga harakat qila boshladilar. Atrofimizda mavjud bo'lgan

obyektlar, yuz berayotgan voqea – hodisalarni bir tizimda tartibga solgan holda qabul qilib o'rganish, biz uchun tanish holat. Masalan, inson ehtiyoji uchun turmush buyumlarini ma'lum bir tartibda sinflab, toifalab olganligimiz yoki o'simlik hamda hayvonlarni nav va turlarga sinflashimiz, ular haqidagi tushuncha va tasavvurlarimizning yagona tizimda shakllanishiga olib kelgan.

Kimyoviy elementlar - yadrolarining musbat zaryadi hamda atom qobig'idagi elektronlar sonining bir xilligi bilan tavsiflanadigan atomlarning alohida bir turi. Massa soni (atom yadrosini tashkil etadigan protonlar va neytronlar massalarining yig'indisi) har xil bo'lgan Kimyoviy unsur izotoplar deb ataladi. Tabiatda ko'p kimyoviy unsur 2 yoki undan ko'p izotoplardan tashkil topgan. Yer po'stida tarqalgan tabiiy Kimyoviy unsurning izotop tarkibi o'zgarmasdir, shuning uchun ularning eng muhim hisoblangan tavsifi — atom massasi deyarli o'zgarmas bo'ladi. Tabiiy Kimyoviy unsur, asosan, noradioaktiv bo'lib, turlituman oddiy (kimyoviy jihatdan parchalanmaydigan) va murakkab (kimyoviy birikmalar) moddalarni tashkil etadi. a, r, u — nurlanuvchi Kimyoviy unsur (uran, toriy, poloniy, radiy) radioaktiv elementlardir. Elementlar tabiatdagi butun mavjudotning eng oddiy tarkibiy qismlari, degan tushuncha miloddan bir necha asr ilgari vujudga kelgan. Aristotelning fikricha, boshlang'ich materiya 4 abstrakt "prinsip" (asos): issiqlik, sovuqlik, namlik va quruklikdan tashkil topgan. Ularning juftlarida qismlar miqdori ma'lum bir sonni tashkil etgach, 4 asosiy element — olov, suv, havo va tuproq hosil bo'larmish. Keyinchalik alkimyogarlilar Aristotelning "prinsip" va "element"lariga eruvchanlik (tuz), yonuvchanlik (oltingugurt) va metallsimonlik (simob) degan tushunchalarni kiritdilar. Kimyoviy elementlarni dastlabki toifalashda ularning ko'zga tashlanadigan belgilari asos qilib olingan. Deyarli

barcha metallar o'ziga xos yaltiroq, elektr va issiqlikni o'tkazadigan, bolg'alanuvchan bo'lib, metalmaslar esa bunday xossalarga ega emas. Barcha metallar (simobdan tashqari) qattiq, metalmaslar esa qattiq (oltingugurt, uglerod, kremniy, yod), suyuq (brom), gaz (kislrod, vodorod, xlor) holatda bo'ladi. Metallar hamda metalmaslar kimyoviy xossalari bilan ham farqlanadi. Tipik metallarning gidroksidlari asos, metalmaslarning gidroksidlari esa kislota. Metallarning gidridlari qattiq moddalardir. Metalmaslarning gidridlari esa uchuvchan birikmalardir. Asos xossalarini ham, kislota xossalarini ham namoyon qiluvchi gidroksidlar amfoter gidroksidlar deyiladi. Amfoter gidroksidni hosil qiluvchi oksid ham amfoter xossasiga ega. Amfoter oksid, amfoter gidroksid hosil qiluvchi elementlar amfoter elementlardir. Ayrim kimyoviy elementlarning quyi valentli oksidlari asosli xossaga, yuqori valentli oksidlari kislotali, oraliq valentli oksidlari esa amfoter xossaga ega bo'ladi. Masalan, xrom (II)-oksid CrO – asosli, xrom (III)-oksid Cr_2O_3

– amfoter, xrom (VI)-oksid CrO_3 – kislotali oksidlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

А.А.Петров, А.Т.Трощенко, Х.В.Бальян. Органическая химия. Москва.

«Высшая школа» 1987 г. Для студентов хим. технологических специальностей.

А.И.Артеменко Органическая химия М. «Высшая школа». 2002 г.

I.R.Askarov, Yu.T.Isaev, A.Г.Мaxsumov, Sh.Qirg'izov. Organik kimyo. G'ofur
G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2012.

N.G.Raxmatullaev, X.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov “Kimyo o'qitish metodikasi”
T., “O'qituvchi” 2013 yil.

R.SH.Berdiqulov, F.A.Alimova, SH.M.Mirkomilov Vozmojnosti kompyuternyx
texnologiy pri izuchenii osnov texnologicheskix protsessov ximicheskogo
proizvodstva. Voprosy gumanitarnyx nauk. Nauchnyy jurnal №2(46), Moskva,
2010

Taraqqiyot strategiyasining jamiyat transformatsiyalashuvi sharoitida huquq tizimini takomillashtirishdagi ahamiyati.

Ubaydullayev Abror

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508467>

ANNOTATSIYA: mazkur maqolada Ozbekiston Respublikasi prezidenti farmoni asosida qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi dasturi va uning jamiyat transformatsiyalashuvi jarayonida huquq tizimini shakllantirishdagi tasirini tatqiq etgan holda, dasturdagi berilgan mavzuga tegishli masalalar, ularni qollashdan maqsad va vazifalari, dolzarbligi masalalariga urgu berilgan.

KALIT SOZLAR: prezident, taraqqiyot strategiyasi, transformatsiya, jamiyat, huquq tizimi, tartibga solish, raqamlashtirish.

Muayyan mamlakat huquq tizimini takomillashtirishda jamiyatda sodir bolayotgan tizimli ozgarishlarni hisobga olish orqali, ushbu tizim barqarorligini va jamiyat uchun moslashuvchanligini taminlash mumkin. Tahlil etayotganimiz huquq tizimi

ham yurisprudensiyaning muhim tarkibiy qismi va ozaklaridan bolib, barcha huquq sohalarining fundamental yigindisi hisoblanadi. Jamiyatdagi ozgarib borayotgan ijtimoiy munosabatlar aynan osha mamlakatdagi huquq tizimi orqali huquqiy tartibga solinadi. Globallashuv tasirlari ortib borayotgan hamda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi zamonda esa yangidan yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelmoqda. Albatta, bu holat ularni huquqiy tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, jamiyat transformatsiyalashuvi uning hosilasi bolmish yangi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni talab etmoqda. Bunda, yuqorida keltirilgan munosabatlarning huquqiy bazasini yaratish albatta, huquq tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi. 2022-yil 28-yanvardagi prezident farmoni asosida qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi dasturi aynan huquq tizimi tomonidan takomillashtirilishi, huquqiy tartibga solinishi zarur bolgan bir qator yonalishlarni korsatib berdi. Bularga misol qilib, davlat organlariga murojaatlar ortib borayotgan bir vaqtda davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali amalga oshirilishini kengaytirish, norma ijodkorligida qonunchilik hujjatlari tartibga solish tasirini baholashda aqlli tartibga solish modeli elementlarini joriy qilish, elektron platformalarni rivojlantirish, shaxs malumotlarini himoya qilishning ishonchli tizimlarini barpo etish kabi masalalarni keltirishimiz mumkin.

Mavzu bilan chuqur munosabatga kirishishdan avval, yuqoridagi asosiy tushunchalar va ularning mohiyati bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvalo, Jamiyat transformatsiyasi lotin tilidan trans orqali, forma shakl, tashqi korinish, obraz, birgalikda esa shaklning ozgarishi degan manolarni anglatadi. Ushbu termin koplav bilim sohalarida keng qollanilib kelingan. Masalan,

elektrotexnika, biologiya, matematika, lingvistika, arxitektura, shuningdek, teatr va sirk sanati sohalarini misol keltirish mumkin.

Ijtimoiy fanlar doirasida ushbu termin XX asr ortalariga qadar juda kam qollanilgan. U faylasuflar, sosiologlar (N.A.Berdyayev, P.A.Sorokin, K.Polanyi va boshqalar) tomonidan biror narsaning chuqur, sifat jihatidan ozgarishi, tarixning burilish nuqtasi manosida qollangan. Biroq, ijtimoiy munosabatlardagi transformatsiya muammosi "taraqqiyot", "evolyusiya", "inqilob", "islohot" kabi tushunchalar yordamida organildi. 1960-yillarda "transformasiya" atamasi maxsus sotsiologik nazariyalarda, birinchi navbatda, davlat boshqaruvining huquqiy tizimlaridagi innovatsiyalar masalalarida qollanila boshlandi, bu yerda u sosiologiyada muvaffaqiyatli qollanilgan va uzoq vaqtdan beri mavjud bolgan "modernizasiya" tushunchasining modifikasiyasi sifatida korila boshlandi.

Jamiyat transformatsiyalashuvining muhim jihatlari quyidagilarni oz ichiga oladi. Birinchidan, bu jarayonda yuzaga keladigan ozgarishlarning tizimli tabiati. Tizimni tashkil etuvchi elementlar, asosiy ijtimoiy institutlar, tuzilmalar sifat jihatidan ozgarib bormoqda, bu esa ijtimoiy transformatsiyani islohot, qayta tashkil etish, qayta qurish va qayta yaratishdan ajratib turadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy transformatsiyani rivojlanish, taraqqiyot, inqilob, modernizasiyadan ajratib turadigan aniq progressiv, ijobiy ozgarishlar yonalishining yoqligi, ozgarishlarning ijobiy vektori obektiv ravishda belgilanganligidir. Uchinchidan, ijtimoiy transformatsiyani shiddatli inqilobiy siljishlar va sekin evolyusion ozgarishlardan ajratib turadigan oziga xos hususiyati uning tez ozgarishlar surati hisoblanadi. Tortinchidan, bunda subektiv omillarning rolining yuqoriligi. Ijtimoiy transformatsiyani amalga oshirish

nafaqat taktik, balki strategik jihatdan ham individual, guruh manfaatlariga bogliq hamda bu jarayon inqilob yoki evolyusiyadan kora koproq boshqarilish, nazorat qilinish hususiyatiga ega.

Jamiyat transformasiyalashuvi - bu kop vektorli mavjud ozgarishlarni amalga oshirishning nisbatan yuqori surati va subektiv omillar tasirining kuchayishi bilan ajralib turadigan butun jamiyat yoki uning asosiy elementlarini sezilarli darajada ozgartirish jarayoni. Ijtimoiy transformatsiyaning asosiy sababi jamiyatning chuqur tizimli inqirozidir.

Huquq tizimi esa huquq sohalari, institutlari va normalaridan iborat yaxlit birlik, tuzilma hisoblanadi.

Huquqshunos olim Odil Qoriyevga kora, huquq tizimi bu huquqning botiniy tuzilishi, tarkibi bolib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligi va qismlari ortasidagi munosabat, aloqadorlik hamda nisbatni ifodalaydi. Huquq tizimidagi tarkibiy tuzilmalar ozining tashkiliy tuzilishi va aloqalarining murakkabligi bilan bir-biridan farq qiladi. Taraqqiyotning hozirgi holatiga mos keladigan tasnifiga kora, huquq tizimi huquq normalari, huquq institutlari va huquq tarmoqlaridan iboratdir.

Huquqshunos olim Shahzod Saydullayevga kora, huquq tizimi bu ijtimoiy munosabatlarning xarakteri bilan bogliq bolgan huquqning ichki tuzilishi bolib, u huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qatiy ilmiy izchilikda joylashgan tartibidir. Olimga kora, huquq tizimi tolaligicha huquq normalari bilan mustahkamlangan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga muvofiq keladi. Shu jihatdan olganda, huquq ijtimoiy hodisa sifatida nafaqat ozida, balki

ichki tuzilishi orqali ham jamiyat hususiyatlarini ifoda etadi. Huquq tizimi tarixiy ozgaruvchan, u jamiyat taraqqiyoti bilan mutanosib ravishda tadrijiy jarayonlarni bosib otadi.

Jamiyat transformatsiyalashuvi songgi yillarda huquq tizimi oldiga bir qator tartibga solinishi lozim bolgan masalalarni kondalang qilib qoygandi. Bunda nafaqat yangi huquq normalarining paydo bolishi balki, butun boshli huquq institutlarining vujudga kelayotganini takidlab otish zarur. Hususan, fuqarolik huquqida elektron tijorat huquqi, mualliflik huquqi institutlari, mamuriy huquq sohasida axborot bilan bogliq bolgan institutlar, hususan, elektron hukumat tushunchalarining kirib kelayotgani, norma ijodkorligi faoliyati, hujjatlarni royxatdan otkazish, saralash kabi amallar elektronlashib, kibermakonga kochib borayotganini inkor etib bolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 22-yanvar 2022-yil qabul qilingan farmoni asosida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida ham bir qator vazifalar belgilangankim, ular bevosita jamiyat transformatsiyalashuvi sharoitida, bundagi bir qator sohalarni huquqiy tartibga solish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni talab etishi alohida ta'kidlanadi.

Ushbu dasturda ko'rsatilgan maqsadlardan biri norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini taminlash hisoblanadi va bu taraqqiyot strategiyasining VIII maqsadi sifatida zikr etiladi. Unda bugungi jamiyat transformatsiyalashuvi sharoitida huquq tizimini takomillashtirishga doir quyidagi asosiy vazifalar belgilab olingan:

Qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlar otkazish amaliyotini takomillashtirish.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, sifati va samaradorligini taminlash maqsadida aqlli tartibga solish modeli elementlarini qollash doirasida qonunchilik hujjatlarining tartibga solish tasirini baholashni rivojlantirish va kengaytirish.

Huquq tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning yangi drayverlarini harakatga keltirish doirasida zamonaviy texnologiyalarga va raqamli faoliyatga bolgan talablarni qayta korib chiqish.

Sohalarda tartibga solish yukini kamaytirish doirasida qonunchilik hujjatlarini qisqartirish, davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish.

Ozbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega davlat organlari doirasini qisqartirish, shuningdek ushbu hujjatlar sonini maqbullashtirish ishlarini davom ettirish.

Yuqorida takidlangan eng muhim masalalardan biri, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, sifati va samaradorligini taminlash maqsadida aqlli tartibga solish modeli elementlarini qollash doirasida qonunchilik hujjatlarining tartibga solish tasirini baholashni rivojlantirish va kengaytirish hisoblanadi.

Ushbu tushuncha normativ plyuralizm shakllaridan biri hisoblanadi hamda jamoatchilik nazoratining egiluvchan, ijodiy va innovatsion shakllarini qamrab oladi. Ushbu termin davlat va biznes sohasi subektlari tomonidan faol tarzda qollaniladi. Misol uchun, u ozida ozi ozi tartibga solish hamda birgalikda tartibga solish, xususiy manfaatlardan va nohukumat tashkilotlardan tartibga solish subyekti sifatida foydalanishni, shuningdek, davlat togridan togri tartibga solishning samaradorligi hamda natijakorligini oshirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, aqlli tartibga solish modeli ostida hukumatning afzal ko'rgan roli ikkinchi yoki uchinchi shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri aralashuv bilan shug'ullanmasdan, tartibga solish yukining ko'proq ulushini o'z zimmalariga olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu cheklangan tartibga soluvchi resurslarni sarflashni kamaytiradi va jarayondan bevosita manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan tartibga solish muammolari uchun katta javobgarlikni ta'minlaydi. Bunday holda, davlat katalizator yoki vositachi sifatida harakat qilishi kerak. Xususan, davlat va tadbirkorlik subyektlari ortasidagi boshliqlarga yol qoymaslik, aloqani yolga qoyishda hal qiluvchi rol oynashi mumkin.

Shuningdek, Taraqqiyot Strategiyasining IX maqsadi sifatida Elektron hukumat tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish chora-tadbirlari alohida qayd etib otilgan. Bunda, quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

Davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali korsatishni kengaytirish.

Davlat xizmatlarini korsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish.

Elektron hukumat tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali davlat organlari hamda xususiy tijorat tashkilotlari ortasida malumot almashinuvini yolga qoyish asosida byurokratik jarayonlarni qisqartirish.

Shaxsga doir malumotlarning himoyasini taminlaydigan ruxsat berish hamda xabardor qilish tizimini joriy etish.

Fuqarolarga muddatli, muayyan faktni tasdiqlovchi hujjatlarni berish va almashtirishni hamda kompozit davlat xizmatlarini ularning murojaatini kutmasdan turib taklif etish amaliyotini yolga qoyish.

Keksa va nogironligi bolgan shaxslarga davlat xizmatlari korsatishni soddalashtirish, ularga qulayliklar yaratish.

Raqamli idora loyihasi doirasida davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali mamuriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish.

Fuqarolarning raqamli pasporti loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan muayyan faktlarni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyotini bekor qilish.

Xoriydagi Ozbekiston fuqarolariga davlat xizmatlarini korsatish amaliyotini kengaytirish.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga otkazish belgilab berilgan.

Jamiyatdagi transformatsiyalashuv jarayonlari muayyan davlatdagi barcha sohalarga o'zining tizimli ta'sirini ko'rsatadi va ushbu sohalarda barqaror hamda tizimli islohotlarni talab etadi. Shunday muhim sohalardan biri iqtisodiyot hisoblanadi. Taraqqiyot Strategiyasi so'nggi yillardagi kuchli ijtimoiy o'zgarishlar va jamiyat transformatsiyalashuvi asnosida ushbu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan tashkiliy va normativ-huquqiy o'zgarishlarni Strategiyaning XXV maqsadida ko'rsatib o'tadi. Unda raqamli iqtisodiyotni asosiy drayver sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish maqsad qilinib, bir qancha vazifalar belgilab olinadi.

Umuman olganda, yangi Ozbekiston Taraqqiyot strategiyasi yangilanib borayotgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning muhim yonalishlarini korsatib berdi hamda jamiyat transformatsiyalashuvi sharoitida muhim dastur ul amal bolib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.

В. В. Локосов Социологический словарь / отв. ред. Г.В. Осипов, Л.Н. Москвичев. М, 2014, с. 535-536.

Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat nashriyoti, 2018. – B.310

Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.:TDYU,2020. B. 149

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoniga
1-ILOVA 2022 2026 YILLARGA MOLJALLANGAN YANGI

OZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Мукумов, Б. (2022). Перспективы развития модели «Умного регулирования». Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции, 1(1), 75-78.

Aora, Seema and Cason, Timothy N 1995. 'An Experiment in Voluntary Regulation: Participation in EPA's 33/50 Program' Journal of Environmental Economics and Management 28: 271–286.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTLARI RAXBARLARINI BOSHQARUV
KOMPATENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Xolikulova Visola SHuxrat qizi

Toshkent voyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti, pedagogika fakulteti
Ta'lim muassasalarini boshqaruvi yonalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6465856>

Annotasiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik qilish va tashkil etishning yo'llari va usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, rahbar, zamonaviy usullar, uzluksiz ta'lim.

Аннотация: В статье описаны пути и средства руководства и организации в дошкольном образовании.

Ключевые слова: дошкольное учреждение, руководитель, современные методы, непрерывное образование.

Abstract: The article describes the ways and means of leadership and organization in preschool education.

Key words: preschool institution, leader, modern methods, lifelong education.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta'limning mazkur Konsepsiyasi uning 2017 yilgacha bo'lgan vazifalari, strategiyasi, maqsad va tamoyillarini aniqlab beradi.

Konsepsiyaning xuquqiy asosini quyidagi me'yoriy-xuquqiy hujjatlar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va ta'lim sohasidagi boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, olti-yetti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim-bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;

- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiy rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko'nikma va faoliyatning turli ko'rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari-ta'limga tarbiyachi va bolaning o'zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o'qitish; qiyin maqsad g'oyasi (bolaning oldiga murakkab maqsad qo'yiladi va uni yengib o'tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch signallar); o'z-o'zini tahlil qilish (bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va jamoa bo'lib muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy ravishda bolalarning o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtirishlarini maqsad sifatida belgilab o'qitish vaqtini tanlashi); guruhning intellektual foni (o'qitishning mazkur bosqichida ahamiyatli hayotiy maqsadlarni qo'yish va tarbiyalanuvchilar tomonidan dasturga nisbatan

kengroq bilimlar egallash); shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi.

Ta'limning natijalari bolada hozirjavoblik, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo‘ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his qilish, ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

Ta'lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi) ta'minlanadi; zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi; dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi; jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi.

2 Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga ta'lim-tarbiya berishda shaxsga yo‘naltirigan ta'lim

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga ta'lim-tarbiya berishda shaxsga yo‘naltirigan ta'lim modeli ustuvor sanaladi. Shaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida “o‘zgartirish emas”, balki “uni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish”dir. Shaxsiy yondashuv ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to‘liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko‘zlaydi. Shaxsiy majburiyatlar - bu shaxs tomonidan “shaxs bo‘lish” ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma'lum fazilatlarning namoyon etilishidir.

Pedagog tomonidan qadriyatlar orasida yoʻnalishini aniqlash uning kasbiy faoliyatini belgilaydi. Shaxsga yondashuv pedagog va bolaga oʻzini shaxs sifatida his qilishiga, ularning imkoniyatlarini aniqlash va namoyon etishga, oʻzini anglab yetishga, jamiyat tomonidan amalga oshirilishi mumkin boʻlgan oʻz-oʻzini anglash, oʻz-oʻziga ishonish va oʻzini kashf qilish usullariga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshda bola buyumlarning alohida yuzaki xususiyatlarini qabul qilishning yuqori choʻqqilarini egallaydi, koʻrgazmali shakldagi amaliy va aqliy vazifalarning yechimini topadi. Lekin bola hali buyumlarning koʻrinishiga ahamiyatsiz boʻladi. Bu tabiiy hol chunki buyumlar uning uchun mavjuddir va ular bolani faqat amaliy va aqliy faoliyat ob'ekti sifatida qiziqtiradi. Maktabgacha yoshdagi bola buyumlarning mohiyatini emas, balki ularning tashqi koʻrinishi va ishlatilishiga qarab ish tutadi. Buyumlarning bizlarga qanday koʻrinishi bilan mohiyati oʻrtasida katta farq bor. Buyumlarning mohiyati yuzaki emas, u shaxsiy tajriba orqasida yuzaga kelmaydi, toʻgʻridan-toʻgʻri qabul qilinmaydi. U ijtimoiy tashkillashtirilgan oʻquv – dunyoni ilmiy anglash orqali kashf etiladi.

Tubdan oʻzgartirilgan oʻqitish – bola va pedagogning hamkorlikdagi tubdan oʻzgartirilgan (koʻrgazmali-rivojlantiruvchi) pedagog va bola shaxsini mustaqil tarbiyalashga yoʻnaltirilgan faoliyati, qaysiki shaxsiy mazmuni hayotiy boʻshliqda qimmatli ahamiyatga ega boʻlgan, pedagog va bolaning universallashtirilgan tizimi.

Tubdan oʻqitish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

Ijtimoiy pedagogik yondashuv. Uning mazmuni shundan iboratki, bola tomonidan insoniyat tajribasining oʻzlashtirilishini ta'minlovchi rivojlanishni amalga oshirish.

Bunday yondashuv ta'lim berish jarayonini yakuniy natijaga-bola shaxsining ijtimoiylashuviga erishishga yo'naltirilgan. Uning mohiyati bola tomonidan jamiyatning ahloqiy, ma'naviy o'zgarishlarni tubdan isloh qilishdir. Bunday yondashuvda ta'lim tarbiya beruvchi vazifani bajaradi.

Gnoseologik (bilish faoliyati) yondashuv o'qitish jarayoni mohiyatini anglash jarayonidan olib chiqadi va yuzaga kelgan anglash faoliyatini modifikatsiyalaydi (variatsiyalaydi). O'qitish insonning individual rivojlanishini tezlashtiradi, qaysiki ijtimoiy qonunchilikka bo'ysunadi. Shu bilan birga u insonning o'rnatilgan tartibda individual rivojlanishi bilan birga, inson ongining umumiy tarixiy rivojlanishiga ham bog'liqdir. O'qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash tizimiga yaqinlashtiradi, bolaning shaxsiy tajribalari va o'qish va o'qitish davrida yuzaga kelgan tushunchalar orasidagi tafovutlarni chaqiradi.

Gnoseologik o'qitishning mohiyati ta'lim vazifalarini tabiiq etishda o'qitilayotgan ob'ektning individuallashtirish jarayonini amalga oshirishdan iborat.

Psixologik yondashuv. Bu yondashuv uchun insonning rivojlanishi va bilimlarni o'zlashtirishini psixologik nazariy bilimlarni yuzaga olib chiqishdan iborat.

Aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini inobatga olgan holda (P.Ya.Galperin, N.F.Talo'zin), o'qitish birinchi materiallashgan bosqichdan ikkinchisi, ya'ni tayanch tashqi nutq faoliyatida saqlangan bosqichga o'tadi. Undan so'ng aqliy faoliyat to'liq ichki faoliyatda amalga oshiriladigan uchinchi, yuqori bosqichga o'tadi. Bunday yondashuvda o'qitishning mohiyati aqliy faoliyat shakllanishining bosqichlariga mos ravishda solishtiriladi. Bunday yondashuvda

o'qitish o'qitiluvchining shaxsiga yo'naltiriladi va rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshiradi.

Akmeologik (grekcha so'zdan olingan bo'lib, yuqori nuqta, yuksalish, yaxshi payt va o'qish degan ma'noni bildiradi) yondashuv o'qitishning shaxsiga yo'naltirilgan xususiyatlarini ochib beradi. Uning asl mohiyati shundan iboratki, o'qitish shaxsning hayotiy dunyosiga, pedagog va bolaning mavjud hayoti mazmuniga bir tekisda kirib boradi. O'qitish nafaqat o'qitiluvchi va va pedagogning fikr va munosabatlarini uyg'unlashtirib, mazmun maydonini o'zgartiradi, balki, o'zaro munosabatlarning yaxlit sub'ektining paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keladi. Bunda o'qitishning o'zaro tarbiya, o'zaro ta'lim, o'zaro hamkorlik, o'zaro ijodiylikka aylanishiga omil bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. A.A. Abdullayev. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimi. Fan va jahon Xalqaro ilmiy jurnali 2 (№ 5), 19-21
2. Abdulkayevich, A. A. (2020). Erta ta'lim kontsepsiyasi haqida tushuncha hosil qiluvchi savodxonlik va til orqali bugungi kunning ilk o'qituvchilarining muammolari, klasteri va kasbiy yordami. Xalqaro Word Art jurnali, (2).
3. Abdullayev, A. A. (2020). Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimi. Fan va dunyo, 5(81), 19-21.
4. Abdullayev, A. A. (2020). Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish. TDPU ilmiy axborotlari, 10, 191-194.

-
5. Abdullayeva, M. (2020). Bo'lajak tarbiyachilarning rivojlanishini rivojlantiruvchi asosiy omil. Zamonaviy fan va talim-tarbiya: muammo, yechim, natija, 1, 112-114.

**BASKETBOLCHILAR HUJUM VA HIMOYADAGI TAKTIK
TAYYORGARLIGINI AMALGA OSHIRISHDA MUSOBAQA USULINI
AHAMIYATI**

Xolmirzayev Sherali Abdusami O'g'li

Namangan davlat universiteti

sheralixolmirzayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6478289>

Annotatsiya: Basketbolchilarni tayyorlash jarayoni va uning muhim tamoni bo'lgan hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda musobaqa usulining ta'siri haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sport mashg'ulotlari, Musobaqa usuli, Jismoniy tayyorgarlik, Himoya taktikasi, Hujum taktiksi.

ЗНАЧЕНИЕ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО МЕТОДА В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ
ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БАСКЕТБОЛИСТОВ НАПАДЕНИЯ И
ЗАЩИТЫ

Холмирзаев Шерали Абдусами угли

Наманганский государственный университет

sheralixolmirzayev@gmail.com

Аннотации: Теоретическая информация и практические рекомендации по процессу подготовки баскетболистов и влиянию метода соревнований на развитие наступательной и оборонительной тактики, что является важным его аспектом.

Ключевые слова: Спортивная тренировка, соревновательная методика, физическая подготовка, защитная тактика, наступательная тактика

THE SIGNIFICANCE OF THE COMPETITION METHOD IN TACTICAL TRANING OF ATTACK AND DEFENSE BASKETBALL PLAYERS

Xolmirzayev Sherali Abdusami Ogli

Namangan State University

sheralixolmirzayev@gmail.com

Annotation Theoretical information and practical recommendations on the process of training basketball players and the impact of the competition method on the development of offensive and defensive tactics, which is an important aspect of it.

Key words: Sports Training, Competition Method, Physical Training, Defensive Tactics, Offensive Tactics

Hozirda barcha sport turlarida hujum va himoya taktik tayyorgarligi alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Bunga sabab mashg'ulotlarda o'yinning texnik usullari va uni o'zlashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan sportda yaxshi natija ko'rsatish uchun sportchilarning taktik tayyorgarlikga ega bo'lishi tabab qilinadi. Jismoniy tayyorgarlikning o'rni, ayniqsa, musobaqalar bir necha kun o'tkazilsa va musobaqa murosasiz davom etadigan bo'lsa, hamda taktik tayyorgarlik yetarli bo'lmasa, sportchilar hujum va himoya texnikasini kutilgan darajada bajara olmasligi yaqqol namoyon bo'ladi. Basketbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda "Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari" tarkibiga kiruvchi "Musobaqa usuli" dan foydalanish eng qulay vosita bo'lib, hizmat qilishini quyidagi malumotlarda bayon etiladi.

Sport mashg'ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashda ko'pgina o'rgatish usullaridan foydalaniladi. Albatta har bir usulni o'ziga xos jihatli mavjud. Bizga tanish bo'lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg'ulotlarda ma'lum bir o'yin yoki harakat texnikasini o'rgatishda foydalaniladi. Musobaqa usulining o'ziga xosligi shundaki u orqali o'yin texnikasini gandbolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o'zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari haqida so'z yuritilganda albatta quyidagi usullarni yodga olamiz. Ular quyida 1-chizmada keltirilgan. Musobaqa usuli asosan mashg'ulotlarda yangi o'yin texnikasini o'zlashtirilgandan so'ng qo'llaniladi natijada gandbolchilari shu harakatlarni o'zaro jamoalar o'rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o'ziga xosligini to'la yoritishga kamlik

qiladi va uning yana bir eng kerakli jihati uni mashg'ulotlarda faqatgina o'yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo'lmay, u orqali basketbolchilar hujum va himoya taktikasi rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari.

Ushu usulda mashg'ulotni tashkillash va o'tkazishni qanchalik kerkligini va taktik harakatlarni rivojlanishi haqida so'z yuritayotganda biz aslida o'yin taktikasi o'zini nima uni vazifasi haqida qisqacha malumot keltirsak. Taktika ikki ko'rinishda amalga o'shirilib, ular a) hujum taktikasi, b) himoya taktikasiga bo'linadi. Taktika – ma'lum bir texnik harakatlar to'plamini mahorat bilan qo'llashni oldinda va musobaqa jarayonida murabbiy hamda jamoa tomonidan rejalashtirish tushiniladi. Obrazli qilib aytganda, taktika bu – generallar o'yinidir.

Chunki, mashg'ulot va musobaqa jarayonida sportchilarning o'yin faoliyati murabbiy tomonidan boshqariladi, barcha kerakli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu usul yordamida mashg'ulot tashkil etilsa, uning tub negizida o'zaro musobaqalashuv o'rin oladi va bu taktik tayyorgarlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun keng yo'l ochib beradi.

Mazkur tadqiqotdan asosiy maqsad-Basketbolchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini rivojlantirishda musobaqa usulidan foydalanish bilan ushbu harakatlarni tez o'zlashtirishga imkon berishini ilmiy asoslashdir.

Ishning vazifasi esa quydagicha.1. Basketbolchilarni mashg'ulot jarayonida rejalashtirilgan taktik harakatlarni musobaqalarda qo'llash hamda kamchiliklarni bartaraf etish .

2. Basketbolchilarni hujum va himoyadagi taktik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni va musobaqa jarayonini o'rganish hamda tahlil qilish;

Basketbolchilarning mashg'ulot jarayonidaga mos bo'lgan usulni tanlash va unga hujum va himoyadagi taktik harakatlarni joylashtirish, bu jarayonga biz basketbolchilar tomomidan o'yinda qo'llanilishi kerak bo'lgan, hujum yoki himoya taktikalarni qay darjada o'zlashtirilganligini bevosita nazortaga olish imkoni tug'iladi hamda ulardan qay biri yuqori darajada bajarilyotgani yoki qaysidir taktik harakatni bajarishda basketbolchilar muammoga uchrayotganligini ham aniqlab olamiz. Odatda o'yin usuli yordamida shug'ullanuvchilarni faoliyatga ijodiy yondoshuvni shakllantiriladi ammo, musobaqa usuli esa sportchilarni texnik va taktik harakatlarni maksimal darajada namoyon qilishga majbur qilib qo'yadi. Bunga asosiy sabab bu har bir mashg'ulotda musobaqalashuv, o'zaro raqobat va g'oliblikka intilish borligi hisoblanadi. Quyida basketbolchilar taktik tayyorgarlini rivojlantirishda muhim sanalgan hujum va himoya taktik usullarini 2- jadvalda keltirilgan.

Basketbol mashg'ulotlarini musobaqa usuli asosida tashkillash uchun tavsiya etilgan hujum va himoya taktikalari.

Basketbolchilarnig himoya taktikalari
--

T/r	Taktika nomi	Uning tavsifi
1	Gurux harakatlari	Ushbu taktikada hujumchilarga qarshi harakat uchun yo'nalgan ikki yoki uch o'yinchining o'zaro harakati tushuniladi
2	Zonali himoya sistemasi.	Bu taktikada ham himoyalananayotgan jamoa o'yinchilarini jarima otish maydonchasi atrofida joylashgan holda himoyalanaadi.
3	Shaxsiy himoya taktikasi	Bunday holda har bir himoyachi o'yinchining hujumdagi harakatlaridan joylashgan joyidan qat'iy nazar , o'ziga tayinlangan raqibga qarshi o'ynaydi.
Basketbolchilarning hujum taktikasi		
T/r	Taktika nomi	Uning tavsifi
1	2:1 taktikasi	“To'pni uzat va chiq” usuli raqib shitgacha bo'lgan masofani harakatda bosib o'tish va son jihatdan ustunlik - ikki kishi bir kishiga 2:1 amalga oshirishda hamda tez yorib o'tish davomida ham keng qo'llaniladi
2	2:2 taktikasi	Tez yorib o'tishga hammadan ko'proq jamoa to'pni raqibdan olib qo'ysa yoki o'zining shitidan sakrab qaytgan to'p uchun kurash paytida unga ega bo'lganda amalga oshiriladi.
3	3:2 taktikasi	Uchburchaknin o'zaro harakati va uzatishni tez bajarishni talab qiladi u joyni almashtirish yoli bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Uchburchaknin o'zaro harakati va uzatishni tez bajarishni talab qiladi u joyni almashtirish yoli bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Izoh: tavsiya etilgan ushbu taktik usullarni o'quvchilar yoshiga va jismoniy imkoniyatiga ko'ra moslab qo'llash mumkin.

Mazkur usul basketbolchilar mashg'ulotlarini tashkil etishda turli yoshdagi sportchilar uchun samara berishi ham uning qay darajada optimal ekanligini ko'rsatadi. Ushbu taktik usullarni musobaqa usuli orqali rivojlantirishda

basketbolchilarni ikki jamoaga ajratib so'ng ular oldiga yuqoridagi hujum va himoyalani taktikasini belgilab shu taktik usulni qaysi jamoa uch marotaba ijobiy hal etsa usha jamoa g'olib bo'lib faoliyatni davom ettiradi, agarda ijobiy hal etmasa mag'lub bo'lib, o'z o'rnini keyingi guruhga bo'shatishi qoida qilib olinadi. Albata bu belgilangan hujum va himoya taktik usullarini mustahkamlash va takomillashtirishda eng yaxshi metod bo'lib hizmat qiladi deb o'ylamiz.

Xulosa: Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish hamda amaliyotda gandbolchilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg'ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo'lgan taktik harakatlarni rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Basketbol mashg'ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so'ng, basketbolchilarning mashg'ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida basketbolchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqorida tavsiya etilgan ro'yxatdagi taktik usullarni musobaqa usulidagi mashg'ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

A.A.Pulatov, F.V.Ganlyeva, B.M.Miradilov, D.T.Xusanova, F.A.Pulatov.
Basketbol nazaryasi va uslubiyoti. darslik. Toshkent -2017. 190.b.

A. Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg'ona -2016
372, b.

R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati, Toshkent-2014 296 b.

Морфология человека, под. ред. Б.А.Никитюк и В.П.Чтецова, уч. пос., 2-е
изд., издательство МГУ, 1990, 67-68 стр.

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI HODIMLARINI KASBIY
SHAKLLANISH DINAMIKASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Yo‘ldoshev Shohjahon Mahkamjon oqli.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6498130>

Mustaqil O‘zbekistonda jahon andozalariga mos huquqiy demokratik davlatni bunyod etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun mamlakat hayotining barcha sohalarida islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlari hodimlari zimmasiga ona-vatanni ichki va tashqi unsurlardan himoya qilish, fuqarolarni har xil jinoyatchilar, terroristlar, aqidaparastlarning xurujidan asrash orqali mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, ularning huquqiy madaniyatini shakllantirish, yuksak ma’naviy - ruhiy, umuminsoniy, axloqiy qadriyatlar asosida aholining barcha qatlamlari bilan kasbiy muloqotda bo‘lish kabi bir qator vazifalarni yuklaydi.

Ichki ishlar vazirligi tizimida hodimlarini kasbga tayyorlashda psixologik xizmatning asosiy maqsadi konsultativ-metodik yordam ko‘rsatishdir. Ya’ni,

Hodimlarning kasbiy faoliyatida ularga psixologik yordam berish, hodimlarni ijtimoiy moslashtirish hamda ularning sog‘ligi va optimal mehnat qobiliyatini saqlab turishga ko‘maklashish.

Hodimlarning ruhiy barqarorligini saqlash va mustahkamlash uchun psixologik ko'mak berishda diagnostik, profilaktik va psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirish.

Hodimlarni kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishida ularning psixologik bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Psixologik ma'rifiy faoliyat – mavjud psixologik muammolar bo'yicha axborot bilan ta'minlash, hodim shaxsi xulqida og'ish ehtimoli bo'lgan vaziyatlarni o'z vaqtida oldini olish, hodimlarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir etish masalalarida ko'mak berishga mo'ljallangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Psixologik profilaktika – hodimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-psixologik va ruhiy muammolarni oldini olish, ichki ishlar organlari jamoasida ijobiy emotsional-ruhiy muhitni yaratish, xulqida og'ish vujudga kelishi mumkin bo'lganlar sirasiga kiruvchi hodimlarni aniqlash, ya'ni psixosomatik va ruhiyatida buzilish ehtimoli bo'lgan vaziyatlarni o'z vaqtida oldini olishga qaratilgan maqsadga yo'naltirilgan tizimli ishlarni amalga oshirish.

Psixologik korreksiya – u yoki bu asoslarga ko'ra xulqida og'ishga moyilligi bor guruh toifasiga kiritilgan hodimlar bilan maqsadga yo'naltirilgan tizimli ishdan iborat bo'lib, ularning jismoniy, ruhiy holatlari va kasbiy rivojlanishida mavjud buzilishlarni maxsus psixologik yordam ko'rsatish asosida kamaytirish, pasaytirish va bartaraf etishga qaratilgan maqsadli tizimli, kompleks faoliyatdir.

Psixologik maslahat berish – hodimlarga ularning hayoti va faoliyatida, oilasida, do'stlari davrasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ziddiyatlarning mohiyatini tahlil qilish va hal etish, o'z oldiga yangi maqsadlarni qo'yish va

mustaqil qarorlar qabul qilishda muayyan yordam ko'rsatishdan iborat. Yosh hodimlarga xizmat sharoitlariga moslashish jarayonida yordam berish shuningdek, hodimlarning nafaqaga ketish oldidan ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda psixologik yordam ko'rsatishdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ichki ishlar organlari hodimlarining kasbiy shakillanish dinamikasining psixologik xususiyatlari kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

**ISO/IES 17043 xalqaro standart talablari asosida laboratoriyalar orasida
sinovlarni tashkillashtirish usullarini tahlili va muammolari**

Yuldashev Sardor

Toshkent Davlat Tenika Universiteti magistr

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517774>

Annotatsiya: Ushbu maqola ISO(Xalqaro standartlashtirish Tashkiloti), IEC(Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) va ISO/IEC 17043 ISO muvofiqlikni baholash qo'mitasi (CASCO) qo'mitasi tomonidan amalga oshirilayotgan laboratoriya tekshiruvlari va standartlari haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar:ISO, IEC, Xalqaro standartlar, laboratoriyalararo taqqoslash, mintaqaviy metrologiya.

ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) va IEC (Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) butun dunyo bo'ylab standartlashtirish uchun ixtisoslashgan tizimni tashkil qiladi. ISO yoki IEC a'zosi bo'lgan milliy organlar texnik faoliyatning muayyan sohalari bilan shug'ullanish uchun tegishli tashkilot tomonidan tuzilgan texnik qo'mitalar orqali Xalqaro standartlarni ishlab chiqishda ishtirok etadilar. ISO va IEC texnik qo'mitalari o'zaro manfaatli sohalarda hamkorlik qiladi. Ishda ISO va IEC bilan hamkorlikda boshqa xalqaro tashkilotlar, davlat va nodavlat tashkilotlar ham ishtirok etmoqda. Muvofiqlikni baholash sohasida ISO muvofiqlikni baholash qo'mitasi (CASCO) xalqaro standartlar va qo'llanmalarni ishlab chiqish uchun javobgardir.

Xalqaro standartlar ISO/IEC direktivasining 2-qismida keltirilgan qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan. Xalqaro standartlar loyihalari ovoz berish uchun milliy

organlarga yuboriladi. Xalqaro standart sifatida e'lon qilish ovoz beruvchi milliy organlarning kamida 75 % tomonidan ma'qullanishi kerak.

Ushbu hujjatning ayrim elementlari patent huquqlarining predmeti bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratiladi. ISO patent huquqlarining birortasi yoki barchasini aniqlash uchun javobgar bo'lmaydi. ISO/IEC 17043 ISO muvofiqlikni baholash qo'mitasi (CASCO) tomonidan tayyorlangan. U ISO va IEC milliy organlariga ovoz berish uchun tarqatildi va ikkala tashkilot tomonidan ma'qullandi. Ushbu ISO/IEC 17043 birinchi nashri texnik jihatdan qayta ko'rib chiqilgan ISO/IEC 43-1:1997 qo'llanma va ISO/IEC 43-2:1997 qo'llanmasini bekor qiladi va o'rnini egallaydi.

Laboratoriyalararo taqqoslashlar bir qator maqsadlarda keng qo'llaniladi va ulardan foydalanish xalqaro miqyosda ortib bormoqda. Laboratoriyalararo taqqoslashning odatiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- a) muayyan sinovlar yoki o'lchovlar bo'yicha laboratoriyalarning ish faoliyatini baholash va laboratoriyalarning doimiy ishlashini kuzatish;
- b) laboratoriyalardagi muammolarni aniqlash va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni boshlash, masalan, sinov yoki o'lchov jarayonlarining noto'g'riligi, xodimlarni o'qitish va nazorat qilish samaradorligi yoki asbob-uskunalarini kalibrlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin;
- c) sinov yoki o'lchash usullarining samaradorligi va solishtirilishini aniqlash;
- d) laboratoriya mijozlariga qo'shimcha ishonchni ta'minlash;
- e) laboratoriyalararo farqlarni aniqlash;

- f) bunday taqqoslash natijalari asosida ishtirok etuvchi laboratoriyalarni o'qitish;
- g) noaniqlik haqidagi da'volarni tasdiqlash;
- h) usulning ishlash xususiyatlarini baholash - ko'pincha hamkorlikdagi sinovlar sifatida tavsiflanadi;
- i) ma'lumotnoma materiallariga qiymatlarni belgilash va ularning muayyan sinov yoki o'lchov protseduralarida foydalanishga yaroqliligini baholash;
- j) Milliy metrologiya institutlari o'lchovlarining ekvivalentligi haqidagi bayonotlarni “asosiy taqqoslashlar” va Xalqaro Og'irliklar va o'lchovlar byurosi (BIPM) va tegishli mintaqaviy metrologiya tashkilotlari nomidan o'tkazilgan qo'shimcha taqqoslashlar orqali qo'llab-quvvatlash.

Malakaviy test yuqorida a) dan g) gacha sanab o'tilgan laboratoriya ish faoliyatini aniqlash uchun laboratoriyalararo taqqoslashlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Malakaviy test odatda h), i) va j) ni ko'rib chiqmaydi, chunki bu ilovalarda laboratoriya malakasi qabul qilinadi, ammo bu ilovalar laboratoriya malakasini mustaqil namoyish qilish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu xalqaro standart talablari h), i) va j) uchun ko'plab texnik rejalashtirish va operatsion faoliyatga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Laboratoriyalarning ishlashiga doimiy ishonch zarurati nafaqat laboratoriyalar va ularning mijozlari, balki boshqa manfaatdor tomonlar, masalan, tartibga soluvchi organlar, laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish organlari va laboratoriyalarga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan boshqa tashkilotlar uchun

ham muhimdir. ISO/IEC 17011 akkreditatsiya organlaridan malaka sinovlarida laboratoriyalarning ishtiroki va samaradorligini hisobga olishni talab qiladi. Tekshiruv yoki mahsulotni sertifikatlash kabi boshqa muvofiqlikni baholash faoliyati uchun malaka sinoviga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu xalqaro standartdagi talablarning aksariyati rivojlanayotgan sohalarga, xususan, boshqaruv, rejalashtirish va dizayn, xodimlar, sifatni ta'minlash, maxfiylik va boshqa jihatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu xalqaro standart barcha manfaatdor tomonlar uchun malaka testini o'tkazadigan tashkilotlarning vakolatlarini aniqlash uchun izchil asos yaratish uchun tayyorlangan. Bunda u ISO/IEC Guide 43:1997 ning ikkala qismini almashtiradi. ISO/IEC Guide 43 nafaqat malaka testini ishlab chiqish va ishlatish, shuningdek, laboratoriya akkreditatsiya organlari tomonidan malaka testini tanlash va qo'llash bo'yicha yo'riqnomani emas, balki malaka sinovining tipik turlarining foydali tavsiflarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu xalqaro standart 43-sonli ISO/IEC qo'llanmasida tavsiflangan malaka testining ishlash tamoyillarini saqlab qolgan va yangilagan hamda malaka sinovi sxemalarining tipik turlari, tegishli statistik usullar bo'yicha yo'riqnoma, malakani tanlash va qo'llash bo'yicha A dan Cgacha ilovalardagi ma'lumotlarni saqlab qolgan. laboratoriyalar, akkreditatsiya organlari, nazorat qiluvchi organlar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan sinov sxemalari.

Laboratoriyalararo taqqoslashlar bir qator maqsadlarda keng qo'llaniladi va ulardan foydalanish xalqaro miqyosda ortib bormoqda. Laboratoriyalararo taqqoslashning odatiy maqsadlari quyidagilardan iborat: a) muayyan sinovlar yoki o'lchovlar bo'yicha laboratoriyalar faoliyatini baholash va laboratoriyalarning

davomiy ishlashini nazorat qilish; b) laboratoriyalardagi muammolarni aniqlash va, masalan, etarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan takomillashtirish bo'yicha harakatlarni boshlash. sinov yoki o'lchash tartib-qoidalari, xodimlarni o'qitish va nazorat qilish samaradorligi yoki asbob-uskunalarini kalibrlash; c) sinov yoki o'lchash usullarining samaradorligi va solishtirilishini o'rnatish; d) laboratoriya mijozlariga qo'shimcha ishonchni ta'minlash; e) laboratoriyalararo farqlarni aniqlash; f) Bunday taqqoslashlar natijalari asosida ishtirok etuvchi laboratoriyalarni o'qitish; g) noaniqlik haqidagi da'volarni tasdiqlash; h) usulning ishlash xususiyatlarini baholash - ko'pincha hamkorlikdagi sinovlar sifatida tavsiflanadi; h) ma'lumotnoma materiallariga qiymatlarni belgilash va ularning muvofiqligini baholash. maxsus sinov yoki o'lchov protseduralarida foydalanish; i) su Xalqaro Og'irliklar va O'lchovlar Byurosi (BIPM) va tegishli mintaqaviy metrologiya tashkilotlari nomidan o'tkazilgan "asosiy taqqoslashlar" va qo'shimcha taqqoslashlar orqali Milliy metrologiya institutlari o'lchovlarining ekvivalentligi to'g'risidagi bayonotlar uchun pport.

Malakaviy test yuqorida a) dan g) gacha sanab o'tilgan laboratoriya ish faoliyatini aniqlash uchun laboratoriyalararo taqqoslashlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Malakaviy test odatda h), i) va j) ni ko'rib chiqmaydi, chunki bu ilovalarda laboratoriya malakasi qabul qilinadi, ammo bu ilovalar laboratoriya malakasini mustaqil namoyish qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Ushbu xalqaro standart talablari h), i) va j) uchun ko'plab texnik rejalashtirish va operatsion faoliyatga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Laboratoriyalarning ishlashiga doimiy ishonch zarurati nafaqat laboratoriyalar va ularning mijozlari, balki boshqa manfaatdor tomonlar, masalan, tartibga

soluvchi organlar, laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish organlari va laboratoriyalarga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan boshqa tashkilotlar uchun ham muhimdir. ISO/IEC 17011 akkreditatsiya organlaridan malaka sinovlarida laboratoriyalarning ishtiroki va samaradorligini hisobga olishni talab qiladi. Tekshiruv yoki mahsulotni sertifikatlash kabi boshqa muvofiqlikni baholash faoliyati uchun malaka sinoviga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu xalqaro standartdagi talablarning aksariyati rivojlanayotgan sohalarga, xususan, boshqaruv, rejalashtirish va dizayn, xodimlar, sifatni ta'minlash, maxfiylik va boshqa jihatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu xalqaro standart barcha manfaatdor tomonlar uchun malaka testini o'tkazadigan tashkilotlarning vakolatlarini aniqlash uchun izchil asos yaratish uchun tayyorlangan. Bunda u ISO/IEC Guide 43:1997 ning ikkala qismini almashtiradi. ISO/IEC Guide 43 nafaqat malaka testini ishlab chiqish va ishlatish, shuningdek, laboratoriya akkreditatsiyasi organlari tomonidan malaka testini tanlash va qo'llash bo'yicha yo'riqnomani emas, balki malaka sinovining tipik turlarining foydali tavsiflarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu xalqaro standart 43-sonli ISO/IEC qo'llanmasida tavsiflangan malaka testining ishlash tamoyillarini saqlab qoldi va yangiladi hamda A dan C gacha bo'lgan qo'shimchalarda malaka sinovi sxemalarining tipik turlari, tegishli statistik usullar bo'yicha yo'riqnoma, malakani tanlash va qo'llash bo'yicha ma'lumotlarni saqlab qoldi. laboratoriyalar, akkreditatsiya organlari, nazorat qiluvchi organlar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan sinov sxemalari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stuart M, Squirell A (2001) Accreditation of providers of proficiency testing schemes. *Accred Qual Assur* 6:203–205
2. International Organization for Standardization (2010) Conformity assessment—general requirements for proficiency testing. ISO/IEC 17043:2010. ISO, Geneva
3. International Organization for Standardization (2005) Statistical methods for use in proficiency testing by interlaboratory comparisons. ISO 13528:2005. ISO, Geneva
4. Thompson M, Ellison E, Wood R (2006) The international harmonized protocol for proficiency testing of analytical chemistry laboratories (IUPAC Technical Report). *Pure Appl Chem* 78(4):145–196
5. Tholen DW (2001) Statistical treatment of proficiency testing data. *Accred Qual Assur* 3:362–366
6. Fearn T, Thompson M (2001) A new test for ‘sufficient homogeneity’. *Analyst* 126(8):1414–1417
7. International Organization for Standardization (2005) Accuracy (trueness and precision) of measurement methods and results—part 1: general principles and definitions. ISO 5725-1:1994. ISO, Geneva

**Хуқукбузарликлар Профилактикасида жадидчиларнинг фикр ва
ғоялари**

Авазова Барчиной Абдиқохҳор кизи

Ички Ишлар Вазирлиги Академияси

3-босқич курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517978>

Аннотация

Ушбу тадқиқотда мавзунинг долзарблиги Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тизимининг пайдо бўлиши ва истиқболлари, мавжуд вазият ва хусусиятлари ҳамда ички ишлар органлари ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизими доирасидаги нормаларни амалий таҳлил қилиш, Ўзбекистонда жадиждиларнинг фикр ва ғоялари асосида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш ва бошқа хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибаларининг миллий қонунчилигимиз билан ўхшаш жиҳатлари, ушбу тизимдаги муаммолар ва камчиликлар ўз ифодасини топган.

Шунингдек, мақолада жадиждиларнинг фикр ва ғоялари асосида ички ишлар органлари ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятини такомиллаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш ва жиноятчиликка қарши кураш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан биридир. Бугунги кунда профилактика инспектори зиммасига юклатилган барча функцияларни самарали бажариш ҳар томонлама ҳудудда криминоген вазиятни ўрганишни, таҳлил қилиб бориш шунингдек, жадиждилар ҳаракатининг фикр ва ғоялари асосида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишни талаб қилади. Шундай экан, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда фуқороларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари билан ҳамкорликда энг аввало маҳаллада яшовчи, ўзининг ғайриижтимоий ҳуқ-

атвори хавфлилиги туфайли ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли ҳолатида бўлган жисмоний шахсларнинг ҳамда вояга етмаганлар турмуш тарзини, мавжуд муаммоларни ўрганиш ҳамда буюк жади́дчимиз драматург, публицист Маҳмудхўжа Бехбудий ва бошқа жади́дчиларимизнинг фикр ва ғояларини ушбу тоифадаги шахсларга уқтириб ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи тегишли идоралар билан ҳамкорликда бартараф этиш ҳамда ҳуқуқий, ижтимоий, психологик, тиббий, педагогик ва бошқа турдаги ёрдам кўрсатишга, шунингдек уларга жамиятда қабул қилинган ҳуқ-атвор нормалари ва қоидаларини сингдиришга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириши керак.

2020 йилда Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан халқимиз тарихининг мураккаб дамларида, маърифат машъалини баланд кўтариб чиққан аллома ва адиб Маҳмудхўжа Бехбудийнинг 145 йиллик таваллуд санасини кенг нишонланади. Давлат раҳбари: “Биз жади́дчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганишимиз керак. Бу маънавий хазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебаҳо бойликни қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз, айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади” – деб , таъкидлаб ўтдилар.

Профилактика инспекторлари фаолиятининг ҳуқуқий асослари, ҳамда уларнинг ҳуқуқий мақоми 2016 йил 16 сентябрда қабул қилинган “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунида ўз аксини топди.

Мазкур қонунга мувофиқ, ички ишлар органларининг таянч пунктлари фаолиятни профилактика (катта) инспекторлари ва уларнинг жамоат тартибини сақлаш бўйича ёрдамчиларидан иборат таркибда амалга оширади. Профилактика инспекторлари халқ депутатлари туман Кенгашининг қарори билан лавозимга тасдиқланади. Профилактика инспекторлари фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига белгиланган тартибда ҳисоботлар тақдим этади.

Шунингдек, мамлакатимиз Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони қабул қилиниб, унда фуқаролар йиғини раисининг ҳуқуқ-тартибот масалалари бўйича ўринбосари вазифасини бажариш профилактика инспектори зиммасига юклатилиши, ҳар бир маҳаллада унинг криминоген вазияти ва аҳоли сонидан келиб чиққан ҳолда камида бир нафардан профилактика инспектори хизматни олиб бориши белгиланди.

Профилактика инспекторларининг бугунги қиёфаси ҳам амалга оширилиб келинаётган ислоҳотлар билан ҳамоҳанг бўлиши, фаолиятида янгилик ва ёндошувнинг асосий мақсади халқимиз оғирини енгил қилишга қаратилган. Шунинг учун ҳам бугунги кунда профилактика инспекторининг замонавий қиёфасини яратиш, уни Янги Ўзбекистонга хос кадр сифатида шакллантириш айни вақтдаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Профилактика инспекторини шахсий жиҳатдан ривожлантиришда, шунингдек, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда жадидчиларнинг маънавий ва маърифий ғояларини этиборга олиб унинг кундалик фаолиятида фидоийлик, садоқат ва одиллик тамойиллари устуворлигини таъминлашга қаратилиши муҳим ўрин тутди. Шунингдек, унинг шахсий жиҳатларида намунавий ҳулқ атвор, мушоҳадалик, вазминлик, олийжаноблик, бағрикенглик, ҳалоллик каби туйғулар ҳамда жадидчиларимизнинг тарбиявий жиҳатдан амалга ошириб келган чора-тадбирлари ва ғоялари мукамал шаклланиши лозим. Шахсий жиҳатларнинг сифати ва самардорлиги профилактика инспекторида кенг дунёқараш ҳамда теран фикрлаш қобилиятининг шаклланганлик даражасига боғлиқ. Масъулият ва ўз юридан маънавий қарздорлик туйғуси иш фаолиятида қатъийлик ва садоқат фазилатларини шакллантиради. Энг муҳими, профилактика инспектори ўз халқини севиши ва унга меҳр қўйиши аҳолининг дарду ташвишлари билан яшаш туйғусини вужудга келтиради. Шу боис ҳам қайд этилган шахсий фазилатлар замонавий профилактика инспектори қиёфасини яратишга муҳим пойдевор вазифасини ўтайди.

Фойдаланилган Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ

5938-сонли фармони \ \ URL: <https://lex.uz/docs/4740345> (22.12.2020й.да мурожаат қилинган).

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 5938-сонли фармони \ \ URL: <https://lex.uz/docs/4740345> (22.12.2020й.да мурожаат қилинган).

3.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т 2021 й. 18,52 моддалари.

4.Ўзбекистон Республикаси ЖК Махсус қисм Т 2021й

5.Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси Т 2021 й

АСФАЛЬТБЕТОН ҚОПЛАМАЛАРИНИ ҚУРИШ ВА ТАЪМИРЛАШ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР ТУРИНИ ТАНЛАШ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6516666>

Холмуминов Фаррух Панжи ўғли

Магистрант Тошкент Давлат Транспорт Унверситети, Тошкент, Ўзбекистон

Дарабов Музрап

Илмий рахбари: Доцент т.ф.н.Тошкент Давлат Транспорт Унверситети,
Тошкент, Ўзбекистон

АННОТАЦИЯСИ: Республикамиздаги автомобил йўл ва шаҳар кўчалардаги кўпгина мавжуд асфальтобетон қопламали йўллар таъмирлангандан кейин кўп вақт ўтмасдан транспорт воситалардан келиб тушаётган кучлар ва табиий омиллар таъсири натижасида хизмат муддатидан олдин бузилишлар пайдо бўлмоқда. Бузилишларни асосий сабабларидан бири таъмирлаш жараёнида ётқизиладиган асфальтобетон қоришмасига ишлатилган материаллар ва асфальтобетон қоришмаси таркибини танлашда, заводда ишлаб чиқаришда, ҳамда ётқизишда лаборатория назорати яхши йўлга қўйилмаганидандир. Шу билан бирга амалдаги асфальтобетон қопламали йўлларни таъмирлашдаги лаборатория назорати нормалар ҳозирги замон талабларига кўра такомиллаштиришга муҳтождир.

Мақолада асфальтобетон қопламали йўллар таъмирлаш ва ундаги лаборатория назорати ҳақида қисқача маълумот бериб ўтилган.

Калит сўзлар: Асфальтобетон қоплама, асфальтобетон қоришмаси, таъмирлаш ишлари, жорий таъмирлаш, мукамал таъмирлаш, лаборатория назорати.

ANNOTATION: Shortly after the repair of many existing asphalt-paved roads on the roads and city streets of the country, premature breakdowns occur as a result of forces and natural factors coming from vehicles. One of the main reasons for the failures is the lack of laboratory control over the selection of materials used in the asphalt mix and the composition of the asphalt mix, production at the plant, as well as recording during the repair process. At the same time, the norms of laboratory control in the repair of existing asphalt-concrete paved roads need to be improved in accordance with modern requirements.

The article gives a brief information about the repair of asphalt paved roads and laboratory control.

Keywords: A asphalt concrete pavement, an asphalt concrete mix, repair work, current repair, perfect repair, laboratory inspection.

1.КИРИШ

Автомобиль йўлларида қўлланиладиган йўл тўшамаларининг мустаҳкамлиги ва муддатли хизмат кўрсата олишлиги қурилиш жараёнларига боғлиқ бўлиб, ўз ўрнида маҳаллий материалларга ишлов бериш, уларнинг физик-кимёвий хоссаларини талаб даражасига етказиш тўшаманинг мустаҳкамлик назариясига асосланган бўлмоғи лозим. Шунингдек, йўл тўшамаларини қуриш жараёнлари-ни ташкил этишда замонавий машина ва механизмларини тўғри танлаб, улардан оқилона фойдаланиш йўл тўшамаларини қуриш жадаллиги ва қурилиш муддатларига салмоқли таъсир кўрсатади. [1]

Ушбу қўлланмада асфальтбетон қопламали йўлларда, йўл қопламаси конструкцияси катламларининг мустаҳкамлиги ва уни таъмирлаш тўғрисидаги маълумотлар ёритилиб, иш бажариш жараёнлари: қурилиш материалларининг лаборатория назорати ва уларнинг меъёрий қоидаларини, такомиллаштириш баён этилган.

Асфальтбетон қопламали автомобиль йўлларини қуриш ва таъмирлашда ишлатилаётган асфальтбетон қоришмасидаги материаллар сифатли бўлиши ва иш жараёнинг тўғри бажарилиши: Бу автомобиль йўлларининг биз учун узоқ муддатга, самарали хизмат қилишини таъминлайди. Йўл қурилишида лаборатория назоратининг ўрни деганда:


- Биринчидан қурилиш материалларини ишлаб чиқараётган заводларга қурилиш учун сифатли бўлган материалларни танлаб кўрсатиш ва ишлаб чиқарилган материални сифатини ГОСТ талабларига жавоб беришини назорат қилиш.
- Иккинчидан ишлаб чиқарилган материални иш жараёнида технологиянинг тўғри бажарилаётганини назорат қилиб йўлнинг сифатли қурилганлигини назорат қилишдир. Шунинг учун мен асфальтбетон қопламали автомобиль йўларида ишлатилаётган асфальтбетон қоришмаси таркибидаги чақиқтош (шағал)нинг йўл қурилишидаги фойдали тарафлари ва камчилликларини кўрсатиб, биз учун афзал бўлган вариантларни тавсия бермоқчиман.

Асфальтбетон қоришмасини ётқизишдан олдин донадорлик таркиби тўғрилигини ГОСТ 9128 – 2013 талабларига мос эканлигини текшираемиз.

Биринчи ўтказилган тажриба натижалари дарёлардан казиб олинган шағал материал. (чақиқтош)

Битумдан ажратиб олинган минерал қисми элаклар тўпламидан ўтказилиб минерал қисмининг донадорлиги аниқланди

Битум миқдори %-5,55



ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

info@bestarticle.uz

<https://sites.google.com/view/imxu/>


**BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022**

Наименование минеральных материалов	20	15	10	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	0,071
Требования ГОСТ 9128-2013	100	100	100	60	48	37	28	22	16	12
	90	80	70	50	38	28	20	14	10	6
Всего 100%:	98,4	83,9	76,3	53,3	38,7	32,7	24,5	16,4	10	9,1

Дарёлардан казиб олинган шағал материалдан (чақиқтошли асфалтбетон қоришма) .

Қоришмадан лаборатория шароитида гидравлик пресда тайёрлаб олинган наъмуналарнинг натижалари.

Ажратиб олинган минерал қисми элақлар тўпламидан ўтказилиб минерал қисмининг донадорлиги аниқланди.



Наименование минеральных материалов	20	15	10	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	0,071
Требования ГОСТ 9128-2013	100	100	100	60	48	37	28	22	16	12
	90	80	70	50	38	28	20	14	10	6
Всего 100%:	100	100	100	67,53	50,27	40,64	32,19	23,7	13,83	7,23

Тоғжинсиданолинган материал -чақиқтош


Қоришмаолинганнамунанинг оғирлиги, гр-500

ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

info@bestarticle.uz


<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022**



Наименование минеральных материалов	20	15	10	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	0,071
Требования ГОСТ 9128-2013	100	100	100	60	48	37	28	22	16	12
Всего 100%:	95,4	88,94	82,05	61,5	45,86	37,78	29,03	18,34	9,63	4,58

Тоғжинсиданолинган материал -чақиқтош
Лабораторияда тайёрланган наъмуна.



Наименование минеральных материалов	20	15	10	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	0,071
Требования ГОСТ 9128-2013	100	100	100	60	48	37	28	22	16	12
Всего 100%:	95,4	88,94	82,05	61,5	45,86	37,78	29,03	18,34	9,63	4,58

ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

info@bestarticle.uz

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022**

Требования ГОСТ 9128-2013	100	100	100	60	48	37	28	22	16	12
	90	80	70	50	38	28	20	14	10	6
Всего 100%:	100	94,01	87,08	62,31	46,42	36,18	26,68	19,1	12,04	5,86

Юқорида олинган натижалардан шуни айтиш керкки дарёлардан казиб олинган шағал материалдан тайёрланган, ишлаб чиқарилган чақиқтош тоғ жинслари билан тенг сиқилишга ишламади ва тавсия сифатида куйидагиларни айтмоқчиман.

Вид и тип смесей и асфальтобетонных	Размер зерен, мм, не более									
	20	15	10	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	0,075
Горючие:										
- высокоплотные	90-100	70-100 (90-100)	56-100 (90-100)	30-50	24-50	18-50	13-50	12-50	11-28	10-16
- плотные типов:	Непрерывные зерновые составы									
А	90-100	75-100 (90-100)	62-100 (90-100)	40-50	28-38	20-28	14-20	10-16	6-12	4-10
Б	90-100	80-100	70-100	50-60	38-48	28-37	20-28	14-22	10-16	6-12
В	90-100	85-100	75-100	60-70	48-60	37-50	28-40	20-30	13-20	8-14
Г	-	-	100	70-100	56-82	42-65	30-50	20-36	15-25	8-16
Д	-	-	100	70-100	60-93	42-85	30-75	20-55	15-33	10-16
	Прерывистые зерновые составы									
А	90-100	75-100	62-100	40-50	28-50	20-50	14-50	10-28	6-16	4-10
Б	90-100	80-100	70-100	50-60	38-60	28-60	20-60	14-34	10-20	6-12
Холодные типов:										
Бх	90-100	85-100	70-100	50-60	33-46	21-38	15-30	10-22	9-16	8-12

Чақиқтош ва шағалли иссиқ қоришмалар ва зич асфалтбетонлар таркибидаги чақиқтош (шағал) миқдорига қараб куйидаги турларга ажратилади ва биз чақиқтош (шағал) миқдорини ошириш, кум миқдорини камайтириш орқали.

А тур, чақиқтош (шағал) миқдори – 50 % дан 60 % гача;

- 55 % дан 65 % га ошириш

- Б тур, чақиқтош (шағал) миқдори – 40 % дан 50 % гача;
- 45 % дан 55 % га ошириш
- В тур, чақиқтош (шағал) миқдори – 30 % дан 40 % гача.
- 35 % дан 45% га ошириш

Хулоса

Бунда дарёлардан казиб олинган шағал материалдан тайёрланган ишлаб чиқарилган чақиқтош миқдорини асфальтбетон қоришмасининг турига қараб натижалар Б тур учун R_{20} да сиқилишга мустаҳкамлигини $R_{20-4.5-4.8}$ МР гача етказишимиз мумкин. Ҳозирги вақтда дарёлардан казиб олинган шағал материалдан тайёрланган ишлаб чиқарилган чақиқтош R_{20} да сиқилишга мустаҳкамлиги $R_{20-3,5}$ МР ни бўлаётганини кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.Х. Ҳуроқов Автомобиль йўллари таъмирлаш ва сақлаш технологиялари
2. ГОСТ 9128-2013 Смеси асфальтобетонные, полимерасфальтобетонные, асфальтобетон, полимерасфальтобетон для автомобильных дорог и аэродромов. Технические условия
3. ГОСТ 12801-98 Материалы на основе органических вяжущих для дорожного и аэродромного строительства. Методы испытаний
4. ШНҚ 2.05.02-07 Автомобил йўллари
5. ШНҚ 3.06.03-08 Автомобил йўллари

6.ГОСТ 8269.0-97 Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ. Методы физико-механических испытаний.

7.ГОСТ 8267-93 Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ. Технические условия.

8.ГОСТ 32703-2014. Дороги автомобильные общего пользования. Щебень и гравий из горных пород. Технические требования

**Адвокатлар томонидан кўрсатилган юридик ёрдам учун давлат
хисобидан ҳақ тўлаш механизмини такомиллаштириш**

Бабаджанова Гулайим

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6521069>

Аннотация: Мақолада ишни судга қадар юритиш босқичида гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчига кўрсатилган юридик ёрдам учун ҳақ тўлаш механизмининг аҳамияти, ушбу механизмни такомиллаштириш масалари кўриб чиқилган.

Таянч сўзлар: адвокат, ишни судга қадар юритиш, ҳимоя ҳуқуқи, ҳимоячи жалб қилиш, бепул юридик ёрдам.

Ҳозирги шиддат билан ривожланаётган даврда халқаро миқёсда инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларни ҳимоя қилиш асосий масалага кўтарилмоқда. Шу сабабли ҳам, ҳаётнинг барча жабҳаларида, хаттоки, тергов жараёнида ҳам шахснинг қонуний ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш биринчи ўринни эгаллайди.

Жиноятларнинг олдини олиш, содир этилган жиноятларни фош этиш, айбсиз шахсни жавобгарликка тортмаслик, қонунга хилоф равишда жавобгарликка тортилган шахсларни реабилитация этиш, ишни судга қадар юритишда тарафларнинг тенглигини таъминлаш, жиноят натижасида етказилган мулкий зиённи қоплаш, жиноят содир этган шахснинг айбига иқроп бўлиб тергов органлари билан ҳамкорлик қилгани учун жазодан тўлиқ ёки қисман озод қилиш, процесс иштирокчиларининг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш тенденциясига эътибор кучаймоқда.

Мамлакатимизда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш мақсадида изчиллик билан амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида почта-телеграф жўнатмаларини хатлаб қўйиш ва эксгумация тергов ҳаракати учун санкция бериш ҳуқуқи судларга ўтказилди, жиноят содир этишда гумон қилинган шахсларни ушлаб туриш муддати 72 соатдан 48 соатга қисқартирилди ҳамда ушбу муддат шахснинг амалда ушланганидан бошлаб ҳисобланадиган бўлди, ҳимоячи иштирок этиши шарт бўлган ҳолатлар рўйхати кенгайтирилди, ҳимоячидан воз кечиш жараёни видеоёзувга қайд этилиши шарт қилиб қўйилди, дастлабки эшитув институти жорий этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: “Энди суд орқали инсонларнинг ҳуқуқи тикланганини эътироф этиш билан чекланиб

колмасдан, нима сабабдан судгача бўлган тергов жараёнида инсон ҳуқуқ ва эркинликлари бузилган, деган саволни ҳам кундаланг қўядиган, тазийқлар учун жавоб берадиган вақт келди” деб таъкидлаши бу масаланинг нақадар долзарблигини ёритиб беради.

Республикамизда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, энг аввало, жиний тажовузлардан ҳимоя қилишнинг ишончли кафолатларини таъминлашга, шунингдек, уларнинг шаъни ва қадр-қиммати камситилишига, қонуний манфаатлари чекланишига йўл қўймасликка қаратилган кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Олиб борилаётган суд-ҳуқуқ ислохотларининг асосига қонун устуворлиги, фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, инсонпарварлик, адолатлилик ва айбсизлик презумпцияси каби конституциявий принциплар пойдевор қилиб қўйилган. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиша бўйича ҳаракатлар стратегиясининг ижроси юзасидан суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллиги ва эркинлигини ошириш, “Хабеас корпус” институтини қўллашни кенгайтириш, коррупцияга қарши курашнинг самарали тизимини яратишга қаратилган қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Ушбу қоида Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг

26-моддасида қўйидагича намоён бўлган, яъни “Жиноят содир этганликда айбланаётган ҳар бир шахснинг иши судда қонуний тартибда, ошкора кўриб чиқилиб, унинг айби аниқланмагунча у айбдор ҳисобланмайди. Судда айбланаётган шахсга ўзини ҳимоя қилиш учун барча шароитлар таъминлаб берилади”. Бу ҳуқуқ Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал

Кодексининг 24-моддасида “Химояланиш ҳуқуқи суриштирувчи, терговчи, прокурор, суд зиммасидаги гумон қилинувчига, айбланувчига ва судланувчига унга берилган ҳуқуқларни тушунтириб бериш ҳамда у ўзига қўйилган айбловдан химояланиш учун қонунда назарда тутилган барча восита ва усуллардан фойдаланишда ҳақиқий имкониятга эга бўлишига қаратилган чора-тадбирлар кўриш мажбурияти билан таъминланади” деб ўз ифодасини топган.

Шу билан бирга ЖПКнинг 64-моддасида “Суриштирувчи, терговчи, прокурор ёки судья гумон қилинувчига, айбланувчига, судланувчига, шунингдек жабрланувчига, фуқаровий даъвогарга, фуқаровий жавобгарга ва уларнинг вакилларига берилган ҳуқуқларини тушунтириб бериши ва бу ҳуқуқларни амалга ошириш имкониятларини таъминлаши шарт” деб келтирилган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Олий Суд Пленумининг 2003 йил 19 декабрдаги 17-сонли қарорида қўйидагича қоида белгилаб берилган: “Гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчининг химоя ҳуқуқини таъминлаш конституциявий қоида ҳисобланади ва жиноят судлов ишларини юритишнинг барча босқичларида унга қатъий риоя қилиниши керак. Шунинг учун уларнинг процессуал ҳуқуқларига оғишмай риоя этиш, иш ҳолатларини ҳар томонлама, тўла ва холисона ўрганиш, гумон қилинувчи ва судланувчини айбловчи ва оқловчи, шунингдек уларнинг жавобгарлигини оғирлаштирувчи ва енгиллаштирувчи ҳолатларни аниқлаш, иш бўйича мавжуд бўлган тахминларни синчиклаб текшириш, далиллар тақдим этиш ва уларни келтиришда процесс иштирокчиларининг тенг ҳуқуқларини таъминлаш зарур”.

Мамнуният билан қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Республикаси ЖПК да гумон қилинувчининг юридик ёрдам олишга оид ҳуқуқлари МДХ бошқа давлатлари қонунчилигига нисбатан анча кенг бўлиб, жиноят процессининг дастлабки босқичида шахснинг қонуний манфаатларини кафолатлашни назарда тутди . ЖПКнинг 49-моддасида: Ҳимоячининг ишда иштирок этишига жиноят процессининг ҳар қандай босқичида, шахс ушланганида эса унинг ҳаракатланиш эркинлигига бўлган ҳуқуқи амалда чекланган пайтдан бошлаб рухсат этилади деб белгиланиши жиноят процессининг дастлабки босқичидан бошлаб гумон қилинувчи ва айбланувчининг ҳуқуқлари ҳимоя қилинишига хизмат қилади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг “Адвокатлик фаолиятининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида”ги Қонунида давлат ҳар бир фуқаронинг тенг ва эркин юридик ёрдам олиш ҳуқуқини таъминлаш учун адвокатура билан ҳамкорлик қилади деб эътироф этилишини ҳам эътиборга олиш жоиз.

Бундан хулоса қилишимиз мумкинки, жиноят процессуал фаолиятининг муҳим йўналишларидан бири жиноят ишини тергов қилишда гумон қилинувчи ва айбланувчи сифатида жалб қилинган шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдир.

Шу сабабли ҳам қонунчилигимизда гумон қилинувчи, айбланувчи, судланувчининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини қонунда кўрсатилган тартибда ҳимоя қилишни амалга ошириш тартибини белгилашда ушбу шахсларнинг давлат ҳисобидан ҳимоя ҳуқуқини таъминлаш чоралари ҳам назарда тутилган.

Фойдаланилган адабиётлар: Ш.М. Мирзиёев “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”, “Буюк келажагимизни мард ваолийжаноб халқимиз билан бирга кураамиз”, “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъайт билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”, И.А. Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч”, “Биздан озод ва обод Ватан қолсин”, “Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан кураамиз”, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т-2021 йил 26-116 моддалари, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси 2021-йил 1-апрельгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан, Ўзбекистон Республикасининг “Адвокатура тўғрисида”ги қонуни, Ўзбекистон Республикасининг “Адвокатлик фаолиятинининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида”ги қонун. 1998 йил 25 декабрь

**ЎҒИРЛИКНИНГ САБАБ ВА ШАРТ-ШАРОИТЛАРИНИ
ЎРГАНИШНИНГ
АҲАМИЯТИ ВА УНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ**

Базарбаева Инобат Динмухаммед кизи

ИИБ Академияси курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6518039>

Аннотция: Ўғирликнинг сабаб ва шарт-шароитларини ўрганишнинг аҳамияти ва унинг профилактикаси бўйича фаолиятининг тушунчаси ва аҳамияти, ўзига ҳос хусусиятлари, ташкилий-ҳуқуқий асослари, процессуал жиҳатлари, расмийлаштириладиган ҳужжатлар, фаолиятини ташкил этиш масалалари ёритилган. Профилактика инспекторларининг ўғирлик жиноятларининг умумий, махсус, яқка тартибдаги, виктимологик профилактикаси бўйича

фаолятини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари, профилактика инспекторининг ўғирлик жиноятларининг умумий рофилактикаси фаоляти бўйича таклиф тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: ўғирлик, жиноят, ҳуқуқбузарлик, умумий профилактика, махсус профилактика, яқка тартибдаги профилактика, виктимологик профилактика.

Ҳуқуқбузарликлар рофилактикасида самарали натижаларга эришиш, миқдорини ва салбий оқибатларини энг паст даражагача камайтириш учун уларнинг содир этилишини тақазо қилувчи, белгилаб берувчи сабаб ва шароит сифатида таъсир кўрсатувчи ҳодиса, воқеа ва жараёнларни, улар ўртасидаги сабабий боғланишни ўрганиш керак. Ижтимоий ҳодиса ҳисобланган ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишини ва ўсиши тақазо этадиган сабаб ва шароитлар ҳам ижтимоийдир. Шунинг учун ҳам ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шароитларини ўрганишда диалектика таълимотига асосланамиз. Диалектика таълимотга кўра, табиатдаги, коинотдаги ва жамиятдаги барча воқеа, ҳодиса ва жараёнлар бир-бири билан дунёвий боғлиқликдадир. Воқеалар, ҳодиса ва жараёнлар ўртасидаги боғлиқликлар турли шаклларда бўлиб, жуда ҳам мураккабдир. Шунинг учун ҳам, профилактика инспекторлари ўғирлик ҳуқуқбузарликларининг содир этилишига қарши барвақт курашиш учун ҳуқуқбузарликнинг умумий рофилактикасини олиб

боришда ҳуқуқбузарликнинг сабаб ва шароитларини аниқлаш, ўрганиш ва тушунтириб бериш учун ушбу вазифаларни бажараётган ҳодиса, воқеа ва жараёнлар ўртасидаги боғлиқликларни тушуниш лозим. Ҳуқуқбузарликларни аниқлаш уларга барҳам бериш, шунингдек уларнинг содир этилиш сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шаротларни аниқлаш, бартараф этиш мақсадида қўлланиладиган ҳуқуқбузарликлар умумий, яқка, махсус тартибдаги ва виктимиолагик профилактикасининг ҳуқуқий, ижтимоий, ташкилий ва бошқа чора тадбирлари тизими - ҳуқуқбузарликлар профилактикасидир.

Шунга кўра, давлат амалга оширадиган умумий чора-тадбирларни

қуйидаги бешта гуруҳга бўлиш мақсадга мувофиқдир: а) иқтисодий; б)

ташкилий; в) техникавий; г) ҳуқуқий; д) тарбиявий чора-тадбирлар.

Таъкидлаш жоизки, ушбу чора-тадбирларнинг ҳар бири мустақил бўлгани ҳолда, уларнинг самарадорлигини таъминлаш учун комплекс ҳолда ташкил этилиши даркор.

Шу нуқтаи назардан ўзганинг мулкани талон-торож қилиш қуйидаги ҳолларда содир этилган бўлса, яширин ҳисобланади:

1) содир этилаётган қилмишни ҳеч ким кузатиб турмаган бўлса ва

қилмиш содир этилаётган жойда ҳеч ким бўлмаса;

2) мулк жабрланувчи ёки бошқа бегона шахсларга сездирмасдан олинган

бўлса;

- 3) мулк олинишини кузатиб турувчи жабрланувчи ёки бошқа шахслар содир этилаётган қилмишнинг хусусияти ва аҳамиятини тушунмаган бўлса;
- 4) айбдорнинг қилмишини кузатиб турган жабрланувчи ёки бошқа шахслар содир этилаётган қилмишнинг хусусиятига тўғри баҳо берса ва тушунса-да, бироқ айбдор ушлаб олинмасдан, у ўзининг ҳаракатларини яширин содир этяпман деб тасаввур қилса;
- 5) айбдорнинг қилмишини кузатиб турувчи ва ўзининг мавжудлигини яширмаётган у ёки бу шахслар содир этилаётган қилмиш хусусиятига тўғри баҳо берса ва тушунса-да, бироқ улар айбдор учун бегона шахслар бўлмаса (яқин кишилар ёки қариндошлар).
- Агар қилмишда айбдор ўзининг қариндошлари ёки танишларининг жим туриши, розилигини кўзда тутиб ёхуд имо-ишорали розилигини олиб, уларнинг кўз ўнгида ўзганинг мулкини олган бўлса, қилмиш яширин деб баҳоланади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ухлаб ётган ёки хушидан кетган шахснинг мулкини ўғирлаш ҳам яширин талон-торож ҳисобланади.
- Мулкни очикдан-очик ўғирлашни яширин равишда талон-торож қилишдан фарқлашда уни жабрланувчига қилинган зўрлик даражаси билан эмас, балки айбдор ҳаракатларининг хусусиятига кўра фарқлаш керак. Чунки

аксарият ҳолларда айбдор ўзганинг мулкани жабрланувчига зўрлик ишлатилганидан сўнг олиб қўяди. Масалан, икки нафар шахс жабрланувчидан қасос олиш ниятида уни уриб дўппослаш пайтида жабрланувчи ҳушини йўқотгач, улардан бири жабрланувчининг қўлидаги соатини олиб кетади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига мувофиқ, ўғрилиқни жиноий жавобгарлик назарда тутилган топилмаларни ўзлаштириб олишдан фарқлаш керак. Ушбу масалани ҳал қилишда, биринчидан, «мулкка эгалик қилиш ҳолатлари» тушунчасини ҳамда иккинчидан, «йўқотилган мулк» ва «мулкдорнинг ёдидан чиққан мулк» ўртасидаги фарқни аниқлаш лозим.

Агар йўловчи вокзалда оғир чемоданни муайян вақтга қаровсиз қолдириб, ошхонага ёки бошқа жойга бориб келган вақт мобайнида мазкур чемодан бегона шахслар томонидан эгалланган бўлса, шахснинг ҳаракатлари ўғрилиқ сифатида баҳоланиши керак. Ёддан чиққан мулк мулкдор учун аниқ жойда бўлади ва у мулкни қайтариш ёки ўша жойга қайтиб бориш имкониятига эга бўлади.

Йўқотилган мулк – мулкдорга эгалик қилишнинг айнанлаштириш белгиларига эга бўлмаган ва мулкдор учун мулкнинг турган жойи номаълум бўлган мулкдир.

Йўқотилган мулкни ўзлаштириб олиш жиноий жавобгарликни тақозо этмайди, бироқ мулкнинг эгаси фуқаровий-ҳуқуқий тартибда мулкни қайтариб олишни талаб қилиш ҳуқуқига эга бўлади. Топиб олинган мулкни яшириш, Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги

кодексининг 62-моддасига асосан, яъни топиб олинган ёки тасодифан қўлга тушиб қолган мулкнинг қиймати энг кам иш ҳақининг уч бараваридан ортиқ бўлган ўзганинг мол-мулкани яшириш каби маъмурий жавобгарликка сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Т.П.Ахмедов. Ички ишлар органлари профилактика хизмати фаолиятини бошқаришни ташкил этиш ва такомиллаштириш-Т. 2004 й.
2. Н.Т.Муҳамедбаева. Шаҳар ИИОнинг жиноятчиликни олдини олиш бўйича жамоатчилик ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорликни ташкил этиш ва такомиллаштириш йўллари-Т 2003.
3. Матлюбов Б.А., Турсунов А.С. ва бошқ. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси / Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – 308 б.
4. М. З. Зиёдуллаев, Ж.С Мухторов, Ж.Х.Юлдашев ва бошқ.; масъул муҳаррир И.Исмаилов Ички ишлар органлари фаолияти: ИИВ академик лицейлари учун дарслик /– Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.

**Солиқ маъмурчилиги орқали рақобат муҳитини ривожлантириш
масаласига илмий-методологик ёндашувларга оид**

Донабоев Жаҳонгир Хусан ўғли

мустақил тадқиқотчи

Email: j.donaboyev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517337>

Аннотация: Мақолада мамлакат ичидаги рақобат муҳитини ривожлантиришда самарали механизм сифатида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш ва соддалаштириш муҳим ўрин тутишлиги юзасидан бирқанча олимларнинг соҳага оид илмий қарашлари ёритилган.

Шунингдек, солиқ маъмурчилиги, солиққа тортиш тизими, солиқларнинг корхоналар молия-хўжалигидаги ўрни, солиқ юқини пасайтириб бориш орқали хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги унинг номутаносиб тақсимланишини бартараф этиш масалаларига тўхталиб ўтилгандир.

Калит сўзлар: рақобат муҳити, солиқ юки, солиқ, солиқ маъмурчилиги, солиқ тортиш тартиби, тадбиркорлик субъектлари, солиқ тушумлари, солиқ имтиёзлари, солиқ ставкаси.

Abstract: The article discusses the scientific views of a number of scientists on the importance of improving and simplifying tax administration as an effective mechanism for the development of a competitive environment in the country.

The issues of tax administration, taxation system, the role of taxes in the financial and economic activities of enterprises, the elimination of its unequal distribution among business entities by reducing the tax burden were also discussed.

Keywords: competitive environment, tax burden, tax, tax administration, tax regime, business entities, tax revenues, tax incentives, tax rate.

Мамлакатимизда иқтисодиёт соҳасида тадбиркорлик муносабатларининг тобора ривожланиб бораётганлиги, маҳсулот бозорида товар, иш ва хизмат турларининг сифат жиҳатдан яхшиланишига, нарх-навонинг истеъмолчи эҳтиёжидан келиб чиқиб белгиланишига олиб келмоқда. Бу ўз навбатида бозорда эркин рақобат муҳитининг қанчалик даражада ижобий ривожланаётганлиги ва тадбиркорлик субъектларининг эркин фаолият олиб бориш механизмининг самарадорлиги натижаси сифатида қараш мумкин.

Илмий жиҳатдан миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини шакллантириш ва ривожлантиришнинг М.Портер концепциясига кўра, мамлакатнинг рақобат жиҳатдан устунликлари “миллий ромби”нинг тўртинчи элементи

ички бозорда кескин рақобатнинг мавжудлиги фирмаларни ўз фаолиятини такомиллаштиришга, ишлаб чиқаришни кенгайтириш учун ташқи бозорларга чиқишга ундаши асосланган.

Кучли ички рақобат муҳитида тобланган фирмалар ташқи бозорларда ҳам қийинчиликларсиз муваффақиятга эришиши назарий жиҳатдан исботланган [1].

Рақобат муҳитига оид бирқанча олимлар томонидан илмий ёндашувлар олиб борилган бўлиб уларга қуйидаги олимларни тарифларини киритиш мумкин.

Жумладан, Курносова Е.А “рақобат муҳити-бу бозор субъектлари фаолиятини мувофиқлаштиришнинг институционал шартлари. Ушбу таърифдан келиб чиқадики, "рақобат муҳити" тушунчаси ривожланган инфратузилма, молия, пул-кредит сиёсати ва тегишли институтларнинг озми-кўпми бирлаштирилган воситаларига ега бўлган давлат ёки минтақавий ташкилот билан боғлиқ” [2].

Ленгинович С.Г “рақобат муҳити-бу бошқарувнинг қонуний белгиланган меъёрлари ва қоидаларига асосланган, белгиланган натижаларни амалга ошириш натижаларини тезкор monitoring қилиш таъсири остида ўзгариб турадиган рақобатбардош тартиб мақсадлар” [3].

Давлатнинг иқтисодиётга аралашшини, уни тартибга солиш лозимлигини асослаган кейнсчилик назарияси ва унинг асосчиси Джон Мейнорд Кейнс ўз навбатида солиқларни асосий тартибга солувчи восита деб қарайди ва солиқларнинг фискал аҳамиятига эътибор қаратилиши билан уларнинг тартибга солувчи аҳамияти ҳам ўрганила бошланди. Нобель мукофоти

соҳиби Пол Самуэльсон ҳам солиқларга иқтисодий тартибга солувчи ва рағбатлантирувчи асосий воситалардан бири сифатида қарайди [4].

Неокейнсчилик йўналиши вакиллари бўлган Л. Харрот, Н. Кальдор, А. Хансен ва П.Самуэльсонларнинг фикрига кўра, солиқлар иқтисодий тартибга солиш функциясига эга. Улар солиқ ставкаларини ўзгартириш ва турли имтиёзлар бериш йўли билан бу функцияни бажариш мумкин деб ҳисоблайдилар [5].

Инглиз иқтисодчиси С.Паркинсон сўзи билан айтганда: “Солиқлар кўхнадир – худди дунёдек, унинг юзага келишида қачондир бир маҳаллий кўмандон ўз худудида жойлашган дарё ёки тоғдан савдогар ҳамда саёҳатчи ўтса улардан ҳақ олиши сабаб бўлган” [6].

Солиқ маъмуриятчилиги - бу ваколатли органлар ва бошқарувнинг солиқлар ва йиғимлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини амалга оширишга, солиқ тизими ва солиқ назоратининг самарали ишлашини таъминлашга қаратилган фаолиятidir. Солиқ маъмурияти солиқ йиғиш ташкил, рўйхатга олиш учун қоидалар ишлаб чиқиш учун солиқ ҳисобот таркибини аниқлаш дансолиқ тўловчиларнинг [7].

Солиқ маъмуриятчилиги - ваколатли органларнинг солиқ назорати функцияларини амалга ошириш ва солиққа оид ҳуқуқбузарлик учун айбдор шахсларни жавобгарликка тортиш билан боғлиқ фаолияти [8].

Ўзбек олими Ш.Тошматов ўз тадқиқотларида “Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари”ни ўрганган. Олим ўз изланишларини, корхоналар тўлайдиган солиқларнинг

моҳияти ва зарурлиги, солиқлар воситасида корхоналар иқтисодий фаоллигини рағбатлантириш йўллари борасидаги муаммоларни таҳлил қилишга бағишланган.

Айнан ушбу олимнинг тадқиқотда мамлакатимизда илк бор корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтиришнинг устувор йўналишлари бўйича масалалар тадқиқ этилган [9].

“Ҳозирги вақтда глобал миқёсда солиқ сиёсатининг энг кўзга кўринган масалаларидан бири - рақамли иқтисодиётни солиққа тортиш режимини танлаш ва хўжалик юритувчи субъектларнинг рақамли фаолиятдан олинган даромадларини тақсимлаш жараёнининг автоматлаштирилган тизимини яратиш ҳисобланади” [10].

Республикаимизда “янги солиқ сиёсати доирасида иш ҳақиға солиқ юки 1,5 баробар камайтирилди. Натижада расмий секторда ишлаётганлар сони йил давомида 500 мингтага кўпайди. Қўшилган қиймат солиғи ставкаси 20 фоиздан 15 фоизга туширилди. Бунинг ҳисобидан ўтган йили солиқ тўловчилар ихтиёрида 2 триллион сўм қолди.

Жорий йилда бу рақам 11 триллион сўмни ташкил этиши кутилмоқда. Бир йилда тадбиркорлар ихтиёрида шунча маблағ қолиши, албатта, уларга ўз бизнесларини ривожлантириш учун жуда катта қўшимча имкониятлар яратади” [11]. Бу эса ўз навбатида мавзунинг бугунги кундаги ислохотларнинг долзарб масалаларидан бири эканлиги кўрсатмоқда.

Республикаимизда кўп йиллар рақобат муҳитини ривожлантиришда солиқ маъмурчилигидаги солиққа тортиш тизимини соддалаштиришга доир солиқ

сиёсатини олиб борилиши иқтисодчи олимлар томонидан соддалаштирилган солиқ тизимини назарий ва амалий жиҳатдан атрофлича тадқиқ этилишига сабаб бўлди.

Жумладан, А.Ботиров кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш йўлларини, [12] Б.Санакулова кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш масалаларини [13], Ж.Ўрмонов тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалаларини [14], Қ.Тўхсанов кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиққа тортишни такомиллаштириш масалаларини тадқиқ қилган [15].

Иқтисодчиларни соддалаштирилган солиқ тизимига доир қарашларининг таҳлили кўсатмоқдаки, улар соддалаштирилган солиқларни турли жиҳатдан ўрганган, таҳлил қилган ва баҳо берган. Мавжуд муаммоларни бартараф этиш юзасидан таклиф-тавсиялар билдирган. Лекин мамлакатимиз солиқ амалиётида қўлланилаётган айланмадан олинадиган солиқни хусусиятлари ва давлат бюджети даромадларини шакллантиришдаги аҳамиятини оширишга доир тадқиқотлар етарлича амалга оширилмаган.

Айланмадан олинадиган солиқни давлат бюджети даромадларини шакллантиришдаги аҳамиятини ёритишда унинг шаклланиши ва ривожланишини, бу борадаги мамлакатимиз ва жаҳон тажрибасини тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга эга.

Солиққа тортишнинг ривожланиш босқичларида солиқларни соддалаштириш масаласи доимий эътибор марказида бўлган.

“ давлат бюджети даромадларини шакллантиришда кўплаб солиқлар ўрнига шундай бир ягона солиқ жорий этиш ҳисобига давлат бюджетини зарур маблағлар билан таъминлаш лозимлиги борасидаги ғоя асосида ягона солиқ назарияси вужудга келди, ривожланди ва бугунги кунга келиб, кўплаб мамлакатлар солиқ амалиётида қўлланилиб келинмоқда” [16].

Рақобат муҳитини ривожлантиришда солиқ маъмурчилиги борасида жаҳонда ҳам турли ҳил қараш ва ёндашувлар шаклланганлиги таҳлил этилди. Шунинг таъкидлаш лозимки, мамлакатимизда рақобат муҳитини яхшилашда солиқ маъмурчилиги роли бўйича илмий қарашлар энди шаклланмоқда.

Шунингдек, рақобат муҳитини ривожлантиришда солиқ маъмурчилигининг рўли билан боғлиқ равишда, мамлакатимизда ушбу соҳага тегишли ҳуқуқий база шаклланиб бормоқда. Шу билан бир қаторда юридик шахсларни солиққа тортиш амалиёти ривожлантиришда Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси томонидан бир қанча ишлар амалга ошириб келинмоқда. Аммо мавжуд йўналиш кам тадқиқ этилганлиги ва ўзига ҳослигини инобатга олган ҳолда солиқ маъмурчилигини соддалаштиришда муаммолар сақланиб қолмоқда.

Фойданилган адабиётлар рўйхати:

1. М.Портер концепцияси бўйича мамлакатнинг рақобат жихатдан устунликлари“миллий ромби”нинг яна 3 та элементи келтирилган бўлиб, улар:

1. Меҳнат, материал, билим, пул, инфратузилма ресурслари билан таъминланиш;

2. Мамлакатда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларга ички ва ташқи бозорлардаги талабнинг ҳажми, таркиби ва уларнинг ўзгариши;

3. Рақобатбардош ҳамкор тармоқларнинг мавжудлиги.

2. Курносова Е.А. Обеспечение конкурентоспособности предприятий сферы услуг: формирование инновационного поведения // Российский экономический интернетжурнал. 2009. № 1. С. 598–607.

3. Ленгинович С.Г. Конкурентная среда: методы исследования // Экономическая наука и практика: материалы III междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2014 г.). Чита: Издательство Молодой ученый, 2014. С. 88-91.

4. Жўраев А., Мейлиев О., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент Молия институти, 2004. – 166 б.

5. Жўраев А., Мейлиев О., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент Молия институти, 2004. – 166 б.

6. Паркинсон С. Закон и доходы. – М.: ПКК. Интерконтакт, 1992 – с 100.

7. Игнатова Т.В., Пономарев А.И. Налоговое администрирование в Российской Федерации. М.: Финансы и статистика, 2006;

8. Орлов М.Ю. Совершенствование налогового администрирования: миф или реальность? // Ваш налоговый адвокат, 2006. №6;
9. Ш. Тошматов . Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари.-Докторлик иши. Автореферат. Т.: 2008.
10. Paying Taxes 2019. A unique report by PwC and the World Bank Group.
<http://www.pwc.com/gx/en/payingtaxes/pdf/pwc-paying-taxes-2019.pdf>
11. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент шаҳри 2020 йил 24 январь, <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
12. Ботиров А. А. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш йўллари: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертасия автореферати. – Т.: БМА, 2012.- 23 б.
13. Санакулова Б.Р. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш: докторлик диссертасияси автореферати. – Т.: БМА, 2016.- 29 б.
14. Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари: иқтисодиёт фанлари доктори (Дсс) диссертасияси автореферати. – Т.: БМА, 2018.- 70 б.
15. Тўхсанов Қ.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиққа тортишни такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари

**ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR**

info@bestarticle.uz

<https://sites.google.com/view/imxu/>

**BEST ARTICLE
RESPUBLIKA ILMIY –
ONLAYN
KONFERENSIYASI
2022**

бўйича фалсафа доктори (Пхд) диссертасияси автореферати. – Т.: ТДИУ,
2019.- 61 б.

Рақобат муҳити ва солиқ маъмурчилигига оид тушунча ва назариялар

Донабоев Жаҳонгир Хусан ўғли

мустақил тадқиқотчи

Email: j.donaboyev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517381>

Аннотация: Мақолада жаҳон амалиётига кўра, рақобат муҳитини ривожлантиришнинг самарали механизмида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш муҳим ўрин тутди. Дунё иқтисодиёти жадал суръатлар билан интеграциялашаётган ва давлатлар ўртасида савдо алоқалари кенгаяётган ҳозирги шароитда ривожланган мамлакатларда солиқ маъмурчилиги орқали иқтисодиётда соғлом рақобат муҳитини яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Калит сўзлар: рақобат муҳити, рақобатбардошлик, солиқ, солиқ маъмурчилиги, солиқ юки, тадбиркорлик субъектлари, солиқ тушумлари, солиқ имтиёзлари, солиқ ставкаси.

Abstract: According to the world practice, the improvement of tax administration plays an important role in an effective mechanism for the development of a competitive environment. In today's world, where the world economy is rapidly integrating and trade relations between countries are expanding, special attention is

paid to creating a healthy competitive environment in the economy through tax administration in developed countries.

Keywords: competitive environment, competitiveness, tax, tax administration,, tax burden, business entities, tax revenues, tax incentives, tax rate.

Глобализация жараёнининг чуқурлашуви шароитида миллий иқтисодиётларнинг ўзаро боғлиқлигини кучайиши, жаҳон бозорларида рақобат ва молиявий-иқтисодий беқарорликнинг ортиши, мамлакатларнинг рақобатбардошликиги ўстириш ҳисобига барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлаш йўллари топишга ундайди. Рақобатбардошликнинг юқори даражаси мамлакат иқтисодий салоҳиятини оширади, аҳолининг турмуш даражаси ўсади ва сифатининг яхшиланишини таъминлайди.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.Каримов 2013 йилдамамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузасида, “Биз ҳанузгача эскича фикрлаш қолипидан чиқа олмаяпмиз, ўз умрини ўтаб бўлган, эски ва яроқсиз планли-тақсимот тизими қолдиқлари, афсуски, бутунлай барҳам топгани йўқ.

Кескин рақобат шароитида солиқ имтиёзлари ва протекционистик чоралар ҳисобидан яшаш мумкин, деган нотўғри қараш миямизга чуқур ўрнашиб қолган. Бундай чоралар, аввало, корхоналар манфаатига зарар етказиб, уларнинг даромадини камайтириш билан бирга, давлат бюджетига сезиларли

равишда зиён етказиши ҳақида ўйлаб ҳам кўрмаймиз. Энг муҳими, ҳар қандай имтиёз ва преференциянинг умри узок эмаслигини эсимиздан чиқармаслигимиз зарур. Фақат шундай имтиёз ва преференцияларга таяниб қолган корхоналар очик иқтисодиёт шароитида хорижий компаниялар билан нафақат ташқи, балки ички бозорда ҳам рақобатлаша олмайди”, деб таъкидлаган эдилар.

Рақобат-иқтисодий категория сифатида бозор иқтисодиётининг ва умуман товар хўжалигининг энг муҳим белгиси, уни ривожлантириш воситаси, бозор механизмининг асосий таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Бозор иқтисодиёти ўзининг етуқлик даражаси ва ривожланиш хусусиятларидан қатъий назар рақобатнинг мавжуд бўлишини тақозо этади.

Шу билан бирга, бозор иқтисодиёти ривожланиб бориши билан рақобатчилик муносабатлари ҳам такомиллашиб, ўз шакллари ни ўзгартириб боради. Рақобат тушунчаси шу қадар серқирраки, уни қандайдир ягона умумий таъриф билан қамраб олиш мумкин эмас. «Рақобат» тушунчасини аниқлаштиришнинг баъзи бир нуқтаи назарларига тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Рақобат тушунчаси турли изоҳли луғат ва маълумотномаларда турлича таърифланади.

Ҳар бир бозор ўзининг хусусиятларига эга бўлишига қарамай, рақобатнинг моҳияти унинг табиати ва интенсивлигини очиб бериш ва баҳолаш имконини берувчи ягона концепция орқали ифодаланиши мумкин. Таниқли америкалик олим М.Е.Портернинг тадқиқотларига кўра, алоҳида бозордаги рақобатнинг ҳолатини бешта рақобат кучи орқали тавсифлаш мумкин:

1. Рақобатлашувчи сотувчилар ўртасидаги беллашув (хар бир фирма рақобат афзалликларидан фойда олиш ва қулай мавқега эга бўлиш учун ўзининг шахсий рақобат стратегиясига амал килади).

2. Бир-бирини ўрнини босувчи ва нарх нуқтаи назаридан рақобатбардош бўлган товарлар ўртасидаги рақобат (ўрнини босувчи товарлар томонидан юзага келган хавф туфайли вужудга келган рақобат кучлари).

3. Янги рақобатчиларнинг пайдо бўлиш хавфи (янги рақобатчилар пайдо бўлиши хавфи туфайли вужудга келган рақобат кучлари).

4. Мол етказиб берувчиларнинг иқтисодий имкониятлари ва савдо қобилиятлари (мол етказиб берувчиларнинг имкониятлари ва савдо қобилиятлари туфайли вужудга келган рақобат кучлари).

5. Харидорларнинг иқтисодий имкониятлари ва савдо қобилиятлари (харидорларнинг иқтисодий имкониятлари ва савдо қобилиятлари туфайли вужудга келган рақобат кучлари).

Шундай қилиб, рақобат кўп қиррали иқтисодий ҳодиса бўлиб, у бозорнинг барча субъектлари ўртасидаги мураккаб муносабатларни ифодалайди ва бозор субъектлари иқтисодий манфаатларининг тўқнашувидан иборат бўлиб, улар ўртасидаги юқори фойда ва кўпроқ нафтлиликка эга бўлиш учун курашни англатади [1].

Муайян бозордаги рақобат муҳити бу бозорда хўжалик юритувчи субъектларнинг фойда олиш имкониятларини аниқлаш ва улардан

фойдаланиш қобилиятини белгиловчи омиллар мажмуидир. Ушбу омилларнинг энг муҳими бозорга кириш ва бизнес юритиш учун маъмурий тўсиқлар даражаси, ташқи савдо тўсиқлари, инфратузилмани ривожлантириш ва мавжудлик даражасини ўз ичига олади.

Ҳозирги вақтда рақобат муҳитининг ҳолати маъмурий тўсиқлар, божхона тарифларининг юқори даражаси ва солиқ юқининг нотенг тақсимланиши билан ажралиб туради, улар кўпинча протекционистик ёки фискал мақсадларга хизмат қилмаса ҳам ишлайди. Инфратузилмани ривожлантириш суръати ва сифати ўртасидаги бизнес эҳтиёжларига, шу жумладан табиий монополиялар салоҳиятининг етишмаслигига жиддий тўсиқ ҳам ҳисобланади.

Рақобат муҳити - товарлар ва хизматлар ишлаб чиқарувчилари истеъмолчилар, етказиб берувчилар, шериклар ва бозорда устун мавқега ега бўлиш учун кураш ҳолатида бўлган ҳозирги вазият.

Ўзбекистон Республикаси бозор муносабатларини ривожлантириш жараёнининг муҳим босқичдан ўтмоқда. Иқтисодиётнинг барча тармоқларида тадбиркорлик фаолияти ва давлатнинг билвосита башқаришига асосланган ҳолда рақобатчилик механизмига таяниб чуқур тузилмавий ислохотлар амалга оширилмоқда. Билвосита бошқариш ҳақида гап кетганда, авваламбор, иқтисодий ривожланишнинг муҳим жараёни солиқ тизими орқали амалга оширилиши тушунилади.

Солиқларга доир фикрларга эътибор қаратадиган бўлсак, улар асосан давлат хазинасини тўлдирувчи восита сифатида қаралган ва иқтисодий фикрлар

шаклланиши ва ривожланишида уларнинг фискал жихатидан келиб чиққан ҳолда баҳо берилган. Лекин жамият иқтисодий жараёнидаги кўплаб ўзгаришлар кўплаб муаммоларни ҳам келтириб чиқарди, ўз навбатида ушбу муаммоларни бартараф этишга қаратилган янги-янги назариялар пайдо бўла бошлади.

Ғарб иқтисодчиларининг назариялари англиялик иқтисодчи Ж.М.Кейнснинг концепциясига асосланади. Бу концепцияга кўра, солиқлар фискал функциясидан ташқари иқтисодиётни тартибга солиш, рағбатлантириш ва даромадларни бошқариш воситаси функцияларига эга, солиқнинг бу функциялари уни иқтисодиётни тартибга солиш ва иқтисодий барқарор ўсишни таъминлаш воситаси сифатида фойдаланиш зарурлигидан келиб чиқади [2].

Мамлакатимиз Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг таъкидлашларига кўра “Солиқлар хазинани тўлдириш сиёсатини асосий унсури бўлиб, давлат бюджетининг даромад қисми энг муҳим умумдавлат, халқ хўжалиги вазифаларини ҳал этиш учун зарур бўлган миқдорда шаклланишини таъминлаши лозим [3].

Солиқларнинг белгилари борасида иқтисодчи олимлар томонидан турли хил фикрлар мавжуд. Масалан, профессор Қ.Яҳёев солиқларни умумий белгилари сифатида қуйидагиларни кўрсатади [4].

1. Солиқлар ва йиғимлар мажбурий бўлиб, бунда давлат солиқ тўловчининг бир қисм даромадларини мажбурий бадал сифатида бюджетга олиб қўяди. Бу

мажбурийлик Олий Мажлис тасдиқлаб берган Солиқ кодексининг қоидалари асосида амалга оширилади.

Демак, мажбурийлик белгиси ҳуқуқий жиҳатдан давлат томонидан кафолатланади.

2. Солиқлар хазинага давлат бюджетига тушади. Аммо бошқа турдаги тўловларнинг жамғармаларга тушиши солиқ муносабатларини акс эттирмайди.

3. Солиқлар қатъий белгиланган ва доимий ҳаракатда бўлади. Тарихан асрлаб ўзгармай ҳаракатда бўлган солиқлар мавжуд. Унинг илмий асоси қанча чуқур бўлса, шунча қатъий ва узоқ йиллар ўзгармасдан ҳаракат қилади.

4. Давлатга тўланган солиқ суммаси тўловчининг ўзига тўлиқ қайтмайди, яъни у эквивалентсиз пул тўловидир.

Солиқлар узоқ давр мобайнида жамият томонидан яратилган маҳсулотнинг бир қисмини давлат бюджети даромадларини шакллантириш учун ундириладиган асосий молиявий манба ҳисобланади. Шунингдек, солиқлар давлатнинг барча давлат миқёсидаги чора-тадбирларини амалга ошириш учун зарур бўлган асосий молиявий манбалардан бири бўлиб мамлакат иқтисодий тараққиётида ва белгиланган ислохотларни амалга оширишда асосий воситадир [5].

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида солиқлар Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджетига ёки давлат мақсадли жамғармасига тўланадиган мажбурий беғараз тўлов тушунилади [6].

Солиқларга олимлар томонидан берилган бир қанча таърифларни ўрганиб чиқдик. Шу ўринда бу таърифлар маълум маънода бир-бирини такрорлаб, тўлдириб ва бойитиб келмоқда. Юқоридаги таърифлар солиқларни тўлиқ ва аниқ ёритиш, уларнинг барча жиҳатларини батафсил қамраб олмайди. Шунинг учун солиқ категориясини ҳар томонлама кенгроқ ва батафсилроқ, шунингдек унинг моҳияти ва аҳамиятини, иқтисодиётни ривожлантиришдаги роли ва ўрни, солиқларнинг назарий жиҳатларини аниқроқ ва тўлиқроқ ёрита оладиган таърифни ишлаб чиқиш муаммоси мавжуд.

Демак, солиқлар – бу бюджетга тушадиган пул ва қонунда белгиланган мажбурий муносабатлардир. Солиқларнинг мажбурийлиги Олий Мажлис томонидан тасдиқланган ҳуқуқий ва меъёрий қонунлар билан таъминланади. Шундай экан, солиқларни тўламасликка, солиқ объектини яширишга, солиқ суммасини камайтириб кўрсатишга солиқ тўловчиларнинг ҳаққи йўқ.

Шундай қилиб, Республикамизда бюджет даромадларини шаклланишини таъминлаш ва халқаро солиқ сиёсати муаммолари ўзаро умумийлик ҳамда ўзига хосликка эга эканлигини ҳисобга олган ҳолда, хулоса қилиш мумкинки, билвосита солиқлар улущининг ошиши жараёнига бир томонлама баҳо бериш мумкин эмас. Аслида солиқ маъмурчилигининг такомиллашиб бориши, билвосита солиққа тортиш талаб ва таклиф механизмига таъсир этиши орқали рақобат муҳитини издан чиқарувчи омил саналади. Бизга маълумки, рақобатли бозор тизими ресурсларни шундай товар ва хизматлар ишлаб чиқаришга йўналтирадики, уларга ҳаммадан кўра кўпроқ жамият эҳтиёж сезади, айнан шу фаолият ривожига билвосита солиққа тортиш механизми салбий таъсирга эга бўлади.

Фойданилган адабиётлар рўйхати:

1. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 1993, с.224.
2. Жўраев А., Мейлиев О., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент Молия институти, 2004. – 166 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент. Ўзбекистон, 1998 й. 358 б.
4. Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Т.: Фафур Гулом, 2000 й. 10-бет.
5. Алимардонов М.И., Худойқулов С.К., Юсупов О.А., Агзамов А.Т., Юридик шахсларни солиққа тортиш. Дарслик. Тошкент-2013
6. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси: расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги.-Т.: Адолат, 2019 й.- 8 бет.

Вояга етмаган ўсмирлар жиноятчилигининг психологик хусусиятлари

Ережепов Ислам Махсетбаевич

Ўзбекистон Республикаси ИИБ

Академияси 3-ўқув курсининг

321 гуруҳ курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6518076>

Аннотация: Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликни олдини олиш фаолияти тушунчасини, ушбу жиноятни олдини олишда соҳавий хизматлар билан ҳамкорликнинг турларини, вояга етмаганлар жиноятчилигининг психологик ўзига ҳос хусусиятларини қамраб олади. Бундан ташқари вояга етмаганлар ўртасида жиноятлар ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш фаолиятида ички ишлар органлари инспектор-психологларининг, уларнинг ўзаро ва бошқа соҳавий хизматлар билан ҳамкорлигини тартибга солувчи нормалар, қолаверса фаолиятга доир муаммо ва камчиликлар ва ушбу муаммо ва камчиликларни бартараф этиш бўйича бир қатор таклифлар келтирилган.

Калит сузлар: Усмир, вояга етмаган, ешлар, жиноятчилик, психологик жихат, жиной хатти-харакат, девиант хулк атвор.

Ўсмирлик ёши инсон шахси шаклланадиган давр ҳисобланади. Ушбу босқичда шахс ниҳоятда ўзгарувчан бўлиб, ўзини назорат қилиш етарли ривожланмаганлиги боис, юзага келадиган «ижтимоий турғунлик» туфайли жамиятга мослашув нуқсонлари ғайриижтимоий қилмишлар кўринишида

нисбатан осон намоён бўлади, баъзан эса барқарор хулқ-атвор сифатида мустаҳкамланади, вақт ўтган сари тузалиши қийин бўлиб боради.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек: «Ёшлар, хусусан, ўсмирлар орасида безорилик, жиноятлар сони ортишига қандай омиллар сабаб бўляпти? Баъзи йигит-қизлар учун меҳр-оқибат, ахлоқ-одоб тушунчалари бутунлай бегона бўлиб бораётгани, уларда бефарқлик, масъулиятсизлик, меҳнат қилмасдан кун кўришга интилиш каби иллатлар пайдо бўлаётгани - аччиқ бўлса-да, ҳақиқат».

Ўсмирларда биринчи жинойий ҳаракатларини амалга оширгунларича дастлаб уйдан сўроқсиз чиқиб кетиш, уйга келмай қолиш, ота-она ва катталарнинг панду-насиҳатларига кулоқ солмаслик каби одатларга берилганликлари маълум бўлган. Ўсмирларда уйдан чиқиб кетиш одати кўпинча 14-15 ёш даврига тўғри келган.

Ўсмирлар томонидан содир этиладиган жинойий хатти-ҳаракатларнинг ихтиёрий ёки бошқа таъсирлар асосида амалга оширилганлиги ўрганилганда ўсмирларнинг 56,48 фоизи жинойий ҳаракатларни ўз ихтиёри билан содир этганлигини, 10,64 фоизи тенгқурлари таъсири натижасида, 8,24 фоизи катталарнинг таъсирида 4,39 фоизи яқин қариндошлари, 11,84 фоизи илгари судланган криминал хулкли кишилар таъсири натижасида содир этилганлиги кузатилган.

Жинойий ҳаракатларни содир этиш нияти ўсмирларда муайян вазиятларнинг таъсири натижасида тўсатдан пайдо бўлиши кўзатилган. Бунда ўсмирларнинг ёш хусусиятлари, қатъий ҳаётий установакаларнинг мавжуд эмаслиги,

ахлоқий ва ҳуқуқий установкаларнинг шаклланмаганлиги сабаб бўлса. Ўсмирлик ёшига хос бўлган ҳиссий беқарорлик, кўзгалувчанлик, тез таъсирлан-увчанлик хусусиятлари ва юзага келган муаммоли вазиятларни тўғри баҳолай олиш қобилятининг етишмаслиги, уйлаган ниятларини амалга ошириш ҳиссининг кучлилиги уларда ғайриқонуний ҳаракатларни амалга ошириш тўғрисидаги ниятларнинг пайдо бўлишига олиб келади.

Шу маънода ўсмир нима учун жинойтчи бўлиб қолганлигини англаб етиш учун энг аввало уни куршаб олган ижтимоий муҳит, шарт-шароит ва унинг ўсмир шахсига қандай таъсир этганлигини таҳлил қилиш лозим бўлади: ички психологик сабаблар, салбий шахс сифатлари, яъни ноқонуний ҳулқ, қатъий ҳаётий мақсадларнинг мавжуд эмаслиги, ташқи салбий муҳит ва оилада тарбиянинг яхши эмаслиги, ўсмирда жинойтчилик ҳулқининг шаклланишига қулай имконият яратилади.

Ўсмирларда жинойтчилик ҳулқининг келиб чиқишига таъсир этувчи бир қатор ижтимоий-психологик омиллар мавжуд бўлиб, улар қуйидагилар:

- Ота-оналар ва педагогларнинг болалар ва ўсмирларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларини ҳисобга олмасликлари ёки психологик саводсизлиги.
- Оилада ноахлоқий муносабатлар ва носоғлом психологик муҳитнинг мавжудлиги, оилавий низоларнинг кўплиги ва оилада болага нисбатан эътиборнинг пастлиги.

- Мақтаб жамоасининг, педагогларнинг ўсмирлар ўртасида юзага келган низоли, муаммоли вазиятларга барҳам беришда номақбул усулларни қўллашлари.

- Референт гуруҳларнинг болалар ва ўсмирларга салбий таъсир этиши.

- Ўсмирларнинг бўш вақтларини тартибсиз ва мазмунсиз ўтказишлари.

Шу сабабли, ҳар бир ёш даврида ноахлоқий ёки жиноятчилик хулқи мотивлари ўзига хос тарзда бир-биридан фарқланишини ҳисобга олиш лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алемаксин М.А. Психолого-педагогическое проблемы предупреждения педагогических педагогических запущенности и правонарушений несовершеннолетних. Воронеж. 2010. С. 94,

2. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. Т., 2016 й. 71-бет

3. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. Т., 2016 й. 163-бет

Девиант хулқли ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ПСИХОЛОГИЯСИ

Ережепов Ислам Махсетбаевич

Ўзбекистон Республикаси ИИБ

Академияси курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6518096>

Аннотация: Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликни олдини олиш фаолияти тушунчасини, ушбу жиноятни олдини олишда соҳавий хизматлар билан ҳамкорликнинг турларини, вояга етмаганлар жиноятчилигининг психологик ўзига хос хусусиятларини қамраб олади. Бундан ташқари вояга етмаганлар ўртасида жиноятлар ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш фаолиятида ички ишлар органлари инспектор-психологлари, уларнинг ўзаро ва бошқа соҳавий хизматлар билан ҳамкорлигини тартибга солувчи нормалар, қолаверса фаолиятга доир муаммо ва камчиликлар ва ушбу муаммо ва камчиликларни бартараф этиш бўйича бир қатор таклифлар келтирилган.

Калит сузлар: Усмир, вояга етмаган, ешлар, жиноятчилик, психологик жихат, жиний хатти-харакат, девиант хулк атвор.

Девиант хулқ феномен сифатида турли фанларнинг тадқиқот предмети ҳисобланади. Девиант хулқнинг олдини олиш вазифаси жамиятдаги турли ижтимоий институтлар, жумладан таълим муассасалари олдида турган ўта муҳим вазифалардан биридир.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, «Олдимизда ёшларга тарбия бериш, психология ва бошқа турли соҳаларда кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш бўйича мураккаб вазифалар турибди».

Психологик луғатда девиант хулққа шундай таъриф берилади: “Девиант хулқ – бу инсоннинг расмий равишда ўрнатилган ёки фактик жиҳатдан юзага келган хулқ-атвор тўғрисидаги тасаввурларга номувофиқ хатти-ҳаракатлари тизими ёки алоҳида олинган хатти-ҳаракатидир”. Бу таъриф алоҳида олинган индивид билан одамлар гуруҳи ўртасидаги ижтимоий муносабатларга асосланган. Шунинг учун ҳам у ижтимоий ҳисобланади.

Юқори синф ўқувчиларининг девиант хулқ-атворини чуқур ўрганган В. Г. Соловьянюк-Кротованинг фикрича, “девиант хулқнинг олдини олиш жараёнини ташкил этишда, энг аввало, инсон хулқ-атворининг бош регулятори бўлган унинг психикасига эътиборни жалб қилиш лозим”.

Маълумки, девиация ижтимоий-психологик муаммо бўлиб, инсон рухий оламидаги, унинг атрофидаги муҳитнинг ўзгариш ҳолатлари билан боғлиқ. Бу ҳолат, асосан, ўсмирлик ва илк ўспиринлик ёшидагиларга хосдир. Чунки бу ёшдагиларнинг анатомик-физиологик, интеллектуал, ахлоқий-рухий ва бошқа жиҳатларида айрим ўзгаришлар рўй беради. Бу ўзгаришлар, ўз навбатида, уларнинг психикасига таъсир этиши мумкин. Уларнинг ижтимоий нуфузида, жамоада ўзини тутишида ўзгаришлар рўй бериб, уларни кўпроқ «Мен кимман?», «Мен ўзгалар нигоҳида қандайман?» каби саволлар қийнайди.

Жамиятда ўрнатилган норма ва қоидаларга риоя қилмайдиган шундай тарбияси оғир ўсмирлар фанда девиацияга учраганлар деб аталади.

Девиация ўз ичига девиант, делинквент ва криминал хатти-ҳаракатларни бирлаштиради.

Девиант хатти-ҳаракат — кичик ижтимоий муносабатлар (оила, ўқув даргоҳи) ҳамда характер, жинсий ва ёш хусусиятлари жиҳатидан кичик ижтимоий гуруҳларга хос ижтимоий нормалардан, хатти-ҳаракатлар ва қоидалардан оғиш, чекинишнинг бир тури. Яъни, бу турдаги ҳаракатни интизомсизлик деб ҳам аташ мумкин. Агрессия, жанжалкашлик, ўқиш ва меҳнат фаолиятида ўзбошимчаликка йўл қўйиш, ўсмир ва ўспиринларнинг ичкиликка берилиши, дайдиб юришлари, олифтагарчилик қилишлари, асоциал ҳаракатларга берилиш кабилар девиант ҳаракатларнинг асосий кўринишларидир. Маълум вазиятларда ёшларнинг шундай хатти-ҳаракатларни намоён этиши девиант ҳаракатларнинг типик хусусиятидир.

Делинквент хатти-ҳаракат девиант ҳаракатлардан фарқли ўлароқ, вазият таъсирида эмас, балки юқоридаги каби асоциал ҳаракатларнинг доимий характерга эга бўлишидир.

Бугунги кунда ёшлар хулқидаги нуқсонларни тузатишда икки хил технологик ёндашувдан фойдаланиш зарур:

— профилактик;

— реабилитацион.

Профилактика — ўспиринлар хулқидаги ижтимоий оғиш ҳолатларини келтириб чиқарувчи сабабларнинг олдини олишга, уларни бартараф этишга, асосий сабаб ва шартларни нейтраллашга қаратилган давлат, жамоа, маҳалла, оилавий, ижтимоий-тиббий, ташкилий-тарбиявий тадбирлар мажмуаси.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, вояга етмаганларда ижобий хулқ-атвор хислатларни шакллантириш, уларнинг соғлом иродали бўлишлари учун тарбиявий тадбирларни ёш хусусиятларига мос равишда ўтказиш мақсадга мувофиқдир. Ўспиринларда иродалилик, сабр-тоқат, матонат каби хислатларни такомиллаштириш келажакда жамиятнинг маънавий-маърифий қиёфали шахсларини кўпайтиришга замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1..Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент – «Ўзбекистон» - 2017. – 45-б.
- 2.Психология: Словарь / Под ред. А. В. Петровского. – М., 1990. – С. 257.
- 3.Соловьёв-Кротова В. Г. Стратегии профилактики девиантного поведения старшеклассников // Информационный гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». — 2010. — № 2 — Педагогика. Психология.

Ёшлар тарбиясида тасвирий санъат асарларининг ўрни

Пахратдинова Улболсин Керимбердиевна

Нукус давлат педагогика институти магистранти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6516876>

Калит сўзлар: Тасвирий санъат, бадий асарлар, Ж.Изентаев ижоди, портрет жанри, ёшлар тарбияси.

Резюме: Мақолада ёшларни ватанпарвалик руҳида тарбиялашда тасвирий санъат асарларининг, Ж.Изентаев ижодининг ўрни ҳақида сўз юритилган.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, художественные произведения, творчество Ж.Изентаева, жанр портрета, воспитание молодежи.

Резюме: В статье рассматривается роль произведений изобразительного искусства в воспитании молодежи в духе патриотизма Ж.Изентаева

Key words: Fine arts, works of art, J.Izentaev`s work, portrait genre, education of youth.

Summary: The article discusses the role of works of fine art in the education of young people in the spirit of patriotism J.Izentaev.

Президентимиз Ш.Мирзиёев ёшлар келпажагига алоҳида эътибор қаратади. Ёшлар форумида давлатимиз раҳбари ёшлар келажаги билан боғлиқ ҳар қандай вазифа бирламчи аҳамиятга эга эканини таъкидлаб, ўз нутқи якунида:

“Азиз фарзандларим! Халкимиз, Ватанимиз сизлардан буюк ишлар кутаётганини ҳеч қачон ёдингиздан чиқарманг” Юртнинг юксак ишончи ва умидини тўла оқлаш, унга муносиб бўлиш дунёдаги энг улуғ бахтдир Шундай шараф барчангизга насиб этсин”[1]-деган фикрларини билдирган эди.

Дарҳақиқат, давлатимиздаги ёшлар келажагига қаратилган “Бешта муҳим ташаббус”нинг биринчи йўналиши Ёшларни мусиқа, рассомчилик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини ошириш буйича бўлиб, ушбу йўналишда қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Чиндан ҳам, ёшлар тарбиясида тасвирий санъатнинг ўрни беқиёсдир. Тасвирий санъат асарлари ҳақида сўз юритишдан олдин биз, “Тасвирий санъат” тушунчасига тўхтаб ўтишни мақсад қилдик: “Тасвирий санъат илм-фан каби дунёни, ҳаётни, табиатни, халқлар тарихини ўрганишда хизмат қилади. Тасвирий санъатнинг пайдо бўлиши ибтидоий жамоа даврига бориб тақалади. Бу вақтда кишилар теварак-атрофда содир бўлаётган воқеаларни одам ва ҳайвонларнинг тасвирини тошларга чизиб, уларни кесиб турли кўриниш ва мазмундаги ҳайкалларни ясаганлар.

Қадимдан санъат, табиат ходисалари ва кишиларнинг ўзаро муносабатлари фаолиятларига, хулқига ижобий таъсир кўрсатади” [2:3]-деб ҳисоблашганлар.

Бундан келиб чиқадики, тасвирий санъатнинг келажак авлод тарбиясида аҳамияти катта. Ёшларни тасвирий санъат орқали тарбиялашда педагог

кўйидаги масалаларга эътиборини қаратиши зарур. Яъний Тасвирий санъат буйича дарс жараёнида:

1)Дарснинг мақсад ва вазифаларига маослиги (бунда белгиланган мавзуга мослиги, тарбиявий аҳамиятига эътибор қаратиш);

2)Ўқувчиларнинг ёш хусусиятларига мослиги (яъни бунда бошланғич синф ўқувчиларига ёш тоифасидан келиб чиқиб дарс ўтиш, юқори синф ўқувчиларига эса мураккаб мавзуларни ўтишда эътиборли бўлиш);

3)Кўразманинг аниқлиги, тушунарли бўлиш (мавзу буйича ўқитувчи томонидан кўрсатилган рангтасвир, портретларнинг аниқ ва тиниқ чизилиши);

4)Тасвирнинг сифатли бўлиши;

5)Кўргазмалар ўзининг ранг-баранглиги билан ўқувчиларда завқ ва қизиқиш уйғотиш;

6)Эстетик талабларга мослиги (яъни намуна сифатида кўрсатилаётган расмларнинг аниқ-тиниқ чизилганлиги, расмларнинг аниқлига диққат қаратиш);

Бундан келиб чиқадики, ёшларга билим беришда тасвирий санъатни ўқитида дидактик масалалар ҳақида профессор Н.Ростовцев, В.Кузин, Р.Ҳасановлар томонидан тавсиялар берилган. Биз ўз мақоламизда тасвирий санъатда муҳим ўрин эгалловчи, таниқли рассом Жоллыбай Изентаев ижодини келажак авлод тарбиясида эгаллаган ўрни ҳақида сўз юритмоқчимиз.

Қорақалпоқ халқининг ардоқли фарзанди, таниқли мўйқалам эгаси Жоллибай Изентаев 1943-йили Қўнғирот туманида туғилган. Тасвирий санъатнинг сир асрорларини устозлари А.Атабаев, А.Перов ва Е.Меаниковлардан ўрганишган. Бутун ҳаётии тасвирий санъатга бағишлаган Ж.Изентаев ташаббуси билан Нукус давлат педагогика институтида “Расм ва Чизмачилик” кафедраси ташкил этилиб, тасвирий санъат ривожига ҳисса қўшди.

Таниқли рассом Ж.Изентаевнинг композицияларига эътиборимизни қаратсак, рассом портрет жанрида ҳам расмлар чизган. “Портрет” терминига адабиётларда (француз тилида portrait-тасвир)-1.тасвирий санъат жанри; реал ҳаётда мавжуд бўлган якка, икки ёки бир гуруҳ кишилар, рассом тассавурида пайдо бўлган ҳаёлий қиёфаларининг тасвири. [4] Ж.Изентаевнинг ижодида Қорақалпоқ халқининг таниқли шоирлари Т.Жумамуратов ва И.Юсуповлар тасвирланган.

“Т.Жумамуратов” портретида шоир ҳаёл сурган, бир нарсани ўйлаб турган ҳолатда тасвирланган. Ўзбекистон Қаҳрамони И.Юсупов портретида эса, кўлига китоб ушлаган ҳолда, курсида ўтиргани тасвирланган. Яъни бундан кўришимиз мумкин, И.Юсупов ижод устида ўз тўпламини кўздан кечириб, янги шерлар устида ижод қилаётганлигини кўришимиз мумкин.

Ж.Изентаевнинг “Шанирақ остида” расмлар коллекциясидан Қорақалпоқ халқининг миллийлиги, гўзал табияти жой олган. Мисол тариқасида “Келикелсаб”, натюрморт мевалар расмини келтиришимиз мумкин. Рассомнинг ижодида халқимиз миллийлиги, миллий колорити, меҳрибон инсонлари, бой маданий тарихи жой олган. Иқтидорли рассом Ж.Изентаев меҳнатлари учун

1997-йил Ўзбекистон Бадий академияси академиги, 2000-йил Ўзбекистон халқ рассоми унвонларига мияссар деб топилди.

Ўсиб келаётган ёш авлодни ватанпарварлик руҳида ўстиришда иқтидорли ёшларга Ж.Изентаев ижоди катта ўрин эгаллайди. Унинг ижодидаги рангбаранглик кимни бўлса ҳам эътиборсиз қолдирмайди. Рассомнинг ижодини ўрганиш орқали ёш ижодкор рассом ёшлар ҳам Она Ватанини тарифлайди.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз жоизки, ёшларимизни ватанпарвар билимли, она Ватанини севиб ардоқлайдиган фарзандлар етиб ўстиришда Ж.Изентаев сингари рассомлар ижоди муҳим ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. www.yuz.uz «Янги Ўзбекистон», «Правда Востока» газеталари;

Ш.Мирзиёев: «Ёшлар келажаги билан боғлиқ ҳар қандай вазифа бирламчи аҳамиятга эга» номли мақола;

2. Р.Ҳасанов «Тасвирий санъат асослари» Тошкент-2009; 4-бет.

3. www.wikipedia.org

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар Вазирлиги Академияси 3-босқич курсанти **Жуманиязов Жўрабек Азатбай ўғли** нинг “**Совуқ қуроллар ва отилувчи совуқ қуроллар тадқиқотлари методикаси, қўлбола усулда тайёрланган объектларни криминалистик баҳолаш хусусиятлари**” мавзусидаги мақоласи.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6524070>

АННОТАЦИЯ

Ҳозирги кундаги замонавий совуқ қуроллар экспертизанинг имкониятлари, таснифланиши, замонавий совуқ қуроллар экспертизасининг назарий ва ҳуқуқий асосларига тухталиб ўтилган. Бундан ташқари, совуқ қуроллар экспертизасида мавжуд муоммолар ва унда учраб турадиган хатоларга тухталиб ўтилган.

ANNOTATION

Currently opportunities and classifications of modern icy guns expertise, theoretical and legal foundations of modern icy guns expertise. He also pointed out the problems that existed in the trials of the court and the errors in it.

Калит сўзлар: совуқ қурол, отилувчи совуқ қурол, қўлбола усулда тайёрланган объектлар, ва уларни баҳолашни хусусиятлари

“Совуқ қуроллар ва отилувчи совуқ қуроллар тадқиқотлари методикаси, қўлбола усулда тайёрланган объектларни криминалистик баҳолаш хусусиятлари”

“Ватанга ва халққа хизмат қилиш — энг олий бурчимиз!”

(2021 йил 2 апрельдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини тامينлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ 5050-сон Қароридан)

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Жамиятда барқарорлик, тинчлик ва осойишталикни қарор топтириш, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига сўзсиз риоя этилишини таъминлаш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий жихатдан янада ривожлантириш, аҳоли фаровонлигини юксалтириш, ҳуқуқий демократик давлат куриш бўйича амалга оширилаётган кенг кўламли ислохатлардан кўзланган мақсадларга эришишнинг муҳим шarti ҳисобланади. Фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, жамоат тартибини сақлаш, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикаси бўйича республикада яхлит ҳуқуқий тизим яратилган бўлиб, унда ички ишлар органлари муҳим ўрин эгаллайди. Ўтган давр мобайнида ички ишлар

оргинлари тизимини такомиллаштириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Шулардан бири Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат хавфсизлигини таъминлашга доир қонун ҳужжатларини янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 2020 йил 5 ноябрдаги Қонунининг қабул қилинганлиги бўлди. Ушбу Қонунга мувофиқ совуқ қурол ва совуқ қурол сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган бошқа ашёларни қўллаган ҳолда ҳуқуқбузарликларнинг, айникса вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида олдини олиш ва жамоат тартибини сақлаш чораларини кучайтириш юзасидан ички ишлар органлари томонидан совуқ қурол ва совуқ қурол сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган бошқа ашёларни жамоат жойларида қонунга хилоф ва муомалада бўлиш қоидаларини бузган ҳолда олиб юриш ҳолатларини аниқлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш тартиби белгиланди. Ушбу Қонун асосида Ички ишлар органларининг совуқ қурол ва совуқ қурол сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган бошқа ашёларни қонунга хилоф ва муомалада бўлиш қоидаларини бузган ҳолда олиб юрилишини олдини олиш ва уларга қарши курашиш фаолияти бўйича Йўриқнома ишлаб чиқилди. Ушбу Йўриқномада қуйидаги асосий тушунчаларга аниқлик киритиб ўтилган:

совуқ қурол – шикаст етказиладиган объект билан бевосита тўқнашиш чоғида одамнинг жисмоний кучи ёрдамида нишонни уриш учун мўлжалланган қурол;

Отилувчи совуқ қуроллар экспертизасида тадқиқот босқичлари. Отилувчи совуқ қуроллар экспертизалари ўзига хос хусусиятларига эга. Масалан, бирорта нарсани отилувчи совуқ қуролларга тегишли деб айтиш учун, аввало, бу нарсанинг отилувчи совуқ қуролларнинг бирорта тури, кўриниши, намунасига тегишлилиги аниқлаб олинади, яъни нарсанинг хусусиятлари тўлиқ ўрганилади.

Сўнгра отилувчи совуқ қуроллиги олдиндан аниқ бўлган бошқа анжомлар билан ёки совуқ қурол деб ҳисобланмаган, аммо отилувчи совуқ қуролнинг барча белги ва хоссаларига эга бўлган нарсалар билан таққослаб кўрилади. Ана шундан кейингина яқуний хулоса чиқариш мумкин бўлади. Яқуний хулоса эса қуйидагича тузилишда бўлади: тадқиқотга тақдим этилган нарса ўзининг аниқ белги ва хоссаларига кўра у ёки бу совуқ қуролнинг қандайдир тури билан ўхшаш, яъни аниқ белги ва хоссалар ўша нарсада ҳам, совуқ қурол турида ҳам мавжуд, бу белгилар бир хил. Агар тадқиқ этилаётган нарса совуқ қуролларга хос белги ва хоссаларга эга бўлмаса, у ҳолда ана шу фарқлар ҳақида хулосада ёзилади ва ушбу нарсани совуқ қурол эмас деб хулоса чиқарилади.

Отилувчи совуқ қуролларнинг тузилиши. Юқорида таъкидланганидек, отилувчи совуқ қуроллар икки турга нишон (тўсиқ)ни узоқдан туриб қўлда отиш билан жароҳатлашга мўлжалланган ҳамда нишон (тўсиқ)ни механик қурилманинг энергияси ҳисобига учиб борадиган снаряд ёрдамида узоқдан жароҳатлашга мўлжалланган совуқ қуролларга бўлинади. Отилувчи тиғли пичоқнинг тузилиши: отилувчи тиғ, доимий тиғ, жанговар пружина, қўйиб юборувчи ричагдан иборат.

Бумеранг – уриб-мажақловчи таъсирли отилувчи совуқ қурол. Тарихда Жануби-шарқий Осиё, Жанубий Ҳиндистон ва Австралияда кичик ҳайвонлар ва қушларни овлаш учун ишлатилган (Австралияда ҳозирда ҳам мавжуд). Анъанавий бумеранг ўроқсимон ёки эгри шаклда бўлади ва қаттиқ ёғочдан ёки турли суяклардан тайёрланади. Бумерангнинг учлари турлича узунликда бўлмайди, одатда, бумерангнинг учлари ўзаро 3:4 нисбатни ташкил қилади. Бумерангнинг энг қалин соҳаси унинг асоси (ўртаси)да бўлади. Бумеранг 80-120 градус бурчак остида эгилган бўлади. Бумерангнинг кўндаланг кесими самолёт қанотларининг кўндаланг кесимига ўхшайди. Бумеранг отилганида бир вақтнинг ўзида ҳам айланма, ҳам илгариланма ҳаракат қилади, агар нишонга тегмаса эгри чизик бўйлаб ҳаракатланиб, ўзи отилган жойга қайтиб келади.

Отилувчи пичоқлар – кесувчи-санчувчи таъсирли отилувчи совуқ қурол. Бу қурол совуқ қурол ҳисобланган пичоқ ва кинжаллардан умумий маънодаги дастаси йўқлиги билан фарқланади. Кўп ҳолларда даста вазифасини, мувофиқлаштирувчи (стабилизатор) вазифасини бажарувчи тигнинг пойнаги бажаради.

Отилувчи пичоқларнинг тигларида бўйлама симметрия даражаси жуда юқори ёки тигнинг оғирлик маркази унинг жанговар учи томонга кўчирилган бўлади. Тиг оғирлик марказини кўчириш жанговар учи томонида тигнинг қалинлиги ва кенглигини катталаштириш ҳисобига бўлади. Тигдаги махсус ариқчаларда ҳаракатланадиган мувозанатловчи юклар (масалан, тигнинг ички бўшлиғини қисман тўлдирувчи соққачалар) ҳам айнан шу мақсадга хизмат қилади. Бу каби пичоқларни дастасидан ушлаб улоқтирилади ва

бунда мувозанатловчи элементлар тифнинг жанговар учи томонга силжийди ва пичокни нишон томонга йўналтиради.

Сюрикен – ясси металл пластина кўринишидаги ва одатда «юлдузча» шаклидаги, санчувчи-кесувчи таъсирли отилувчи қурол. Сюрикенлар асос ва чархланган дамли тишчалардан иборат, соддароқ тушунтирилса, сюрикен айлана бўйлаб жойлашган бир неча тифлардан иборат бўлади (28-расм). Сюрикеннинг асосида унинг оғирлигини камайтириш учун тешиклар бўлиши мумкин. Улоқтирилганда сюрикен айланма ҳаракат қилиб учади. Кўплаб тишчаларнинг мавжудлиги (3 тадан 8 тагача) сюрикеннинг нишонга текканидаги жароҳат етказиш имкониятини ошириб юборади. Сюрикенлар кичик (диаметри – 6 см гача), ўрта (диаметри – 6-8 см) ва катта (диаметри – 8 см дан катта) турларга бўлинади. Сюрикенларнинг оғирлиги 60 граммдан 200 граммгача бўлиши мумкин. Сюрикенга ўхшаш мақсадга мўлжалланган отилувчи қурол сифатида жанговар диск ҳам маълум ва бундай қуроллар Ҳиндистонда «чакра» деб номланади.

Чакра – диаметри 30 см гача бўлган металл ҳалқадан иборат бўлиб, ташқи четларида чархланган, ички чети қирралари эса ўтмас бўлади (29-расм). Чакрани улоқтиришда даставвал кўрсаткич бармоқ атрофида айлантиради ва сўнг нишонга отилади. Чакра 50 метргача масофага учиши мумкин ва чуқур (хавфли) жароҳатлар етказди, яқин масофаларда эса одам суякларини ҳам кесиши мумкин.

Дротик (найзача) – санчувчи таъсирли отилувчи совуқ қурол, найзанинг калталаштирилган ва енгиллаштирилган тури. Дротик яқин масофадан ишлатилади, аммо оғир жароҳат етказди. Дротик асосан қўлда

улоқтирилади, унинг учиш масофаси 25-30 метргача. Дротикнинг учишида барқарорлигини ошириш мақсадида унинг пойнагининг шаклига алоҳида эътибор қаратилган ва қанотчалар ўрнатилган. Бунинг натижасида отилган дротик ҳавода илгариланма ҳаракат билан бирга кирувчи-айланма ҳаракат ҳам қилган.

Таъкидлаш жоизки, отилувчи совуқ қуролларнинг айрим турлари ҳозирги кунда ҳам такомиллашиб бормоқда ва фақатгина спорт мусобақалари учун эмас, ҳарбий мақсадларда ҳам қўлланилмоқда. Бу каби совуқ қуроллар сирасига камонлар, арбалетлар ва сув ости учун мўлжалланган милтиқларни киритиш мумкин. Уларнинг тузилишида эластик элемент мавжуд бўлиб, ушбу элементнинг деформацияланиши натижасида снаряднинг отилиши учун зарур бўлган потенциал энергия тўпланади. Бу каби совуқ қуроллар – нишон (тўсиқ)ни механик қурилманинг энергияси ҳисобига учиб борадиган снаряд ёрдамида узоқдан жароҳатлашга мўлжалланган.

Қўлбола усулда тайёрланган объектларни криминалистик баҳолашнинг хусусиятлари Совуқ қуролларнинг қўлбола усулда тайёрланишининг бир қанча хусусиятлари бор. Бундай қуроллар завод усулида тайёрланган совуқ қуролларга, ҳатто унинг маълум бир гуруҳларига ўхшатиб ясалмайди ёки бу ўхшашлик кам бўлади. Қурол ва унинг қисмларининг турли ўлчамлари ихтиёрий олинади. Кўпинча юқори сифатли материаллар ва хом ашёнинг йўқлиги туфайли бу қуроллар осон топиладиган материаллардан ясалади. Бундай ҳолларда, табиийки, бу материаллар сифатсиз бўлади. Зарур ҳунарни етарлича билмаслик ва керакли асбоб-ускуналарнинг йўқлиги сабабли ясалган қурол унча мустаҳкам бўлмайди ва сиртига ёмон ишлов берилган

бўлади. Ушбу хусусиятлар қўлбола усулда тайёрланган буюмларнинг совуқ қуроллар туркумига тааллуқлилигини аниқлаш мақсадида криминалистик тадқиқот ўтказишни анча қийинлаштиради.

Совуқ қурол ва совуқ қурол сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган бошқа ашёларни жамоат жойларида қонунга хилоф ва муомалада бўлиш қоидаларини бузган ҳолда олиб юриш ҳолатлари аниқланганда ушбу ашёлар тегишли далолатнома тузилиб олиб қўйилади, суд-криминалистик экспертизасига юборилади ҳамда унинг натижалари кўра ҳуқуқбузарга Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 1852 ва 1853-моддаларида ўрнатилган жавобгарлик чоралари қўлланилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят Кодекси.
2. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Қурол тўғрисида”ги Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат хавфсизлигини таъминлашга доир қонун ҳужжатлари янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни. 05.11.2020 йил.
5. “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада

такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент Қарори. 02.04.2021 йил.

6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида”ги Қарори. 14.06.2002 йил.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар Вазирлиги Академияси 3-босқич курсанти **Ибрагимов Максadbек Йўлдашбой ўғли** нинг “**Жиноятларни тергов қилишда баллистик экспертизанинг аҳамияти**” мавзусидаги мақоласи.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6520225>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолам оркали ҳозирги кундаги замонавий баллистик экспертизанинг имкониятлари, таснифланиши, замонавий баллистиканинг назарий ва ҳуқуқий асосларига тухталиб ўтилган. Бундан ташқари, суд баллистикада мавжуд муоммолар ва унда учраб турадиган хатоларга тухталиб ўтилган.

Калит сўзлар: баллистиканинг тушинчаси, баллистик экспертизада хал қилинадиган масалалар, ўқотар қуроллар, ўқ-дорилар, жиноят содир этиш воситаси; ички ва ташқи баллистика.

Фойдаланилган адабиётлар: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т., 2020. – 45; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6196; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4125 сон; Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 10-апрелдаги ПФ-5005 сонли фармони.

“Ватанга ва халққа хизмат қилиш — энг олий бурчимиз!”

Мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 10-апрелдаги ПФ-5005 сонли фармонида ички ишлар органлари фаолиятида тўпланиб қолган жиддий камчилик ва муаммолар вазифаларни бажаришда тўсик бўлаётганлиги ҳамда ушбу вазифаларни бажаришда муҳим устивор йўналишлар белгилаб берилди. Суд экспертизаси юридик фанларнинг бир тармоғи сифатида ҳозирги замон талабларига жавоб бериши керак ва шу

билан бирга назария билан амалиётни ўзаро боғланишида муҳим ўрин тутди. Суд экспертизаси ривожланган замонавий илмий-техник ютуқларига эга бўлиб, жиноят ишлари бўйича адолатни юзага чиқаришда одил судловни демократик асосида тараққий этиб боришда қонунийликни мустаҳкамлайди ва муҳим шарт-шароитларини белгилайди. Маълумки, суд-баллистика экспертизаси умумий криминалистик экспертизаларнинг махсус ва мурақаб турларидан биридир. Суд-баллистика экспертизаларини ўтказиш амалиётидан маълумки, тадқиқот учун тақдим этилган қўлбола ўқ отар қуролларни, уларнинг механизмларини, тугунлари ва қисмларини, қисмларни ўзаро ҳаракатини, ўқ-дориларнинг ишлатилиши, ўқ қолдирган изларни тасвирлаш, хулосаларни шакллантириш ва баҳолашда мутахассислар муайян қийинчиликларга дуч келдилар. Суд-баллистика экспертизаларининг мураккаб тадқиқот объекти бўлган ўқотар қуролларни текширишда эса айниқса ушбу қийинчиликлар яққол кўзга ташланади.

Сўнгги йиллар мобайнида суд экспертизасининг имкониятлари кўп жиҳатдан кенгайди. Бу соҳада қўлга киритилган муваффақиятлар тадқиқотларнинг янги турларини вужудга келтирди ва уларни олиб боришга имконият яратди. Шу ўринда республикамиздаги суд ва тергов аппаратларининг сифат жиҳатдан янгиланганлигини ҳам таъкидлаб ўтиш жоиз.

Ички ишлар органлари жиноят-қидирув ва тергов хизматларининг амалиётида ҳар хил жиноятларни очиш ва текшириш жараёнида турли ўқотар қуроллар кўплаб учрайди. Бунинг натижасида бизни қизиқтирувчи ўша буюм ўқотар қуроллар туркумига тегишлими; агар тегишли бўлса, у бузуқ эмасми

ва отиш учун яроқлими; қурол ёки унинг қисмлари қайси гуруҳга тааллуқли қаби саволларга жавоб бериш зарурати туғилади.

Юқорида кўрсатилган саволларга жавоб топиш учун суд баллистикасининг кўрсатмалари ҳамда илмий-техник қоидаларидан фойдаланилади.

Баллистика – ўқотар қуролдан ва улардан отилган ўқлар, снарядларнинг ҳаракат қонунларини ўрганувчи фан.

Суд баллистикаси криминалистиканинг ўқотар қурол ишлатиб, шунингдек сақлаб, тақиб, тайёрлаб ва ўзлаштириб қилинган жиноятларни очишда вужудга келган техник масалаларни ўрганувчи бўлими ҳисобланади.

Суд баллистикаси ўрганадиган объектларни: ишлатилган ва ишлатилмаган ўқотар қуроллар, ўқ-дорилар, уларнинг қисмлари, ўқ отилиш излари – ёриқлар, тирналишлар, езилишлар, яқин масофадан ўқ отилиш излари (порох газлари, мил оғзи оловининг механик ва термик (иссиқлик) таъсирлари, қурум, металл, ёнмаган порох зарраларининг ўтириб қолиши, мил мойлаш материалларининг қолдиқлари (маҳсулотлари) ташкил қилади.

Суд баллистикаси ўқотар қуролнинг тури, тизими, кўриниши ва намунасини, унинг созлиги ва ўқ отишга яроқлилигини, ишлатилган ўқотар қуролни, отилган ўқ ёки гилзалардаги изларига қараб ўзига хос жиҳатларини ҳамда жанговар ўқ-дориларнинг кўринишини ва ўқ отилиш масофасини, йўналишини аниқлайди.

Жиноятларни очиш ва тергов қилиш тўғридан-тўғри тергов, тезкор қидирув ва эксперт-криминалистика хизматлари фаолиятининг келишувлилиги ва мақсадлилигига боғлиқдир.

Суд экспертизалари жиноятларни очиш ва тергов қилишда илмий-техник восита ва методлардан фойдаланишнинг муҳим процессуал шакли ҳисобланади.

Асосийси, бизнинг қарашларимиз остидада фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғини ҳимоя қилинишини таъминлаш, жиноятларни тергов қилиш амалиётида янги фан-техника восита ва методларини жорий этишга қаттиқ киришиш, Ўқотар қуролларни қўллаш билан боғлиқ жиноят ишлари бўйича далиллар базасини кенгайтириш масалалари турибди.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар Вазирлиги Академияси 3-босқич курсанти **Ибрагимов Максadbек Йўлдашбой ўғли** нинг “**Баллистик экспертизанинг аҳамиятли томонлари**” мавзусидаги мақоласи.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517852>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолам оркали ҳозирги кундаги замонавий баллистик экспертизанинг имкониятлари, таснифланиши, замонавий баллистиканинг назарий ва ҳуқуқий асосларига тухталиб ўтилган. Бундан ташқари, суд баллистикада мавжуд муоммолар ва унда учраб турадиган хатоларга тухталиб ўтилган.

Калит сўзлар: баллистиканинг тушинчаси, баллистик экспертизада хал қилинадиган масалалар, ўқотар қуроллар, ўқ-дорилар, жиноят содир этиш воситаси; ички ва ташқи баллистика.

Фойдаланилган адабиётлар: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т., 2020. – 45; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6196; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ”ги ПҚ-4125 сон.

“Ватанга ва халққа хизмат қилиш — энг олий бурчимиз!”

Турли жиноятларни очиш ва тергов қилишда ўқотар қуроллар ва жанговар ўқ-дориларнинг кўпинча жиноят содир этиш восита вақуроллари сифатида намоён бўлишини эсда тутиш лозим. Одамни ҳаётдан маҳрум қилиш ёки баданга шикаст етказиш, мулкка зарар етказиш ёки уни бузиш мақсадида шикаст етказиш ёки ёндириб юбориш воситаси сифатида жиноятчилар турли ўқотар қуроллар, қурилиш-монтаж тўппончалари ва ракетницалардан ҳам фойдаланадилар.

Қуроллар ва ўқ-дориларни ўғирлаш, бузиш, агар улар ноқонуний йўл билан ўзлаштирилган ёкитопилган бўлса, жиноят предмети, агар улар қонунга хилоф равишда сақланган, олиб сотилган ва тайёрланган бўлса, муомала қилиш тақиқланган буюмлар бўлиши мумкин. Қонунга хилоф равишда тайёрланган, ясалган қўлбола ўқотарқуроллар ва жанговар ўқ-дорилар, ярим тайёр маҳсулотлар, тайёр бўлмаган маҳсулотлар ва уларни тайёрлаш учун керак бўладиган материаллар жинойий қилмишнинг маҳсулотлари ҳисобланиши мумкин. Агар қўлбола усулда тайёрланган ўқотар қурол ва жанговар ўқ-дориларни жинойий мақсадда ишлатилган ёки ишлатишга ҳаракатқилинган бўлса, у ҳолда ушбу қуроллар ёки ўқ-дориларга жиноят содир этиш ёки жиноятга тайёргарлик кўриш воситаси сифатида қаралади. Ўқотар қурол ёки жанговар ўқ-дорилар жинойий мақсадда ишлатиб бўлинганидан кейин, уларни ўзгартириш(масалан, ўғирланган қуролнинг номерларини ўзгартириш) мақсадида ишлатилган асбоб-ускуналар эса содир этилган жиноятни яшириш воситаси сифатида баҳоланади. Ушбу санаб ўтилган ва далилий ашёлар сифатида олинган объектларни ҳар тарафлама ва тўлиқ тадқиқ этиш тергов тусмолларини тузиш ва текшириш, иш бўйича

хақиқатни аниқлаш, жиноятни содир этган айбдор шахсни аниқлаш ва уни кидириш, жиноий қилмишни тўғри квалификация этиш имконини беради.

Ўқотар қуроллар, жанговар ўқ-дорилар ва уларни ишлатишизлари – жуда хилма-хил ва ўзига хос хусусиятларга эга бўлган объектлардир. Бу каби объектларни жиноят процессининг турлибосқичларида тадқиқ этиш учун махсус билимлар керак бўлади ва ушбу билимларнинг қўлланилиши Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексида назарда тутилган. Мутахассисларнинг махсус билимлари алоҳида тергов ҳаракатлари ёки тезкор-қидирув тадбирларини ўтказишда ҳам, турли хил экспертизалар, жумладан, қуроллар ва уларни ишлатиш изларининг экспертизасини ўтказишда ҳам керак бўлади. Қуроллар ва улар ишлатилиш изларининг криминалистик экспертизаси ёки суд-баллистик экспертизаси – ўқотар қуроллар ва жанговар ўқ-дорилар ёки уларга ўхшаш нарсалар, уларни ишлатиш изларини аниқлаш мақсадида жиноятларни очиш ва тергов қилиш ёки суд муҳокамаси жараёнида вужудга келган техник саволларга мос ҳолда қонун билан белгиланган шаклда экспертиза хулосаси бериладиган тадқиқот туридир.

Худди бошқа барча суд экспертиза тадқиқотлари каби ушбу турдаги тадқиқотларнинг моҳияти – муайян жиноят ишига алоқадор деб топилган ва олинган моддий объектларни, ушбу иш бўйича тергов ва судни қизиқтирувчи саволларга жавоб бериш учун криминалистикада махсус ишлаб чиқилган ёки бошқа фан соҳаларида ишлаб чиқилиб, криминалистика учун қабул қилинган метод вавоситалар ёрдамида махсус тадқиқ этишдан иборат. Экспертизанинг мақсади – исботлаш ёки далилий аҳамиятга эга бўлган, илмий асосланган

маълумотлар олишдир. Тадқиқот натижасида аниқланган маълумотлар бўйича, керакли тарзда процессуал расмийлаштирилган ва илмий асосланган экспертиза хулосалари исботлаш манбаи бўлиб ҳисобланади. Ушбу тадқиқотларнинг субъекти – криминалистик техника, асосан, суд баллистикаси ёки ўқотар қуроллар, жанговар ўқ-дорилар ва уларни ишлатиш излари бўйича мутахассислик малакасига эга бўлган эксперт-криминалист ҳисобланади. Суд-баллистик экспертизаси ёки ўқотар қуроллар ва жанговар ўқ-дорилар, уларга ўхшаш нарсалар ва уларни ишлатиш излари бўйича махсус билимлар криминалистикада, ўқотар қуроллар ва жанговар ўқ-дориларнинг вужудга келиши ва ривожланиш тарихи, қуроллар ва жанговар ўқ-дориларнинг ишлаб чиқарилиши ва моддий қисм-ларининг хусусиятлари, ўқ (снаряд)нинг отилиши бўйича ички ва ташқи баллистиканинг қоидалари, излар ҳақидаги таълимот, криминалистик идентификация ҳамда гуруҳий тааллуқлилиқни аниқлаш назарияларини ўрганиш асосида шакллан

**Ҳуқуқбузарликка мойил шахслар билан якка тартибдаги
профилактикани ташкил этиш**

Идиева Азиза Журабек қизи

Ўзбекистон Республикаси

ИИБ Академияси

кундузги таълим 3-ўқув курси

307-гуруҳ курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6518164>

Аннотация: Мазкур мақолада якка тартибдаги профилактик фаолиятини ташкил этишнинг мақсади, жиноят ва ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган шахсларни аниқлаш, уларни ўрганиш, таъсир этиш, уларнинг хулқ-атворини ижобий томонга ўзгартириш, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи барча орган ва муассасалар ғайриижтимоий хулқ-атворли, ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган шахсларга таъсир кўрсатишга доир фаолияти, шунингдек якка тартибдаги профилактикани шахсинг, унинг ижтимоий муҳитнинг ўзига хос хусусиятлари, ижтимоий – маиший шароитлари ва турмуш тарзи, шахсинг ғайриижтимоий хулқ-атворини, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойиллигини, шунингдек содир этилган ҳуқуқбузарликларнинг ижтимоий хавфлилик масаласини тавсифловчи бошқа омилларни ҳисобга олган фаолият олиб бориш фаолияти кенг ёритилган.

Калит сўзлар: профилактик чора-тадбир, сабаб ва шарт-шароит, ғайриижтимоий хулқ-атвор, ҳуқуқбузарлик, ишонтириш, профилактик суҳбат.

Кириш: Маълумки, Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни қабул қилинишига қадар юридик

адабиётлар ва манбаларда ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг турлари ҳақида турлича қараш ва фикрлар илгари сурилиб, аниқ бир тўхтам мавжуд эмас эди. Қонуннинг қабул қилиниши бевосита ушбу қарама-қаршиликларга барҳам берди. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг турларининг ҳар бирини ўзига хос жиҳатлари ва афзалликлари мавжуд бўлиб, муайян бир турини амалга ошириш орқали эришиш мумкин бўлган натижаларга бошқасини амалга ошириб эришиш жуда мушкул вазифа ҳисобланади. Жумладан, ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси ҳам бундан мустасно эмас. Якка тартибдаги профилактик фаолиятини ташкил этишнинг мақсади, жиноят ва ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган шахсларни аниқлаш, уларни ўрганиш, таъсир этиш, уларнинг ҳуқ-атворини ижобий томонга ўзгартириш ҳамда уларга салбий таъсир этувчи

шарт-шароитларни тўхтатиш ва келгусида шу каби ҳолатларни олдини олишга қаратилган иши ҳисобланади. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи барча орган ва муассасалар ғайриижтимоий ҳуқ-атворли, ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган, ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларни аниқлаш, уларнинг ҳисобини юритиш ва уларга тарбиявий таъсир кўрсатишга доир фаолияти ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикасини амалга оширади. Ҳуқуқбузарликларнинг якка ва умумий тартибдаги профилактикаси профилактик таъсир кўрсатиш объектининг бир ёки бир гуруҳ шахслар ташкил этиши билан фарқланади. Бир сўз билан айтганда, якка тартибдаги профилактикада муайян шахсга, умумий профилактикада эса бир неча шахсларга профилактик таъсир кўрсатилади.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси объектларини қуйидагилар ташкил этади:

- ғайриижтимоий хулқ-атворга эга шахслар;
- ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахслар;
- ҳуқуқбузарлик содир этган шахслар;
- ижтимоий ҳимояга муҳтож болалар.

Шахсни ғайриижтимоий хулқ-атворга эғалигини қуйидагича билишимиз мумкин:

а) шахснинг жамиятда қабул қилинган хулқ- атвор нормалари ва қоидаларини бузувчи турмуш тарзи: қонуний никоҳсиз эр-хотин бўлиб яшаш, кўп қаватли уйларда яшаб, баланд овозда мусиқа оҳангларини эшитиб, кўшнилари тинчини бузиш ёки шундай оқибатни келтириб чиқарувчи бошқа машғулотлар билан шуғулланиш,

б) шахснинг жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларини бузувчи ҳаракатлари: жамоат жойларида спиртли ичимлик истеъмол қилган ҳолда юриш, жамоат жойида юрганда ёки ўтирганда писта чақиб ёхуд жамоатчилик фойдаланадиган йўл ва йўлакларни туфлаб (нос) ифлослантириш каби ҳаракатларда;

с) шахснинг жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларини бузувчи ҳаракатсизлиги: асосли сабаб бўлмасдан жамоат транспортларида қарияларга, ногиронларга ёки ҳомиладор аёлларга жой бермаслик ёки

махаллада уюштириладиган оммавий ҳашарларда иштирок этмалик сингари ҳаракатсизликда намоён бўлади.

Ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган шахсларга йўналтирилиб, бошқа профилактика турларидан қуйидаги алоҳида хусусиятлари билан фарқланади:

- ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси алоҳида тоифадаги ҳуқуқбузарликларга мойил шахсларга йўналтирилиши;
- индивидуал ёндошувни талаб этиши;
- мажбурлов ва чеклов нормаларини қўлланилиши;
- ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси йўналтирилаётган шахсларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб профилактик чоратadbирлар қўлланилишини талаб этиши;
- бошқа давлат органлари ва кенг жамоатчилик имкониятларидан фойдаланишни талаб этиши.

Х У Л О С А

Якка тартибдаги профилактик ишларни ташкил этиш жараёнини қуйидаги босқичларга ажратиб ўрганиш мумкин:

- 1) Тайёргарлик босқичи. Ушбу босқичда ғайриижтимоий хулқ-атворга эга, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил, ҳуқуқбузарлик содир этган, маъмурий назоратга ёки профилактик ҳисобга олинган шахс, ҳуқуқбузарликлардан жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган ҳамда ҳуқуқбузарликлардан жабрланган

шахслар ҳақида тўлиқ маълумотлар (ўқиш, иш, яшаш жойидан ёки унга нисбатан юритилган ҳуқуқбузарлик ишидан) йиғилади, якка тартибдаги профилактика иши бўйича индивидуал режа тузилади;

2) Тўғридан-тўғри якка тартибдаги профилактика фаолиятини олиб бориш босқичи. Бу босқичда қонун ва қонуности меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда қайд этилган тартибда белгилаб олинган якка тартибдаги профилактик чора-тадбирлар амалга оширилади. Ушбу жараёнда вазият тақозоси билан белгилаб олинган якка тартибдаги профилактик чора-тадбирлар ўзгартирилиши ёки қўшимча равишда профилактик чоралар ҳам қўлланилиши мумкин бўлади;

3) Якунловчи босқичи. Бу босқичда олиб борилган профилактик тадбирлар натижаси таҳлил этилади, муайян муддатда якка тартибдаги профилактика ўтказилган шахсга кўрилган профилактик чора қандай таъсир кўрсатганлиги ошқора ва ноошқора йўллар билан текширилади. Шундан сўнг, якка тартибдаги профилактика амалга оширилаётган шахсга нисбатан олиб борилаётган ишларни қай йўсинда ташкил этиш масаласи ҳал этилади. Мисол учун, муддатидан илгари профилактик ҳисобдан чиқариш ёки маъмурий назорат муддатини узайтириш юзасидан тақдимнома киритиш ёхуд режага кўра якка тартибдаги профилактик ишларни давом эттириш мумкин бўлади. Юқоридагилардан кўришиб турибдики, ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикасининг усул ва шакллари, профилактик чора-тадбирлари мазкур фаолиятнинг мазмунинининг ўзига хос хусусиятларини ташкил этади. Бу борадаги

билимлар ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикасининг самарали ташкил этилиши ва амалга оширилишини кафолатлайди.

Ф О Й Д А Л А Н И Л Г А Н А Д А Б И Ё Т Л А Р Р Ё Й Х А Т И

1.1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Т., 2021 йил.

1.2. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти психологияси. Дарслик. ИИВ Академия.

1.3. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти. Дарслик. ИИВ Академия.

1.4. Старцева-Тарасова Валерия Ивановна. Социальная работа общеобразовательной школы как средство профилактики правонарушений подростков. Ставропол-2005.

ИНВАРИАНТЫ ГРУПП ПРЕОБРАЗОВАНИЙ

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА МИРЗО УЛУГБЕКА

Факультет: Математики

Кафедра: Геометрия и топология

Магистрант: Абдуллева Юлдуз Ибодуллаевна

Научный руководитель: Нарманов Абдиганпар Якубович доктор физико-математических наук, профессор

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6497802>

Рассмотрим принадлежащее семейству однопараметрических отображений в многообразии M $f^t = (f_1^t, f_2^t, \dots, f_n^t)$, где t — вещественный параметр. Если множество отображений f^t удовлетворяет следующим условиям, оно называется однопараметрической группой:

$$f^{t_1} \circ f^{t_2} = f^{t_1+t_2}, \quad f^0 = I, \quad f^t \circ f^{-t} = f^{-t} \circ f^t = f^0$$

Пример: Очевидно, семейство параллельных переносов по вектору $\{a, b\}$

$$f^t(x, y) = (x + at, y + bt)$$

образует однопараметрическую группу.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ-2. Пусть G — группа преобразований, действующая на многообразии M . Функция $I : M \rightarrow R$ называется G -инвариантной функцией если для всех $x \in M$ и всех $g \in G$, таких, что определено действие g на x ,

$$I(g \cdot x) = I(x)$$

Справедлива следующая теорема.

Теорема 1. Пусть G группа преобразований многообразия M . Чтобы функция $I : M \rightarrow R$ была инвариантной функцией группы, необходимо и достаточно $X(I) = 0$ инфинитезимальной образующей группы X .

Если образующие X_1, \dots, X_r составляют базис алгебры Ли инфинитезимальных образующих мерной группы G , то функция $I(x)$ — инвариант, если и только если $X_k(I) = 0, k = 1 \dots r$.

В локальных координатах векторное поле имеет вид

$$X_k = \sum_{i=1}^m \xi_k^i(x) \frac{\partial}{\partial x^i},$$

так что функция I должна быть решением однородной системы линейных уравнений в частных производных первого порядка

$$X_k = \sum_{i=1}^m \xi_k^i(x) \frac{\partial I}{\partial x^i} = 0, \quad k = 1, \dots, r$$

Инфинитезимальная образующая параллельных переносом по вектору $\{a, b\}$ имеет вид

$$X = a \frac{\partial}{\partial x} + b \frac{\partial}{\partial y}$$

А функция $I = bx - ay$ является инвариантной функцией.

Пример 2. Рассмотрим группу вращений

$$f^\alpha(x, y) = (x \cos \alpha - y \sin \alpha, x \sin \alpha + y \cos \alpha)$$

имеющую инфинитезимальную образующую

$$X = -y \frac{\partial}{\partial x} + x \frac{\partial}{\partial y}.$$

Первое и второе продолжения векторного поля имеют вид

$$X^{(1)} = -y \frac{\partial}{\partial x} + x \frac{\partial}{\partial y} + (1 + y'^2) \frac{\partial}{\partial y'}$$

$$X^{(2)} = -y \frac{\partial}{\partial x} + x \frac{\partial}{\partial y} + (1 + y'^2) \frac{\partial}{\partial y'} + 3y'y'' \frac{\partial}{\partial y''}$$

Найдем дифференциальные инварианты этих векторных полей:

Соответствующая характеристическая система

$$\frac{dx}{-y} = \frac{dy}{x} = \frac{dy'}{1+y'^2} = \frac{dy''}{3y'y''}$$

Из первого уравнения получим инвариант нулевого порядка $I_0 = \sqrt{x^2 + y^2}$
Из второго уравнения

$$\frac{dy}{\sqrt{I_0^2 - y^2}} = \frac{dy'}{1+y'^2}$$

Еще один инвариант $I_1 = \frac{y' - y/x}{1+yy'/x}$. Теперь используя уравнение

$$\frac{dy'}{1+y'^2} = \frac{dy''}{3y'y''}$$

получим еще один инвариант

$$I_2 = \frac{y''}{(1+y'^2)^{3/2}}$$

Всем нам ясно, что это функция дает формулу кривизны кривой. Это означает, что кривизна является дифференциальным инвариантом второго порядка.

Рассмотрим векторное поле в трехмерном евклидовом пространстве

$$X = x \frac{\partial}{\partial x} + y \frac{\partial}{\partial y} + z \frac{\partial}{\partial z}$$

Следующие функции являются инвариантными функциями

$$I(x, y, z) = \frac{x^2}{y^2}, I(x, y, z) = \frac{x}{y}, \quad I(x, y, z) = \frac{x^2+y^2}{z^2},$$

Первое продолжение этого векторного поля и дифференциальные инварианты первого порядка имеют следующий вид

$$X^{(1)} = x \frac{\partial}{\partial x} + y \frac{\partial}{\partial y} + z \frac{\partial}{\partial z} + z_x \frac{\partial}{\partial z_x} + z_y \frac{\partial}{\partial z_y}$$

$$I_1^{(1)} = \frac{xz'_x}{z+xz'_x}, I_1^{(1)} = \frac{yz'_x}{z+yz'_x}$$

Второе продолжение этого векторного поля и дифференциальные инварианты второго порядка имеют следующий вид

$$X^{(2)} = x \frac{\partial}{\partial x} + y \frac{\partial}{\partial y} + z \frac{\partial}{\partial z} + z_x \frac{\partial}{\partial z_x} + z_y \frac{\partial}{\partial z_y} + z_{xx} \frac{\partial}{\partial z_{xx}} + z_{xy} \frac{\partial}{\partial z_{xy}} + z_{yy} \frac{\partial}{\partial z_{yy}}$$

$$I_1^{(2)} = 2xyz \frac{zz'_{xy} - z_x z_y}{(z + xz'_x)^2 (z + yz'_y)} I_2^{(2)} = 2xyz \frac{zz'_{xy} - z_x z_y}{(z + yz'_y)^2 (z + xz'_x)}$$

$$I_3^{(2)} = 2xz \frac{z(z_x + xz_{xx}) - xz_x^2}{(z + xz'_x)^3} I_4^{(2)} = \frac{x^2 z_{xx}}{z + xz'_x} I_5^{(2)} = \frac{xyz_{xy}}{z + xz'_x}$$

$$I_6^{(2)} = \frac{xyz_{xy}}{z + yz'_y} I_7^{(2)} = \frac{y^2 z_{yy}}{z + yz'_y}$$

Рассмотрим субмерсию $f(x, y, z) = x^2 + y^2 - z^2$, поверхности уровня которой задается уравнением $x^2 + y^2 - z^2 = c$. Рассмотрим случай для $c \geq 0$. Гауссова кривизна поверхности вычисляется по формуле

$$K = \frac{z_{xx} * z_{yy} - z_{xy}^2}{(1 + z_x^2 + z_y^2)^2}$$

Если $X^{(2)}(K) = 0$, то гауссова кривизна является дифференциальным инвариантом второго порядка. Производя вычисление получим

$$X^{(2)}(K) = \frac{2(1 - z_x^2 - z_y^2)(z_{xx} * z_{yy} - z_{xy}^2)}{(1 + z_x^2 + z_y^2)^3}$$

Для нашей субмерсии поверхность уровня пишем как график функции

$$z = \sqrt{x^2 + y^2 - c}$$

и находя конкретные производные рассматриваемой функции находим

$$X^{(2)}(K) = \frac{0}{(2x^2 + 2y^2 - c)^3} = 0$$

Таким образом для нашей субмерсии гауссова кривизна является дифференциальным инвариантом второго порядка.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. П. Олвер “Приложения групп Ли к дифференциальным уравнениям”
2. Кузаконь В. М. Метрические дифференциальные инварианты расслоения кривых на плоскости. Збірник праць Ін-ту математики НАН України. 2006, т.3, №3, с 201-212.
3. Кузаконь В. М. Дифференціальні інваріанти субмерсій многовидів// Вісн. держ. ун-ту «Львів. політехніка». Сер. Прикл. математика. – 1999. -№364. –с 295-298.

Иновацияларнинг мохияти ва роли

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият

институти доценти, тарих фанлари номзоди

Юсупалиева Дилафруз

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият

институтининг 4-босқич талабаси

Холмахматов Пирмухаммад

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473616>

Аннотация: Мақолада инновацияларнинг моҳияти ва роли очиб берилган.

Калит сўзлар: инновация, инновация салоҳияти, илм-фан янгиликлари, иқтисодий ривожланиш, замонавий технологиялар, тадбиркорлар.

Маълумки, замонавий миллий иқтисодиёт самарадорлигининг асосини табиий ва меҳнат ресурслари билан бир қаторда, мамлакатнинг инновация салоҳияти ташкил этади. Бундан фойдаланиш макроиқтисодий барқарорлик, реал секторлар рақобатбардошлигини таъминлаш, етакчи тармоқларни техник ва технологик даражасини кўтариш ва бошқаришнинг замонавий усулларини жорий этишда кенг имкониятларни очиб беради. Бу имкониятлар аввало фундаментал тадқиқотлар, илм-фан янгиликлари, янги билимлар, замонавий ахборот технологиялари ва хизмат кўрсатиш усулларида намоён бўлади.

Инновациялар иқтисодиётни модернизациялашни, ишлаб чиқаришнинг техник ва технологик базасини узлуксиз янгиланишини, янги рақобатбардош маҳсулотларни ўзлаштириш, товарлар ва хизматларнинг жаҳон бозорларига самарали кириб боришини таъминлашга йўналтирилади. Инновацион йўналишга асосланган иқтисодий ўсиш ривожланишнинг эволюцион

натижаси бўлиб, унинг моҳиятини фундаментал фанлар, янги илмий ишланмалар, назарий ва амалий кашфиётлар, бошқарувнинг янгича усуллари ташкил этади. Бунда асосий эътибор иқтисодий фаолиятдан кутилаётган мақсад, унга эришиш йўллари, бу йўналишда рақобат муҳитининг мавқеи ва таъсирига қаратилмоғи лозим.

Жаҳонда хўжалик юритиш амалиёти ишлаб чиқаришда ва такрор ишлаб чиқаришни мунтазам ошириб боришда, иқтисодий тараққиётнинг барқарорлигини таъминлашда, ишлаб чиқарувчи кучларни тубдан янгилашда инновацияларнинг асосий ҳаракатлантирувчи куч эканлигини исботлади. Шунга кўра, эндиликда жаҳоннинг барча мамлакатларида инновацион фаолият иқтисодий ривожланишнинг барча босқичларида барқарорликни таъминлаш асоси бўлиб хизмат қилади, унинг негизида мамлакат иқтисодий хавфсизлигини ҳимоя қилиш, моддий-техника базасини замонавий технологиялар асосида янгилаш, ишлаб чиқаришни тубдан модернизация қилиш имкониятлари яратилади. Фақат шу йўналиш негизидагина ишлаб чиқариш харажатларини камайиши, макроиқтисодий кўрсаткичларнинг ижобий ҳолати кузатилади. Шу боис, асосий эътиборни иқтисодий-ижтимоий тараққиёт омили сифатида инновацион фаолиятга, унинг турли босқичлардаги ривожланиш даражасига, ахборот коммуникация тизимидаги ўзгаришларга ва уларнинг самарадорлигига қаратишимиз лозим.

“Инновация” атамаси биринчи марта австриялик иқтисодчи Й.Шумпетер томонидан 1912 йилда «Иқтисодий ривожланиш назарияси» асарида таклиф этилган[1]. Инновацион назариянинг энг асосий қоидалари ҳам ушбу асарда тўла асослаб берилган. У инновация деб ишлаб чиқариш соҳасида қўлланган

янгилик ва у билан боғлиқ барча ўзгаришларни тушунган. Унинг фикрича, инновация фойда олишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланиб, ишлабчиқаришнинг барқарорлигини таъминлаш, ривожланишни янада тезлаштириш манбасидир. Кейинчалик Й.Шумпетер рус иқтисодчи олими Н.Д.Кондратьевнинг “иқтисодий ривожланишнинг тўлқинли концепцияси”ни ўзинининг инновацион назарияси билан боғлади ва натижада у цикли ривожланиш назариясини шакллантирди[2]. Бу назариянинг асосий ҳаракатлантирувчи механизми сифатида, янгиликларни жорий этиш жараёнини ҳисоблади. Бу ерда ҳаракатлар ёки тебранишлар сабабларини таҳлил эта туриб, олим иқтисодиёт фанида биринчи бўлиб ишлаб чиқариш омилларининг янги комбинацияларини ажратиб кўрсатди ва уларни қуйидаги босқичлар кўринишида тавсифлади: янгилик, яъни истеъмолчиларга маълум бўлмаган неъматни ишлаб чиқариш ёки бирор неъматнинг янги сифатини яратиш;

саноатнинг муайян тармоғида янги, амалда ҳали номаълум ишлаб чиқариш усулини жорий этиш. Бу усулнинг асосида янги илмий кашфиёт ётади ва у тегишли товарнинг тижоратда қўлланишининг янги усулидан иборат бўлиши мумкин;

сотишнинг янги бозорини ўзлаштириш, яъни муайян мамлакат саноат маҳсулотларининг ҳозирга қадар иштирок этмаган, янги бозорларда сотилиш имкониятларининг яратилиши;

хом-ашё ёки ярим тайёр маҳсулотларнинг янги манбаларини ўзлаштириш (бунда мазкур манбанинг аввал мавжудлиги аҳамиятли эмас);

ишлаб чиқаришни қайта ташкил этишнинг самарали усуллари қўллаш, монопол мавқени таъминлаш (трестлар тузиш йўли билан) ёки бошқа корхонанинг монопол мавқеига барҳам бериш.

Бундай таснифнинг асосида “янгилик” тушунчаси ётади, у муайян тизимда ёки соҳада янгиликларнинг ёки уларнинг бирон-бир тўпламининг тебранишлари амплитудаси ва давомийлигини аниқлашга имкон беради. “Янгилик” бу ишлаб чиқаришни кенгайтириш, унинг самарадорлигини оширишга қаратилган маълум бир фойдали ўзгаришни назарда тутди ва шу маънода ушбу тушунча “ихтиро” тушунчасига жуда яқин. “Янгилик киритиш” – бу янги техника ва технологияни, ташкил этиш ва бошқаришнинг такомиллашган усуллари ўзлаштириш демакдир. “Инновация” эса – бу “маҳсулотлар, технологиялар, ташкилий шаклларнинг янги турларини ишлаб чиқишга, яратишга, тарқатиш ва фойдаланишга йўналтирилган фаолиятдир”. Бу йўналишдаги бошқа тадқиқотлар Й.Шумпетер кўрсатиб ўтган комбинацияларнинг барчаси инновацияларни, уларнинг пайдо бўлиш босқичлари, табиати ва қонуниятларини ўрганишда тўғри хулоса қилишга имкон беради.

Шуни қайд этиш лозимки, ҳозирги кунда ҳам ижтимоий-иқтисодий ривожланиш босқичларида бундай ёндашувнинг турли кўринишлари турлича шакл ва услубларда намоён бўлишини кузатиш мумкин.

Америкалик бошқарув бўйича мутахассис П.Друкер инновацияга нисбатан янада кенгроқ ёндашувни ишлаб чиқди. Унинг ҳисоблашича, янгилик киритиш – бу, техник тушунча эмас, балки иқтисодий ва ижтимоий тушунча, чунки техник-технологик янгиликларни амалиётга жорий этиш натижасида

маҳсулотнинг қиймат кўриниши ва истеъмол хусусиятлари ўзгаради. П.Друкер инновацияни тадбиркорлар фаолиятининг алоҳида воситаси сифатида белгилаб беради, яъни тадбиркорлар ушбу восита ёрдамида бизнес ёки хизматларнинг янги турларини, маҳсулотнинг янгича кўринишларини таклиф этишга интилади, дейди. “Янгилик киритиш – бу мураккаб тизим бўлиб, унинг ёрдамида ғоялар ва ихтиролар биринчи марта тижорат воқелигига айланади. Бу – маҳсулот ёки хизмат турларини бозорга чиқариш, иқтисодиётга муваффақиятли жорий этиш, демакдир”[3].

Инновация назарияси В.Зомбарт ва В.Митчерлих асарларида мамлакатнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлашнинг асоси сифатида тадқиқ этилган. Уларнинг фикрича ривожланиш тизимида асосий бўғин «техника тараққиёти» омили ҳисобланади, бунда техника янгиликларини ишлаб чиқариш ва ёйиш ҳисобига катта фойда олиш, корхоналарнинг бозордаги мавқесини кучайтириш мумкин. Бундан ташқари, улар корхоналар эришилган натижада тўхтаб қолмасдан, янги билим ёки ишлаб чиқариш масаласини ҳал этишнинг янги техник қоидаларини яратиш, янги маҳсулотлар ёки хизматлар турларини таклиф этиш билан бирга барча масъулиятни ҳам ўз зиммасига олиши лозимлигини таъкидлайдилар.

Инновация тўғрисидаги илмий назариянинг шаклланишига рус тадқиқотчилари муҳим ҳисса қўшдилар. Булар “катта конъюнктура цикллари” муаллифи Н.Д.Кондратьевнинг издошлари ва бошқалар.

Н.Д.Кондратьевнинг “катта цикллари” назариясига мувофиқ жамият ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнида янги ғоялар, техник тараққиётнинг янги натижаларини дарҳол ва мунтазам ўзлаштириб,

мамлакатнинг иқтисодий ҳавфсизлигини таъминлаш, макро ва микродаражадаги кўрсаткичларнинг ижобий ҳолатини барқарорлаштиришга олиб келувчи ихтироларни амалиётга жорий этади [4].

А.И.Анчишкиннинг фикрига кўра “инновация”, “янгилик киритиш” атамалари фақат техник-технологик ўзгаришлар билан чегараланиши мумкин эмас. У ушбу атамага кенг ижтимоий маъно бериб, янгиликларни жамиятни ривожлантиришнинг муҳим воситаси сифатида кўриб чиққан ва техник-технологик янгиликлар муайян иқтисодий оқибатларни келтириб чиқарган ҳолда сотиш бозори учун курашишга кўмаклашиб, рақобат муҳитини ўзгартиради ва бу билан ижтимоий ривожланишга ёрдам беради, дейди [5].

“Янгилик киритиш” тушунчасининг таърифига нисбатан турли нуқтаи назарларни таҳлил қилиб, Л.С.Барютин “янгилик киритиш” деб, муайян жамият эҳтиёжларини қондирувчи иқтисодий, ижтимоий ёки техник самара берувчи янгича кўринишга эга бўлган, (модификацияланган) амалий восита бўлиб, ундан фойдаланиш ҳали ялпи хусусият касб этмаган бўлмоғи лозим деган фикрни беради. И.Перлаки инновацияни “янгиликларнинг пайдо бўлиши, яратилиши ва амалга оширилиши жараёни” сифатида тушунади. Бунда янгиликлар ишлаб чиқаришни интенсификациялаш омили сифатида тадқиқ этилиб, ҳар қандай янгилик муайян мақсадга ёки бир неча ўзаро боғлиқ мақсадларга эришишга хизмат қилади, деб талқин қилинади.

Э.А.Уткин эса инновация (янгилик киритиш)ни амалга оширилган илмий тадқиқот ёки кашфиёт натижасида ишлаб чиқаришга жорий этилган, аввалгисидан сифат жиҳатдан фарқ қилувчи объект сифатида таърифлайди [6].

Юқорида келтирилган фикрларга асосланиб ва уларни умумлаштириб, ўз моҳияти нуқтаи назаридан, инновация – бу назария ва амалиётнинг алоҳида шакли, ижтимоий, иқтисодий, маданий объект хусусиятларини такомиллаштиришга йўналтирилган ҳаракатларнинг яхлит тизимидир, дейиш мумкин.

Адабиёт:

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М., Прогресс, 1982. – 455с.
2. Кондратьев Н.Д. Предприятие в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность. –М., Экономика, 1997. – 288 с.
3. П.ДрукерНовый бизнес. - М.: Экономика, 1993. - 65 с.
4. Кондратьев Н.Д. Проблемы экономической динамики. Ред.кол. Л.И.Абалкин и др. М., Экономика, 1989. – 526 с.
5. Анчишкин А. И. Наука - техника - экономика. - М.: Экономика, 1986, -35 с.
6. Уткин Э.А., Морозова Г.И. Инновационный менеджмент. –М., Акалис, 1996. – 208 с.

Метод самообразования в освоении специальных дисциплин

Комилов М.Ж.

студент магистратуры Ташкентского государственного транспортного
университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6497959>

Ключевые слова: методы самообразования, проектный метод, курсовая работа, наблюдение, проверка знаний, защита курсовой работы.

Аннотация. В статье раскрывается роль метода самостоятельной самообразовательной деятельности студентов технических вузов, а именно, курсового проектирования по специальным дисциплинам с использованием компьютерной техники, информационных технологий, текстового и графического редакторов.

В последние годы в Узбекистане с целью повышения качества профессиональной подготовки в сфере высшего образования проявляется большой интерес к методам самообразования студентов, в частности, к проведению самостоятельной работы студентов.

В самостоятельной работе студентов применяются репродуктивный, проблемный, поисковый, исследовательский, практический, проектный методы обучения [1, 2]. Реализуется она через приоритетность внепредметных знаний.

Самостоятельная работа студентов в освоении дисциплины «Технология и организация строительства» начинается на 3 курсе выполнением курсовой работы. Студентам выдается индивидуальное задание на разработку производства строительных работ в определенном районе с грунтовыми характеристиками участка. Задание привязывается к варианту продольного профиля участка новой автомобильной дороги. Разработка курсовой работы (проекта) начинается с исследования природно-климатических условий заданного района строительства. Работа (проект) выполняется индивидуально в форме творческой работы по производству работ при

сооружении участка земляного полотна (3 курс) и проекта организации строительства участка новой автомобильной дороги (4 курс) в объеме не менее 2,0 п. л. пояснительной записки и графической части. В графической части разрабатываются графики объемов работ, кривая суммарных объемов земляных работ, календарный, сетевой графики и технологические схемы производства работ. Проект представляется в письменном виде, оформляется студентом на персональном компьютере в текстовом и графическом редакторах или рукописно и защищается перед академической группой, является составной частью его выпускной работы.

Использование компьютерной техники и информационных технологий значительно повышает эффективность процесса обучения благодаря его индивидуализации, наличию обратной связи, расширению наглядности. То, что невозможно сделать при помощи традиционных технологий на учебных занятиях, позволяют во многом реализовать информационные технологии [3]. Они позволяют оперировать большим объемом информации и работают с большим быстродействием, реализовывая возможность лучшего изучения материала, повышения качества учебного процесса и усиления интереса учащихся к учебной деятельности.

Таким образом, творческий учебный проект студента представляет идеальную модель деловой игры. В процессе проектирования используется модульный принцип, состоящий из последовательных процессов, действий и входящих в них операций. Состав работы в общем случае включает обоснование актуальности проекта (Введение); определение объемов работ; выбор техники и механизмов; расчет производительности и

количества ведущих машин, определение сроков строительства, технико-экономический расчет, сравнение и выбор рационального варианта механизации, разработку технологических схем и технологии производства работ; безопасность производства работ, экологию окружающей среды; разработки календарных и сетевых графиков выполнения работ с выбором наиболее рационального варианта; защиту и оценку проекта.

Контролем качества самостоятельной работы могут быть: наблюдение, проверка знаний и умений, защита курсовых работ и проектов. Оценка самостоятельной работы студентов осуществляется по профессионально важным технологическим качествам (компетентность, уровень технологической культуры и навыки преобразовательной деятельности...) подготовки студента по дисциплине.

Самостоятельная работа в форме курсового проектирования способствует овладению обучающимися способов приобретения технологических знаний, научиться логически мыслить; соответствует интересам студентов, возможностям развития их творческих способностей, подготовке к самостоятельной жизни, обеспечивает социальную защищенность после окончания вуза.

Использованная литература

Семушина Л. Г., Ярошенко Н. Г. Содержание и технологии обучения в средних специальных учебных заведениях: учебное пособие для преподавателей учреждений СПО, М., Мастерство, 2001.

Бычкова А. Я. Об эффективности обучения при выборе методов и приемов дидактической деятельности / А. Я. Бычкова. — Текст : непосредственный // Инновационные педагогические технологии : материалы I Междунар. науч. конф. (г. Казань, октябрь 2014 г.). — Казань : Бук, 2014. — С. 252-254. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/143/6155/> (дата обращения: 31.03.2022).

<http://juice-health.ru/computers/94-ispolzovanie-kompyuterov-v-obrazovanii>

ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ҲАЁТИЙ ШАКЛЛАРИ ҚИЗИЛДАРЁ ҲАВЗАСИ АДирЛАРИДА ТАРҚАЛГАН ДОРИВОР

Қарши давлат университети

Биология (Ботаника) мутахассислиги

магистранти **Қобиров Ойбек Зиёдуллаевич**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6524292>

Аннотация

Мақолада Қизилдарё ҳавзаси адирлари флорасида тарқалган доривор турларнинг ҳаётий шакллари бўйича таҳлил натижалари келтирилган. Флорада ўсадиган доривор ўсимликларнинг 46,45%ини гемикриптофитлар, 34,7% ини терофитлар, 6,73% ини криптофитлар, 6,02% ини фанерофитлар ва 6,02 % ини хамефитлар ташкил этиши аниқланган. Флорада гемикриптофит турларнинг устунлик қилишини Ўрта Осиёнинг Тоғли қисмидаги маҳаллий флораларга хос белги эканлиги билан изоҳланган. Терофитлар сонининг кўплиги (34,7%) ва уларнинг индивид жиҳатдан флорада кенг тарқалганлигини эса ҳудуддаги экологик муҳит ҳамда минтақанинг текислик билан ўзаро тутшиб кетганлиги билан изоҳланган.

Калит сўзлар: флора, доривор ўсимликлар, ҳаётий шакл, фанерофит, хамефит, гемикриптофит, криптофит, терофит

Эволюция жараёнида ўсимликларда яшаб турган муҳитига мос равишда турли хил биоморфологик мосланишлар келиб чиққан. Ўсимликларнинг ҳаётий шакллари – уларнинг атроф–муҳит шароитларига мослашганлигини акс эттирувчи ва ўхшаш адаптив тузилишга эга ўсимликлар гуруҳинининг тасниф бирлигидир. Ҳаётий шакллар минтақанинг экологик шароитида ўсимликларда аста-секинлик билан сордир бўладиган ўзгаришларнинг умумий йиғиндиси, узоқ эволюциянинг аксидир [1].

Флорада ўсадиган турларнинг ҳаётий шакллари бўйича таҳлил ўтказиш унинг генезиси ва структуравий тузилишини аниқлаш имконини беради [2]. Ҳаётий шакллар бўйича тадқиқот ишлари орқали флоранинг элементар

асосини қайси ҳаётий шаклдаги турлар эгаллашини ҳам аниқлаш мумкин бўлади.

Шу мақсадда 2021-2022 й.й.лар мобайнида Қашқадарё вилояти Яккабоғ тумани ҳудудидаги Қизилдарё ҳавзаси адирлари флорасида тарқалган доривор ўсимликларнинг ҳаётий шакллари ўрганилди. Таҳлиллар С. Raunkiaer таснифи бўйича амалга оширилди [10]. Таҳлил натижаларига кўра Қизилдарё ҳавзаси адирлари флораси турларининг ҳаётий шакллари спектрида турлар сони бўйича гемикриптофитлар устунлик қилиши, бу гуруҳнинг 35 оила 88 туркумга мансуб бўлган 131 турдан иборатлиги аниқланди.

Ҳудудда тарқалган гемикриптофит турларнинг асосий қисми полиморф Asteraceae (42/16 ёки 38,09%), Fabaceae (21/13 ёки 62 %), Lamiaceae (22/11 ёки 50%), Poaceae (13/10 ёки 77 %), Apiaceae (15/10 ёки 66,6 %), Malvaceae (11/8 ёки 72,7 %), Polygonaceae (13/6 ёки 46,1%) оилалар вакиллари ташкил этди. Бунга кўра флорада турлар сони бўйича кўп бўлган Asteraceae оиласининг 16 тури гемикриптофит. Навбатда турлар сони бўйича Fabaceae оиласи вакиллари туради. Қизилдарё флорасида мазкур оиланинг 21та доривор тури тарқалган бўлса, шулардан 13 тур гемикриптофитларга тўғри келди. Lamiaceae оиласидан 11 та доривор тур гемикриптофит ҳаётий шаклга эга. Poaceae ва Apiaceae оиласининг 10 тадан доривор вакили ҳам гемикриптофит ҳисобланади. Malvaceae ва Polygonaceae оилаларининг мос равишда 8 та ва 6 та доривор тури гемикриптофит саналади. Қизилдарё ҳавзаси адирларида ўсувчи доривор турларнинг деярли ярми (46,45% и) гемикриптофит ҳаётий шаклга эга бўлиб, бу Р.В. Камелиннинг (1973) Ўрта

Осиёнинг Тоғли қисмидаги маҳаллий флораларларнинг барчасида гемикриптофит турларнинг устунлик қилиши тўғрисидаги маълумотини тасдиқлайди [2]. Демак, флора таркибида гемикриптофит турларнинг устунлик қилиши Тоғли Ўрта Осиёга хос бўлган белгилардан бири саналади.

Турлар сони бўйича навбатдаги ўринда терофитлар эгаллайди. Булар 26 оила 67 туркумга мансуб бўлган 98 доривор турдан иборат. Бу турлар флорадаги доривор ўсимлик турларининг 34,7 %ини ташкил этади.

Флорадаги доривор терофитлар полиморф саналган Asteraceae (42/21 ёки 50 %), Amaranthaceae (14/10 ёки 71,4 %), Fabaceae (21/7 ёки 33,3 %), Polygonaceae (13/7 ёки 53,8%) сингари оилаларга тўғри келиши маълум бўлди.

Ушбу оилалардан терофит турларнинг устунлик қилишида Asteraceae оиласидан Artemisia (3), Filago (3), Centaurea (2), Xanthium (2), Amaranthaceae оиласидан Chenopodium (6) Atriplex (3), Fabaceae оиласидан Melilotus (4), Medicago (2), Polygonaceae оиласидан Persicaria (4), Polygonum (2) туркумлари ҳисобига тўғри келди. Терофит турлар индивид жиҳатдан ҳам флорада кенг тарқалган. Буни ҳудуддаги экологик муҳит ҳамда минтақанинг текислик билан ўзаро туташиб кетганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Флорадаги криптофитлар 13 оила 14 туркум ва 19 турдан иборат бўлиб, унга Potamogetonaceae оиласининг 3 та, Equisetaceae, Asphodelaceae ва Juncaceae оилаларининг 2 тадан, қолган оилаларнинг 1 тадан вакиллари киради.

Полиморф оилаларга Fabaceae оиласининг битта тури (*Medicago lupulina*) криптофит ҳисобланади. Қолган полиморф оилаларнинг криптофит вакили мавжуд эмас. Флорада *Potamogeton* туркумининг 3 та доривор тури ўсади ва уларнинг барчаси криптофитларга киради.

Қизилдарё ҳавзаси адирлари флорасида хамефитлар 4 оила, 9 туркумга мансуб 17 турдан иборат. Флорадаги хамефитлар бўйича етакчилик қилишида Lamiaceae (22/7 ёки 31,8%), Asteraceae (21/5 ёки 23,8%) ва Amaranthaceae (14/4 ёки 28,57%) оилалари вакиллари иштирок этади. Euphorbiaceae оиласининг 4 та доривор тури орасидан фақтгина *Andrachne telephoides* хамефит ҳаётий шаклига эга.

Флорада тарқалган фанерофитлар 8 оила 10 туркумга мансуб 17 турдан иборат. Шундан Rosaceae оиласининг 5 та, Elaeagnaceae оиласининг 2 та доривор вакиллари ўсади. Ephedraceae, Berberidaceae, Zygophyllaceae, Elaeagnaceae ва Solanaceae оилаларининг 2 тадан, Anacardaceae ва Saprotiaceae оиласининг 1 тадан фанерофит вакили учрайди. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Қизилдарё ҳавзасининг адир минтақасида ўсиб турган ушбу турларнинг асосий қисми аҳоли томонидан тоғ ва тоғолди минтақасидан келтириб экилганлиги маълум бўлди.

Шундай қилиб, Қизилдарё ҳавзаси адирлари флорасида тарқалган доривор турларнинг ҳаётий шакллари бўйича таҳлил натижалари жами доривор ўсимликларнинг 46,45%ини гемикриптофитлар, 34,7% ини терофитлар, 6,73% ини криптофитлар, 6,02% ини фанерофитлар ва 6,02 % ини хамефитлар ташкил этишини кўрсатди. Ушбу натижа Р.В. Камелиннинг (1973) Ўрта Осиёнинг Тоғли қисмидаги маҳаллий флоралараларнинг

барчасида гемикриптофит турларнинг устунлик қилиши тўғрисидаги маълумотини тасдиқлади. Терофитлар сонининг ҳам кўплиги (34,7%) ва уларнинг индивид жиҳатдан флорада кенг тарқалганлигини ҳудуддаги экологик муҳит ҳамда минтақанинг текислик билан ўзаро тутшиб кетганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Сафаров Н.М. Анализ жизненных форм флоры центрального Памиро-алая. Доклады академии наук республики Таджикистан 2013, том 56, №8. С.643-648.
2. Камелин Р.В. Флорогенетический анализ естественной флоры горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 356 с.
3. Сулайманов Н.О. Флора бассейна реки Аксу (Туркестанский хребет): Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 2008. – 21 с.
4. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского заповедника (хребет Кугитанг): Дисс ...канд. биол. наук. – Ташкент, 2009. – 156 с.
5. Тожибаев К.Ш. Флора юго-западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан): Автореф. дис. ... док. биол. наук. – Ташкент, 2010. – 35 с.
6. Баташов А.Р. Флора останцов юго-восточного Кызылкума. Автореф. дисс. канд. биол.наук. Ташкент. 2016. 32 с.

7. Тургинов О.Т. Бойсун ботаник-географик райони флораси: Дис. ...канд биол наук. – Тошкент: 2017. – 296. б.
8. Эсанов Х.Қ. Бухоро воҳаси флораси таҳлили: Автореф. дис. ...канд биол наук. – Ташкент: 2017. – 45 с.
9. Азимова Д.Е. Молгузар тизмаси флораси Дис. ...канд биол наук– Тошкент: 2018. – 230. б.
10. Raunkiaer C. The life form of plants and statisticae plant geography. – Oxford, 1934. (632 p.

**“Инглиз тилида сўзларнинг турли талаффуз вариантларида тарқалиши
ва уларнинг талаффуз луғатларида акс этиши”**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6479111>

Қодирова Гулбахор

Жиззах вилояти Шароф Рашидов тумани

17-ИДУМ чет тили фани ўқитувчиси

Жиззах Давлат Педагогика Институтининг

«Хорижий тиллар» факултети II босқич магистранти

Аннотация: Мазкур мақола инглиз сўзларининг турли талаффуз вариантлари ва уларнинг талаффуз луғатида акс этишини ўрганишга бағишланган. Инглиз тилининг Британия ва Америка адабий талаффузлари қиёслаш объекти

сифатида танланди. Инглиз сўзлари талаффуз вариантларининг хусусиятлари тилнинг ривожланиш тараққиёти билан чамбарчас боғлиқдир.

Мақолада материал сифатида Англия ва Америкада чоп этилган талаффуз луғатларидан фойдаланилди (1, 2, 3, 4, 7).

Калит сўзлар: фонетик вариант, талаффуз луғатлари, неологизм, урғу, унли ва ундош товушлар

Инглиз тили дунёда кенг тарқалган тиллардан бири ҳисобланади. Инглиз тилининг дунё бўйича тарқалиши унинг турли вариантларининг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Инглиз тили тарқалган пайт Шекспир даврига, яъни ўн еттинчи аср инглиз адабий тили ривожланиши давом этаётган даврга тўғри келган. Бу даврда инглиз тилининг ўзида катта ўзгаришлар юз бераётган эди. Тилнинг ўзгаришига оид жараёнлар ўз ичига биринчи навбатда имло, фонетик ўзгаришлар, лексик ҳамда муайян даражада грамматикани камраб олган эди. Бу даврда битта сўз бир неча хил имлога, бир неча хил талаффузга эга бўлганлиги билан характерланади. Бунда бошқа тиллардан тайёр сўзларни ўзлаштириш одат бўлган. Бу жараён инглиз тили Шимолий Америка худудига кириб келгандан сўнг ҳам давом этди. Маълум маънода Америкага инглиз тили ўн еттинчи асрда Британиядан кириб келган ўзгаришлари билан бирга олиб ўтилди ва инглиз тили АҚШ ҳам ривожлана бошлади. Инглиз тилининг ўзида бир хил маънога эга бўлган сўзлари бўла туриб, бошқа тилдаги худди шу маънога эга бўлган сўзларни ўзлаштириш кенг тарақала бошланди. Вақт ўтиши билан инглиз тилининг Америка варинтига ўзлашмаган сўзлар маҳаллий Америка ҳиндулари тили ҳисобига бойиди. Кейинчалик янги ўзлашган сўзлар манбаи бошқа тиллар ҳисобига

кенгайиб борди ва бу тиллар сирасига голланд тили, француз тили, испан тили, немис ҳамда муайян даражада итальян тили, идиш ҳамда хитой тиллари кирди. Бу жараён ҳозирги кунда ҳам муттасил давом этиб келмоқда.

Эски сўзларни янги маънода қўллаш ҳам инглиз тилининг Америка вариантнинг ривожланишига ҳисса қўшди. Мавжуд лексик бойликдан, тил имкониятларидан фойдаланиб янги сўзлар, терминлар, сўзнинг фонетик вариантлари яратила бошланди.

Тайёр неологизмларни ҳисобига инглиз тилининг луғавий таркиби бойиди, Америкаликларнинг бошқа инглиз тилида сўзловчи халқлар тилидан янги сўзларни қабул қилиш кучайди. Бундай вазият сўзларда синонимларнинг кўпайишига сабаб бўлди.

Қисқартма сўзларнинг қўлланиши, бу сўзларнинг биринчи, иккинчи ёки учинчи бўғинини сақлаб қолиш ҳисобига сўзларни қисқартириш, чатишган сўзларни қўллашга бўлган катта қизиқиш, турли сўз туркумига тегишли сўзларни қўллаш каби жараёнлар юз берган ва буларнинг ҳаммаси сўз талаффузлари фонетик вариантларининг пайдо бўлишига асосий сабаб ҳисобланади.

Сўзларнинг талаффуз вариантларини тўғри қўллаш ва уни маълум маънода меъёрлаштириш мақсадида аввал Англияда, кейинчалик Америкада талаффуз луғатлари чоп этила бошлади. Луғатлар ҳажми ва унга киритилган сўзлар миқдори жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади. Аввал инглиз тилининг Британия ёки Америка талаффузи бўйича алоҳида луғатлар чоп этилган бўлса, кейинчалик Англия ва Америка талаффузларидаги фарқларни

кўрсатувчи талаффуз луғатлари тузила бошланди. Бундай луғатларнинг тузилишига инглиз тилининг мазкур иккита варианты ўртасида сезиларли фарқнинг мавжудлиги сабаб бўлган. Бу луғатлар сўз имлоси ва талаффузига оид турли-туманликка чек қўйиш ҳамда талаффузнинг муайян адабий нормасини яратишга бўлган интилиш учун катта хизмат қилди.

Умуман, сўзларнинг талаффуз вариантларида қуйидаги хусусиятлар кузатилади:

сўзлар таркибида унли товушлар алмашади: direct [direct, ˈdaɪrekt] каби;

сўзлар таркибида ундош товушлар алмашади:

build – built (феъл шакллари ўзгаради);

Товушларнинг алмашинуви одатда ўзаро яқин товушлар ўртасида бўлади. Хусусан, тил олди унлилари тил олди унлиларига, тил орқа унлилари тил орқа унлиларига алмашади. Ундошлар ҳам шу тартибда алмашади: жарангли жарангсизга, портловчи портловчига, сирғалувчи сирғалувчига алмашади. Мисоллар: say – said [sei - sed], sit – sat [sit - sæt] (Баъзан fell – fall [fel – fo:l]), build – built [bild - bɪlt] каби;

Урғунинг бўғиндан бўғинга кўчиши натижасида фонологик ва морфонологик функциялар бажарилади: empire – empiric [ˈɛmpɪrɪk - ɪmˈpɪrɪk]; exhibit – exhibition [ˈɛgzɪbɪt - ɪgˈzɪbɪʃn] каби;

Бир йўла сўзнинг товуш таркибидаги бирор товуш ва урғунинг ўрни алмашади: art – artiˈfɪʃiəl [ɑ:t - ɑ:tɪfɪʃl]; moment – momentary, interest – interesting каби;

сўзнинг таркибидаги урғусиз унлилар алмашади, лекин маънога путур етмайди: economy [iˈkɒnəmi - əˈkɒnəmi].

сўзнинг урғуси бўғиндаги нейтрал унли баъзан талаффуз этилади ва баъзан тушиб қолади: London [ˈlɒnd (ə)n - ˈlɒndn]; mutton, certain.

Тил динамик хусусиятга эга, у доим ҳаракатда, яъни ривожланишда. Унинг турли яруслари, хусусан, фонетик даражада ҳам ўзгаришлар юз беради. Ўзгаришларнинг аксарияти сўз талаффуз вариантларининг пайдо бўлишига олиб келади. Бундай ўзгаришлар махсус луғатларда, яъни талаффуз луғатларида акс этиши инглиз тилининг фонетикасини, аниқроғи талаффузини чуққурроқ ўргатишга пухта замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Jones D. Cambridge English Pronouncing Dictionary edited by Peter Roach, James Hartman and Jane Setter. New edition. Cambridge University Press, 2003. – 586 p.

Kenyon J.S., Knot Th.A. A Merriam-Webster. A Pronouncing Dictionary of American English. - Springfield, Mass., U.S.A., 1953, - 484 p.

Lewis J.Windsor A Concise Pronouncing Dictionary of British and American English. – London, OUP, 1972. – 234 p.

Silverstein B. NTC's Dictionary of American English Pronunciation. National Textbook Company. A Division of NTC Publishing Group. – Lincolnwood, Illinois, USA. 1996. – 328 p.

Trask R.L. A Dictionary of Phonetics and Phonology. Routledge, N.Y. and London., 1996.

Waller L. Our American English. – N.Y.: Holt, Rinehart and Winston, 1961. – 270 p.

Wells J.C. Longman. Pronouncing Dictionary. – 3d edition. Pearson Education Limited, 2008. – 922 p.

Ландшафтный дизайн. Возникновение и развитие

Abdumominova Madina Maxamadkarimovna

Toshkent shaxar Toshkent arxitektura-qurilish

Instituti Arxitekturaviy muhitlar

dizayni Magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6467804>

Аннотация: В данной статье освещены вопросы озеленения садов, придомовых территорий с помощью зеленых насаждений.

Ключевые слова: ландшафтный дизайн, благоустройству территории, сад, дизайн, убранство дома.

С древних времён сады являлись традиционной формой организации окружающего пространства с помощью зелёных насаждений. Особую популярность они получили при дворах правителей и вельмож стран Востока. Далее садоводство как искусство распространилось практически повсеместно. При этом долгое время важную роль играла утилитарность садоводства (потребление фруктов и селекция фруктовых деревьев), позднее большее внимание получила декоративность цветов. Но ни фруктовые деревья, ни цветы не имеют столь широкого распространения в современном ландшафтном дизайне, особенно в его современной урбанистической форме. Ландшафтный дизайн — понятие собственно XX века. Термин возник в Западной Европе, в густонаселённых и индустриально развитых странах: Великобритания, Германия, где массовая индустриализация и рост пригородов быстро привели к давлению на окружающую среду.

Ландшафтный дизайн – особый вид деятельности, направленный на создание искусственной среды для жизнедеятельности человека путем активного использования природных компонентов – рельефа, воды, растительности и т. д. Главная цель ландшафтного дизайна - создание благоприятной для человека пространственной среды, обладающей функциональными, эстетическими и экологическими свойствами. Приоритетными являются эстетические факторы. Основой композиции произведений ландшафтного дизайна являются рельеф (как геопластический элемент), растительность, вода, воздух (как элемент пространственной и

глубинной перспективы). Основными композиционными элементами ландшафтного дизайна являются пространство, растительность, постройки, водоемы, цвета окрасок, свет, тень, явления воздушной и линейной перспективы. Композиционные факторы, от соблюдения которых зависит впечатление, производимое произведениями ландшафтного дизайна – это главенство, масштабность, гармония, контраст. Основные отличия ландшафтного дизайна от других видов искусств:

- основой композиции произведений ландшафтного дизайна является природа (растительность, рельеф, земля, вода, воздух, камень и пр.);
- основной строительный материал – растительность – живой, постоянно изменяющийся организм.

Любая композиция ландшафтного дизайна является динамической структурой, которая меняется на протяжении времени. В процессе создания ландшафтного объекта возникает синтез естественных элементов ландшафта и искусственных форм, т. е. создается новый вид ландшафта.

Ландшафт – природно-территориальный комплекс, ограниченный естественными рубежами и характеризуемый определенным внешним обликом. Не стоит путать понятия «ландшафт» и «пейзаж», хотя оба они в переводе с немецкого и французского означают «вид местности». «Ландшафт» - географический термин, определяющий своеобразие природного облика обособленного географического района. «Пейзаж» - термин, применяемый в живописи, обозначающий участок местности, охватываемый взглядом человека. Существуют пять основных ландшафтных

компонентов - это земная кора (рельеф), воздух, вода, флора и фауна. Шестым компонентом можно считать человека. Поверхность земли имеет разнообразный рельеф. Этот рельеф соответственно обтекается воздушными потоками, а также диктует распределение воды. В результате складывается местная климатическая характеристика участка с определенным растительным и животным миром. Рельеф - «скелет» ландшафта. Его изменения неизбежно вызывают изменения во всех остальных компонентах. Ландшафты подразделяются на естественные (природные) и антропогенные. Естественные ландшафты образовались в ходе естественного развития природной среды и не несут следов деятельности человека. На современном этапе развития это понятие можно применять достаточно условно, т. к.

нет на планете участка, основные ландшафтные компоненты которого не были бы затронуты бурной деятельностью человека. Антропогенные ландшафты состоят из взаимодействующих естественных и искусственных компонентов и формируются под влиянием деятельности человека. В эпоху устойчивых ландшафтных преобразований сформировалось понятие урбанизированного ландшафта. Таким являются городской, сельский, промышленный, рекреационный ландшафты. Объекты ландшафтного дизайна представляют собой синтез природы и

различных видов искусств, связанных с историческими стилями,

выражающими изменяющиеся в каждую эпоху эстетические идеалы.

Парадигма – господствующий в какую-либо данную эпоху взгляд на язык, культуру, профессию, науку, искусство, мироустройство, связанный с

определенным философским течением, определенным направлением в искусстве. Парадигма связана с определенным стилем мышления в науке и стилем в искусстве. Содержание этого понятия – явление историческое. Смена парадигм – ситуация периодически складывающаяся в культуре и определяющая взрывной характер ее развития. Парадигма определяет стиль мышления в науке и стиль в искусстве. Для дизайна и то и другое важно, ибо он существует на стыке научного и художественного освоения действительности. На ранних этапах развития общества наблюдалась прямая зависимость планировочной структуры ландшафтных объектов от природно-климатических условий. С системой орошения, обеспечивающей благоприятный микроклимат, связана планировка египетского или персидского сада. Наряду с этим уже тогда сформировались приемы, учитывающие эстетические факторы – украсить, изменить пустынный ландшафт с помощью геопластики, водных сооружений и применения богатого ассортимента растительности. В античный период воплощается идея гармонизации окружающей среды с использованием средств ландшафтного дизайна – демонстрация великолепной связи архитектуры с природой, гармония элементов искусственно созданной среды. Тесной взаимосвязью природных и архитектурных форм отличаются древнеримские сады. Тенденция подчинения ландшафтных объектов утилитарным требованиям господствует в Европе в средневековый период. Понимание садово-паркового искусства в средневековой Азии значительно отличается от европейского. В Китае созданы самые разнообразные виды садов: при императорских дворцах и гробницах, домашние сады, сады ученых и многие другие, которые воплощают особый мир тишины, покоя, красоты природы. В

Японии с течением времени сады меняют свои эстетические приемы формирования. Вначале это была пышность, декоративность и многоцветие, позже под влиянием философии

нравственного очищения и простоты – лаконичность, символизм, сдержанная цветовая гамма. Европейское Возрождение и барокко демонстрируют шедевры геопластики, сложные водные сооружения, смелое использование растительного материала (топиарное искусство) – знаменитые «итальянские сады». В период французского классицизма наблюдается торжество регулярного стиля. Создание искусственных ландшафтов, топиарное искусство достигают своего апогея. Эпоха Просвещения несет новую тенденцию – подражание природе. Природа является основным элементом формообразования ландшафтного объекта. На смену регулярному приходит пейзажный стиль. Последующие столетия отмечены появлением большого количества общественных парков и садов, в том числе и специализированных, увлечением разнообразными мотивами исторических стилей и эпох. Решение эстетических задач становится подчиненным социальным требованиям. Основными стилевыми направлениями становятся регулярное и пейзажное.

Использованная литература:

Гарнизоненко Т. С. Справочник современного ландшафтного дизайнера. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2005. — 313 с. — (Строительство и дизайн). — ISBN 5-222-06328-3. — УДК 71(035.3)

Доронина Н. Ландшафтный дизайн. — Фитон+, 2006. — 144 с. — ISBN 5-93457-088-9.

МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Дилафруз Махмудова Салижоновна

преподаватель Кокандского государственного

педагогического института

Исмаилова Нафиса

студентка Кокандского государственного

педагогического института

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517179>

Аннотация: В данной статье представлена информация о методике преподавания русского языка.

Ключевые слова: русский язык, методика обучения, образование, учебный материал, учебный процесс, методика, учитель.

Annotation: This article provides information about the methods of teaching the Russian language.

Key words: Russian language, teaching methodology, education, educational material, educational process, methodology, teacher

Вопрос о методах обучения был спорным и в дидактике, и в философии, и в лингвометодике. Существуют разные точки зрения на обоснование и классификацию методов обучения. В дидактике характеризуют метод с точки зрения познавательной деятельности учащихся, которую организует учитель: «Методы обучения – это способы совместной деятельности учителя и учащихся, направленные на решение задач обучения, то есть дидактических задач» - такое определение дано в учебном пособии «Педагогика» (1996). В философии метод определяется как «способ достижения определенных результатов в познании и практике». В методике преподавания русского языка как неродного нет единого определения метода. Приведем два определения: 1) метод обучения – это система приемов, посредством которых учитель преподает, а учащиеся усваивают основу наук, предусмотренных учебной программой; 2) под методами принято понимать способы обучения и способы работы учащихся, при помощи которых достигается усвоение

знаний русского языка и приобретаются необходимые навыки в практике речи.

Различаются следующие методы обучения: натуральный (прямой), сравнительный (переводно-грамматический), комбинированный (смешанный). В 60-е годы утверждается сознательно-практический метод. В 80-е годы возникли аудиовизуальный, программированный методы. Согласно натуральному методу учащиеся усваивают второй язык без учета особенностей родного языка, то есть создаются непосредственные прямые ассоциации между предметом и словом, значением грамматических категорий и их формами, минуя лексический и грамматический строй родного языка учащихся. Однако новый язык усваивается учащимися с помощью родного языкового сознания. Невозможно механически исключить родной язык обучающихся. Поэтому методика обучения русскому языку нерусских не может строиться без учета родного языка учащихся. Согласно сравнительному методу изучение русского языка предполагает его сопоставление с родным. Основоположниками этого метода были В. В. Радлов, К. Насыри. переводный метод требует постоянного обращения к родному языку. Однако не во всех случаях это уместно. Недостатком переводного метода является то, что учащиеся постоянно находятся в атмосфере родного, а не изучаемого языка. Комбинированный (смешанный) метод как наиболее эффективный из имеющихся методов обучения получил признание в работах Н. А. Бобровникова, В. А. Богородицкого, В. М. Чистякова и др. Он в определенной степени комбинирует натуральный и сопоставительный методы. Чтобы реализовать комбинированный метод,

учитель должен в совершенстве владеть русским языком и знать особенности родного языка учащихся. В 80-е годы возник аудиовизуальный метод (обучение языку в сжатые сроки на ограниченном лексико-грамматическом материале. При интенсивном использовании средств зрительной и слуховой наглядности), программированный метод (оптимальное деление материала на порции и постепенное привитие умений и навыков через соответствующее распределение логических операций). В последние десятилетия основополагающей методической категорией был провозглашен коммуникативный метод обучения, который согласуется с существующими методами или их синтезом. В современной дидактике и методике имеются и разные классификации методов обучения в узком понимании.

По источнику получения знаний учащихся: слово учителя, беседа, анализ языка (наблюдение над языком, грамматический разбор, использование наглядных пособий и др.), работа с учебником, экскурсия и др. В зависимости от характера участия учащихся в учебном процессе: активные (беседы, грамматический разбор, конструирование предложений, классификация языкового материала и др.) и пассивные (списывание готового текста и др.) По характеру и месту работы учеников: устные и письменные; классные и домашние. Познавательные методы (по М. Б. Успенскому): имитационный, оперативный, коммуникативный и др. На современном этапе обучения русскому языку речь идет об использовании активных и интерактивных методов обучения. Активные методы - это форма взаимодействия учащихся и учителя, при которой учитель и учащиеся взаимодействуют друг с другом в ходе урока и учащиеся здесь не пассивные

слушатели, а активные участники урока. Если в пассивном уроке основным действующим лицом и менеджером урока был учитель, то здесь учитель и учащиеся находятся на равных правах. Если пассивные методы предполагали авторитарный стиль взаимодействия, то активные больше предполагают демократический стиль. Многие между активными и интерактивными методами ставят знак равенства, однако, несмотря на общность, они имеют различия. Интерактивные методы можно рассматривать как наиболее современную форму активных методов. Активные методы обучения — это такие методы обучения, при которых деятельность обучаемого носит продуктивный, творческий, поисковый характер. Интерактивный («Inter» – это взаимный, «act» – действовать) – означает взаимодействовать, находится в режиме беседы, диалога с кем-либо. Интерактивные и активные методы имеют много общего. В отличие от активных методов, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие обучающихся не только с преподавателем, но и друг с другом и на доминирование активности учащихся в процессе обучения.

Список литературы:

1. Антонова Е.С. Методы подготовки по русскому языку: коммуникативно-деятельный подход / Е.С. Антонова. - М.: КНОРУС, 2007. - 464 с.
2. Балыксина Т.М. Метод преподавания русского языка как

неродного (нового): Учебное пособие. - 2-е изд., испр. — М.: РУДН, 2010. — 188 с.

3.Полат Э.С. Новые педагогические и информационные технологии в образ образования / Под ред. Э.С. Полат. - М.: Издат. центр "Академия", 2002. - 272 с.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Мирзалиев Толиб Ганиевич

преподаватель Кокандского
государственного педагогического института

Хайруллаева Сарвиноз

студентка Кокандского государственного педагогического института группы
105, факультета английского языка

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6516947>

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития творческого воображения студентов, а также анализируется процесс и пути развития творческого воображения.

Ключевые слова: воображение, мышление, проявление, материальная вещь.

Abstract: This article discusses the development of students' creative imagination, as well as analyzes the process and ways of developing creative imagination.

Key words: imagination, thinking, manifestation, material thing.

В нашей стране созданы все необходимые условия для воспитания всесторонне развитого молодого поколения, что является результатом продуманных и системных реформ, проводимых в сфере молодежной политики. В частности, в первый год независимости был принят Закон «Об основах государственной молодежной политики в Республике Узбекистан», согласно которому ее приоритетными направлениями являются проявление заботы о молодежи, поддержка ее инициатив, защита личных прав и свобод молодых людей.

В целях осуществления широкого комплекса целенаправленных мер по созданию в стране необходимых возможностей и условий для воспитания здорового, гармонично развитого поколения, реализации молодежью своего творческого и интеллектуального потенциала, формированию юношей и девушек нашей страны всесторонне развитыми личностями ведутся масштабные работы.

В связи с этим сегодня в вузах особое внимание уделяется развитию мышления студентов. Успех всего обучения зависит от того, как они владеют речью: хорошее знание языка - ключ к успеху в изучении всех предметов образовательного учреждения. Особое место в работе преподавателя по развитию речи занимает обучение сочинению. Научить студенты писать сочинения правильно и красиво - большой кропотливый труд. Только повседневная работа над усвоением норм литературного языка на всех занятиях дает положительные результаты.

Сочинения и рассказы являются как раз тем наилучшим средством, которое оживляет занятия русского языка, увлекает студента, на деле показывает им богатейшие возможности языка и необходимость его тщательного изучения ради подлинного общения, ради выражения своих мыслей и чувств, ради художественного творчества. Воспитательный эффект сочинений зависит от выбора темы, от степени самостоятельности пишущего, от того, насколько его сочинение пишется сердцем, а не только пером. Сочинение помогает студентам глубже осознать свои чувства, приучает к строгому и последовательному мышлению, повышает самоуважение, развивает интерес к литературному творчеству.

Процесс воображения свойствен только человеку и является необходимым условием его трудовой деятельности. Воображение всегда направлено на практическую деятельность человека. Человек, прежде чем что-либо сделать, представляет, что надо делать и как он будет делать.

Таким образом, он уже заранее создает образ материальной вещи, которая будет изготавливаться в последующей практической деятельности человека.

Эта способность человека заранее представлять конечный итог своего труда, а также процесс создания материальной вещи, резко отличает человеческую деятельность от «деятельности» животных.

Физиологическую основу воображения составляет образование новых сочетаний из тех временных связей, которые уже сформировались в прошлом опыте. При этом простая актуализация уже имеющихся временных связей еще не ведет к созданию нового. Создание нового предполагает такое сочетание, которое образуется из временных связей, ранее не вступавших в сочетание друг с другом. При этом важное значение имеет вторая сигнальная система, слово. Процесс воображения представляет собой совместную работу обеих сигнальных систем. Все наглядные образы неразрывно связаны с ним.

Как правило, слово служит источником появления образов воображения, контролирует путь становления их, является средством их удержания, закрепления, их изменения. Воображение всегда есть определенный отход от действительности. При помощи воображения человек отражает реальную действительность, но в иных, необычных, часто неожиданных сочетаниях и связях. Воображение преобразует действительность и создает на этой основе новые образы. Воображение тесно связано с мышлением, поэтому способно активно преобразовывать жизненные впечатления, полученные знания, данные восприятия и представления.

Таким образом, развивать воображение можно разными путями, но обязательно в такой деятельности, которая без фантазии не может привести к желаемым результатам. Необходимо преподавать и такие особенности

воображения студенты, которые ярко проявляются при работе над сочинением.

Список литературы:

Супрун Л.И., Супрун Е.Г. Формирование культуры мышления бакалавров архитектуры при обучении начертательной геометрии // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. — 2013.

Энциклопедия эпистемологии и философии науки. М.: «Канон+», РООИ «Реабилитация». И.Т. Касавин. 2009.

**Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш жамиятда
жиноятчиликнинг олдини олишнинг муҳим қирраси ҳисобланади**

Нажимиддинов Сирожиддин Садриддин ўғли

Ўзбекистон Республикаси

ИИБ Академияси

кундузги таълим 3-ўқув курси

312-гуруҳ курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6518203>

Аннотация: Мазкур мақолада вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликни барвақт олини олиш чоралари, жиноят ва ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган вояга етмаганларни аниқлаш, уларни ўрганиш, таъсир этиш, уларнинг

хулқ-атворини ижобий томонга ўзгартириш, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи барча орган ва муассасалар назоратсиз, қаровсиз, ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган шунингдек девиант хулқ-атворга эга вояга етмаганларга таъсир кўрсатишга доир фаолияти, шунингдек вояга етмаганлар билан ишлашда уларнинг ўзига хос хусусиятларини, ижтимоий – маиший шароитлари ва турмуш тарзини, шунингдек содир этилган ҳуқуқбузарликларнинг ижтимоий хавфлилик масаласини тавсифловчи бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда фаолият олиб борилиши ёритилган.

Калит сўзлар: Балоғатга етмаган, девиант хулқ-атвор, назоратсиз бола, ҳуқуқбузарлик, ишонтириш, носоғлом оила.

Кириш: Халқимизда шундай гап бор, “ҳеч ким онадан жиноятчи бўлиб туғилмайди”. Дарҳақиқат боланинг носоғлом муҳитда ўсиши, ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган оилада улғайиши натижаси болада тажовузкорлик (агрессия) характери шакллана бошланади. Ҳозирги пайтда вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш долзарб муаммолардан биридир. Чунки келгуси ишларнинг давомчилари айнан ўсиб келаётган ёш авлоддир, улар давлатнинг келажагини ҳамда эртанги куни ва тақдирини белгилайди. Вояга етмаганлар қаровсизлиги ва жиноятларининг олдини олиш давлат сиёсати даражасида ҳал этилиши амалдаги қонун ва қонун ости меъёрий ҳужжатларида мустаҳкамлаб қўйилган.

Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликни олдини олишда вояга етмаган билан яқка тартибдаги профилактика иши олиб борилиши мақсадга мувофиқдир.

Ички ишлар органлари ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаган билан якка тартибдаги профилактика ишини унинг шахси ва

ён-атрофидагиларининг ўзига хос хусусиятларини, содир этилган ҳуқуқбузарлик ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатларнинг хусусиятини, оилавий тарбия шароитларини ҳисобга олган ҳолда олиб боради. Ушбу ҳолатлар вояга етмаган, унинг ота-онаси ёки ота-она ўрнини босувчи шахслар, бошқа шахслар билан профилактика суҳбатлари ўтказиш, вояга етмаганни унинг яшаш, ўқиш жойига бориб кўриш, тавсифловчи материалларни ўрганиш давомида аниқланади.

Ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаган билан якка тартибдаги профилактика ишини олиб бориш давомида:

- вояга етмаганнинг турмуш тарзи, алоқалари ва нияти аниқланади;
- вояга етмаганга ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар содир этишининг оқибатлари тушунтирилади;
- вояга етмаганнинг ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар содир этиши сабаблари ва шарт-шароитлари аниқланади ҳамда уларни бартараф этишга доир чора-тадбирлар кўрилади;
- вояга етмаганни ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатларни содир қилишга жалб этаётган шахслар аниқланади ва уларни белгиланган тартибда жавобгарликка тортишга доир чора-тадбирлар кўрилади;

– вояга етмаганга ижобий таъсир кўрсатишга қодир бўлган шахслар жалб этилади;

– вояга етмаганларни таъминлаш, тарбиялаш ва уларга таълим бериш бўйича ўз мажбуриятларини бажаришдан бўйин товлаётган ёки лозим даражада бажармаётган ёхуд уларнинг хулқ-атворида салбий таъсир кўрсатаётган ёки улар билан шафқатсиз муомалада бўлаётган ота-оналар ёки ота-она ўрнини босувчи шахсларга нисбатан қонун ҳужжатларида назарда тутилган таъсир чораларини қўллаш тўғрисида тегишли давлат органлари ва бошқа ташкилотларга белгиланган тартибда таклифлар киритилади.

Ўзига нисбатан якка тартибдаги профилактика иши олиб борилаётган вояга етмаганлар, уларнинг ота-онаси ёки ота-она ўрнини босувчи шахслар қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳуқуқлар билан таъминланади.

Вояга етмаганларга нисбатан якка тартибдаги профилактика ишини олиб боришда унинг қай даражадаги ёки кўринишдаги ижтимоий жиҳатдан хавfli аҳволда эканлигига қараб ишни ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Бу эса ушбу вояга етмаганнинг якка тартибдаги профилактикаси билан шуғулланувчи субъектлардан мавжуд ҳолатни инобатга олиб ўзига хос равишда иш олиб боришни, болага таъсир кўрсатишни талаб этади.

Х У Л О С А

Жинойтчиликни олдини олиш учун болани бўш вақтини тўғри ташкиллаштириш, унга доимий эътиборда бўлиш болани салбий ҳатти-

харакат содир этишига йўл қўймайди десак тўғри бўлади. Бола вақтни беҳуда ва мазмунсиз ўтказишига болада ўқиш, меҳнат, касб, умуман олганда, ижтимоий фойдали бирор нарсага қизиқишнинг йўқлиги, ота-онанинг болани назоратсиз, қаровсиз қолдирилиши, бефарқлиги натижасида унинг кун тартибини қизиқарли ташкил қилмаслиги, ота-онанинг ҳаддан ташқари меҳнат фаолияти билан бандлиги, уларнинг бола тарбиясига вақт ажрата олмаслиги, оила ва мактабда боланинг ижтимоий фойдали машғулотларга, жумладан тўғаракларга жалб қилинмаслиги сабаб бўлиши мумкин.

Ота-она ёки унинг ўрнини босувчи шахслар боланинг бўш вақтини мазмунли ўтказиши учун болани доимий назоратда тутиб, ўқиш ва ишдан бўш вақтларида қандай машғулотлар билан машғул бўлиши, бу вақтларни кимлар билан ўтказишини назорат қилиб бориши, биринчи навбатда ўзи ёки зарур деб ҳисобланса, педагог ёки мутахассис психолог ёрдамида боланинг қизиқиши, қобилияти ва истеъдодини аниқлаши, қизиқиши, қобилияти ва истеъдодига қараб, болани мактабдаги, мактабдан ташқари маданият муассасаларидаги ва маҳаллаларда ташкил этилган турли хил тўғараклар, спорт машғулотлари ҳамда кичик ва ўрта бизнес шохобчаларига касб ўрганишга жалб қилади, ёзги таътил вақтида болани лагер ва оромгоҳларга юбориш орқали уларнинг ижтимоий фойдали машғулотлар билан банд бўлишини таъминлаши зарур.

Ф О Й Д А Л А Н И Л Г А Н А Д А Б И Ё Т Л А Р Р Ў Й Х А Т И

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Т., 2021 йил.

2.Хуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти психологияси. Дарслик.
ИИВ Академия.

3.Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини
олиш: Ўқув-амалий қўлланма.И. Исмаилов, М. Зиёдуллаев, Н.Исраилова,
Ф.Азимова.

Пробация бўлими фаолиятини ташкил этиш

Норматов Дониёрбек Бахтиёр ўғли

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6520618>

Аннотация: Маколада пробация бўлими фаолиятини ташкил этиш, пробация хизмати соҳасига чет эл тажрибаси ютуқларини жорий етш бўйича бир қатор таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сузлар: пробация, ички ишлар, жазони ижро этиш, органлар.

Аннотация: В статье содержится ряд предложений по организации службы пробации, внедрению зарубежного опыта в сфере службы пробации.

Ключевые слова: условное осуждение, органы внутренних дел, исполнение приговора, органы внутренних дел.

Annotation: The article contains a number of proposals for the organization of the probation service, the introduction of foreign experience in the field of the probation service.

Key words: suspended sentence, internal affairs bodies, sentence execution, internal affairs bodies.

Худудий ички ишлар органлари раҳбарларининг пробация ва жазони ижро этиш масалалари бўйича ўринбосарлари Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазири томонидан тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси ички ишлар вазири, Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси ва вилоятлар ички ишлар бошқармалари бошлиқларининг Ички ишлар вазирининг ўринбосари - Жазони ижро этиш бош бошқармаси бошлиғи билан келишилган такдимига мувофиқ лавозимга тайинланади ва лавозимдан озод этилади.

Пробация бўлими бошлиғи Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг ўринбосари - Жазони ижро этиш бош бошқармаси бошлиғи томонидан тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси ички ишлар вазири, Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси ва вилоятлар ички ишлар бошқармалари бошлиғининг Пробация хизмати бошлиғи билан келишилган такдимига мувофиқ лавозимга тайинланади ва лавозимдан озод этилади.

Худудий ички ишлар органлари раҳбарларининг пробация ва жазони ижро этиш масалалари бўйича ўринбосари (ушбу лавозим мавжуд бўлмаган худудий ички ишлар органларида - пробация бўлими бошлиғи):

пробация бўлими фаолиятига бевосита раҳбарликни амалга оширади;

пробация бўлими зиммасига юклатилган вазифалар, функциялар ва мажбуриятларнинг лозим даражада бажарилиши учун шахсан жавоб беради;

пробация бўлими ходимлари ўртасида функционал вазифаларни тақсимлайди, улар зиммасига юклатилган мажбуриятларнинг бажарилиши устидан назоратни амалга оширади;

пробация бўлимнинг иш режалари ва бошқа ҳужжатларини тасдиқлайди;

кадрларни танлаш, жой-жойига қўйиш, лавозимга ўтказиш ва уларнинг касбий тайёргарлигини ҳамда хизмат интизомига риоя этилишини ташкил қилади;

пробация бўлими ходимларини ўрнатилган тартибда қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш бўйича ишларни ташкил қилади;

пробация бўлими ходимларига махсус унвонлар бериш, рағбатлантириш, шу жумладан, мукофотлаш ҳамда уларга интизомий жазолар қўллаш ҳақида ўрнатилган тартибда таклифлар киритади;

пробация бўлимида ўрнатилган тартибда сафарбарлик тайёргарликни ташкил этади ва таъминлайди, шунингдек, фуқаро муҳофазаси бўйича тадбирларнинг бажарилишини таъминлайди;

пробация бўлимида махфийлик режимида риоя этилиши, шу жумладан ахборотнинг техник ҳимояси бўйича тадбирларнинг ташкил этилиши учун жавоб беради;

пробация бўлинмалари (гуруҳлари) фаолияти устидан назоратни амалга оширади, улардаги ходимлар ҳаракатларининг қонунга мувофиқлиги юзасидан жисмоний ва юридик шахсларнинг муурожаатлари бўйича, шунингдек, ходимлар томонидан қонун бузилишининг ҳар бир аниқланган ҳолати бўйича ўрнатилган тартибда текширувлар ўтказилишини таъминлайди;

пробация бўлими зиммасига юклатилган вазифалар ва функциялардан келиб чиққан ҳолда қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга оширади.

Пробация бўлими ва бўлинмалари (гуруҳлари) ходимлар Қорақалпоғистон Республикаси ички ишлар вазири, Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси ва вилоятлар ички ишлар бошқармалари бошлиқлари томонидан тегишли ҳудудий ички ишлар органлари раҳбарининг пробация ва жазони ижро этиш масалалари бўйича ўринбосари (пробация бўлими бошлиғи)нинг такдимига мувофиқ лавозимга тайинланади ва лавозимдан озод этилади.

Туман (шаҳар) ички ишлар органлари пробация бўлинмалари (гуруҳлари)нинг шахсий таркиби улар зиммасига юклатилган вазифаларни бажаришда, қоида тариқасида, бир нафар ходимга шаҳарларда -100, туманларда - 75 нафар маҳкум ҳисобидан келиб чиқиб тақсимланади.

Пробация бўлими ва бўлинмалари (гуруҳлари) устуворлик асосида ижтимоий, педагогика ва профилактика соҳаларида иш тажрибасига эга бўлган офицерлар таркибидаги малакали ходимлар билан жамланади.

Катта амалий иш тажрибасига эга бўлган ва хизматдан салбий ҳолатларга кўра бўшатилмаган ички ишлар органларининг пенсионерлари, пенсияси тўлиқ миқдорда туланиши сақланган ҳолда, пробация бўлими ва бўлинмалари (гуруҳлари) ходимлари лавозимига аттестациядан ўтган лавозим ҳисобидан тайинланиши мумкин.

Пробация бўлими ва бўлинмалари (гуруҳлари)ни махсус воситалар, техника ва бошқа моддий-техника воситалари ҳамда мулк билан таъминлаш ўрнатилган тартибда амалга оширилади.

Раҳбарий адабиётлар:

Мирзиёев Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” Т-2017й.

Мирзиёев Ш. М. “ Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”. 2017. –Б. 332.

Каримов И.А. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. 2010 йил 12 ноябрь / И.Каримов. -Т: «Ўзбекистан», 2010.

Мирзиёев Ш.М. “Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир”. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидани маърузаси / Халқ сўзи. – 2016. – 3 ноябрь

Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. «Ўзбекистон» – Т., 2017.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Ижтимоий барқарорликни таъминлаш муқаддас динимиз софлигини асраш давр талаби анжуманида сўзлаган нутқи.Т.2017 йил 15 июнь.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Конституциянинг 25 йиллигига бағишланган нутқи. Постда 2017.

Шавкат Мирзиёев: « Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир» Ўзбекистон республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. Постда 2019.

Жазони ижро этиш тизимида олиб борилаётган ислохотлар

Нурмухамматов Бунёд Фарход ўгли

IV Академияси кундузги таълим 3- уқув курси 325- гуруҳ курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6520916>

Бугунги кунга келиб маҳкумларни ахлоқан тузатиш, уларнинг жиноий фаолиятининг олдини олиш, шунингдек, бошқа шахслар томонидан жиноят содир этилишига чек қўйиш масаласи деярли барча мамлакатларнинг диққат марказида бўлиб турибди. Халқаро ҳуқуқий манбаларда озодликдан маҳрум қилиш жазосига муқобил жазоларни жорий этиш масаласида, қонунчиликни тубдан ислоҳ қилиш зарурлиги аксарият олимлар томонидан ҳам қайд этилиб келинаётганлиги озодликдан маҳрум қилиш жазосига муқобил жазоларни қўллаш ва ижро этиш самарадорлигини ошириш йўли билан жиноятчиликни олдини олиш бўйича самарали чоралар ишлаб чиқилишини долзарблигини исботлайди

Бутун ер юзида озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни кенгроқ қўллаш орқали озодликдан маҳрум қилиш жойларида сақланаётган маҳкумлар сонини камайтириш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Халқаро экспертларнинг маълумотларига кўра, жазони ижро этиш муассасаларида бугунги кунда 11 млндан ортиқ маҳкумлар сақланади. Бу кўрсаткич ҳар йили 1 фоизга ошиб бормоқда. Бугунги кунда содир этилаётган рецидив жиноятчиликнинг юқори даражаси озодликдан маҳрум қилиш жойларида сақланганлар ҳиссасига тўғри келмоқда. Озодликдан маҳрум қилиш муассасаларда маҳкумлар ҳуқуқларининг паймол этилиш имкониятининг кенглиги ҳамда ҳар бир маҳкумга сарфланган харажатлар

иқтисодий жихатдан қимматга тушаётганлиги ушбу жазога муқобил жазоларни қўллаш ва ижро этиш самарадорлигини оширишга қаратилган янги механизмларни ишлаб чиқиш долзарб эканлигини кўрсатмоқда

**О ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ДВУХ ТИПОЛОГИЧЕСКИ РАЗНЫХ ЯЗЫКОВ
- РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

1. Мирзалиева Дилфуза Саминовна

преподаватель Кокандского государственного
педагогического института

2.Бакиржонова Нигора Аброржон кизи

Студентка1 курса факультета истории Кокандского государственного
педагогического института

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6517218>

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы взаимодействия двух языков – русского и узбекского языков, а также анализируется процесс заимствования в условиях русско-узбекского языков.

Ключевые слова: этнические, контактирование, биглоты, билингвизм, типологически, заимствованные слова.

Abstract. Russian and Uzbek languages are considered in this article, as well as the process of borrowing in the conditions of Russian–Uzbek is analyzed.

Key words: ethnic, contacting, biglots, bilingualism, typologically, borrowed words.

Узбекистан в этнолингвистическом и демографическом отношении представляет собой пёструю картину. В его пределах проживают представители около 120 национальностей и народностей. В среде

